

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

G.S. ABDULAZIZOVA, A.A. ABDULAZIZOV

**POCHTA XIZMATI
XAVFSIZLIGI**

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

UO‘K: 656.801(075)

KBK: 65.38

A 15

*Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi ilmiy-metodik
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi
Kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

O‘quv qo‘llanmani tayyorlash davomida pochta xavfsizligi masalalari bo‘yicha mavjud o‘quv-uslubiy hujjatlar, chet el tajribasi, shuningdek, O‘zbekistonda pochta xavfsizligini tashkil qilish tajribasini hisobga olgan holda pochta xavfsizligi nuqtayi nazaridan pochta jo‘natmalarini nazorat qilishning zamonaviy tizimlari va vositalarini qo‘llash materiallari, pochta jo‘natmalarining yo‘qolishlari faktlari bo‘yicha xizmatga oid tekshiruvlarni o‘tkazish hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazoratni amalga oshirish metodlari, O‘zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlash-tirish va telekommunikatsiya texnologiyalari hamda «O‘zbekiston pochta» AJ tomonidan tasdiqlangan pochta xavfsizligi masalalariga doir normativ hujjatlar bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazildi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma kollej o‘quvchilari uchun o‘quv va ma’lumot qo‘llanmasi sifatida mo‘ljallangan.

T a q r i z c h i l a r: **I. N. MALIKOV** — «O‘zbekiston pochta» aksiyadorlik jamiyati pochta xavfsizligi bo‘limi boshlig‘i.

G. N. NAZAROVA — Toshkent aloqa kasb-hunar kolleji bosh o‘qituvchisi, falsafa fanlari doktori.

KIRISH

XX asrning oxiridan boshlab «xavfsizlik» soʻzi barcha tarmoqlarda, shu jumladan, pochta ham ustuvor tushunchaga aylandi. Keyingi vaqtda unga alohida ahamiyat berilmoqda.

UPI Vashington kongressi UPIga aʼzo-mamlakatlarning tashvishini hisobga olib, 1989-yilda pochta xavfsizligini rivojlantirish dasturini ishlab chiqib, tasdiqladi va pochta xavfsizligi xalqaro tarmogʻining yaratilishiga asos soldi. Xavfsizlik tufayli pochta xizmatlari taqdim etiladigan xizmatlar sifatini, pochta aloqasi tizimlarining ishonchliligi va butunligini oshirishning real quroliga ega boʻlishdi. UPI tashabbuslari va tavsiyalarini amalga oshirgan holda, AMH aloqa maʼmuriyatlari mintaqaviy pochta xavfsizligi tarmogʻini yaratishga kirishdilar. Mintaqaviy pochta xavfsizligi tarmogʻi tarkibiga Ozarbayjon, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Litva, Moldova, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina va Oʻzbekiston Respublikasining pochta maʼmuriyatlari kirdi.

Mintaqaviy pochta xavfsizligi tarmogʻi milliy pochta xavfsizligi boʻlinmalaridan iborat, ularning rahbarlari pochta maʼmuriyatlarining vakillari boʻlib hisoblanadi va ularga AMH ishtirokchi-mamlakatlar oʻrtasida xalqaro pochta almashinuvining saqlanishi va xavfsizligini taʼminlash masalalaridagi oʻzaro ishlash vakolatlari berilgan.

Pochta xavfsizligini taʼminlash boʻyicha bu ishni muvofiqlashtirish uchun manfaatdor pochta maʼmuriyatlarining vakillarini birlashtiruvchi AMH PXHG tashkil etildi, ularning vazifasiga:

— birgalikdagi chora-tadbirlarni joriy va istiqbolli rejalashtirish;

— xalqaro pochta xavfsizligi masalalari bo'yicha milliy pochta xavfsizligi xizmatlarining o'zaro ishlashini muvofiqlashtirish;

— inspektorlarni tayyorlash bo'yicha kurslar va seminarlarni tashkil qilish kiradi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, ko'rsatib o'tilgan ishchi guruh pochta xavfsizligi va tijorat munosabatlarining kriminallasuvi bir paytlar an'anaviy tinch bo'lib hisoblangan pochta tarmog'iga ham yetib kelganligidan dalolat beruvchi orttirilgan xalqaro tajribadan foydalanish sohasida yangi tashabbuslarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha funksiyalar berilgan muvofiqlashtiruvchi struktura bo'lib hisoblanadi. Pochta jo'natmalari va pul mablag'larining o'g'irlanishi, qalbaki pochta to'lovi belgilarini ishlab chiqarish va sotish, pochta oqimlaridan xavfli tovarlarni jo'natish uchun foydalanish, avtotransport va pochta bo'limlariga hujum qilish — bu pochtaga qarshi jinoyatlarning tugal bo'lmagan ro'yxati.

Dunyodagi deyarli barcha pochta xizmatlari, shu jumladan, AMH pochta ma'muriyatlari bugungi kunda aynan shunday muammolarga duch kelmoqdalar, bu milliy pochta xavfsizligi milliy strukturalari, keyinroq esa mintaqaviy tarmog'ining yaratilishiga sabab bo'ldi.

Pochta aloqasining xavfsiz va uzluksiz ishlashini ta'minlash, pochta aloqasidan terroristik maqsadlarda foydalanish hollarini aniqlash va oldini olish, shuningdek, pochta jo'natmalarining saqlanishini nazorat qilish maqsadida 2001-yilda hukumat tomonidan «O'zbekiston pochta» DAK tarkibida PXX tashkil etildi.

Ushbu o'quv qo'llanmaning maqsadi talabaga pochta aloqasi obyektlari binolari va inshootlarining, shaxsiy tarkibi, uskunasi, pochta jo'natmalari, moliyaviy mablag'lari va

moddiy zaxiralarining xavfsizligini ta'minlashga tegishli prinsiplarni chuqur anglab yetishiga yordam berishdan iborat. Barcha holatlarda qo'llash mumkin bo'lgan qoidalarni tavsiflab berishning imkoniyati yo'q, sababi xavfsizlikni ta'minlash talablari doimiy o'zgarib turuvchi bosqichdadir. Ushbu o'quv qo'llanmani ishlab chiqishda UPI va «O'zbekiston pochta» Ochiq aksiyadorlik jamiyatining pochta xavfsizligi masalalari bo'yicha normativ hujjatlaridan foydalanildi.

TA'RIF VA QISQARTMALAR

Ushbu qo'llanmada quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

CM — connection manager (ulanishlar dispetcheri)

MB — ma'lumotlar bazasi

UTB — uzluksiz ta'minot bloklari

PM — portlovchi moddalar

UPI — Umumjahon pochta ittifoqi

DAK — davlat aksiyadorlik kompaniyasi

PXHG — pochta xavfsizligi bo'yicha harakatlar guruhi

PTDB — pochta to'lovining davlat belgilari

FM — fuqarolik muhofazasi

DBQ — Davlat bojxona qo'mitasi

YOG — Yevrosiyo jinoyatdan olingan daromadlarni
legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga
qarshi kurashish guruhi

KA — konfidensial axborot

KKT — korporativ-kompyuter tarmog'i

NO'P — nazorat-o'tkazish punkti

KSHM — komanda-shtab mashg'ulotlari

IIV — Ichki ishlar vazirligi

XVF — Xalqaro valuta fondi

FVV — Favqulodda vaziyatlar vazirligi

AJ — aksiyadorlik jamiyati

OM — obyektidagi mashqlar

SHK — shaxsiy kompyuter

MQP — markazlashtirilgan qo'riqlash punkti

AMH — aloqa sohasidagi mintaqaviy hamdo'stlik

PXX — pochta xavfsizligi xizmati

Ushbu qo‘llanmada quyidagi atamalar tegishli ta’riflari bilan qo‘llaniladi:

— **vagon tipidagi kuzovli avtomobil** — yaxlit metall yopiq kuzovli yuk-yo‘lovchi tashuvchi avtomobil, unda haydovchi kabinasi tarkibiy jihatdan kuzovning qolgan qismidan ajratilmagan;

— **kuzov-furgonli avtomobil** — kabinasi ajratilgan yopiq kuzovli yuk tashuvchi avtomobil;

— **furgon tipidagi avtomobil** — muayyan yuklar va yo‘lovchilarni tashish uchun mo‘ljallangan yopiq kuzovli yuk yoki yuk-yo‘lovchi tashuvchi avtomobil;

— **viloyatichi pochta yo‘nalishi** — viloyat pochta almashinuvi punktini viloyat pochta aloqasining tumanlararo, tuman, shahar bog‘lamalari bilan bog‘lovchi pochta yo‘nalishi;

— **shahar pochta yo‘nalishi** — bitta shahardagi pochta aloqasi obyektlarini bog‘lovchi pochta yo‘nalishi;

— **almashtirish** — pochta jo‘natmasidagi joylanmani boshqa buyumlar bilan yoki bir ro‘yxatga olingan jo‘natmaning boshqa jo‘natma bilan almashtirilishi;

— **tovush signal qurilmasi** — transport vositasiga begona shaxslar kirgan holda militsiya xodimlari va boshqa shaxslarning e‘tiborini tortish maqsadida maxsus tovush signalini uzatish moslamasi;

— **ajralib turuvchi ranglar** — transport vositalari tashqi yuzalarining eng kichik rangli maydonlarini egallovchi rangning belgilangan normasiga ega rangli sxema elementlari qoplamalarining aksent ranglari. Ajralib turuvchi ranglar asosiy ranglardan o‘zaro rangni qabul qilishning uchta parametrlari (rang toni, to‘yinganligi, yorqinligi) bo‘yicha farqlanadi va rangli sxema elementlari o‘rtasida rang kontrastining turli darajasini hosil qiladi;

— **pochta jo‘natmalari va pochta buyumlarini nazorat qilish** — pochta jo‘natmalarida jo‘natilishi taqiqlangan buyumlar va buyumlarni aniqlash maqsadida texnik nazorat qilish

vositalarini qoʻllagan holda, koʻzdan kechirish vositasida pochta joʻnatmalarini tekshirish;

— **konfidensial axborot** — davlat siri hisoblanmaydigan maʼlumotlardan iborat, ammo oshkor etilishi korxona manfaatlariga maʼlum zarar yetkazishi mumkin boʻlgan elektron va qogʻoz koʻrinishidagi axborot. KA bilan ishlashga korxona xodimlari ichidagi cheklangan shaxslar doirasi qoʻyiladi, u boshqa shaxslar tomonidan foydalanish uchun moʻljallanmagan, korxona rahbarining ruxsati olingan holatlar bundan mustasno;

— **magistral pochta yoʻnalishi** — xalqaro pochta tarmogʻi pochta almashinuv punktlari, shu jumladan, xalqaro pochta almashinuv punktlari bilan bogʻlovchi pochta yoʻnalishi;

— **xalqaro pochta tarmogʻi** — xalqaro pochta almashinuvi joyi boʻlib hisoblangan, xalqaro pochta, kuryerlik joʻnatmalarini joʻnatish, topshirish, pochta tarmogʻi biriktirilgan magistral yoʻnalishlar boʻyicha tashish, tranzit, chiquvchi va keluvchi pochta almashinuviga ishlov berish, shuningdek, foydalanuvchilarga pochta aloqasi xizmatlarini taqdim etishni amalga oshiruvchi pochta aloqasi milliy operatorining tarkibiy boʻlinmasi;

— **tumanlararo pochta yoʻnalishi** — qoʻshni tumanlarning pochta aloqasi obyektlarini bogʻlovchi pochta yoʻnalishi;

— **pochta aloqasining milliy operatori** — Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan zimmasiga Oʻzbekiston Respublikasi doirasida majburiy ravishda universal xizmatlar koʻrsatish vazifasi yuklatilgan pochta aloqasi operatori;

— **kamomad** — pochta joʻnatmalari kerakli miqdorining yoʻqligi;

— **ruxsatsiz foydalana olish** — resurslardan noqonuniy foydalanish yoki tarmoq obyektlariga ruxsatsiz (shu jumladan, tarmoqni boshqarish axborotiga) taʼsir koʻrsatish maqsadida masʼul shaxslarning ruxsatsiz apparat-dasturiy taʼminotdan,

tarmoqda aylanuvchi foydalanuvchi ma'lumotidan va tarmoqni boshqarish ma'lumotidan foydalana olish;

— **pochta aloqasi obyektlari** — pochta aloqasi operatorlarining alohida bo'linmalari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog'lamalari, bo'limlari, punktlari, shuningdek, boshqa bo'linmalar);

— **pochta aloqasi bo'limi** — foydalanuvchilarga pochta aloqasi xizmatlarini, boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatuvchi, pochtaga ishlov berish va uning almashinuvini amalga oshiruvchi pochta aloqasi obyekti;

— **pochta aloqasi operatori** — mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida pochta aloqasi tarmog'iga egalik qiluvchi va faoliyatning asosiy turi sifatida pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxs;

— **asosiy ranglar** — transport vositalari tashqi yuzalarining eng katta rang maydonini egallovchi rangning belgilangan normasiga ega qoplamalar rangi;

— **olib boradigan pochta yo'nalishi** — pochta aloqasi obyekti (tuman yoki shahar pochta aloqasi bog'lamasi, pochta aloqasi bo'limi, pochta almashinuv punkti)ni pochta almashinuvi amalga oshiriladigan temiryo'l stansiyasi, aeroport bilan bog'lovchi pochta yo'nalishi;

— **pochta** — pochta, kuryerlik jo'natmalari va pochta buyumlarining majmuyi;

— **pochta jo'natmalari** — manzili ko'rsatilgan yozma xat-xabarlar, posilkalar va tegishli o'rovdagi bosma nashrlar;

— **pochta yo'nalishi** — pochta transportining, pochta aloqasi obyektlari o'rtasidagi, belgilangan tartibda tasdiqlangan harakatlanish yo'li;

— **pochta aloqasi provayderi** — foydalanuvchilarga pochta aloqasi operatorlarining tarmog'i orqali pochta, kuryerlik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

— **xizmatga oid tekshiruvlarni o'tkazish** — pochta boyliklarini o'g'irlash, yo'qotilishi holatlarini aniqlash. Tekshiruv

natijalari bo'yicha xulosa tuziladi, bu xulosa aloqa korxonasining rahbari tomonidan tasdiqlanadi, tekshiruv davomida jinoyat belgilari aniqlangan bo'lsa, aloqa korxonasi rahbari tomonidan tekshiruv materiallarining huquqni muhofaza qilish organlariga berilishi to'g'risida qaror qabul qilinadi. Pochta jo'natmalari yoki ular qismining yo'qotilganligi, o'g'irlanganligi, kamomadi faktlari to'g'risida darhol korxona rahbariga ma'lum qilinadi, jinoyatning ochiq ifodalangan belgilari holatlarida — hududiylik bo'yicha ichki ishlar organlariga ma'lum qilinadi. Xizmatga oid tekshiruvni o'tkazish rejasi tuziladi;

— **plombir puansoni** — pochta buyumlari, pochta, kuryerlik jo'natmalari va shuningdek, qimmatbaho buyumlar saqlanadigan omborxonalar plombalanadigan pochta aloqasi obyekti nomining izini plastmassa yoki qo'rg'oshin plombirlarga tushirish uchun mo'ljallangan maxsus qurilma;

— **maxsus tovush signallari** — ogohlantiruvchi, xabar qiluvchi, avariya, favquloddagi, xavotirli va sh.k. xabarlarining tovush signalizatsiyasi uchun elektromagnit nurlanishlar tomonidan hosil qilinadigan shartli belgilar;

— **maxsus farqlash belgilari** — transport vositalarining idoraviy mansubligi, faoliyat sohasi va funksional vazifasi tanib olinadigan tanib olish-farqlash belgilariga ega asosiy rangli qoplamalardagi ajralib turuvchi ranglarning rang-grafik tasvirlari;

— **terrorizm** — siyosiy, diniy, ideologik va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'i, mulk va boshqa moddiy obyektlarni yo'q qilish (shikastlash) uchun xavf tug'diruvchi hamda davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsni qandaydir harakatlarni sodir etish yoki sodir etishdan o'zini saqlashga qaratilgan zo'rvonlik, uni qo'llash tahdidi yoki boshqa jinoiy harakatlar, xalqaro munosabatlarning murakkablashishi, suverenitet, hududiy yaxlitlikning buzilishi, davlat xavfsizligiga putur yetkazish,

qurolli nizolarni uyushtirish, aholini qo‘rqitish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni nobarqarorlashtirish, bu jinoyatlar uchun javobgarlik O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ko‘zda tutilgan.

— **texnik nazorat qilish vositalari** — xavfli pochta, kuryerlik jo‘natmalari va pochta buyumlarini aniqlash uchun qo‘llaniladigan maxsus texnika;

— **pochta aloqasi xizmatlari** — pochta aloqasi operatori yoki provayderining pochta va kuryerlik xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha faoliyati;

— **pochta jo‘natmalari (pochta jo‘natmalari joylanmalari)ning o‘g‘irlanishi** — begona mulkning aybdor yoki boshqa shaxslar foydasiga aylantirish uchun va mulk egasiga zarar keltirgan qonunga xilof ravishda olib qo‘yilishi. Pochta jo‘natmasi adresatga berilgunga qadar jo‘natuvchining mulki hisoblanadi. Pochta jo‘natmalari ularga ishlov berish, ularni saqlash va tashish davri davomida pochta aloqasi operatorlari va provayderlarining ixtiyorida bo‘ladi va, demak, pochta aloqasi operatorlari va provayderlari pochta jo‘natmalarining saqlanishi uchun javobgar bo‘ladilar;

— **favqulodda vaziyat** — insonlarning qurbon bo‘lishi, odamlarning sog‘lig‘i yoki atrof-muhitga zarar yetkazilishi, katta moddiy yo‘qotishlar va odamlarning hayot faoliyatining buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, tabiiy ofat, epidemiya, epizootiya natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.

1-BOB. KORXONA XAVFSIZLIGI

1.1. Xavfni baholash metodlari va prinsiplari

Korxona xavfsizligiga eng yuqori himoya darajasiga ega almashtirib bo'lmaydigan resurslar, shuningdek, ularsiz ishlab bo'lmaydigan va almashtirilishi ko'p vaqt talab qiladigan eng qimmatbaho mulk va vositalar bo'lgan halqalardan iborat konsentrik aylana sifatida qarash mumkin.

Korxona xavfsizligi deganda, odatda, korxonani unga zarar keltirish xavfidan himoya qilish, ya'ni korxona xavfsizligi tushuniladi — bu uning hayotiy muhim manfaatlarining ichki va tashqi xavflar (xavf manbalari)dan himoyalanganlik holatidir.

Nimani himoya qilish talab qilinadi va himoyalashning qaysi darajasi zarur degan asosiy savolga javob mavjud: bu ish binolar va inshootlar, xizmatchilar, mijozlar, uskuna, pochta jo'natmalari, moliya mablag'lari va moddiy zaxiralarni o'rganish va tahlil qilishdan boshlanishi kerak.

Bu turdagi axborotni o'rganish va tahlil qilish rahbariyatdan ma'lumotlar taqdim etilishini talab qiladi. Rahbariyat javobgar bo'lgan korxonaga yetkaziladigan zarar, bu vositalar yo'qotilgan yoki qaysidir tarzda yo'qotish xavfi bo'lgan holatda asosiy vositalarga tahdid qiluvchi xavfning rahbariyat tomonidan tushunib yetilishi qo'shimcha ustunliklar berishi mumkin.

Korxonaning xavfsizlik tizimini yaratish (qurish) maqsadi bo'lib, tashkilotga quyidagi imkoniyatlarni beruvchi potensial va real tahdidlarga kompleks ta'sir ko'rsatish hisoblanadi:

- tashqi va ichki muhitning barqaror bo'lmagan sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlash;

- shaxsiy xavfsizlik tahdidlarining oldini olish;

— o‘z qonuniy manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilish;

— xodimlar hayoti va sog‘lig‘ini qo‘riqlash;

— moliya va moddiy-texnik mablag‘larni o‘g‘irlash, mulk va boyliklarni yo‘q qilish, xizmatga oid axborotni oshkor qilish, yo‘qolishi, chiqib ketishi, buzib ko‘rsatilishi va yo‘q qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik, ishlab chiqarish faoliyati, shu jumladan, axborotlashtirish vositalarini ta‘minlash.

Bu maqsadga erishish quyidagi vazifalarning hal etilishini talab qiladi:

— korxonaning barqaror ishlashi va uning rivojlanishiga tahdidlarni aniqlash hamda qarshi harakat qilish choralarini ishlab chiqish;

— texnologik jarayonlarning himoyasini ta‘minlash;

— shpionajning barcha turlari (sanoat, ilmiy-texnik, iqtisodiy va h.k.)ga qarshi harakat qilish choralarini amalga oshirish;

— korxona rahbarlariga davlat va munitsipal organlar, tijorat va notijorat tashkilotlari tomonidan korxona manfaatlariga tegishli qonun buzilishlari faktlari to‘g‘risida o‘z vaqtida xabar-dor qilish;

— korxonaning konfidensial axborotga ega xodimlarini og‘dirib olishning oldini olish;

— ish bo‘yicha sheriklarni har tomonlama o‘rganish;

— sohta axborot tadbirlarini o‘z vaqtida aniqlash va adekvat javob qaytarish;

— korxona xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan korxona huquqiy hujjatlarini ishlab chiqish va takomillashtirish;

— tijorat va boshqa turdagi axborotni muhofaza qilish bo‘yicha choralarni amalga oshirish;

— halol bo‘lmagan raqobatga qarshi harakat qilish bo‘yicha tadbirlarni tashkil qilish;

— korxona barcha turdagi resurslarining himoya qilinishini ta‘minlash;

— intellektual mulkni muhofaza qilish choralarini amalga oshirish;

— favquloddagi vaziyatlarning oldini olish bo'yicha choralarni tashkil qilish va o'tkazish;

— korxona xodimlari o'rtasida salbiy tendensiyalarni aniqlash, ular to'g'risida korxona rahbarlariga xabar qilish va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish;

— korxona manfaatlariga qarshi yo'naltirilgan huquq-buzarliklarning oldini olish va to'xtatish maqsadida huquqni saqlash va nazorat qiluvchi organlar bilan o'zaro ishlash tartibi;

— korxona mulki va uning xodimlariga jismoniy xavf solish tahdidlarining oldini olish choralarini ko'rish va amalga oshirish;

— tashkilotlar va ayrim jismoniy shaxslarning qonunga xilof xatti-harakatlari natijasida korxonaga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararining o'rnini to'ldirish.

Korxonaning kompleks xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyat natijasi bo'lib: uning faoliyati va moliya-iqtisodiy ahvolidan barqarorligi (ishonchliligi), xodimlarning shaxsiy xavfsizligi hisoblanadi.

Korxonaning xavfsizlik tizimi quyidagi qoidalarga amalga qilgan holda qurilishi kerak:

Ehtimoliy tahdidlar profilaktikasi.

Korxona xavfsizligiga ehtimoliy tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash zarur, ularning tahlili tegishli profilaktika choralarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Qonuniylik.

Xavfsizlikni ta'minlash choralari amaldagi huquqiy hujjatlar asosida va doirasida ishlab chiqiladi. Korxonaning lokal huquqiy hujjatlari qonunlar va qonun osti hujjatlariga zid kelmasligi kerak.

Kuch va vositalardan kompleks foydalanish.

Xavfsizlikni ta'minlash uchun korxona ixtiyorida mavjud bo'lgan barcha kuch va vositalardan foydalaniladi. Har bir xodim o'z vakolati doirasida korxona xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etishi kerak. Kuch va vositalardan kompleks

foydalanishning tashkiliy shakli bo‘lib, korxona xavfsizligini ta‘minlash dasturi (ishlar rejasi) hisoblanadi.

Korxona ichida va tashqarisida muvofiqlashtirish va o‘zaro ishlash.

Tahdidlarga qarshi harakat qilish choralari korxonaning barcha bo‘linmalari, xizmatlarining o‘zaro ishlashi va harakatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, korxona xavfsizligini ta‘minlashda kerakli yordam ko‘rsata oladigan tashqi tashkilotlar bilan kerakli aloqalarni o‘rnatish asosida amalga oshiriladi.

Oshkoralikning mahfiylik bilan uyg‘unlashuvi.

Axborotning korxona xodimlari va jamoatchilik e‘tiboriga xavfsizlik choralarining yo‘l qo‘yiladigan chegaralarida yetkazilishi — potensial va haqiqiy tahdidlarning oldini olish kabi eng muhim vazifani bajaradi.

Barcha masalalardan xabardorlik.

Xodimlar xavfsizlikni ta‘minlash masalalarini yuqori darajada hal etishlari kerak, kerakli hollarda esa uning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ixtisoslashishlari lozim.

Iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi.

Xavfsizlikni ta‘minlash uchun moliyaviy xarajatlar miqdori ularni qo‘llash iqtisodiy ma‘nosi yo‘qoladigan o‘sha maqbul darajadan oshmasligi lozim.

Faoliyatning rejali asosi.

Xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha faoliyat korxona xavfsizligini ta‘minlashning kompleks dasturi, uning asosiy turlari (iqtisodiy, ilmiy-texnik, ekologik, texnologik va h.k.) bo‘yicha xavfsizlikni ta‘minlash quyi dasturlari va ularni bajarish uchun ishlab chiqiladigan korxona bo‘linmalari va alohida xodimlarining ish rejalari asosida qurilishi kerak.

Tizimlilik.

Bu prinsip korxona xavfsizligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi barcha omillarning hisobga olinishini, uni ta‘minlash bo‘yicha faoliyatga barcha xodimlarning kiritilishini, barcha kuch va vositalardan foydalanishni ko‘zda tutadi.

Shunisi aniq bo'lishi kerakki, xavfsizlik uchun javob beruvchi xodimlar xavfsizlik uchun yagona javob beruvchilar emas, ular, shuningdek, axborotning yoki tahdidlar va xavfning yagona manbayi ham bo'la olmaydilar. Xavfni muvaffaqiyatli baholash uchun kerakli axborotni taqdim etuvchi rahbarlar, xodimlar, huquqni muhofaza qilish organlari, shuningdek, aholidan iborat tarmoqqa tayanish kerak. Samarali tahlil o'tkazish uchun kerakli tadqiqotlarni o'tkazish va foydali aloqalarni o'rnatish muhimdir.

Huquqni muhofaza qilish organlari jinoyatchilikni samarali tahlil qilish va xavfni baholash uchun zarur axborot manbayi bo'lishi mumkin. Axborotni taqdim etuvi va qandaydir muassasa ishlayotgan yoki tashkil qilish rejalashtirilayotgan joyda xavf va jinoiy faoliyatni baholashga yordam beruvchi mahalliy huquqni muhofaza qilish organlariga tayanish mumkin. Mavjud darajada foydalaniladigan milliy huquqni muhofaza qilish organlarining statistikasi xavfni baholashda muhim vosita bo'lishi mumkin. Jinoyatchilikni tahlil qilish uchun foydalaniladigan axborotning muhim manbayi, shuningdek, tahdidlar va hujumlarga qarshi kurashda qimmatli sherik bo'lib hisoblanadigan huquqni muhofaza qilish organlari bilan aloqalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash zarur.

Aholining ijtimoiy tadqiqotlari va tahlili, tarkibi, uning zichligi kabi ma'lumotlar, militsiya va o't o'chiruvchilar kabi xizmatlar, shuningdek, ishga taalluqli hisobotlar va axborotni o'rganib foydali ma'lumotlar olish mumkin. Shunisi ayonki, aholi ma'lum qismining tarkibi va uning shahar, shahar atrofidagi, qishloq guruhlariga mansubligi yuzaga keladigan tahdid va xavfning darajasiga, shuningdek, xavfsizlikni ta'minlash metodiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xavfsizlik manfaatlarida o'tkaziladigan tekshiruv xavfsizlik sohasidagi professionallarning majburiy o'ziga xos vositasi bo'lib hisoblanadi. Xavfsizlikni har qanday samarali baholash holatlarga mantiqiy tarzda qarashga yordam beruvchi sinchiklab rejalashtirilgan tekshiruvdan foydalanib o'tkazilishi kerak. Bu

rejani tekshiruv shaklida tuzish lozim, tekshiruv davomida aniq vazifalar ko'rib chiqiladi. Samarali tekshiruv rejasini tuzayotganda imkoni boricha ko'proq nuqtayi nazarlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Ideal holatda rahbariyat va xizmatchilardan olingan ma'lumotlarni hisobga olib, shuningdek, tekshiruv, guruhi a'zolarining ishga oid tajribasini e'tiborga olib xavfni baholash mumkin. Rahbarlar, xizmatchilar, mijozlar va aholidan axborot yig'ish uchun savolnomalardan foydalanish imkoniyatini ko'rib chiqish lozim. Shuni esda tutish muhimki, tekshiruv boshlanguncha olingan tahlil va axborot xavfsizlik mutaxassislariga tekshiruv muvaffaqiyatini kafolatlovchi asosiy mo'ljal va savollarning nazorat ro'yxati sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan aniq tekshiruv rejasini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin. Maslahatlar o'tkazilgan barcha shaxslarning kengaytirilgan ishtiroki va ular tomonidan qo'llab-quvvatlanishi ushbu yondashuvning afzalliklaridan biri bo'lib hisoblanadi. Muayyan tekshiruvlar rejaları ko'p darajada ularning xarakteri va maqsadiga bog'liq bo'lganligi sababli, izchil xatti-harakatlar rejasini tuzish, bu reja doirasida mijozlar/iste'molchilar va tekshiruv guruhining so'rovi natijasida aniqlangan asosiy muammolar, xavf va imkoniyatlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

1.2. Binolar va inshootlar xavfsizligi

Binolar va inshootlar, shuningdek, binolar va inshootlar bilan bog'liq loyihalashtirish, qurish, ekspluatatsiya qilish va buzish jarayonlarining xavfsizligi bino yoki inshootning butun hayot sikli davomida bino va inshootlar parametrlari va sifat ko'rsatkichlarining xavfsizlik talablariga muvofiq keladigan loyiha qiymatlarini o'rnatish, qurish jarayonida ko'rsatilgan qiymatlarni amalga oshirish va ekspluatatsiya qilish va buzish jarayonida bunday parametrlar va xarakteristikalar holatini talab darajasida qo'llab-quvvatlash vositasida ta'minlanadi.

Qurilish konstruksiyalari va bino yoki inshootlarning asosi shunday mustahkam va barqaror bo'lishi kerakki, qurish va ekspluatatsiya qilish jarayonida odamlar hayoti yoki sog'lig'iga, jismoniy yoki yuridik shaxslarning mulkiga, atrof-muhitga, hayvonlar va o'simliklar hayoti va sog'lig'iga quyidagi sabablar natijasida zarar keltirish xavfi bo'lmasin:

1) alohida ko'tarib turuvchi qurilish konstruksiyalari yoki ular qismlarining buzilishi;

2) butun bino, inshoot yoki ular qismining buzilishlari;

3) qurilish konstruksiyalari, bino yoki inshoot asosi va tutash bo'lgan hududdagi geologiya massivlari deformatsiyasining yo'l qo'yilmaydigan kattaligi;

4) ko'tarib turuvchi konstruksiyalarning deformatsiyasi, ko'chishi yoki barqarorligini yo'qotishi, shu jumladan, vertikalidan og'ishi natijasida bino yoki inshoot qismi, muhandis-texnik ta'minoti tarmoqlari yoki muhandis-texnik ta'minoti tizimlarining shikastlanishi.

Bino yoki inshoot shunday tarzda loyihalashtirilishi va qurilishi kerakki, bino yoki inshootni ekspluatatsiya qilish jarayonida yong'in chiqish xavfi istisno etilsin, odamlar va mulkni yong'in xavfli omillarining ta'siridan himoyasi ta'minlansin va (yoki) yong'in xavfli omillarining bino yoki inshootga ta'sir qilish oqibatlari cheklansin, shuningdek, yong'in chiqqan holda quyidagi talablarga rioya qilinsin:

1) odamlarni evakuatsiya qilish va yong'in dan zararni kamaytirishga qaratilgan boshqa xatti-harakatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan vaqt davomida bino yoki inshootning barqarorligini, shuningdek, ko'tarib turuvchi qurilish konstruksiyalarining mustahkamligini saqlash;

2) yong'in o'chog'i chegarasida yong'in xavfli omillarining hosil bo'lishi va tarqalishini cheklash;

3) yong'inning qo'shni binolar va inshootlarga tarqalmasligi;

4) yong‘in xavfli omillarining ta‘siri oqibatida odamlar sog‘lig‘i va hayotiga zarar yetgunga qadar ularni xavfsiz zonaga evakuatsiya qilish;

5) bino yoki inshootning istalgan xonasiga yong‘indan saqlash bo‘linmalari shaxsiy tarkibining kira olishi va o‘t o‘chirish vositalarini yetkazish imkoniyati;

6) o‘t o‘chirish moddalarini yong‘in o‘chog‘iga uzatish imkoniyati;

7) odamlarni qutqarish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘tkazish va jismoniy yoki yuridik shaxslarning mulki, davlat yoki munitsipal mulk, atrof-muhit, hayvonlar va o‘simliklar hayoti va sog‘lig‘iga yong‘in yetkazadigan zararni kamaytirish imkoniyati.

Binolar va inshootlar qurilishida inson sog‘lig‘i uchun xavfsiz bo‘lgan binolar va inshootlarda yashash va turish shartlari hisobga olinishi kerak. Bino yoki inshoot shunday tarzda loyihalashtirilishi va qurilishi kerakki, inson bino yoki inshootda bo‘lishi vaqtida fizik, biologik, kimyoviy, radiatsiya va boshqa ta‘sirlar natijasida insonga zararli ta‘sirlar yuzaga kelmasin.

Murakkab tabiiy sharoitlarda qurilishi va ekspluatatsiya qilinishi rejalashtirilgan bino va inshootlarning xavfsizligini ta‘minlash uchun loyiha hujjatlarida odamlar, bino yoki inshootlarni xavfli tabiiy jarayonlar va hodisalarning ta‘siridan hamda texnogen ta‘sirlardan himoya qilishga qaratilgan choralar, shuningdek, tabiiy jarayonlar va hodisalarning ta‘siri hamda texnogen ta‘sirlarning oldini olish va (yoki) oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan choralar ko‘zda tutilishi kerak.

Bino yoki inshoot shunday loyihalashtirilishi va qurilishi, bino yoki inshootdan foydalanish uchun zarur bo‘lgan hudud shunday tarzda obodonlashtirilishi kerakki, bino yoki inshootni ekspluatatsiya qilish jarayonida ularning foydalanuvchilari — odamlarga sirpanish, yiqilish, urilish, kuyish, elektr tokidan shikastlanishi natijasida baxtsiz hodisalarning yuzaga kelishi va jarohatlar yetkazilish xavfi yuzaga kelmasin.

Ko'pgina holatlarda bo'lib o'tgan voqeadan so'ng yoki inshootning xavfsizligi tekshirilganidan keyin binolar va inshootlarning xavfsizligi to'g'risidagi masala qo'yiladi. Shunisi ayonki, yangi inshootlarga nisbatan xavfsizlik standartlari va prinsiplari qanchalik tezroq qo'llanilsa, tegishli o'zgartirishlar yaxshiroq va arzonroq bo'ladi. Raqobat tobora o'sib borayotgan pochtaning ishlash sharoitlari hatto xavfsizlikning eng kritik sohasida ham puxta, xarajatlarni oqlovchi tahlildan foydalanishni talab qiladi.

Binolar va inshootlar xavfsizligini baholashni imkoni boricha qurilishning ilk bosqichida o'tkazish zarur. Agar imkoniyat bo'lsa, qurilish boshlanguncha maydonchani tanlashda xavfsizlikni baholashni amalga oshirish kerak. Loyihalashtirish bosqichida binolar va inshootlarning xavfsizligini baholash loyiha hujjatlarida korxona xavfsizligini oshiruvchi va xizmatchilarning muhofazasini ta'minlovchi maqbul arxitektura, funksional-texnologik, konstruktiv va muhandis-texnik yechimlarni tanlash yo'li bilan ta'minlanishi kerak. Bundan tashqari, ayni paytda korxona hududiga va ichki xonalariga kirish, xizmatchilar, tashrif buyuruvchilar, avtotransport kirishi/chiqishining nazorati, to'siqni qanday joylash kerak, landshaft, mashinalarning to'xtash joyini o'ylab ko'rish, shuningdek, xavfsizlikni oshirishga qaratilgan har qanday boshqa o'zgartirishlar yoki choralar qay tarzda ta'minlanishi ko'zda tutilgan bo'lishi kerak. Bino ichki xonalarining rejasi ham xavfsizlik nuqtayi nazaridan muhim o'rin tutadi, bunda nimani muhofaza qilish kerak, bu bino, uning tarkibi va xizmatlari qanchalik muhim, uning ichki xonalariga kirish qay tarzda nazorat qilinishini hisobga olish zarur.

Binolar va inshootlarning xavfsizligini ta'minlashda videokuzatuv tizimlari katta o'rin tutadi.

Xavfsizlikning zamonaviy kompleks tizimlarida videokuzatuv tizimlari uning ajralmas qismi hisoblanadi, sababi ular nafaqat qo'riqlanadigan obyektning vizual nazoratini va

videoaxborotning yozib olinishini ta'minlaydi, balki butun xavfsizlik tizimining xavf-xatarli vaziyatlarga reaksiyasini dasturlashtirish imkoniyatini beradi. Qo'llab-quvvatlashning qudratli quroli sifatida videokuzatuv tizimidan qo'riqlash signalizatsiyasida foydalaniladi va u bilan dasturiy yoki apparat darajalarida bog'langan bo'lishi mumkin.

Foydalaniladigan uskunaga bog'liq holda professional sohada videokuzatuv tizimlari raqamli, analog va aralash (gibrid) turlarga bo'linadi. U yoki bu tizimdan foydalanishda o'z afzal tomonlari va kamchiliklari mavjud.

Raqamli videokuzatuv tizimlari xavfsizlikning kompleks tizimlariga muvaffaqiyatli integratsiyalashadi. Zamonaviy xavfsizlik komplekslari nafaqat raqamli videokuzatuv tizimidan kelayotgan axborotni qayd qilish va yozib olish imkoniyatiga ega. Bunday komplekslar, shuningdek, masalan, avtonom rejimda tizim qanday yo'l tutishi kerakligini tahlil qilish va «hal qilish» qobiliyatiga ega. Bunday kompleks tizimlar har qanday tashkilot xavfsizlik tizimining ishonchli ishlashini ta'minlay oladi. Ko'cha videokuzatuv — ko'chada videokuzatuvni amalga oshirish imkonini beruvchi texnik vositalar to'plami.

Bugungi kunda analog tizimlar eskirgan, ammo lokal obyektlarda hali ham uchrab turadi. Ba'zi hollarda bunday tizimning joriy etilishi iqtisodiy jihatdan o'zini oqlashi mumkin. Ammo bugungi kunda analog yozib olish qurilmalaridan foydalanilmaganligi sababli analog tizimlarini o'rnatish ham dolzarb emas.

Texnik taraqqiyot davrida aralash (gibrid) tipdagi tizimlar ommaviylashgan. Bunday tizimlarning asosi bo'lib, tasvirni keyingi raqamlash xususiyatiga ega analog kameralar hisoblanadi. Olingan videotasvir sifatiga ko'ra gibrid kameralar raqamli videokameralar bilan tenglasha olmaydi, ammo boshqa xarakteristikalarining o'xshashligi bir qator talab qilinadigan vazifalarni bajarish, demakki — aralash tipdagi ko'p funksiyali, ishonchli tizimni yaratish imkonini beradi.

Videokuzatuvni tashkil qilish ko‘plab muammolarni hal etadi: moddiy mulk o‘g‘irlanishining oldini olish, tashkilot xodimlarining past samaradorligini tiklash, past darajadagi himoyaga ega binoning xavfsizligini oshirish va sh.k. Hozirgi kunda videokuzatuv global Internet tarmog‘i yordamida dunyoning istalgan nuqtasidan qo‘riqlanayotgan obyektga bo‘layotgan voqealardan xabardor bo‘lish imkonini beradi. Raqamli videokuzatuv kameralarining paydo bo‘lishi sababli bunga erishildi.

Videokamera — qo‘riqlanadigan yoki kuzatiladigan hududlar, obyektlar, ofis xonalarini vizual nazorat qilish uchun mo‘ljallangan qurilma. Kuzatuv videokameralari — videokuzatuv tizimlari uchun ko‘zdir. 1—2-rasmlarda xona ichida va ko‘chada qo‘riqlanadigan obyektga nazorat qilish uchun keng foydalaniladigan videokuzatuv kameralarining ba’zi turlari keltirilgan.

Gumbazli videokamera shiftga, shuningdek, maxsus kronshteyn mavjud bo‘lganda devorga o‘rnatish uchun mo‘ljallangan.

Haftasiga 24 soat 7 kun davomida ish olib borilmaydigan binolar va inshootlarga tungi vaqtda o‘g‘irliklarni sodir etish



1-rasm. «AutoDomeEasyIII (Bosch)» aylanma gumbazli IP-videokamera.

uchun ehtimoliy obyektlar sifatida qarash kerak. Bunday inshootlar imkoni boricha o'g'irliklarni sodir etish imkoniyatini bermaydigan vositalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim. Masalan, bosqinchilarni to'xtatib turuvchi yaxshi vosita bo'lib, yaxshi yoritilganlik va yaqqol ko'rinadigan perimetr hisoblanadi. Binoni o'rab turuvchi o'tkazilgan butalarga va landshaftga e'tibor qaratish kerak. Qo'riqlash signalizatsiyasi tizimi ham samarali va to'xtatib turuvchi vosita bo'lib hisoblanadi, ayniqsa, huquqni muhofaza qilish organlari yoki xavfsizlik xodimlarining tezda chora ko'rish imkoniyati bo'lsa, shunisi ayonki, videokameralar bosqinchilarni cho'chitishda muhim vazifa bajarishi va ayni paytda identifikatsiya qilish vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Huquqni muhofaza qilish organlari, FV bo'yicha boshqarmalar hududiy bo'linmalarining mas'ul rahbarlari bilan birgalikda ko'zda tutilmagan holatlar rejalarini ishlab chiqish va yangilash xavfsizlikka to'g'ri yondashishning bir qismi bo'lib hisoblanadi, bu rejalarda tabiiy ofatlar, yong'inlar/portlashlar, pochta jo'natmalarida xavfli moddalar va buyumlarni aniqlash kabi xavfsizlikka tahdidlar yaratish masalalari ko'rib chiqiladi. Ushbu rejalarda ishlaydigan xodimlar va mijozlarni evakuatsiya qilish tartibi, FV oqibatlarini tugatish va minimallashtirish bo'yicha aloqa va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining birgalikdagi harakatlarini aks ettirish zarur.



2-rasm. EXZ0 ko'cha infraqizil aylanma kamera.

1.3. Korxonalar tashqi perimetrining xavfsizligi bo'yicha talablar

Rahbariyat bilan birgalikda ishlaydigan xavfsizlik xodimlarining majburiyatiga korxonaga kirish tegishli rejimini belgilash va perimetrni nazorat qilish kiradi. To'siq va perimetr nazoratini ko'rib chiqib, bevosita joy landshaftini, shu jumladan, daraxtlar, o'simliklar va relyefni e'tiborga olish kerak.

Xavfsizlik rahbarlari asosiy prinsipga rioya qiladilar, bu prinsipga ko'ra binoning xavfsizligi uning perimetridan boshlanib, eng qimmatbaho mablag'lar qo'riqlanadigan maxfiylashtirilgan zonalarga kirish yanada qat'iy nazorat doiralarini qamrab olgan holda markazga yo'naltirilgan. Birinchi qo'riqlanadigan liniya — bu perimetr. Xavfsizlik xodimlari majburiyatiga kira olishning muvofiq darajasini belgilash va perimetrni nazorat qilish kiradi.

Korxonalarning binolari shunday loyihalashtirilishi kerakki:

- xizmatchilar yoki boshqa shaxslarning ruxsatsiz hududga kirishi va ruxsatsiz hududdan chiqishiga to'sqinlik qilish mumkin bo'lsin;

- xizmatchilarning korxona hududiga kirishi va undan chiqishini kuzatish qulayligi ta'minlansin;

- xizmatchilarni va ular korxona hududiga olib kiradigan yoki uning hududidan olib chiqadigan yuk o'tkazilishini nazorat qilish imkoniyati ta'minlansin.

Xizmatchilar avtomobillarining to'xtash joyi tomonidan faqat bitta kirish joyi bo'lishi tavsiya etiladi. Bu kirish pochta-ning yuklash xonasidan ajratilgan bo'lishi kerak.

Barcha yerusti kommunikatsiyalari (telefon, elektr toki) binoga imkoni boricha maksimal balandlikdan o'tkazilgan bo'lishi kerak, aks holda ular binoga kiringunga qadar tashqi manbadan himoya quvuriga joylangan bo'lishi lozim. Elektr hisoblagichi va har qanday ulab-uzgichlar bino ichida joylashgan bo'lishi zarur. Binoda kommuni-

katsiyalar (elektr toki, telefon, gaz) uchun qulflanadigan alohida xona bo'lishi kerak. Bu xonaga tashqaridan kirish bo'lmashligi lozim.

1.4. Pochta aloqasi obyektlari hududlarining to'siqlarini jihozlash

Pochta aloqasining pochta aloqasi obyektlari hududi binolar va inshootlarni ekspluatatsiya qilish, xavfsizligi va qo'riqlanishini ta'minlash shartlari bo'yicha talab qilingan holda to'silishi kerak.

To'siqning balandligi 2—2,5 m dan kam bo'lmashligi, imkoni boricha to'g'ri bo'lishi va yer sathida tugashi, kuzatishni cheklovchi va qo'riqlash texnik vositalarining qo'llanishini qiyinlashtiruvchi ortiqcha burilishlarsiz, to'siqdan o'tishni osonlashtiruvchi tashqi bo'rtiq va chuqurchalarsiz bo'lishi kerak. Uchastka perimetri bo'yicha to'siq qo'shni uchastkalarga taqalib, hududiy mulk chizig'i bo'ylab o'tishi lozim.

Shahar yoki yirik aholi punkti chegarasida joylashgan pochta aloqasi obyekti hududining to'sig'i unga qo'shni bo'lgan imoratlarning umumiy ansambliga muvofiq keladigan muayyan arxitektura bezagiga ega bo'lishi kerak. Uning tipi mahalliy arxitektura-rejalashtirish tashkilotlari bilan kelishilishi shart.

To'siq bo'ylab bir-biridan 30—40 m masofada kronshteynlarda yoritgichlar o'rnatiladi.

Manzarali o'simliklar to'siqning tashqi tomonidan 0,6 m dan kam bo'lmagan joyga ekilishi kerak. To'siqdan daraxtlargacha bo'lgan masofa uch metrdan oshmasligi lozim.

To'siq o'rnatilishi rejalashtirilganda quyidagilar hisobga olinishi kerak:

- to'siqning yuqori darajadagi mustahkamligi va chidamliligi;
- qurilishi va ekspluatatsiya qilinishining tejamkorligi.

1.5. Pochta aloqasi obyektlariga olib boruvchi yo'llar

Pochta aloqasi obyektlariga olib boruvchi yo'llar qattiq qoplamga ega bo'lishi, yuzasi avtomobilning o'z-o'zidan harakatlanishini istisno qiluvchi gorizontal bo'lishi, o'nqir-cho'nqirlar, chuqurlar bo'lmasligi va soz holatda bo'lishi, qishki vaqtda esa qor, muzdan tozalangan va qum sepilgan bo'lishi kerak.

Pochta almashinadigan lyuk oynalarida pochta avtomobillarining g'ildiraklari uchun tirgaklar jihozlangan bo'lishi lozim. Tirkak balandligi avtomobil g'ildiragi maksimal diametrining $1/3$ qismini tashkil qilishi zarur.

Lyuk oynalari oldida turli markalardagi avtomobillar to'xtaganda tirgak uzunligi pochta almashinuvi zonasidagi binoning maksimal turtib chiqqan qismlari va avtomobilning orqa borti o'rtasidagi 500 mm masofani ta'minlashi shart.

Tirkaklar yon yuzalarni belgilash uchun qo'llaniladigan vertikal belgi (rang)ga ega bo'lishi kerak.

Avtomobillarni pochta almashinuvinin lyuk oynalari oldida to'g'ri o'rnatish uchun binoning devorida lyuk oynasi o'qidan chap tomonda (haydovchi tomonidan) 1250 mm masofada soyabon uzunligining 0,05 kengligida yer sathidan shu soyabongacha vertikal chiziq tushirilishi darkor. Oriyentir olish chizig'i olib borish yo'lining qoplamasiga ham tushirilishi kerak.

Pochta tashuvchi avtomobillarning harakatlanish zonasida xavfsizlik belgilari, yo'l qoidalari belgilari va yo'l belgilari o'rnatilishi lozim.

1.6. Himoyaviy yoritish

Pochta aloqasi obykti xavfsizligining maqbul darajasini qo'llab-quvvatlash uchun yetarli bo'lgan himoyaviy yoritishni o'rnatish kerak. Bunga asosiy yoki qo'shimcha to'siq bo'ylab kirishlar va avtomobillar kirish yo'llarini,

foega kirishni, shuningdek, asosiy aholi uchun kirish yopiq bo'lgan butun hududning yoritilishi kiradi. Avtomashinalar uchun umumfoydalanadigan to'xtash joylari va kirishlar jinoyatchilikka qarshi harakat vaziyatini yaratish uchun yetarli darajada yoritilgan bo'lishi lozim. Himoyaviy yoritish qo'riqlash postidan nazorat qilinishi va boshqarilishi zarur.

Yaxshi himoyaviy yoritish quyidagilarni ta'minlaydi:

- tutash hududlarning yetarli darajada yoritilganligi;
- buzg'unchi ko'ziga yo'naltirilgan yorqin nur;
- qo'riqlash xodimlarining ish joylaridagi o'rtacha yoritilganlik.

Yoritish tizimi shunday loyihalashtirilishi kerakki, butun hudud, shu jumladan, eshiklarga borish yo'llari, imoratlar va ularning konstruksiyalaridagi o'chiq joylar bir tekis yoritilsin. Eshik o'rni va bino old tomonidagi boshqa ochiq joylarga alohida e'tibor qaratilishi kerak — soya joylar yo'q qilinishi lozim.

Binoga barcha kirishlar va olib boradigan yo'llar har bir shaxsni ko'rish va o'tkazish hujjatlari, shaxsini tasdiqlovchi hujjat, pasporti va b.ni tekshirish mumkin bo'lgan yetarlicha yaxshi yoritilgan bo'lishi kerak. Avtotransportning barcha kirish joylari butun mashina, uning yo'lovchilari va yuk ko'rinadigan darajada yoritilgan bo'lishi shart.

Elektr simi shunday tashkil qilingan bo'lishi kerakki, chiroqlardan birining ishdan chiqishi hududning katta uchastkasi yoki xavfsizlik nuqtayi nazaridan uning perimetrining muhim uchastkasida yoritishning ishdan chiqishiga olib kelmasin.

1.7. Eshiklar va qulflar

Begonalar uchun ochiq bo'lgan binoga kirish eshiklari va ichki eshiklar, odatda, qulfbuzar o'g'rilar kirishga urinadigan birinchi eshiklar bo'ladi.

Markaziy kirish eshiklari soz holatda bo'lishi, eshik korobkalarida yaxshi mahkamlangan bo'lishi lozim. Kamida ikkita qulf — ichki va quloqchalar yordamida osiladigan osma qulfga ega bo'lishi kerak. Ikki tavaqali eshikning bir tavaqasi eshik polotnosining yuqori va quyi qismlarida o'rnatiladigan metall tamba (shpingalet)lar bilan jihozlangan bo'lishi darkor. Tamba o'zagining diametri — 10 mm, uning tagidagi teshik chuqurligi — 30 mm. Eshik o'rni shishadan ishlangan holda ichki tomondan chiviq-larining diametri 10 mm bo'lgan va vertikal chiviq-lari orasidagi masofa 150 mm dan ko'p bo'lmagan metall panjaralar o'rnatilishi lozim.

Almashinuv lyuklari yaxlit metallardan ishlangan bo'lishi kerak. Lyuklar eshiklari ichidan bimalol o'tish imkoniyatini istisno etuvchi ishonchli tambalar bilan qulflanishi shart. Lyukning yog'och chorcho'pi ichki tomondan poydevor asosiga metall qurilish skobalari bilan mahkamlanishi kerak.

Ma'muriy xonalarga olib boradigan foe va tashrif buyuruvchilar uchun zal eshiklari bu xonalarda oddiy ish soatlari davomida kotib yoki boshqa xodimlar bo'lishi sharti bilan butun shu vaqt davomida qulflanmagan holda qolishi mumkin. Bu ish xonasida tasodifiy shaxslar paydo bo'lishining oldini oladi.

1.8. Derazalar

Ko'pgina korxonalaridagi derazalar hujumlar uchun himoyasi zaifdir. Derazalar, framuga va fortochka (darcha)larga oyna solingan, ishonchli soz holatdagi tambalarga ega bo'lishi kerak. O'z-o'zidan ma'lumki, tejamkorlik nuqtayi nazaridan kelib chiqib barcha derazalarga panjaralar, po'lat to'sinlar yoki po'lat to'rlarni o'rnatishning imkoniyati yo'q. Qaysidir muayyan derazaning joylashishi sababli bu deraza xavf ostida bo'lsa yoki buzib

kirish, yoki vandalizm holatlari tez-tez yuz bersa, panjara-ralarning o'rnatilishi o'zini-o'zi oqlaydi. Korxona binosining old tomonidagi odamlar gavjum bo'lgan, yaxshi yoritilgan ko'chaga qaragan derazalariga panjara o'rnatilishi shart emas, butalar yoki binoning markizalar kabi yoki devoridagi ornament bezaklari potensial qulfbuzar o'g'riga berkinish joyi bo'lib xizmat qiladigan holatlar bundan mustasno. Derazalar, framugalar va fortochka (darcha)larga oyna solingan, ular ishonchli soz holatdagi tambalar va panjaralarga ega bo'lishi kerak.

Barcha foydalanilmaydigan derazalar mahkam berkitilgan bo'lishi kerak. Oynani joyida ushlab turish uchun mo'ljallangan tambalar, plastik polosalar va boshqa materiallar derazaning ichki tomonida joylashishi lozim. Derazalar butalar bilan to'silmagan bo'lishi kerak. Ba'zi hollarda pochtaning podval xonalari ham derazalarga ega. Bunday holatlarda ularni derazalarga yoki deraza shaxtalariga po'lat chiviqlarni o'rnatish yo'li orqali himoya qilish zarur.

1.9. Tom tomonidan xavfsizlik

Binoga ko'plab muvaffaqiyatli kirishga urinishlar tomdan amalga oshiriladi. Cherdak lyuklarining eshiklari yo'g'on, temir bilan qoplangan, ichkari tomondan quloqchalar yordamida osma qulflar bilan qulflanishi kerak. Tomga yoki qo'shni xonaga chiqadigan va kesimi bilan shartli boyliklar saqlanadigan xonalarga chiqadigan ventilatsiya shaxtalari va qutilari 150×150 mm qadamda 15 mm diametrli metall va armaturadan ishlangan metall panjaralar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Tomga chiqish binoning ichidagi yoki tashqarisidagi narvonlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Ko'p binolarda ichki narvonlarga chiqish, odatda, yuklash-tushirish maydonchasidagi eshik orqali amalga oshiriladi. Bu eshik kirish eshiklariga nisbatan qo'yiladigan barcha talablarga javob berishi kerak.

1.10. Tashrif buyuruvchilar bilan ishlash uchun mo'ljallangan ish tuynuklari

Mijozlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan ish tuynuklari sifatida, ayniqsa, yangi binolarda, tuynuklar yoki ikki tavaqali eshiklardan foydalaniladi. Odatda, ularga «ish tuynuklari» sifatida havola qilinadi.

Tashrif buyuruvchilar bilan ishlash uchun bir nechta tuynuklarga ega katta pochta aloqasi obyektlarida bu tuynuklardan foydalangan holda ehtimoliy o'g'irliklar va boshqa qoidabuzarliklar bilan bog'liq muammo yuzaga keladi. Uni bartaraf etish uchun ayrim mamlakatlarda qo'riqlash postidagi tovush signalizatsiyasini ishga tushiradigan tugma o'rnatiladi. Bir yoki bir nechta televizion kameralar ish stoykasining, odatda, mijoz turgan teskari tomonidagi joyni nazorat qilishi va ish pultidagi qo'riqchiga qandaydir qarorga kelgunga qadar vaziyatni baholash imkonini berishi mumkin. Aloqa xodimi yordam so'rashi yoki yuz berayotgan voqea-hodisa to'g'risida mahalliy huquqni muhofaza qilish organlari bo'limiga xabar qilishi mumkin. Ammo bunda tugmaning joylashgan joyi stoyka oldida turib ishlayotgan xodimlarning undan foydalanishi qulay bo'lishini ta'minlashi va ayni vaqtda bu tugmaning tasodifan bosilib ketishining istisno etilishi to'g'risida o'ylab ko'rish kerak. Tugmaning polga o'rnatilishi tavsiya etilmaydi.

1.11. Pochta aloqasi obyektlari xonalariga qo'yiladigan talablar

Pochta aloqasi obyektlari binolarining pochta jo'natmalari va pul mablag'larini saqlash uchun mo'ljallangan xonalarining asosiy bo'lmagan devorlari qo'shimcha ravishda ichki tomondan butun maydoni bo'ylab — 150×150 mm yacheykali diametri 10 mm bo'lgan armatura va bu devorning to'r bo'yicha shtukaturkasi bilan yoki 150×150 mm dan kam bo'lmagan yacheykali, diametri 15 mm dan kam bo'lmagan

chiviqli metall panjara bilan mahkamlanishi kerak. Eski qurilgan binolarda ichki tomondan po‘lat panjaralar bilan kuchaytirilgan taxtalardan ishlangan bo‘shliqsiz asosiy bo‘lmagan to‘siqlarga yo‘l qo‘yiladi.

Naqd pul mablag‘lari va shartli boyliklarning ishonchli saqlanishini ta‘minlash uchun bosh kassa quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1) boshqa xizmat va yordamchi xonalardan ajratilgan bo‘lishi;

2) bosh kassaning aloqa xodimlari bilan hisob-kitoblari uchun mo‘ljallangan alohida xonaga ega bo‘lishi, bu xonada stol va tarozi o‘rnatiladi. Aloqa xodimlari bilan operatsiyalarni o‘tkazish uchun ichkarisidan metall yoki ikki tomonidan taxtalangan tunuka yordamida qoplangan yog‘och eshikli maxsus tuynuk bilan jihozlanishi kerak. Ichki tomondan tuynuk ishonchli osma qulfli metall planka bilan berkitilishi zarur;

3) ko‘p qavatli binolarning birinchi qavatida joylashishi. Ichki ishlar organlari bilan kelishuv bo‘yicha bosh kassalarining ko‘p qavatli binolarning oraliq qavatlarida joylashishiga yo‘l qo‘yiladi;

4) asosiy dekorlarga, pol va shiftning mustahkam bostirmalariga, ishonchli ichki devorlar va to‘siqlarga ega bo‘lishi;

5) yopiladigan ikki eshikka ega bo‘lishi:

a) tashqariga ochiladigan, ikki tomondan taxta tunuka bilan qoplangan, ichkaridan metall zanjirga, ko‘rish teshigi, ikkita ichki qulf bilan qulflanadigan tashqi eshik;

b) ichkariga ochiladigan, po‘lat panjara ko‘rinishida tayyorlangan va osma qulf bilan yopiladigan yoki kassaning ichki joylashuvi tomonida o‘rnatilgan qulfga, shuningdek, metall surma zulfinga ega ichki eshik;

6) bosh kassa xonasining ichki tomonida romlar orasidagi deraza o‘rinlarida, issiqlik o‘tish joylarida, mo‘rilar, ventilatsiya kanallari, devorlari yupqa bo‘lgan to‘siqlarda va tashqi

tomondan unga kirish mumkin bo'lgan boshqa joylarida metall panjaralar bilan mustahkamlanishi kerak;

7) majburiy tartibda pul va shartli boyliklarni saqlash uchun yonmaydigan seyfga ega bo'lishi lozim.

Ichki devorlar va to'siqlar mustahkamligi bo'yicha orasiga po'lat panjara o'tkazilgan qalinligi 50 mm bo'lgan qo'shaloq gipsobeton panellarga yoki metall to'r bilan armaturalangan qalinligi kamida 120 mm bo'lgan g'ishtli devorga teng bo'lishi zarur.

Eski qurilgan binolarda ichki tomondan po'lat panjaralar bilan kuchaytirilgan taxtali bo'shliqsiz asosiy to'siqlarga yo'l qo'yiladi.

Kassa tuynugining o'lchami 200×300 mm dan oshmasligi kerak. Tashqi tomondan u «Chiqayotgan quyosh» tipidagi metall panjara bilan mustahkamlanadi.

Eshik korobkasi po'lat burchakdan ishlanadi. Ilgari qurilgan binolarda po'lat burchak bilan kuchaytirilgan yog'och eshik korobkalarining saqlanishiga yo'l qo'yiladi. Barcha hollarda ular devorga po'lat yorshlar bilan mustahkam mahkamlanadi.

Tashqi kirish eshigi, deraza eshiklari, kassa tuynugining eshiklari va to'siqlar qalinligi 40 mm dan kam bo'lmagan taxtalardan yasaladi, bu taxtalar ikki tomondan tunuka chetlarini ularning ichki qismlariga qayirib, tunukalarning old tomondan tutashuvini istisno qilgan holda qalaylangan po'lat tunuka bilan qoplanadi. Metall tunuka uzunligi 40 mm kam bo'lmagan mixlar bilan taxtalarga perimetri va diagonali bo'yicha 60 mm gacha qadam bilan mahkamlanadi.

Tashqi eshiklar zich, tirqishlarsiz ichki oshiq-moshiqlarga o'rnatiladi va diametri 12–15 mm boltlar bilan mahkamlanadigan, gaykalari xona ichiga qaratilgan (bu tomondagi boltlar uchlari parchinlanadi) butun uzunligi bo'yicha kengligi 40–60 mm va qalinligi 5 mm dan kam bo'lmagan metall qoplamalar bilan jihozlanadi.

Qoplamalar qulf bandidagi payvandlab ulangan plastinali osma, ishonchli qulflar (tashqi tomonidan — omborxona qulflari tipidagi) bilan qulflanadi.

Barcha panjaralar o'lchami 150×150 mm dan ko'p bo'lmagan yacheykalarni hosil qilgan holda kamida 16 mm diametrli po'lat chivirlardan tayyorlanadi va qoqilgan metall shtirlarga payvandlash yo'li bilan devorga mahkamlanadi.

Shtirlar diametri 16 mm dan kam bo'lmagan po'latdan tayyorlanadi va qurilish konstruksiyalariga 150 mm dan kam bo'lmagan chuqurlikka qoqiladi.

Panjaralar romlari o'lchami 30×40 mm va qalinligi 5 mm dan kam bo'lmagan po'lat burchakdan tayyorlanadi. Perimetri bo'yicha u bilan kassa tuynugi, eshik korobkalari va muhandis tarmoqlarining o'tishi uchun mo'ljallangan devorlar, pol va shiftdagi barcha boshqa teshiklar jihozlanadi. Qolgan teshiklarning diametri 200 mm dan ko'p bo'lmasligi kerak.

Bosh kassalar quyidagi talablarni hisobga olgan holda qo'riqlash-yong'in signalizatsiyasi bilan jihozlanadi:

Birinchi chegara sifatida tashqi tomondan kirish mumkin bo'lgan xonalar perimetrlarining qurilish konstruksiyalari, deraza va eshik o'rinlari, lyuklar, ventilatsiya kanallari, issiqlik o'tish joylari, devorlari yupqa bo'lgan to'siqlar va, shu jumladan, po'lat panjaralar bilan jihozlangan xonalarning boshqa elementlari himoya qilinadi.

Ikkinchi chegara sifatida nazorat qilinadigan makonda buzg'unchilarning siljishlarini aniqlovchi ultratovush, infraqizil, optik-elektron, radioto'lqinli va qo'riqlash-yong'in signalizatsiyasining boshqa xabar bergichlari yordamida pul va shartli boyliklarni saqlash uchun seyflar himoya qilinadi.

Qo'riqlash-yong'in signalizatsiyasi MQPga chiqariladi, MQP bo'lmaganda, qo'riqlash turiga bog'liq holda, navbatchi xodimlar yoki qo'riqlash idora postining pultiga, kichik sig'imli konsentratorlar yoki avtonom xabar bergichlarga chiqariladi.

Himoyalashning birinchi chegarasida signalizatsiya shleyflarining nazoratini ta'minlaydigan qabul-nazorat qilish asboblari qo'llanilishi kerak. Bunday asboblardan va xabar bergichlar MQPga keyingi uzatish bilan kichik sig'imli konsentratorlarga, idoraviy qo'riqlash pultiga ulanadi.

Qo'riqlash-yong'in signalizatsiyasi va kassaning yoritilishi alohida montaj qilinadi va turli manbalardan elektr toki bilan ta'minlanadi. Barcha turdagi simlar yashirin tarzda bajariladi. Istisno hollarda temirbeton yoki beton qurilish konstruksiyalari bo'ylab xona ichida shleyflar va metall quvurlarni yotqizishga yo'l qo'yiladi.

Ish kunining oxirida bosh kassalarda jinoyatchilarga metall seyflarni buzish uchun elektrodrellar, burchak shlifovka qiladigan mashinkalar va sh.k. vositalardan foydalanish imkoniyatini bermaslik uchun yoritish, rozetkalar va elektr ta'minotining boshqa chiqishlarini tokdan uzib qo'yish amalga oshiriladi. Ish kuni boshlanishi bilan bosh kassa elektr ta'minotining ulanishi faqat bosh kassadan izolatsiya qilingan xonalar (idoraviy qo'riqlash pulti, qorovul qo'riqlash posti, pochta aloqasi obyekti rahbarlarining kabineti)dan bajariladi.

Ichki ishlar organlarining idoradan tashqari qo'riqlash bo'linmalari tomonidan xizmat ko'rsatilishi uchun qabul qilinadigan bosh kassalar bu bo'linmalar rahbariyatining ko'rsatmasiga ko'ra qo'shimcha ravishda himoyalash vositalari bilan jihozlanishi mumkin.

Yong'in xabar bergichlar ularning kecha-yu kunduz ishlashini ta'minlash maqsadida mustaqil shleyflarga kiritilishi kerak.

Yong'in signalizatsiyasi shleyfning MQPga ulanishini alohida liniyalar bo'yicha bajarish darkor.

Yong'in signalizatsiyasi tizimlari asboblarning elektr ta'minoti 1-toifali ishonchlik bo'yicha bajarilishi yoki 24 soat navbatchi rejimda, 3 soat «trevoga» rejimidagi sig'imli rezerv batareyasi bilan ta'minlanishi kerak.

Shartli boyliklar va pochta jo‘natmalarini saqlash xonalariga qo‘yiladigan talablar.

O‘zbekiston Respublikasida belgilangan 200 ta eng kam ish haqidan ko‘p bo‘lgan summaga teng shartli boyliklar va pochta jo‘natmalarini saqlash uchun mo‘ljallangan xona texnik imkoniyat mavjud bo‘lgan holda har bir qo‘riqlash chegarasini alohida nomerga chiqargan holda qo‘riqlash signalizatsiyasining ikki chegarasi bilan jihozlanadi.

Xonada shartli boyliklar va pochta jo‘natmalarini saqlash uchun seyflar, mayda paketlar, posilkalar, yuqori qiymatli posilkalar, qiymati e‘lon qilingan xatlar va posilkalarni saqlash uchun temir javon, oddiy posilkalarni saqlash uchun stellajlar o‘rnatilgan bo‘lishi kerak.

Operatsion zal xonalariga qo‘yiladigan talablar.

Operatsion zalning kirish eshiklari soz holatda bo‘lishi, eshik korobkalarida yaxshi mahkamlangan bo‘lishi kerak. Kamida ikkita qulfga ega bo‘lishi lozim: ichki va quloqchalar yordamida osiladigan osma qulf. Ikki tavaqali eshikning bir tavaqasi eshik polotnosining yuqori va quyi qismlarida o‘rnatiladigan metall zulfinlar (shpingaletlar) bilan jihozlangan bo‘lishi kerak. Zulfin o‘qining diametri — 10 mm, uning tagidagi teshik chuqurligi — 30 mm. Eshiklar oynalangan holda ichkari tomondan chiviqlarining diametri 10 mm bo‘lgan va vertikal chiviqlari orasidagi masofa 150 mm dan ko‘p bo‘lmagan metall panjaralar o‘rnatilishi lozim.

Operatsion zalda aloqa xodimlarining ish joylarini mijozlar zalidan ajratish uchun mijozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishga mo‘ljallangan tuynukli, balandligi 150 sm dan kam bo‘lmagan to‘siq o‘rnatilgan bo‘lishi kerak. To‘siq zulfin va osma qulflarga berkiladigan eshiklarga ega bo‘lishi zarur.

Aloqa xodimlarining ish joylari pul mablag‘lari, shartli boyliklar, nomli buyumlarni saqlash uchun mo‘ljallangan metall quticha, «trevoga» signalizatsiyasi tugmalari bilan jihozlanadi.

Pochta jo'natmalarini qabul qilish va berish bo'yicha aloqa xodimi ish joyining to'sig'ida tarozi montaj qilinadi, yetarli ishlab chiqarish maydonlari mavjud bo'lganda posilkalarni saqlash joyidan aloqa xodimining ish joyiga uzatish uchun lyuk tuynugi jihozlanadi.

Pul mablag'larining pochta o'tkazmalari va pensiyalarni qabul qilish va to'lash bo'yicha aloqa xodimining ish joyi imkoni boricha boshqa aloqa xodimlarining bemalol kira olishini istisno etishi kerak.

Yetkazib berish xizmatining xonasiga qo'yiladigan talablar.

Yetkazib berish xizmatining xonasi boshqa xonalardan ajratilgan bo'lishi kerak.

Davriy nashrlar, yozma xat-xabarlarni yetkazib berish uchastkalari bo'yicha saralash va ishlab chiqarish hujjatlarini saqlash uchun devorga osiladigan javonlar, stollar o'rnatiladi.

Pochta jo'natmalariga ishlov berish va saralash uchastkasining xonasiga qo'yiladigan talablar.

Pochta jo'natmalariga ishlov berish va saralash uchastkasining xonasi boshqa xonalardan ajratilgan bo'lishi, boshqa aloqa xodimlarining bemalol kira olishini istisno qilishi kerak.

Tashqariga ochiladigan, ko'rish tuynukchasiga ega, ichkarisidan qulflanadigan, metall zanjir (zulfin)li, ikki tomonidan tunuka bilan qoplangan taxta eshigi bo'lishi shart.

Pochta aloqasi obyektlari xonalarining uskunalanishiga qo'yiladigan talablar.

Kirish eshigi soz holatda bo'lishi, eshik korobkalarida yaxshi mahkamlangan, ikki tomonidan metall tunuka bilan qoplangan, kamida ikkita qulfga ega bo'lishi kerak: ichki va quloqchalar yordamida osiladigan osma qulflar.

Almashinuv lyuklari yaxlit metallardan ishlangan bo'lishi lozim. Lyuklar eshiklari ko'chadan begona shaxslarning bemalol kirish imkoniyatini istisno qiluvchi ishonchli zulfinlarga ega bo'lishi kerak.

Pochta jo'natmalari va shartli boyliklar saqlanadigan omborxonalar eshiklari taxtadan bo'lishi, qalinligi 40 mm

dan kam bo'lmagan, ikki tomonidan chetlari eshik yon tomonlariga qayriltirilgan tunuka bilan qoplangan bo'lishi darkor.

Bu xonalar derazalari va ventilatsiya shaxtalari, qutilari ichki tomondan (yoki romlar o'rtasida) diametri 15 mm dan kam bo'lmagan chiviqdan bajarilgan po'lat panjaralar bilan himoyalangan bo'lishi kerak. Chiviqalar har bir kesishuvda 150×150 mm dan ko'p bo'lmagan yacheykalarni hosil qilgan holda payvandlanadi. Deraza o'rnidagi panjara chiviqalarining uchlari kamida 80 mm chuqurlik bilan devorga o'yib kiritiladi va beton quyiladi. Osmo qulflarga yopilishi va muhrlanishi kerak bo'lgan suriladigan, ikki tomonga ochiladigan panjaralarni tayyorlashga yo'l qo'yiladi.

Omborxonada quyidagilar o'rnatilishi kerak:

a) mayda posilkalar, qiymati 5 ta eng kam ish haqidan yuqori e'lon qilingan posilkalar, qiymati e'lon qilingan xatlar va banderollar saqlanadigan temir sandiq;

b) oddiy posilkalar saqlanadigan stellajlar.

1.12. Signalizatsiya

O'g'riliklarning oldini olish bo'yicha choralar dasturining ajralmas qismi bo'lib, pochta aloqasi obyektlarida qo'riqlash signalizatsiyasi tizimlarini o'rnatish va xizmat ko'rsatish hisoblanadi. Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan falsafa obyektlarning o'rtacha sutkadagi hisoboti asosida obyektlar tasniflanishini ko'zda tutadi. Asosan, bu hisobot o'rnatilishi kerak bo'lgan qo'riqlash tizimi turining murakkablik darajasini belgilaydi. U barcha naqd pullar, pochta markalarining zaxirasi, katta pul qiymatiga ega har qanday boshqa buyumlar, masalan, kompyuterlardan iborat. Signalizatsiya o'rnatilishi kerakmi yoki yo'q va tizimining qaysi tipidan foydalanish kerakligi to'g'risidagi oxirgi qaror, ko'pincha, uskunaning mavjudligiga va ogohlantiruvchi choralar dasturiga nisbatan hukmron falsafasiga bog'liq. Shu

sabablarga ko'ra signalizatsiyaning o'rnatilishi to'g'risidagi qaror qo'riqlash elektron vositalari bo'yicha mutaxassis fikrini va qo'riqlash bo'yicha maxsus inspektorning tavsiyalarini hisobga olgan holda qabul qilinadi.

Qo'riqlash elektron vositalari bo'yicha mutaxassislar signalizatsiyani o'rnatishda yanada ko'p mahorat ko'rsatmoqdalar. Hozirgi vaqtda ba'zi obyektlarda turli chalg'ituvchi qurilmalar, shu jumladan, soxta uzgichlar va seyflarga olib boruvchi ochiq chalg'ituvchi simlar o'rnatiladi. Eshiklar, derazalar va savdo avtomatlarida qo'shimcha datchiklar o'rnatilmoqda. Signalizatsiya uskunasiidan foydalanishda va o'rnatishdagi boy tasavvur hamda ijodkorlik tizimidan maksimal himoyaga ega bo'lish uchun hayotiy muhim bo'lib hisoblanadi. Kecha-yu kunduz ishlaydigan pochta aloqasi obyektlari, odatda, qo'riqlash signalizatsiyasiga ega emas, sababi ular talon-taroj qilinmaydi.

Tekshiruv o'tkazilganda pochta aloqasi obyektida ovozsiz signalizatsiyadan foydalaniladimi va, oxir-oqibat, telefon taqsimlash paneli yoki javon maskirovkalanishi kerak yoki yo'qligini aniqlab olish zarur. Javonlar va panellar, shuningdek, ulardagi telefon simlari markalanmagan bo'lishi darkor. Ko'pincha texnik-telefonchi telefonlarga xizmat ko'rsatish yoki ta'mirlashda signalizatsiya simlarini markalaydi. Signalizatsiya uzgichlaridan foydalanish qulay bo'lishi va ular markalanmagan bo'lishi kerak. Tashrif buyuruvchilar yoki buzg'unchilar ko'rib qolishi mumkin bo'lgan signalizatsiyaning tekshirilganligi yoki yoqilganligi to'g'risidagi hech qanday oshkora belgilar bo'lmasligi shart.

Barcha bu tizimlar uchun pochta aloqasi obyektidagi xodimlari tomonidan o'tkaziladigan signalizatsiyaning davriy tekshiruvlari zarur hisoblanadi. Har bir pochta aloqasi obyektidagi rahbarlari bu tekshiruvlar muntazam o'tkazilayotganligiga ishonch hosil qilish uchun bu tekshiruv protseduralari bo'yicha imtihon qilinishlari kerak. Signalizatsiyaning xato

ishlab ketishi har doim muammo bo'lganligi sababli, rahbarlar xodimlar tomonidan signalizatsiya yoqilishining oldini olish uchun tizimning ishlashi to'g'risida ularga doim eslatib turishlari zarur. Agar xodimlar sababli signalizatsiyaning ishlab ketishi hollari davom etaversa, ehtimol, rahbarlar zimmasiga o'rta darajadagi rahbarlarga bu muammo uchun javobgarlik yuklanadigan eslatib turuvchi majburiy xatni e'lon qilish majburiyatini yuklash kerak bo'lar. Ofislar tekshirilayotganda signalizatsiyaning borligi to'g'risidagi ogohlantiruvchi yorliqlar mavjudligini tekshirish zarur. Bu yorliq bosh, kirish, orqa eshiklarning ko'rinadigan joyida doimo mahkamlangan bo'lishi kerak. Bu yorliqlardan signalizatsiya o'rnatilgan yoki o'rnatilmaganligidan qat'i nazar foydalanish zarur.

Pochta aloqasi obyektining derazalari, eshiklari, lyuklari, ventilatsiya shaxtalari va qutilari, tashqaridan kirish mumkin bo'lgan boshqa joylari qo'riqlash signalizatsiyasi vositalari bilan jihozlanishi lozim.

Qo'riqlash-yong'in signalizatsiyasi tizimi kecha-yu kunduz ishlash qobiliyatini ta'minlashi kerak. Yong'in to'g'risida xabar bergichlar trevoga signallarini MQPga yoki mahalliy tovush va rang signalizatorlariga chiqargan holda umumiy yoki mustaqil qabul qilish-nazorat asboblari ulangan umumiy yoki mustaqil blokirovkalash shleyflariga kiritilishi darkor.

Pochta aloqasi obyektlariga qo'riqlash-yong'in signalizatsiyasi uskunasining zarur ekanligini pochta aloqasi operatori belgilaydi.

Pochta aloqasi obyektlari (pochta aloqasi bog'lamalari, pochta tamlar, pochta almashinuv punktlari)ni qo'riqlash-yong'in signalizatsiyasi vositalari bilan jihozlash bo'yicha ishlarni tayyorlash va bajarish idoraviy qurilish normalariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

1.13. Pochta aloqasi obyektlarining texnik mustahkamlanganligini pasportlashtirish va istiqbolli rejalashtirish

Pochta aloqasi obyektlarining texnik mustahkamlanganligi holatini nazorat qilish maqsadida pochta jo'natmalariga ishlov berish va pul mablag'larini saqlash amalga oshiriladigan binolar, xonalarning texnik mustahkamlanganligini pasportlashtirish o'tkaziladi. Texnik mustahkamlanganlik bo'yicha pasport har uch yilda bir marta tuziladi.

Har bir pochta aloqasi obyekti bo'yicha pasportlashtirish ma'lumotlari asosida pochta aloqasi obyektlarining texnik mustahkamlanganligi istiqbolli rejasi tuziladi.

Pochta aloqasi obyektlarining texnik mustahkamlanganligi holati va qo'riqlash-yong'in signalizatsiyasi vositalari bilan jihozlanganlik hamda istiqbolli reja bajarilishining nazorati PXX tomonidan amalga oshiriladi.

1.14. Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda pochta aloqasi obyektlarida tezkor navbatchilikni tashkil qilish va xabardor qilish tartibi

Korxona va xodimlar xavfsizligini tashkil qilishda FV yuzaga kelganligi to'g'risida tegishli vakolatlangan organlarni o'z vaqtida xabardor qilish katta ahamiyatga ega. FV yuzaga kelganligi to'g'risidagi axborotni qayd qilish va korxona rahbariyatiga o'z vaqtida yetkazish hamda ular oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tezkor choralar ko'rish maqsadida korxonalar va ularning tarkibiy bo'linmalarida navbatchiliklar tashkil qilinadi.

Korxonalar va ularning tarkibiy bo'linmalarida navbatchiliklar ish va dam olish kunlarida amalga oshiriladi. Navbatchiliklar, odatda: ish kunlarida ish rejimini hisobga olgan holda soat 8.00 dan 18.00 gacha yoki soat 9.00 dan 19.00 gacha, dam olish kunlarida soat 9.00 dan 15.00 gacha amalga oshiriladi.

Navbatchilarning kecha-yu kunduz bo'lishlarini hisobga olgan holda bayram oldi va bayram kunlaridagi navbatchiliklar pochta aloqasi obyektlarida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ko'rsatmalari asosida tashkil qilinadi.

Kecha-yu kunduz navbatchilikni tashkil qilishda rahbarlar buyruqlari bilan rahbariyat ichidan mas'ul navbatchilar belgilanadi.

Pochta aloqasi obyekti bo'yicha navbatchining majburiyatlari:

- o'z vaqtida, tasdiqlangan navbatchiliklar grafigi asosida navbatchilikka kelish, navbatchilikka kelish imkoni bo'lmaganda oldindan bu haqda navbatchilikka chiqa olmaslik sabablarini tushuntirgan holda PXX inspektoriga, rahbar (uning o'rinbosari)ga xabar qilish;

- FV yuzaga kelganda xabardor qilish sxemasini o'rganish;

- belgilangan jurnalda FV yuzaga kelganligi to'g'risida yozib qo'yish. FV to'g'risida vakolatlangan organlarni, pochta aloqasi obyekti rahbarlarini xabardor qilish, rahbariyat va mas'ul navbatchi topshiriqlarini bajarish.

Pochta aloqasi obyekti bo'yicha mas'ul navbatchi rahbar kelgunga qadar favquloddagi hodisa oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha uning majburiyatlarini bajaradi, shaxsan yoki navbatchi orqali avariya-tiklash ishlarini tashkil qilish bo'yicha farmoyishlar va ko'rsatmalar beradi, kerakli aloqa xodimlariga xabar qilish va ularni yig'ish to'g'risida qaror qabul qiladi.

FV yuzaga kelganligi to'g'risidagi axborotning o'z vaqtida uzatilishini ta'minlash maqsadida korxonalar yoki ularning tarkibiy bo'linmalarida yuqori turuvchi pochta aloqasi tashkilotlari va hududiy vakolatlangan organlar bilan muloqot telefonlarining ro'yxati bo'lishi kerak.

Aloqa xodimlari bilan FVning oldini olish va ularni tugatish bo'yicha xatti-harakatlar tasdiqlangan rejalariga muvofiq FVning kengayishiga yo'l qo'ymaslik, ularni tugatish bo'yicha mashg'ulotlar (mashqlar) o'tkazilishi kerak.

FV yuzaga kelganda FV faktini aniqlagan aloqa xodimidan O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi rahbariyati va mas'ul navbatchisigacha axborot o'tishining tartibi belgilanadi.

Axborot uzatilishi kerak bo'lgan mansabdor shaxslar bo'lmagan holda aloqa xodimi bo'lmagan mansabdor shaxs majburiyatlariga muvofiq axborotni uzatishi kerak.

Yong'in, bosqinchilik hujumida, terroristik aktlar, avtohalokatlar va vakolatli organlarning darhol aralashuvini talab qiladigan boshqa voqea-hodisalarda FV guvohi hisoblangan aloqa xodimi mustaqil ravishda favquloddagi hodisa to'g'risida bu organlarga xabar qilishi lozim.

FV to'g'risidagi axborot quyidagi ma'lumotlardan iborat bo'lishi kerak:

- pochta aloqasi obyektining nomi va uning manzili;
- pochta aloqasi objekti rahbarining ismi, familiyasi;
- sanasi, vaqti, buzilishlar va shikastlanishlar xarakteri, egallagan lavozimlarini ko'rsatgan holda FV vaqtida jarohatlar olgan yoki halok bo'lgan aloqa xodimlarining sonini ko'rsatib pochta aloqasi obyektida yuzaga kelgan FV tarkibi;

- FVni tugatish bo'yicha ko'rilgan choralar, FV to'g'risida xabar berilgan organlar nomlari, FV oqibatlarini tugatishda qanday vakolatlangan organlar ishtirok etgan, jabr ko'rganlarga tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha ko'rilgan choralar.

Nazorat savollari

1. «Korxona xavfsizligi» atamasiga ta'rif bering. Korxona xavfsizligi tizimini yaratish maqsadi nimadan iborat?

2. Korxona xavfsizligi tizimini qurishda qanday qoidalarga rioya qilinishi kerak?

3. Binolar va inshootlar xavfsizligiga qanday talablar qo'yiladi?

4. Binolar va inshootlar xavfsizligini ta'minlashda videokuzatuv tizimining vazifasi qanday? Xavfsizlik tizimlarida videokuzatuv tizimlarining qaysi turlaridan foydalaniladi?

5. Hududlar to'siqlari, olib borish yo'llari, himoyaviy yoritishga xavfsizlik masalalari bo'yicha qanday talablar qo'yiladi?

6. Eshiklar va qulflar, derazalarga, tashrif buyuruvchilar bilan ishlash uchun darchalarga xavfsizlik masalalari bo'yicha qanday talablar qo'yiladi?

7. Pochta aloqasi obyektlarining xonalariga: asosiy kassalari, shartli boyliklar va pochta jo'natmalarini saqlash uchun xonolari, operatsion zallari, xonalariga xavfsizlik masalalari bo'yicha qanday talablar qo'yiladi?

8. Qo'riqlash-yong'in signalizatsiyasi tizimini o'rnatishdan maqsad va uning korxonaning umumiy xavfsizlik tizimidagi vazifasi?

9. Korxonalarda tezkor navbatchilik qanday maqsadlarda tashkil etiladi?

2-BOB. POCHTA JO‘NATMALARINI POCHTA XAVFSIZLIGI PREDMETIGA NAZORAT QILISH SHAKLLARI VA METODLARI

2.1. Skrining ta’riflanishi. Pochta jo‘natmalarida xavfli buyumlar va moddalarni jo‘natishning tipik holatlari

Skrining jinoyatning oldini olish, jo‘natilayotgan joylanmaning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini ta’minlash va shubha qilinayotgan jinoyatchi shaxslarni aniqlash maqsadida, yuridik va ma’muriy ko‘rsatmalar asosida bajariladigan pochta jo‘natmasini ko‘rikdan o‘tkazish sifatida ta’riflanadi.

Ko‘p mamlakatlarda pochta jo‘natmalarini ochish yoki musodara qilishdan himoyalashning ba’zi qo‘shimcha darajasi mavjud. Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlarida pochta jo‘natmasi tergovchi jo‘natmada sodir etilgan jinoyat dalilining mavjud ekanligi ehtimolini aniqlaganidan keyin prokuror tomonidan tintuvni amalga oshirish to‘g‘risidagi order taqdim etilishi bilan bu pochta jo‘natmasi ochilishi va/yoki musodara qilinishi mumkin. Jo‘natmada dalil bo‘lishi ehtimoli shubhadan ustunroq bo‘lishi kerak. Bu mansabdor shaxsni jinoyat sodir etilgan yoki sodir etilish arafasida ekanligiga ishon tirish uchun yetarli bo‘lgan axborot hajmi bo‘lishi kerak. Aniqlash muhim payt hisoblanadi, sababi konstitutsiyaviy huquqlar buzilganda olingan dalillardan gumon qilinuvchiga qarshi foydalanib bo‘lmaydi, garchi ular gumon qilinuvchi jinoyatni sodir etganligini tasdiqlasa ham.

Shunga qaramay, ba’zi hammabop bo‘lmagan protseduralardan posilkaning tashqi ko‘rinishi bo‘yicha yoki yetarlicha

katta ehtimoliy xavf bo'lganda (masalan, bombaning mavjud bo'lish ehtimolida va sh.k.), ko'zdan kechirishda invaziv xatti-harakatlar minimumini qo'llagan holda aniqlanadigan xos belgilarni aniqlash uchun pochta jo'natmalarining skriningida foydalanishga ruxsat beriladi.

Pochta jo'natmalarini pochta xavfsizligi buyumiga nazorat qilish — skrining-ko'zdan kechirish va texnik vositalarni qo'llagan holda amalga oshiriladi.

Barcha pochta jo'natmalarini ko'zdan kechirish vositasida nazorat qilish ularni qabul qilish, saralash va ishlov berishni amalga oshiradigan aloqa xodimlari zimmasiga yuklanadi. Almashinuv punktida jo'natiladigan pochtni ko'zdan kechirib nazorat qilish PXX mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi.

Pochta aloqasi obyektlarida pochta xavfsizligi buyumiga pochta jo'natmalarini nazorat qilish joylari uskunalanadi, ular quyidagilar bilan jihozlanadi:

- jo'natilishi taqiqlangan buyumlar va moddalar ro'yxati;
- pochta jo'natmalari alohida e'tiborni talab qiladigan mamlakatlar ro'yxati;
- texnik nazorat qilish vositalari;
- FV yuzaga kelganda xabar qilish sxemasi;
- ichida xavfli yoki jo'natilishi taqiqlangan moddalar va buyumlar belgilariga ega pochta jo'natmalari aniqlanganda xatti-harakatlar to'g'risidagi qo'llanma;
- pochta jo'natmalarida xavfli yoki jo'natilishi taqiqlangan moddalar va buyumlar mavjudligi belgilarining ro'yxatiga ega qo'llanma;
- xavfli yoki jo'natilishi taqiqlangan moddalar va buyumlar belgilariga ega pochta jo'natmalarini ajratish vositalari;
- yakka tartibdagi himoya vositalari (rezina qo'lqoplar, dokali bog'ichlar, respiratorlar);

— vakolatlangan organlarning tezkor bo‘linmalari (navbatchi qismlari) bilan muloqot telefonlarining ro‘yxati.

PXX mutaxassislari pochta qoplariga berkitilgan hamda berkitilmagan holda jo‘natiladigan pochta jo‘natmalarini ko‘zdan kechirib, shuningdek, texnik vositalardan foydalanib nazoratni amalga oshiradilar.

Pochta jo‘natmalarini yanada ishonchli nazorat qilish uchun texnik vositalardan foydalaniladi, texnik vositalarni qo‘llagan holda pochta xavfsizligi buyumiga pochta jo‘natmalarini nazorat qilish uchun ajratilgan joylar tashkil qilinadi.

Pochta jo‘natmalarini pochta xavfsizligi buyumiga nazorat qilish joylari quyidagilar bilan jihozlangan bo‘lishi kerak:

- texnik nazorat qilish vositalari (dozimetr, metall detektori va b.);

- xabar qilish sxemasi;

- jo‘natilishi taqiqlangan moddalar va buyumlar belgilariga ega pochta jo‘natmalari aniqlanganda xatti-harakatlar to‘g‘risidagi qo‘llanma;

- pochta jo‘natmalarida va/yoki narsalarda xavfli yoki jo‘natilishi taqiqlangan moddalar va buyumlar mavjudligi belgilarining ro‘yxatiga ega qo‘llanma;

- xavfli yoki jo‘natilishi taqiqlangan moddalar va buyumlar belgilariga ega pochta jo‘natmalarini ajratish vositalari, yakka tartibdagi himoya vositalari.

Bundan tashqari, Xalqaro pochtaamtda pochta jo‘natmalarini nazorat qilish joylari portlovchi moddalar bug‘larining analizatori (gaz analizatori) bilan jihozlanishi kerak.

Pochta jo‘natmalarida va/yoki narsalarda jo‘natilishi taqiqlangan buyumlar va buyumlarni aniqlash uchun rentgen texnikasi va boshqa texnik nazorat qilish vositalari qo‘llanishi mumkin.

Texnik vositalarni qoʻllagan holda pochta xavfsizligi buyumiga pochta aloqasi obyektlarida keluvchi va chiquvchi pochta joʻnatmalari nazorat qilinishi kerak.

Xalqaro pochtaamt, Toshkent shahar pochta almashinuvi va ishlov berish uchastkasi, pochta aloqasi hududiy (viloyat) tashkilotining pochta almashinuv punktiga pochta vagoni va/yoki pochta avtomashinasi bilan keladigan yozma xat-xabarli qoplar, sugʻurtali qoplar va posilkalar pochtaga ishlov berish va saralash boʻyicha aloqa xodimi huzurida PXX mutaxassisi tomonidan tekshiriladi.

Pochta joʻnatmalarini texnik vositalar bilan tekshirish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- rentgen texnikasi;
- gaz analizatori;
- dozimetr;
- metall detektor bilan (yozma xat-xabarlarda metall buyumlar mavjudligini nazorat qilish).

Pochta joʻnatmalarini nazorat qilish pochta belgilangan joyga joʻnatish muddatlariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Texnik nazorat qilish vositalariga masʼul boʻlgan shaxs xavfsizlik uchun javobgar boʻlgan xodimlar ichidan buyruq bilan tayinlanadi. Ushbu xodimlar xavfli va/yoki joʻnatilishi taqiqlangan moddalar va buyumlarni aniqlash usullari va metodlariga maxsus oʻqitilgan, texnik vositalarni ekspluatatsiya qilish qoidalari boʻyicha sinovdan oʻtgandan keyin texnik vositalar bilan ishlashga qoʻyiladi.

Aloqa xodimlari texnik vositani ekspluatatsiya qilish boʻyicha qoʻllanma (yoʻriqnoma)ga qatʼiy amal qilgan va tayyorlovchi zavod tomonidan belgilangan xavfsizlik choralariga rioya qilgan holda texnik vositalarni qoʻllab pochta joʻnatmalarining nazoratini amalga oshiradi.

Har bir texnik vosita uchun ushbu asbobning texnik xarakteristikalarini, uni ekspluatatsiya qilish boʻyicha

ko'rsatmalar va uni qo'llashdagi xavfsizlik choralarini hisobga olgan holda alohida joy uskunalanadi.

Skrining yordamida hal etiladigan asosiy vazifa — pochta jo'natmalarida jo'natilishi taqiqlangan xavfli buyumlar va moddalarni aniqlash.

Odatda, terroristik maqsadlarda biologik (bakteriologik) vositalar, kimyoviy va radioaktiv moddalardan foydalanish manzilli xarakterga ega — muayyan shaxslar yoki obyektlarga zarba berish uchun mo'ljallangan, ammo ma'lum sharoitlarda keng ko'lamli zarba berish o'chog'i bo'lib xizmat qilishi mumkin. Pochta aloqasi tarmog'i biologik (bakteriologik) vositalar, kimyoviy va radioaktiv moddalarni manzilli yetkazib berishning ideal vositasi bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston PXX asosiy vazifalaridan biri pochta jo'natmalarida portlovchi, tez alanganuvchi, zaharlovchi, kimyoviy moddalar, ionlovchi nurlanish manbalari, biologik (bakteriologik) vositalar, portlatish qurilmalari, shuningdek, hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lgan moddalar va buyumlarni aniqlash hisoblanadi.

«Kuydirgi» kasalligini eshitganda, biz, birinchi navbatda, 2001–2002-yillarda dunyoning ko'pgina mamlakatlarini qamrab olgan «pochta terrorizmi» talvasasini esga olamiz. O'shanda noma'lum yovuz niyatli odamlarning aybi sababli o'nlab odamlar bu xavfli kasallik bakteriyalari bilan zararlangan, ulardan ayrimlari vafot etgan edilar.

Biologik (bakteriologik) vositalarda odamlar, uy hayvonlarini halok qiluvchi yoki ishdan chiqaruvchi organizmlar mavjud.

Inson organizmi yoki hayvonga fiziologik ta'sir xarakteri bo'yicha kimyoviy moddalar (birikmalar) quyidagilarga ajratiladi:

- asab-falaj qiluvchi moddalar (zarin, zoman, V-gazlar) — asab tizimining og'ir shikastlanishini keltirib chiqaradi;

- teri-yiringlatuvchi moddalar (iprit, luizit) — organlar va to'qimalarda uzoq davom etadigan yallig'lanish jarayonlarini

keltirib chiqaradi, shuningdek, umumiy zaharlovchi ta'sir ko'rsatadi;

— umumiy zaharlovchi moddalar (sianid kislota, xlorcian) — ko'pgina organlarning normal funksional hayot faoliyatini buzadi;

— bo'g'uvchi moddalar (fosgen, difosgen) — nafas olish jarayonini va o'pka hamda barcha organlar va to'qimalardagi kislorod almashinuvini buzadi;

— qo'zg'atuvchi (xloratsetofen, adamsit) — ko'z yoshining oqishi va yuqori nafas olish yo'llarining qo'zg'alishini keltirib chiqaradi;

— psixotomimetik (ruhiy-kimyoviy) moddalar — ruhiy faoliyatning turli buzilishlarini keltirib chiqaradi.

2001-yil kuzida kuydirgining oq rangli kukun ko'rinishidagi sporalari AQSH hukumati va ommaviy axborot vositalari vakillariga jo'natildi. Pochtani saralovchi mashinalar va bevosita xatlarning ochilishi sporalarning aerosol tarqalishiga sabab bo'ldi. Buning oqibatida bir nechta odamlar vafot etdilar. Terrorchilarning maqsadi pochta xizmatining ishini buzish va aholi o'rtasida yetkazib berilgan pochta bilan muomalada bo'lishdan qo'rquv hissini keltirib chiqarish edi.

Kuydirgi kasalligining o'zi nima?

Kuydirgi kasalligi bu o'tkir yuqumli kasallik bo'lib, eng xavfli karantin infeksiyalari ro'yxatida o'zining o'lim keltirishi bo'yicha taxminan 10-o'rinni egallaydi.

U odamlar va hayvonlarda uchraydi hamda bu kasallikni lotin tilidagi «Batsillus antratsis» (*Bacillus anthracis*) bakteriyasi keltirib chiqaradi. Bu noyob bakteriya ko'p yashaydigan sporalar (kapsula bilan qoplangan bakteriyalar)ni hosil qilish qobiliyati bilan ma'lum. Bu sporalar tuproqda va suvda saqlanishi mumkin hamda bir necha o'n yillar, hatto asrlar davomida o'z kasallik qo'zg'atish qobiliyatini saqlab qoladi. Bundan tashqari, ular havo muhitida hamda havo bo'lmaganda ham yashayveradi (ya'ni anaerob hisoblanadi).

Kuydirgi sporalari juda ham yashovchan bo'lib, ularni 30 daqiqa davomida qaynatilsa ham o'z kuchini yo'qotmaydi.

Kuydirgi eng keng tarqalgan teri kasalligi shaklida, davolash choralari ko'rilganda atigi 1—2 foiz o'lim darajasiga va davolash choralari ko'rilmaganda — 20 foizgacha o'lim darajasiga ega. Gastrointestinal (ichak) shaklida uning o'limga olib kelish darajasi ancha yuqori — 70—90 foiz va hatto 100 foizgacha. Ammo kuydirgining gastrointestinal (ichak) shakli juda kam uchraydi — asosan, tayanch sanitariya umuman mavjud bo'lmagan va aholi harom o'lgan hayvonlar go'shtini, ustiga- ustak yetarlicha termik ishlov berilmagan go'shtni iste'mol qiladigan mamlakatlarda uchraydi.

Kuydirgining xavfli shakli bo'lib, uning ingalatsion (o'pka) shakli hisoblanadi, tarixda bu kasallik «Jun tituvchilar kasalligi» (ingliz tilida «*Woolsorter's disease*») nomi bilan ma'lum, bu kasallik bakteriyalari bilan nafas olish ushbu kasallikni keltirib chiqaradi. Kuydirgining o'pka shakli juda yuqori o'lim darajasiga ega — kasallikka chalinganlarning 100 foizi dastlabki 24 soat ichida halok bo'ladi.

Eng avvalo, kuydirgi bakteriologik qurolning eng xavfli ko'rinishi emasligini bilish kerak. Birinchi o'rinda chechak kasalligi, ikkinchi o'rinda esa — o'lat kasalligi turadi.

Chechak (kasallikning lotincha nomi «*Variola vera*», qo'zg'atuvchisining nomi — «*Poxvirus variola*») eng xavfli karantin kasalliklari orasida faqat uchinchi o'rinni egallaydi (birinchi o'rinlarda o'lat va vabo turadi), shunga qaramay gap biologik qurol sifatida foydalanish uchun agentni tanlash to'g'risida ketganda, bu kasallik eng xavfli qirg'in quroli bo'lib hisoblanadi. Eng avvalo, chechakning davosi mavjud emas. Bu faqat bemorning o'ziga bog'liq — yashab ketadimi yoki yo'qmi? Shifokorlar bunday bemorga yordam berish uchun hech nima qila olmaydilar.

O'lat (lotincha nomi «*Pasteurella pestis*» yoki «*Yersinia pestis*») qadim zamonlardan beri har doim barcha yuqumli

kasalliklar ichida eng xavfli kasallik deb tan olingan. Avval «Qora o'lim» degan nom bilan ma'lum bo'lgan o'lat osonlik bilan butun bir xalqlarni qirib tashlashi mumkin. O'latning eng xavfli shakli — o'pka shakli — zamonaviy tibbiyotning barcha yutuqlariga qaramay 100 foiz o'lim darajasiga ega. O'lat, ayniqsa, uning o'pka shakli juda ham yuqumli bo'lib, lokal yoyilgan kasallikni bir zumda to'laqonli epidemiyalarga aylantirishi mumkin. Uning ustiga, o'latning yoyilib ketishini yuzaga keltirish uchun katta miqdordagi o'lat mikrobi talab qilinmaydi. Kichkina shisha idishdagi o'lat mikrobi butun shaharga qirg'in keltirishi mumkin.

Radioaktiv moddalar anchadan beri terroristik maqsadlarda qo'llanilib kelmoqda. Buning uchun terrorchilar nuqtayi nazaridan asosli sabablar mavjud: ta'sir ko'rsatuvchi moddaning katta bo'lmagan miqdori va yetkazib berish hamda terroristik akt sodir etiladigan obyektga (obyekt sifatida muayyan shaxs namoyon bo'ladi) ta'sir ko'rsatishning nihoyatda yuqori darajadagi yashirinligi. Odamlar ommaviy yig'iladigan joylarda radioaktiv moddaning shikastlash ta'siri keng ko'lamli xarakterga ega bo'ladi.

Radioaktiv moddalar pochta jo'natmalarida kukunsimon massa yoki radioaktiv nurlanishlar manbalari hisoblanadigan buyumlar ko'rinishida yuborilishi mumkin. Amalda radioaktiv moddalar (buyumlar) pochta jo'natmalarida istalgan jo'natishga ruxsat etilgan joylanma ko'rinishida yuborilishi mumkin.

Radioaktiv nurlanishning inson organizmiga ta'siri mutlaqo sezilmaydi, uni rangidan ham, hididan ham, mazasidan ham ajratib bo'lmaydi, oqibatlari esa nihoyatda xavfli va orqaga qaytarib bo'lmaydi.

Terrorchilar tomonidan portlatish qurilmalaridan foydalanilganda, odatda, terroristik aktlarni o'tkazishning quyidagi metodlari qo'llaniladi:

— bino yoniga qo'yilgan minalangan avtomobilni portlatish;

— portlatish qurilmasini bevosita obyektga yaqin bo'lgan joyga yoki uning ichiga joylash;

— portlatish qurilmalarini pochta jo'natmalarida yuborish.

Birinchi ikki usul odamlar ommaviy yig'iladigan joylarda ko'p miqdordagi portlatish moddalari (o'nlab kilogramm)dan foydalanishni ko'zda tutadi va, asosan, shikast yetkazuvchi omil — zarbali to'liqinning ta'sir ko'rsatishiga mo'ljallangan. Zarbali to'liqin shikastlovchi omil effekti PM yopiq makonda bo'lganda, yaqin joylashgan imoratlarning mavjudligi bilan kuchayadi. Ko'tarib turuvchi konstruksiyalar, muhandislik kommunikatsiyalarining buzilishi, portlatish qurilmasining portlashidan hamda to'sib turuvchi konstruksiyalar, avvalo, shisha yuzalarning buzilishidan hosil bo'lgan ko'p miqdordagi parchalarning har tarafga sochilishi katta shikastlanishlarga olib keladi.

Yakka tartibdagi terrorchilik aktlari sodir etilganda yovuz niyatli kishilar ko'pincha pochta orqali portlatish qurilmalarini yuborishga harakat qiladilar. Bu maqsadga osonlikcha erishish va yetkazib berishning deyarli anonimligi bilan izohlanadi. Portlash xavfi bo'lgan joylanma solingan pochta jo'natmasi ochilganda adresatning shikastlanishini ko'zda tutadi va, odatda, muayyan shaxslarga qarshi qaratilgan: turli davlat va tijorat strukturalarining rahbarlari va mas'ul xodimlarini jismoniy yo'q qilish, ayrim hollarda — butun muassasaga jiddiy shikast yetkazish maqsadida amalga oshiriladi.

Pochta orqali jo'natiladigan portlatish qurilmalari, odatda, xatlar, banderollar, posilkalarni yoki ularning portlatish qurilmasini maskirovka qilish maqsadida tayyorlangan archa, mexanik, elektron o'yinchoqlari, suvenirilar va sh.k.ga bo'yab niqoblangan tarkibini imitatsiya qiladi. Korpus (bo'yab niqoblangan) ko'p hollarda rentgen yordamida ko'rganda

ichidagi portlatish qurilmasi aniqlanishini qiyinlashtirishni hisobga olgan holda tayyorlanadi.

Tajriba ko'rsatganidek, shubhali buyumlarni tekshirgandagi asosiy qiyinchilik soyali tasvirlarning bir-biriga tushishi bilan bog'liq. Rentgen nuri yordamida ko'rilayotgan qalinlik qanchalik katta bo'lsa, ularni aniqlash shunchalik qiyin. Bu nafaqat rentgen apparaturasi operatorlariga, balki o'z portlash buyumlarini maskirovka qilishga intilayotgan terrorchilarga ham ma'lum.

Tez ta'sir kuchiga ega portlatish qurilmalari uning konstruksiyasi elementlariga bevosita ta'sir ko'rsatilganda harakatga keltiriladi (bosilganda, zarba berilganda, ustidagi yuki olinganda, konstruksiyasining elementlari buzilganda, simlari uzilganda va sh.k.).

Sekin ta'sir kuchiga ega portlatish qurilmalari — oldindan belgilangan muddat tugashi bilan (begonalarning ta'sirisiz) jangovar holatga keltiriladi.

Kontaktli va kontaktli bo'lmagan tiplardagi portlatgichlar farqlanadi:

— kontaktli portlatgichlar — o'roviga mexanik ta'sir ko'rsatilganda: ochilganda, paypaslab ko'rilganda, ichidagisi olinganda harakatga keladi;

— kontaktli bo'lmagan portlatgichlar — rentgen nurlanishi, magnit maydonlarning mavjud bo'lishi, barometrik (atmosfera) bosimi, atmosfera kimyoviy tarkibining o'zgarishi bilan harakatga keluvchi, radioportlatgichlar — radiokanal orqali harakatga keltiriladigan va sh.k.

Pochta kanali orqali qo'lda yasalgan portlatish qurilmasi solingan xat, banderol yoki posilkani yuborayotganda, yovuz niyatli kishi bu pochta jo'natmasi, uning fikricha, qolgan pochtdan hech ham farq qilmaydi, qandaydir yaqqol ifodalangan belgilarga ega emas va uni yetkazib berish davomida har qanday fizik ta'sirlarni ko'tara oladi. Ya'ni u pochta kanalining o'tishi bilan bog'liq bosim, tebranishlar, yengil zarbalarga nisbatan yetarlicha mustahkam va barqaror bo'lishi

kerak. Aks holda, portlash qayerdadir yo'lda yuz bersa, butun «tadbir» o'z mazmunini yo'qotadi va maqsadga erishilmaydi.

Shu tariqa, agar portlatish qurilmasi ko'rsatilgan fizik yuklamalarga dosh bera olgan bo'lsa, u uni tekshirish bilan bog'liq bo'lgan ta'sirlarni ham muvaffaqiyatli ko'tara oladi. Asosiysi, tekshirish o'rov butunligining shikastlanishiga olib kelmasligi kerak, axir terrorchi ajal keltiruvchi o'z qurilmasini tayyorlayotganda aynan shuni mo'ljallaydi.

Zamonaviy PM qog'ozga juda o'xshash bo'lgan zichlikka ega, sababi ularning asosiy komponenti nitroselluloza hisoblanadi. Ular, shuningdek, gaz detektorlari zo'rg'a ilg'ab oladigan moddalarning juda kuchsiz bug'lanishlariga ega. Shu bilan birga, portlatish qurilmalarining konstruksiyasida albatta pochta jo'natmalarining haqiqiy tarkibini demaskirovka qiluvchi boshqa elementlar ham bor. Shuning uchun ehtimoliy portlatish qurilmalarini aniqlash asosiy metodlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

— tarkibida portlatish qurilmalari bo'lgan pochta jo'natmalarining tashqi demaskirovka qiluvchi belgilarini aniqlashga asoslangan metod (og'irligi, qalinligi, o'rovlash usuli, joylanma xarakteri va sh.k.);

— ushbu holda eng ko'p axborot taqdim eta oladigan texnik vositalardan foydalanishga asoslangan metod.

Terrorizmning eng xavfli namoyon bo'lishlaridan biri bo'lib radioportlatgichli portlatish qurilmalaridan foydalanish hisoblanadi. Radioportlatgichning afzalligi bajaruvchi operatsiyani o'tkazishning aniq vaqtini tanlashdagi erkinligidan iborat. Zaryadni portlatish signalining uzoq masofadan berilishi terrorchini atrofdagilar sezib qolishlari imkoniyatini istisno etadi. Xalaqitlardan himoyalangan elektron sxemalar va maxsus boshqaruv signallaridan foydalanish chetdan olinadigan signallar va navodkalar ta'siri ostida qo'yilgan portlatish qurilmalarining ruxsatsiz ishlab ketishining oldini olish imkonini beradi.

Radioportlatgichni elektron blokirovkalash (bostirish) mohiyati maxsus xalaqitlar generatorlari yordamida uning ishchi polosasida yetarli darajadagi xalaqitni qo'yishdan iborat.

Portlatish qurilmalarida foydalanuvchi terrorizm vositalarini aniqlashdagi asosiy qiyinchilik ularning xilmaxilligidadir, shuningdek, niqoblash uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan maishiy buyumlarning ko'pligida. Shu sababli ularni aniqlash uchun qandaydir universal asbobning paydo bo'lishiga ishonish qiyin. Yagona yo'l terrorizmga qarshi kurashda tashkiliy va texnik chora-tadbirlardan kompleks foydalanishdan iborat.

Pochta jo'natmasi tekshirilayotganda rasmiy shaxs qanchalik qat'iyat bilan ish ko'rishi ushbu mamlakatda amalda bo'lgan tegishli qonun hujjatlari bilan, ma'muriyatning oqibatlar qanchalik halokatli bo'lishiga nisbatan xavf-xatarga borish darajasi bilan va buning bo'lish ehtimoli qanchaligi bilan belgilanadi.

2.2. Ko'zdan kechirish nazoratini amalga oshirish

Pochta jo'natmalarini ko'zdan kechirish nazoratini o'tkazish majburiyati pochta jo'natmalarini olish, qabul qilish va saralashni amalga oshiruvchi barcha aloqa xodimlari zimmasiga yuklangan.

Ko'zdan kechirishni amalga oshirayotgan aloqa xodimi quyidagilarga alohida e'tibor qaratishi kerak:

— posilkalar va banderollar uchun qo'lda yasalgan o'rovlar (kesilgan yoki kombinatsiyalangan qutilar va paketlar), shuningdek, hamma olsa bo'ladigan tasmalar (skotch, elektr izolatsiya tasmasi)dan yoki o'rovni mahkamlash uchun pishiq kanop ipdan foydalanib yaxshi o'ralmagan xatlar uchun konvertlar, yovuz niyatli kishiga xavfli joylanmalarni ixcham joylash va ishonchli yashirish imkonini beradigan konvertning ikkinchi (ikkilangan) tubidan foydalanish;

— o‘rovning massa-gabarit xarakteristikalarining nomuvofiqligi: pochta jo‘natmasining o‘lchamiga nisbatan katta og‘irligi, xat og‘irlik markazining bir tomondan ikkinchi tomoniga siljishi, konvert yuzasi bo‘yicha bir tekis bo‘lmagan yo‘g‘on joylari, kukunsimon massaning siljishi;

— paketdagi yoriqlar (teshilgan joylar izlari), sochiladigan moddaning to‘kilishi, pochta jo‘natmasining yuzasida kukun qismlarining mavjudligi;

— yuzada moyli dog‘lar (izlar), oqqan narsa izlarining mavjudligi, g‘ayrioddiy hid (marsipan hidi yoki boshqa kuchli hidlar);

— manzil yozilishining g‘ayrioddiy xarakteri, pochta jo‘natmasi rekvizitlarini rasmiylashtirishning umumqabul qilingan normalaridan og‘ishlar, manzilni yozishdagi xatolar, yozuv tili bajaruvchi uchun ona tili bo‘lib hisoblanmasligi;

— manzili va jo‘natuvchi familiyasi ko‘rsatilmagan yoki noaniq yozilgan pochta jo‘natmalari;

— pochta jo‘natmalaridagi yozuvlar qo‘lda bosma harflar bilan yozilgan yoki qo‘l usulida tayyorlangan nakleykalardan yoki qirqilgan va yopishtirilgan harflardan bajarilgan bo‘lishi mumkin;

— «Shaxsan», «Shu yerdan ochilsin», «Konfidensial», «Mo‘rt buyum», «Ehtiyot qiling», «Shoshilinch jo‘natma», «Kechikishi mumkin emas» va sh.k. tipdagi ko‘rsatmalardan iborat yozuvning mavjudligi;

— pochta jo‘natmasi ortiqcha og‘irligi, taqvim tamg‘asining jo‘natish joyiga mos kelmasligining o‘rnini to‘ldirish uchun ortiqcha miqdorda yopishtirilgan pochta markalarining mavjudligi;

— pochta jo‘natmasi ehtiyotkorlik bilan ag‘darib ko‘rilganda aniqlanadigan erkin siljiydigan buyumlar, sochiladigan moddalar yoki quyilayotgan suyuqlikning mavjudligi;

— pochta jo‘natmasiga xos bo‘lmagan joylanmalarning paypaslab ko‘rilishi (kukun, simlar va h.k.);

— pochta jo‘natmasining o‘rovida noto‘g‘ri unvonlar/murojaatlarning yoki nomi bo‘lmagan murojaatlarning mavjudligi;

— mexanizmlarning tiqillashi yoki hushtak ovozi va vishillashni eslatuvchi tovushlarning mavjudligi: soat, vaqt datchiklari yoki siqiq gazlar;

— pochta aloqasi bo‘limlarining mos kelmaydigan markalari yoki shtamlari.

Bundan tashqari, pochta jo‘natmalariga ishlov berishda quyidagi mamlakatlardan keluvchi pochta jo‘natmalariga alohida e‘tibor berilishi kerak:

— sanitar-epidemiologik holat nomaqbul bo‘lgan, karantin va observatsiya zonalarida (bunday mamlakatlarning ro‘yxati Karantin va o‘ta xavfli infeksiyalarni profilaktika qilish markazining ma‘lumotlari bo‘yicha shakllantiriladi);

— jangovar harakatlar olib borilayotgan hududda;

— reaksion idora usullarini, xalqaro terroristik tashkilotlarni qo‘llab-quvvatlovchi;

— o‘z hududida terroristik tashkilotlar a‘zolarini tayyorlash bazalari, lagerlari, markazlari mavjud bo‘lgan;

— O‘zbekiston Respublikasi, u olib borayotgan siyosiy yo‘l yoki O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy tuzilishiga nisbatan qandaydir da‘volarga (hududiy, siyosiy, iqtisodiy) ega;

— narkotik vositalar va psixotrop moddalar, shu jumladan, sintetik vositalar va moddalarning yirik ishlab chiqaruvchilari (yetkazib beruvchilari) hisoblangan mamlakatlar.

2.3. Rentgen texnikasini qo‘llagan holda nazoratni amalga oshirish

Pochta aloqasi obyektlaridagi rentgen-televizion qurilmasi tekshirilayotgan pochta jo‘natmalarining tarkibini «ko‘rish» va joylanmalarning ayrim buyumlarini identifikatsiya qilish imkonini beradigan rentgen nurlanishi yordamida pochta jo‘natmalarini tekshirish uchun mo‘ljallangan.

Rentgen qurilmasi oʻrnatilgan joy xavfli joylanmali pochta joʻnatmalarining rasmlari va rentgenogrammalari bilan jihozlanadi.

Rentgen-televizion qurilmasidan alohida buyumlar, pochta joʻnatmalarida yashirincha oʻrnatilgan portlatish qurilmalari, qurolning elementlarini, xavfli joylanmalar: zaharlovchi, qoʻzgʻatuvchi va radioaktiv moddalarga ega konteynerlarni aniqlash uchun foydalaniladi (3, 4, 5, 6, 7-rasmlar). Hozirgi



3-rasm. Rentgen-televizion qurilmasi.



4-rasm. «FlatScan 27» koʻchma rentgen-televizion kompleksi.



5-rasm. «X-Spector» ko‘chma rentgen-televizion kompleksi.



6-rasm. «Norka» ko‘chma rentgen-televizion kompleksi.



7-rasm. «Linescan 107» rentgen-televizion qurilmasi.

vaqtda zamonaviy rentgen-televizion qurilmalari avtomatik ravishda portlovchi moddalar va narkotiklarni aniqlash imkonini beradi.

4-rasmda qurol-aslaha, narkotiklar va portlatish qurilmalarini aniqlash maqsadida posilkalar, transport vositalarining ichki tarkibini tez, radiatsion-xavfsiz rentgen tekshirish uchun mo'ljallangan «FlatScan 27» ko'chma rentgen-televizion kompleksi ko'rsatilgan.

Norka ko'chma rentgen-televizion tizimi (6-rasm) portlatish qurilmalarining elementlari, yashirin o'rnatilgan bildirmay quloq solish vositalari, xavfli joylanmalar (zaharlovchi, qo'zg'atuvchi va radioaktiv moddalar) joylangan konteynerlar va boshqa olib kirish taqiqlangan buyumlarni aniqlash maqsadida pochta jo'natmalari buyumlarining ichki tarkibini tez, radiatsion-xavfsiz rentgen tekshirilishi uchun mo'ljallangan.

«Linescan 107» (7-rasm) — bu yirik gabaritli rentgen-televizion qurilmasi. Tunnel o'lchami — kengligi 1011 mm, balandligi 1011 mm. Yirik gabaritli posilkalarni tekshirish uchun juda mos keladi. «Linescan 107» dan katta buyumlarni ko'zdan kechirish zarur bo'lgan pochta almashinuv punktlarida foydalanish mumkin.

2.4. Dozimetrni qo'llagan holda nazoratni amalga oshirish

Pochta jo'natmasida radioaktiv moddalarni yuborish imkoniyatini hisobga olgan holda, shubhali buyumlar ionlovchi nurlanishlar indikatori (dozimetr) bilan tekshiriladi.

Dozimetrлар pochta jo'natmalarida ionlovchi nurlanishlar manbalarini, shu jumladan, radioaktiv moddalarni aniqlash uchun qo'llaniladi (8, 9-rasmlar).

SOEKS dozimetri (Radioaktivlik indikatori) (8-rasm): gamma-nurlanish dozasini o'lchash uchun; ifloslangan

yuzalardagi beta-nurlanish oqimining zichligini baholash, moddalardagi radionuklidlarning hajmli faolligini baholash uchun mo'ljallangan.



8-rasm. «SOEKS» dozimetri (radioaktivlik indikator).



9-rasm. «RADEKS RD 1008» dozimetri.

Radioaktiv moddalar pochta jo‘natmalarida nurlanish manbalari bo‘lib hisoblangan kukunsimon massa yoki ionlovchi buyumlar ko‘rinishida yuborilishi mumkin.

Pochta jo‘natmalarini tekshirganda dozimetrning raqamli tablosidagi ko‘rsatkichlarni hisoblash o‘lchashning belgilangan quyi diapazoni birliklarida bajariladi. Ushbu hududdagi Davlat sanitar-epidemiologik nazorat markazi tomonidan belgilangan radiatsion xavfsizlik normalari tabiiy radiatsion fonning yo‘l qo‘yiladigan darajasi sifatida qabul qilinadi.

Pochta jo‘natmalarini tekshirganda dozimetr ularga yaqin olib kelinadi. Pochta jo‘natmalari va/yoki buyumlarda radioaktiv modda mavjud bo‘lganda dozimetrning raqamli tablosida ekspozitsiya dozasi quvvatining o‘zgarishi aks etadi.

2.5. Gaz analizatorini qo‘llagan holda nazoratni amalga oshirish

Portlovchi moddalar izlarini aniqlash uchun mo‘ljallangan asboblarda portlash xavfi bo‘lgan pochta jo‘natmalarini aniqlashda muayyan yordam berishi mumkin — bular PM detektorlari (gaz analizatorlari) (10, 11-rasmlar) va PM izlarini aniqlash uchun kimyoviy reaktivlar komplektlari, shuningdek, narkotiklar, kimyoviy qurol va toksik sanoat moddalarining ekspress-analizatorlari.

Takomillashtirilgan asbob imkoniyatlari (10-rasm) bir vaqtning o‘zida 40 dan ortiq narkotiklar turlari va portlovchi moddalar 40 ta turlarining mikroskopik miqdorlarini aniqlash imkonini beradi.

11-rasmda eng yangi ishlanma — portlovchi moddalarning barcha eng ma‘lum detektorlari ichida eng ixcham va oson foydalaniladigan — ACRO-SE ko‘rsatilgan. U ruchka shaklidagi ikkita testerdan iborat bo‘lib, PM mavjudligini ekspress-tahlil qilish uchun mo‘ljallangan.



a



b

10-rasm. Portlovchi moddalar detektorlari:

a — «Sabre4000» portlovchi moddalar, narkotiklar, kimyoviy qurol va toksik sanoat moddalarining portativ ekspress-analizatori; *b* — «Ionscan 500DT» portlovchi moddalar va narkotiklarni tezkor detektorlash stol usti tizimi.



11-rasm. Portlovchi moddalar detektori — ACRO-SE.

Gaz analizatori pochta joʻnatmalarida portlovchi moddalar mavjudligini ularning parchalanish yoki bugʻlanish gazsimon mahsulotlarining borligi boʻyicha aniqlash imkonini beradi. Aniqlash tekshirilayotgan pochta joʻnatmalarining yuzasidan yoki ichki hajmidan havo namunalarini tanlash va namunalarni portlovchi moddalar bugʻlariga xos boʻlgan

komponentlarining bo'lishligini tahlil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu maqsadlar uchun portativ dreyfspektrometrik gaz analizatorlari qo'llaniladi.

Ekspluatatsiya qilish qo'llanmasiga muvofiq ishga tayyorligi tekshirilganidan keyin gaz analizatori tekshirilayotgan pochta jo'natmasiga uni ekspluatatsiya qilish qo'llanmasida ko'rsatilgan masofaga olib kelinadi. Pochta jo'natmasining butun yuzasini ketma-ket tekshira turib, uzluksiz havo namunasi olinadi. Pochta jo'natmalari yuzasining yassi uchastkalari ustidan havo namunasini olayotganda, gaz analizatori namuna olish qismining maydonini bu yuzalarga parallel joylash kerak. Tekshirayotganda gaz analizatorini siljitish gaz analizatorini ekspluatatsiya qilish qo'llanmasida ko'rsatilgandan ko'p bo'lmagan tezlik bilan amalga oshirilishi kerak. Pochta jo'natmalarining aniqlanadigan moddalar bug'larining manbalarini topish ehtimoli kuchli bo'lgan uchastkalari, tirqishlar, teshiklar va sh.k.ga alohida e'tibor qaratilishi kerak.

Namunalarni tanlab olish zonasida jadal havo oqimlari (shamol, yelvizaklar va sh.k.) mavjud bo'lganda tekshirilayotgan joyni ulardan himoyalash zarur. Portlovchi moddalar bug'lari aniqlanganda ekranda trevoga signali — davriy tovush signali va yozuv (masalan, «PILOT» gaz analizatori ekranida — ALARM) paydo bo'ladi. «PILOT-M» gaz analizatori tekshiriladigan obyektlarning germetik bo'lmagan hajmlarida va ularning yuzalarida trinitrotoluol (TNT), nitroglitserin (NGC), geksojen (GG), pentaeritrotetranitratni aniqlash uchun mo'ljallangan (12-rasm).

Portlovchi moddalar bug'larining detektorlari pochta jo'natmalaridagi ko'pgina PM izlarini aniqlash imkonini beradi. PMni aniqlash tekshirilayotgan obyektlarning yuzasidan yoki ularning ichki hajmidan mavjud tirqishlar va teshiklar orqali havo namunalarini tanlab olish yo'li bilan amalga oshiriladi.



*12-rasm. «PILOT-M» portlovchi moddalar
bug‘larining aniqlagichi.*



*13-rasm. «PHAZIR™» portlovchi moddalar
bug‘larining analizatori.*

Keyingi vaqtda «VVPHAZIR™» bug‘lar analizatori — namunani aniqlash joyida portlovchi moddalarni identifikatsiya qilish uchun ishlab chiqilgan, dunyodagi birinchi qo‘l BIK-analizatori (13-rasm). To‘liq avtonom analizator, og‘irligi 2 kg ga yaqin. Identifikatsiya qilish uchun analizatorni namunaga qo‘yib, tepkisi bosiladi va natija olinadi.

2.6. Metall detektorini qo‘llagan holda nazoratni amalga oshirish

Yozma xat-xabarlarda metall buyumlarni qidirish uchun uyurma metall detektorlaridan foydalaniladi (masalan, AKA 7202 M (14-rasm), SFIKS-VM-611, VM-311, VM-611, VM-901 tipidagi).

Metall detektorining talab qilinadigan sezgirligini o‘rnatish uchun ichiga mayda metall buyum joylangan nazorat konvertini tayyorlash zarur. Ushbu konvert metall konstruksiyaga ega bo‘lmagan stol (yog‘och, plastmassa va b.)ga joylanadi va unga yozma xat-xabarlar bir tekis qatlam bilan yoyiladi. Sozlash dastagini aylantirib, metall detektori va metall



14-rasm. «AKA 7202 M» tekshiruv-signal kompleksi:
a — asosiy model; *b* — jezl imitatori; *d* — yorituvchi fonar va tekshiruv ko‘zglasiga ega „Inspektor“ 7202 M kompleksi.

buyumli nazorat konverti orasidagi maksimal ehtimoliy masofada tovush signalining ishlab ketishiga erishish kerak. Metall detektorini sozlanishini tugallab, metall buyumli nazorat konvertini olib qo'yish lozim.

Yozma xat-xabarlarini ularda metall buyumlar mavjudligiga tekshirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: yozma xat-xabarlar metall konstruksiyaga ega bo'lmagan stolga yoyib qo'yiladi, tekshiruvga tayyorlangan metall detektorining ramkasi bu xat-xabarlar ustidan bir tekis yurgiziladi. Metall detektorini ishlab ketganda ishlab ketish zonasidan xatlar tanlab olinadi, ularning har biri metall buyum mavjudligiga yuqorida tavsiflangan tartibda alohida tekshiriladi. Nazorat zonasidagi metall buyumlar mavjudligi to'g'risidagi signalizatsiya tovush va yorug'lik signalizatsiyasi bo'lishi mumkin. «SPHINX-VM-611» portativ metall qidirgich 15-rasmda berilgan.

Portativ metall qidirgichlar pochta xat-xabarlarini tekshirishda mayda metall buyumlarni aniqlash imkonini beradi, keng qamrab olish zonasiga va yaxshi sezgirlikka ega, tekshirishning yuqori unumdorligini ta'minlaydi. Qo'lda sozlamasdan ta'minotga ulanganidan keyin avtomatik sozlashga ega portativ metall qidirgichlardan biri «BM-311» qo'l metall



15-rasm. «SPHINX-VM-611» portativ metall qidirgich.



16-rasm. «BM-311» qo'l metall qidirgichi.



17-rasm. «BM-611» qo'l metall qidirgichi.

qidirgichi hisoblanadi (16-rasm), bu asbob nazorat qilish zonasida metall buyumlar mavjudligi to'g'risidagi tovush va yorug'lik signalizatsiyasi (qizil yorug'lik diodi) bilan uskunalangan. Boshqa qo'l metall qidirgichlarga misollar 17, 18-rasmlarda berilgan.

«BM-901» ko'chma uyurma tokli metall qidirgichi yashirin metall buyumlar, shu jumladan, qurol-aslahani qidirish va aniqlash uchun mo'ljallangan, metall buyumlarni aniqlash signalizatsiyasi ichiga o'rnatilgan bosh telefonga signalni chiqarish orqali amalga oshiriladi. Asbob qora va rangli



18-rasm. «BM-901» qo‘l metall qidirgichi.

metallardan ishlangan yashirin buyumlarni samarali aniqlashni ta‘minlaydi.

Pochta jo‘natmalarida asbobning «soxta» ishlab ketishini keltirib chiqaradigan metall buyumlar: qisqichlar, skobalar, plombalar, shuningdek, metallashtirilgan yuzali nakleykalar bo‘lishi mumkin. Shu sababli shubhali joylanmalarni xatosiz aniqlash uchun eng samarali vosita bo‘lib, rentgen qurilmalari hisoblanadi. Yoritib ko‘rish natijasida hosil qilinadigan soyali tasvir tekshirilayotgan buyumning ichki tuzilishini yaqqol aks ettiradi va yuqori ishonchlilik darajasi bilan uni identifikatsiyalash imkonini beradi.

2.7. Nazoratdan o‘tgan pochta jo‘natmalarini rasmiylashtirish va ularni keyingi pochta ishloviga uzatish

Nazorat tugaganidan keyin PXX mutaxassisi kelib tushgan pochtaning blanklariga nazoratning o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi belgi yoki maxsus shtamp izi qo‘yiladi. Shtampda pochta aloqasi obyektining nomi ko‘rsatiladi, qo‘shimcha ravishda qo‘lda nazoratni o‘tkazish sanasi va vaqti yozib qo‘yiladi, belgi PXX xodimining imzosi bilan tasdiqlanadi. Ko‘zdan

kechirish nazorati tugaganidan keyin PXX operatori jo‘natiladigan pochta uchun blanklarda maxsus shtamp izi tushiriladi, nazoratni o‘tkazish sanasi va vaqti qo‘yiladi, yozuv PXX bo‘limi texnigining imzosi bilan tasdiqlanadi.

PXX mutaxassisi tomonidan pochta jo‘natmasida xavfli yoki jo‘natilishi taqiqlangan moddalar va buyumlarning mavjudligi belgilari aniqlanganda ushbu pochta jo‘natmasi xavfsizlik choralariga rioya qilingan holda ajratib qo‘yiladi.

Nazoratni o‘tkazish natijasida ajratib qo‘yilgan pochta jo‘natmalari tegishli organlarga topshirish uchun PXX mutaxassisi tomonidan olib qo‘yiladi. Pochta blanklarida PXX bo‘limi mutaxassisining imzosi bilan tasdiqlangan sanasi va vaqti ko‘rsatilgan holda «Olib qo‘yildi» belgisi qo‘lda yozib qo‘yiladi.

2.8. Tarkibida jo‘natilishi taqiqlangan moddalar, buyumlar mavjudligining aniqlangan belgilariga ega pochta jo‘natmalarini ajratish

Tarkibida xavfli yoki jo‘natilishi taqiqlangan moddalar va buyumlarning aniqlangan belgilariga ega pochta jo‘natmalari boshqa pochta jo‘natmalaridan maxsus ajratilgan joylarga olib qo‘yilishi kerak, bu joylarda ular vakolatlangan organlarning vakillari kelgunga va ular xavfli emasligi aniqlangunga qadar saqlanadi. Bino ichidagi turli nuqtalardan bu joyga borishning eng qulay yo‘nalishi belgilanishi kerak.

Tarkibida xavfli yoki jo‘natilishi taqiqlangan moddalar va buyumlarning mavjudligi belgilariga ega pochta jo‘natmalarini ajratish vositalari bo‘lib maxsus konteynerlar, seyflar, temir javonlar, qutichalar, zich yopiladigan sig‘imlar va sh.k. xizmat qilishi mumkin.

Tarkibida portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarining mavjudligi belgilariga ega pochta jo‘natmalari ajratib

qo'yilmaydi. Tarkibida portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarining mavjudligi belgilariga ega shubhali pochta jo'natmalari va ular bilan aloqada bo'lgan boshqa buyumlar bilan qandaydir xatti-harakatlarni bajarish (vakolatlangan organlar vakillari kelgunga qadar tekshirmaslik, ochmaslik, qayergadir siljitish)ga yo'l qo'yilmaydi.

Keyingi yillarda portlatish qurilmalarini qo'llagan holda terroristik aktlarni sodir etish, afsuski, odatiy holga aylandi. Temiryo'l, metro, ma'muriy muassasalardagi portlashlar obyektlarning buzilishiga, moddiy zarar yetkazilishiga va, eng dahshatlisi, odamlarning halok bo'lishiga olib kelmoqda. Portlashning kengayishiga yo'l qo'ymaslik va binolardagi odamlarni xavfdan asrash imkonini beradigan, keng qo'llaniladigan qurilmalardan biri «FONTAN» portlashning kengayishiga yo'l qo'ymaydigan moslama hisoblanadi (19, 20-rasmlar). Moslama tezkor foydalanish uchun qulay bo'lgan joyda saqlanishi kerak. Mutaxassislar tomonidan buyum tekshirilganda bu moslama rentgen diapazonida xalaqitlar hosil qilmaydi.

«FONTAN» portlashning kengayishiga yo'l qo'ymaydigan moslama parchalarga qarshi ekran bilan ta'minlangan



19-rasm. «FONTAN» portlashning kengayishiga yo'l qo'ymaydigan moslama.



FONTAN-2
model 20U



FONTAN-2
model 3M2



FONTAN-2
model 10U



FONTAN-2
model 05U



FONTAN-2
model 20U



FONTAN-2
model 3M2



FONTAN-2
model 10U



FONTAN-2
model 05U

20-rasm. «FONTAN-2» turli modellardagi portlashning kengayishiga yo‘l qo‘ymaydigan moslamalar.

geterofazali dispergentga ega portativ konteyner. Bu moslama buzilishlar va insonlarning qurbon bo‘lishlarini ancha kamaytiradi, ochiq joyda, yopiq va yarim yopiq makonlardagi portlashning fugasli, parchali, termik, termobarik oqibatlarini samarali ravishda qisqartiradi, shuningdek, zarbali to‘lqin frontida bosim amplitudasini ko‘p marotaba kamaytiradi, zarbali to‘lqin frontini yumshatadi, olovni to‘liq bostirish hisobiga alanga olishini, termik va termobarik shikastlanishlarning oldini oladi, parchalar oqimini va shikastlanish ehtimolini kamaytiradi.

2.9. Nazoratni amalga oshirishdagi xavfsizlik texnikasi

Pochta jo‘natmalarining pochta xavfsizligi predmeti uchun nazoratini amalga oshiruvchi xodim tarkibida jo‘natilishi taqiqlangan joylanma belgilariga ega pochta jo‘natmasi aniqlanganda quyidagi xavfsizlik choralariga rioya qilishi majburiydir:

— tarkibida portlatish qurilmalarining mavjudligi belgilariga ega pochta jo‘natmasi aniqlanganda:

a) pochta jo‘natmasini ochmaslik, bukmaslik, tashlamaslik;

b) unga mexanik ta’sir o‘tkazmaslik va isitish asboblari-ga yaqin joyda ushlamaslik;

d) cheklangan va nam joyda saqlamaslik;

e) buyumni suvga tushirmaslik va biron nima bilan yopmaslik;

f) uni boshqa pochta jo‘natmalari bilan saqlamaslik;

— tarkibida radiatsion, biologik yoki kimyoviy moddalar-ni mavjudligi belgilariga ega pochta jo‘natmasi aniqlanganda:

a) ularni ochmaslik, silkitmaslik va paypaslamaslik;

b) hidi bo‘yicha aniqlashga urinmaslik;

d) shubhali va ular yaqinidagi pochta jo‘natmalarini (aniqlangan modda ularga tushgan holda) zich yopiladigan plastik paketga, so‘ngra ikkilamchi idish (qopqoqli chelak, seyf, temir shkaf, maxsus konteyner va sh.k.)ga joylash;

e) ushbu jo‘natmaga tekkizilgan qo‘lqoplar va buyumlarni monoxloraminning 3 foizli eritmasiga botirilgan tampon bilan yaxshilab artish;

f) ventilatsiyani o‘chirib qo‘yish, oyna va eshiklarni yopib qo‘yish;

g) keyingi ko‘rsatmalarni olgunga qadar joyida qolish.

Barcha aloqa xodimlari ularning uchastkalarida tarkibida jo‘natilishi taqiqlangan moddalar va buyumlarning mavjudligi

shubhasiga sabab bo'lgan pochta jo'natmalari aniqlangan holda qanday choralarni ko'rishlari to'g'risida yo'l-yo'riq olgan bo'lishlari kerak.

Har bir pochta aloqasi obyektida shoshilinch holatlarda qo'ng'iroq qilish zarur bo'lgan shaxslar va telefon raqamlarining ro'yxatlari bo'lishi kerak, ya'ni: PXX bo'limlari, huquqni muhofaza qilish organlari, o't o'chirish bo'linmalari, FVV organlari, SESlarning telefon raqamlari.

Tarkibida noma'lum moddalar (kukunsimon, suyuq yoki aerazol holatda) bo'lgan shubhali pochta jo'natmalari aniqlangan hollarda quyidagilar tavsiya qilinadi:

- muomalada bo'lishda beparvolik va manmanlikka yo'l qo'ymaslik;

- pochta jo'natmasi tarkibidagini hidi bo'yicha aniqlashga urinmaslik;

- ochmaslik va ichidagisini olmaslik (sochmaslik);

- boshqa odamlarga uni tekshirishga yo'l qo'ymaslik;

- shubhali buyumlar bilan qandaydir xatti-harakatlarni bajarmaslik va boshqalarga ham bunga yo'l qo'ymaslik;

- shubhali buyumni begona shaxslarning foydalanishidan ajratib qo'yish;

- shubhali pochta jo'natmasi joylashgan joyda chekishga yo'l qo'ymaslik;

- portlatish qurilmasining ishlab ketishi, zaryadning juda tez portlashining oldini olish uchun elektromagnit impulslar bilan nurlanuvchi ratsiyalar, mobil radiotelefonlar, asboblardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik;

- shubhali o'rovdan chiqib turgan simni kesmaslik va uzmaslik: ehtimol tortib qo'yiladigan turdagi qurilma mavjud bo'lishi mumkin;

- shubhali buyumga namlik tushishiga yo'l qo'ymaslik, bu tez portlash qurilmasi elektr tarmog'i kontaktlarining tutashuviga sabab bo'lishi mumkin: portlashni kimyoviy sekinlashtirgichdan foydalanilgan bo'lishi mumkin;

— shubhali pochta jo‘natmasi ichida suyuqlik solingan sig‘im mavjud bo‘lganda uni silkitmaslik va o‘roviga bosmaslik kerak: ehtimoliy portlatish qurilmasi kimyoviy elementlardan iborat bo‘lishi mumkin, unga bosish yoki silkitish portlatgich kontaktlarining ishga tushishiga sabab bo‘lishi mumkin;

— xonani ajratib qo‘yish: ventilatsiya, konditsiyalash tizimini ishga tushirish, eshik va derazalarni yopib qo‘yish, begona shaxslarning kirishiga yo‘l qo‘ymaslik;

— shubhali pochta jo‘natmasi bilan ishlaganda eng oddiy yakka tartibdagi himoya vositalari (respirator, paxta-doka bog‘ichi, ko‘zoynaklar, rezina qo‘lqoplar, maxsus kiyim)dan foydalanish;

— shubhali pochta jo‘natmasini u bilan kontaktda bo‘lgan pochta va buyumlar bilan birga zich germetik plastik paketga, keyin ikkilamchi idish (qopqoqli chelak, seyf, temir shkaf, maxsus konteyner)ga joylash va vakolatlangan organlarning mutaxassislariga topshirgunga qadar saqlash;

— qisman degazatsiyani o‘tkazish: ushbu pochta jo‘natmasi tegib turgan qo‘lqoplar va buyumlarni monoxloraminning 3 foizli eritmasida ho‘llangan tampon bilan yaxshilab artish;

— yuqori radiatsiya foniga ega (50 rentgendan yuqori) pochta jo‘natmasi aniqlanganda pochta jo‘natmasi ochiq joyga o‘tkazilishi, mutaxassislar kelgunga qadar uning qo‘riqlanishini ta‘minlash va aloqa xodimlari hamda tashrif buyurganlarning nurlanish zonasidan evakuatsiya qilinishini tashkil qilish;

— bu fakt to‘g‘risida vakolatlangan organlarga xabar qilish;

— ehtimoliy kasallikning oldini olish bo‘yicha tibbiyot xodimlarining tavsiyalarini bajarish;

— shubhali pochta jo‘natmasi aniqlangan vaqtda xonada yoki binoda bo‘lgan barcha odamlar ro‘yxatini tuzish va ushbu ro‘yxatni vakolatlangan organlar vakillariga topshirish.

Tarkibida xavfli yoki jo‘natilishi taqiqlangan moddalar va buyumlar mavjudligi shubhasiga sabab bo‘lgan pochta jo‘natmalari aniqlangan holda, bu pochta jo‘natmalarini FV

yuzaga kelganda xabar qilish sxemasiga muvofiq vakolatlangan organlarga topshirish bu organlar tomonidan tuzilgan musodara qilish to'g'risidagi dalolatnoma asosida amalga oshiriladi.

Noma'lum shaxsdan telefon orqali pochta jo'natma-sida biologik (bakteriologik) vositalar, kimyoviy, radioaktiv moddalar, portlatish qurilmalari (portlash xavfi) bo'lishi to'g'risidagi axborot olinganidan keyin aloqa xodimi:

- bu haqda atrofdagilarga bildirmasdan (shartli belgilar, qog'oz varag'iga yozish, mikrofonni qo'li bilan to'sish yordamida) boshqa aloqa xodimiga xabar qilishi, bu xodim so'zlashuv qaysi telefondan olib borilayotganligini aniqlash choralarini ko'rish kerak;

- qo'ng'iroq qilgan shaxs bilan imkoni boricha aloqani cho'zib turishi kerak (so'zlashuv qaysi telefondan olib borilayotganligini aniqlash uchun vaqtni cho'zish kerak);

- qo'ng'iroq qilgan shaxsning familiyasi, ismini so'rash kerak (ehtimol, u uning xatti-harakatlari to'g'risida ommaviy axborot vositalarida xabar qilishlarini istashi mumkin). Qo'ng'iroq qilgan shaxs o'zi bilmagan holda familiyasini aytib qo'yishi ham mumkin, har holda bu ham qo'shimcha axborot hisoblanadi;

- qo'ng'iroq qilgan shaxsni o'z xabarini qaytarib aytishini so'rash kerak (siz barcha tafsilotlarni ilg'ab olganingizga ishonch hosil qilish uchun);

- har bir aytilgan so'zni eslab qolish va yozib qo'yish kerak (aytilgan so'zlarni so'zlashuv davomida yozib olish mumkin, agar buning iloji bo'lmasa — olingan og'zaki axborot so'zlashuv tugashi bilanoq darhol yozib olinishi kerak);

- telefon so'zlashuvi boshlangan va tugagan vaqtni yozib olish (eslab qolish), bunda vaqt qaysi soat bo'yicha belgilanganligi hisobga olinishi lozim (qo'l soati, devorga osilgan soat va sh.k.);

— telefon go‘shagidan so‘zlayotgan shaxsning ovozidan tashqari eshitilayotgan g‘alati yoki sekin tovushlarni qayd qilish, masalan, motor, musiqa tovushi, uning turi, qo‘ng‘iroq qilinayotgan joy to‘g‘risida g‘oya berishi mumkin bo‘lgan boshqa tovushlar;

— tovush erkak yoki ayolnikimi ekanligini aniqlash, qo‘ng‘iroq qilayotgan yozma ariza o‘qiyotganga o‘xshamayap-timi;

— ovozning xususiyatlari, so‘zlashuv uslubi, nutqning ehtimoliy nuqsonlari, shuningdek, boshqa xarakteristikalar (tovush ohangidagi hayajonlanish, tez gapirish, qahr, ishonchlilik va sh.k.)ga e‘tibor berish;

— qo‘ng‘iroq qilayotgan shaxsdan xavfli pochta jo‘natmasi joylashgan joy, uning farqlovchi belgilari (portlash xavfi bo‘lganda — portlatish qurilmasining ishlab ketish vaqti)ni xabar qilishini iltimos qilish;

— qo‘ng‘iroq qilayotgan shaxsdan xavfli pochta jo‘natmasi yuborilishining bajaruvchisi yoki tashkilotchisi ekanligini, ko‘zlagan maqsadlari, uning xatti-harakatlarining sabablari to‘g‘risida so‘rash;

— unga binoda odamlar bor ekanligini va xavfli pochta jo‘natmasining shikast yetkazuvchi ta’siri begunoh odamlar-ning qurbon bo‘lishiga olib kelishini xabar qilish;

— so‘zlashuv tugaganidan keyin olingan axborotni butun so‘zlashuv tafsilotlari bilan darhol pochta aloqasi obyekti rahbariga uzatish.

Telefon orqali pochta jo‘natmasida biologik (bakteriologik) vositalar, kimyoviy, radioaktiv moddalar, portlatish qurilmalari (portlash xavfi)ning bo‘lishi to‘g‘risidagi axborotni olganidan keyin aloqa xodimi mish-mishlar va vahima tarqalishining oldini olish uchun boshqa xodimlar bilan bu axborotni muhokama qilmasligi kerak.

Nazorat savollari

1. Pochta jo'natmasi skriningiga ta'rif bering.
2. Pochta jo'natmalarini pochta xavfsizligi yuzasidan nazorat qilish joylari qanday jihozlangan bo'lishi kerak?
3. Pochta jo'natmalarini nazorat qilishning qanday usullarini bilasiz? Pochta jo'natmalarini nazorat qilishda foydalaniladigan pochta jo'natmalarini nazorat qilishning texnik vositalarini sanab bering.
4. Pochta jo'natmalarida xavfli buyumlar va moddalarni jo'natishning oddiy hollarini sanab bering.
5. Pochta jo'natmalarini ko'zdan kechirishning o'ziga xos xususiyatlari qanday?
6. Pochta jo'natmalarini rentgen texnikasini qo'llagan holda nazorat qilish qanday amalga oshiriladi?
7. Ionlovchi nurlanishlar indikatori (dozimetr) pochta jo'natmalarida jo'natilishi taqiqlangan qanday xavfli buyumlar va moddalarni aniqlash imkonini beradi?
8. PM detektor (gaz analizatori) yordamida pochta jo'natmalarida jo'natilishi taqiqlangan qanday xavfli buyumlar va moddalarni aniqlash mumkin?
9. Metallodetektorni qo'llagan holda pochta jo'natmalarini nazorat qilishni amalga oshirish tartibi qanday?
10. Pochta xavfsizligi yuzasidan nazoratdan o'tgan pochta jo'natmalari qanday rasmiylashtiriladi va keyingi pochta ishlovi berilishi uchun qanday topshiriladi?
11. Pochta jo'natmalarini izolatsiya qilish deganda nimani tushunish mumkin? Pochta jo'natmalarini izolatsiya qilish vositalarini sanab bering.
12. Jo'natilishi taqiqlangan joylanmaning belgilariga ega pochta jo'natmasi aniqlanganda aloqa xodimi qanday xavfsizlik choralariga rioya qilishi kerak?

3-BOB. POCHTA JO‘NATMALARI VA PUL MABLAG‘LARINING SAQLANISHINI TA‘MINLASH

3.1. Tashishlarda pochta kuzatish va qo‘riqlash

3.1.1. Umumiy qoidalar

Butun dunyo pochta ma‘muriyatlari uchun pochta jo‘natmalariga xavfsiz, tez va ishonchli ishlov berish va ularni tashish eng muhim xizmat bo‘lib hisoblanadi. Butun dunyoda katta hajmdagi pochta jo‘natmalari va pul mablag‘larining uzatilishi tufayli ularni o‘g‘irlash, talon-taroj qilish va yo‘q qilish oshkora va son-sanoqsiz tahdidlari mavjud. Pochta jo‘natmalarining hajmi, ular qiymati va pochta oqimining murakkabligi oshishi bilan ichki va tashqi xavf tahdidi ham oshib boradi.

Pochta jo‘natmalarining ichki qiymati katta chegaralarda o‘zgarib turadi, bu ham pochta o‘ziga xos murakkabligidir. Garchi butun pochta muhim bo‘lib hisoblansa ham, yuqori va past qiymatga ega pochta jo‘natmalari o‘rtasida oshkora farq mavjud. Pochta jo‘natmalarini saralash va saqlanishi tizimini yaratishga bo‘lgan asosiy zarurat mavjud. Pochta jo‘natmalarini ko‘chirish, saqlash va tashish tegishli e‘tibor, kuzatuv va qo‘riqlashni talab qiladi.

Pochtani kuzatish va qo‘riqlash pochta jo‘natmalarini berkitish, pochta qabul qilish va topshirish, uni tashish va qo‘riqlash tartibiga qo‘yiladigan talablarni yaxshi biladigan, maxsus ajratilgan aloqa xodimlari (bundan keyin — kuzatuvchi) tomonidan amalga oshiriladi.

Pochtani kuzatish va qo‘riqlash quyidagilar tomonidan amalga oshiriladi:

a) pochta avtomobil transportida tashilganda — tashishlarda pochta almashinuvi, uni kuzatish va qo‘riqlashni tartibga

soluvchi normativ hujjatlar talablariga muvofiq pochta aloqasi obyektlarining xodimlari;

b) pochta samolyotlarda tashilganda — fuqarolik aviatsiyasi xodimlari;

d) pochta pochta vagonlarida tashilganda — aloqa xodimlari;

e) pochta bagaj vagonlarida tashilganda — aloqa xodimlari yoki temiryoʻl transporti xodimlari;

f) pochta yoʻlovchi vagonlarida tashilganda — aloqa xodimlari;

g) pochta umumfoydalanadigan avtobuslarda tashilganda — tuzilgan shartnomalarga muvofiq avtobus haydovchilari tomonidan. Umumfoydalanadigan avtobuslarda faqat yozma xat-xabarlar solingan qoplar, davriy nashrlar solingan qoplar va bogʻlamlarni joʻnatishga yoʻl qoʻyiladi.

Bunday yoʻnalishlarda qiymati eʼlon qilingan pochta joʻnatmalarini tashishga faqat istisno hollarda bitta kuzatuvchi pochtani kuzatishi va qoʻriqlashi sharti bilan ruxsat etiladi.

Viloyatchi, tumanlararo, tumanichi, shaharichi va olib boruvchi yoʻnalishlarda avtomobil transportida pochta tashilganda pochtani kuzatish va qoʻriqlash, agar tashilayotgan boyliklar summasi eng kam ish haqining 500 ta miqdoridan oshmasa, avtomashina haydovchisidan tashqari bitta kuzatuvchi va agar tashilayotgan boyliklar summasi 500 ta eng kam ish haqi miqdoridan oshsa, avtomashina haydovchisidan tashqari ikkita kuzatuvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Magistral yoʻnalishlarda pochta avtomobil transportida tashilganda tashilayotgan boyliklarning istalgan summasida pochtani kuzatish va qoʻriqlash bitta kuzatuvchi va oʻrindoshlik boʻyicha kuzatuvchilar sifatida rasmiylashtirilgan pochta avtomashinasining ikki haydovchisi tomonidan amalga oshiriladi.

Tumanichi yoʻnalishlarida pochta ot-ulov transporti bilan tashilganda pochtani kuzatish va qoʻriqlash bitta kuzatuvchi (yuk tashuvchi) tomonidan amalga oshiriladi.

Pochta yuk avtomashinasida ikki kuzatuvchi bilan tashilganda birinchi kuzatuvchi avtomashina kabinasida,

ikkinchi kuzatuvchi — kuzovida bo‘ladi. Avtomashina kuzovi kuzatuvchi uchun mo‘ljallangan o‘rindiqli bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

Pochtani tashish uchun mo‘ljallangan avtomashinalar yopiq va qulflanadigan kuzovli bo‘lishi hamda pochtani tashish bo‘yicha avtomashinalarning uskunalanishiga qo‘yiladigan talablarni tartibga soluvchi normativ hujjatlar talablariga muvofiq jihozlangan bo‘lishi kerak.

Pochta tumanlararo va tuman ichidagi pochta yo‘nalishlari bo‘yicha tashilganda tashilayotgan qimmatbaho buyumlarning eng kam ish haqining 500 ta summasi miqdoridagi pochtani kuzatish va qo‘riqlash o‘rindoshlik bo‘yicha kuzatuvchi sifatida rasmiylashtirilgan bitta haydovchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bunday holatda haydovchi pochtani qabul qilish va topshirish tartibini, uni tashish va qo‘riqlash tartibini bilishi kerak. Eng kam ish haqining 500 dan ko‘p summasiga teng pochta boyliklari konteynerlarda tashilganda pochtani kuzatish va qo‘riqlash uchun kuzatuvchi ajratiladi.

3.1.2. Pochtani kuzatish va qo‘riqlashni tashkil qilish

Pochtani viloyatichi, tumanlararo, tumanichi, shaharichi yo‘nalishlari bo‘yicha tashish idoraviy pochta aloqasi avtotransporti, jismoniy va yuridik shaxslarning yerusti transporti, idoraviy va yerusti ot-ulov transporti bilan amalga oshirilishi mumkin. Pochtani avtomobil magistral yo‘nalishlari bo‘yicha tashish faqat Xalqaro pochta tarmog‘ining pochta avtomashinalarida amalga oshiriladi.

Pochtani uskunalangan mashinada yuborish imkoniyati bo‘lmagan istisno hollarda pochtani viloyatichi, tumanlararo, tumanichi va shaharichi yo‘nalishlari bo‘yicha tashish ochiq kuzovli uskunalanmagan avtomashinada yo‘l qo‘yiladi. Bunda pochtani kuzatish va qo‘riqlash kamida ikkita kuzatuvchilar bilan amalga oshiriladi.

Agar pochta ochiq kuzovli avtomashinada yoki ochiq aravalarda tashiladigan bo'lsa, u zich qilib joylashtiriladi, brezent bilan yopiladi va uning yo'lda saqlanishi ta'minlanadigan holda bog'lanadi.

«Ehtiyot qiling» belgisi bo'lgan posilkalarni saqlagan holda tashish, ortish va tushirishga alohida e'tibor berilishi kerak. Bunday belgili posilkalarning ustiga og'ir pochta qo'yish taqiqlanadi. Yurganda silkinishdan asrash uchun bunday posilkalarning tagiga yumshoq buyumlar (namat, pichan, poxol va b.)ni qo'yish zarur.

Pochta transportida pochta kuzatib boruvchi aloqa xodimlaridan tashqari, faqat yo'nalish bo'yicha pochta kuzatish va almashish tartibini nazorat qiluvchi shaxslar borishi mumkin (tegishli guvohnoma bo'lganda).

Pochta yo'nalish bo'yicha jo'natishdan avval kuzatuvchilarga maxsus kitobga imzo chekkan holda pochta kuzatish va almashish huquqini beruvchi guvohnomalar beriladi. Yo'nalishdan qaytgandan keyin guvohnomalar topshiriladi va ta'minlangan tartibda saqlanadi. Xizmat majburiyatlarini bajarishda, guvohnomadan tashqari, kuzatuvchi hujjatlarni saqlash uchun kerakli miqdordagi bo'sh qoplar, quticha yoki jomadon (sumka), mobil aloqa vositalari, fonar (sutkaning tungi vaqtida pochta almashish uchun) bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Quticha yoki jomadon kaliti ta'minlangan tartibda kuzatuvchida saqlanishi lozim. Pochta aloqasining hududiy (viloyat) tashkilotlari, Xalqaro pochta aloqasi bog'lamalari, pochta rahbarlari pochta almashish va kuzatish huquqini beradigan guvohnomalar beriladigan xodimlarni belgilaydilar va buyruq bilan rasmiylashtiradilar.

Pochta ikki kuzatuvchi kuzatib qo'riqlaganda, xodimlardan biri bosh etib tayinlanadi, uning familiyasi yukxatida ko'rsatiladi.

Pochta qo'riqlash, almashish va pochta harakatlari jadvaliga rioya qilish masalalari bo'yicha bosh

kuzatuvchining farmoyishlari va ko'rsatmalari ikkinchi kuzatuvchi va avtomashina haydovchisi (haydovchilari) uchun majburiydir.

FV yuzaga kelganda pochta aloqasi obyektini rahbarining qarori bilan pochtni kuzatish va qo'riqlash uchun (vaziyatlarning tahlilidan kelib chiqqan holda) aloqa xodimlarining qo'shimcha miqdori ajratilishi mumkin.

Pochtni bitta kuzatuvchi yoki avtomashina haydovchisi kuzatib borganda almashinuv pochta aloqasi obyektiga kirmasdan avtomashina (arava) borti yonida amalga oshiriladi. Pochta qulflanadigan yopiq kuzovlar bilan uskunalangan avtomashinalarda tashiladigan holatlar bundan mustasno.

3.1.3. Pochtni jo'natish va almashish uchun javobgar bo'lgan shaxslarning majburiyatlari

Boshlang'ich pochta aloqasi obyektidan pochta jo'natilishidan oldin pochtni jo'natish va almashish uchun javobgar bo'lgan shaxslarning majburiyatlari:

- tashilayotgan pochta tashqi holatini ko'zdan kechirish;
- pochtni yetarliligi, ularning mobil aloqa vositalari va o'q-dorili qurol bilan ta'minlanganligini tekshirish;
- qo'yiladigan talablarga muvofiq avtomashinaning uskunalanganligini tekshirish;
- kuzatuvchilarning sog'lig'i to'g'risida va ular pochtni kuzata va qo'riqlay olishlarini amalga oshirish imkoniyati to'g'risida so'rash;
- kuzatuvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatishni amalga oshirish;
- pochta va blanklarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirish;
- yukxatlarni imzolash;
- umumiy yukxat yoki yo'nalish yukxatining nusxasiga imzo qo'ygan holda pochta va hujjatlarni kuzatuvchiga topshirish va pochtni o'rtilishi hamda o'z vaqtida jo'natilishini ta'minlash;

— telefon orqali yo‘nalish bo‘yicha eng yaqin pochta aloqasi obyektining rahbariga avtomashina jo‘natilgan vaqt to‘g‘risida xabar qilish. Magistral yo‘nalish bo‘yicha avtomashina sutkaning tungi vaqtida jo‘natilgan holda xabar pochta aloqasi objekti ish vaqtining boshida beriladi.

Pochta jo‘natmalari shikastlanganligi, qo‘riqchilarning yetishmasligi, ularning kerakli miqdordagi bo‘sh qoplar, hujjatlarni saqlash uchun quticha yoki jomadon (sumka), mobil aloqa vositalari bilan ta‘minlanmaganligi, pochta va blanklar noto‘g‘ri rasmiylashtirilganligi holatlari aniqlanganda, javobgar shaxslar aniqlangan kamchiliklarni darhol bartaraf etish choralarini ko‘rishlari shart. Faqat aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyingina pochta jo‘natilishi mumkin.

Kuzatuvchilar kasal bo‘lib qolganligi faktlari yoki ularda spirtli ichimliklar yoki narkotik moddalari bilan mast ekanligi belgilari aniqlanganda, bu kuzatuvchilar pochtni kuzatish va qo‘riqlashga qo‘yilmaydi.

Pochta yo‘nalish bo‘yicha jo‘natilganidan keyin javobgar shaxslar belgilangan yo‘nalish bo‘yicha avtomashinaning harakatlanish nazoratini amalga oshirishlari shart.

Pochta almashinuvi oraliq punktlaridan pochta jo‘natilayotganda pochtni jo‘natish va almashish uchun javobgar shaxslarning majburiyatlari:

— tashilayotgan pochtni tashqi holatini ko‘zdan kechirish;

— pochta va blanklarning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini tekshirish, yukxatlarni imzolash;

— umumiy yukxat yoki yo‘nalish yukxatining nusxasiga imzo qo‘ygan holda pochta va hujjatlarni kuzatuvchiga topshirish va pochtni ehtiyotkorlik bilan oritilishi hamda o‘z vaqtida jo‘natilishini ta‘minlash;

— telefon orqali yo‘nalish bo‘yicha boshlang‘ich va keyingi pochta aloqasi obyektining rahbariga avtomashina jo‘natilgan vaqt to‘g‘risida xabar qilish. Yo‘nalish bo‘yicha oxirgi pochta

aloqasi obyektidan avtomashinaning jo‘nab ketish vaqti to‘g‘risida avtomashinaning yo‘nalishga chiqish boshlang‘ich punktiga xabar qilinadi.

Pochta jadvalda ko‘zda tutilgan magistral, tamanlararo va tumanichi pochta yo‘nalishi bo‘yicha jo‘natilmaganda bu haqda darhol tegishli pochta aloqasi obyektlariga xabar qilinadi.

Pochta jo‘natilmaganligi yoki uni ancha kechiktirish bilan jo‘natish to‘g‘risida ushbu yo‘nalishdagi barcha pochta aloqasi obyektlariga telekommunikatsiya vositalari yordamida xabar qilinadi.

Pochtaning jo‘natilmaganligi to‘g‘risidagi xabarlarda yo‘nalishlar nomlari, ulardagi pochta aloqasi obyektlarining miqdori, pochta jo‘natilmagan sana va sababi, uni boshqa yo‘llar bilan jo‘natishning ko‘rilgan choralari.

Pochtani kuzatish va qo‘riqlash talablarining buzilishi, pochtaning jo‘natilmaganligi yoki ancha kechikishi faktlari bo‘yicha idoraviy tekshiruvlar o‘tkaziladi.

3.1.4. Kuzatuvchining majburiyatlari, huquqlari va javobgarligi

Kuzatuvchi quyidagilarni bilishi va qat’iy bajarishi kerak:

— tashishlarda pochtni almashish, kuzatish va qo‘riqlashni tartibga soluvchi normativ hujjatlar, buyruqlar va farmoyishlarda tavsiflangan talablari;

— pochta yo‘nalishi bo‘yicha pochta avtomashinasining harakatlanish jadvali;

— pochtni qabul qilish-topshirish tartibi;

— pochta almashinuvida qoplar bilan hisob-kitob qilish tartibi;

— pochta almashinuvidagi nosozliklarni rasmiylashtirish tartibi;

— pochtni kuzatish va qo‘riqlashda FV yuzaga kelgandagi xatti-harakatlar;

— FV to‘g‘risidagi axborotni uzatish tartibi va FV faktlari bo‘yicha huquqni muhofaza qilish organlari bilan o‘zaro ishlash tartibi;

— pochta avtomashinalarini uskunalashning belgilangan normalari va qoidalari;

— birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish qoidalari.

Xalqaro pochtaamt, boshlang‘ich punktning pochta aloqasi obyektiga kelganda kuzatuvchining majburiyatlari:

— pochta kuzatish, qo‘riqlash va almashishga doir oxirgi farmoyishlar bilan tanishish;

— pochta tashish bo‘yicha avtomashinalarning uskunalanishini tartibga soluvchi normativ hujjatlar talablariga muvofiqlik uchun transport vositalarining uskunalanishini sinchiklab tekshirish;

— kerakli miqdordagi bo‘sh qoplarni, pochta kuzatish va saqlash huquqini beruvchi guvohnomani, hujjatlarni saqlash uchun quticha yoki jomadon (sumka)ni, mobil aloqa vositalarini, qurol va o‘q-dorilarni olish.

Xalqaro pochtaamt, boshlang‘ich punktning pochta aloqasi obyektida pochta qabul qilayotganda kuzatuvchining majburiyatlari:

— jo‘natilishi kerak bo‘lgan pochta uchun yukxatlarni olish;

— ochiq holda jo‘natiladigan posilkalar uchun blanklarni qabul qilish;

— hukumat, xalqaro va sug‘urta qoplarini, qiymati eng kam ish haqining besh barobaridan ko‘p posilkalarni va «Ehtiyot qiling» belgili barcha jo‘natmalarni nomma-nom tekshirish, qolgan pochta umumiy hisob bilan qabul qilish. Buyumlar va pochta jo‘natmalarining umumiy miqdorini hisoblash va yukxatda ko‘rsatilgan yakun bilan solishtirish;

— pochta jo‘natmalarining manzillarini ko‘rib chiqish, bog‘lamlari (qog‘oz tasmalar) va muhrlar (plombalar)ning butunligini, pochta jo‘natmalari berkitilganligini, shuningdek, blanklarning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini tekshirish;

— yoʻnalish boʻyicha joylashgan har bir pochta aloqasi obyektini uchun blanklar va pochta olish, qabul qilingan pochta uchun imzo qoʻyish;

— qabul qilingan pochta avtomashina yoki aravaga joylash.

Qabul qilishda aniqlangan oʻrovi, bogʻichlari (qogʻoz tasmali) va muhrlari (plombalari) shikastlangan pochta joʻnatmalari, shuningdek, tegishli rasmilashtirilmagan notoʻgʻri joylangan yopiq buyumlar yoʻnalish boʻyicha tashishga qabul qilinmaydi. Bu haqda yukxatga yozib qoʻyiladi.

Pochta qabul qilinganidan belgilangan joyga topshirilgunga qadar uning uchun tilxat bergan aloqa xodimi uning butunligi va pochta yoʻnalishi boʻyicha oʻz vaqtida harakatlanishi uchun toʻliq javobgar boʻladi.

Yoʻnalishda boʻlgan pochta aloqasi obyektini bilan pochta almashinuvida kuzatuvchining majburiyatlari:

— pochta kuzatish va almashish huquqini beruvchi guvohnomani hamda yetkazib berilgan pochta uchun yukxatni koʻrsatish;

— imzosini qoʻygan va pochta olish vaqtini koʻrsatgan holda topshirilgan buyumlar miqdori toʻgʻrisida (yozuv bilan) yoʻnalish yukxatiga pochta aloqasi obyektini rahbari (oʻrinbosari)ning imzosini qoʻydirib, pochta topshirish;

— pochta topshirish vaqtida notoʻgʻri joʻnatilgan pochta joʻnatmasi aniqlanganda, yukxat va uning nusxasida pochta qabul qilayotgan va topshirayotgan aloqa xodimlarining imzolari bilan ushbu pochta joʻnatmasi/buyum qabul qilinmaganligi va nima sababdan ekanligi toʻgʻrisida yozib qoʻyiladi;

— pochta aloqasi obyektidan yukxatning bir nusxasi bilan pochta qabul qilish va uni turlari boʻyicha pochta aloqasi obyektining rahbari (oʻrinbosari) tomonidan yoʻnalish yukxatining orqa tomoniga taqvim shtempelini qoʻygan holda yozib qoʻyiladi. Joʻnatish uchun pochta boʻlmagan holda yoʻnalish yukxatiga «Pochta yoʻq» belgisi qoʻyiladi. Pochta

qabul qilayotib, sug'urtali, hukumatga oid va xalqaro qoplarni hamda qiymati eng kam ish haqining besh barobaridan ortiq deb e'lon qilingan posilkalarni nomma-nom tekshirish. Qolgan pochta sanab qabul qilinadi. Qabul qilinayotgan pochta hisobi ovoz chiqarib sanaladi. Shu bilan bir vaqtda manzillar, o'rovlar butligi, choklar, bog'ichlar (qog'oz tasmalar) va muhrlar (plombalar)ning butunligi, pochta jo'natmalarining to'g'ri joylanganligi, shuningdek, hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini ko'zdan kechirish. Qabul qilingan pochta uchun qabul qilingan buyumlarning miqdori (so'z bilan) to'g'risida tilxat berilishi kerak, masalan: «O'ttiz beshta buyumni qabul qilib oldim Islomov», (imzo) va pochta qabul qilingan vaqt ko'rsatiladi. Qabul qilib olingan pochta miqdori kuzatuvchi tomonidan hujjatlardagi yakun bilan solishtiriladi;

— pochta aloqasi obyektidan pochta qabul qilayotganda yukxatga yozilgan pochta jo'natmasi bo'lmasa, haqiqiy olingan pochta miqdori uchun tilxat berilishi kerak. Bunday holda yukxat va uning nusxasida pochta qabul qilayotgan va topshirayotgan aloqa xodimlarining imzolari bilan belgi qo'yiladi, masalan: «To'rtko'l guruhida yozib qo'yilgan o'ttiz ikkita posilka o'rniga o'ttizta posilka qabul qilindi».

Pochta aloqasi obyektiga pochta topshirilayotganda yo'nalish bo'yicha ikkita kuzatuvchi bo'lganda alohida yukxat nusxasiga yoki yo'nalish yukxatining asl nusxasiga pochta qabul qilish-topshirish imzosini katta kuzatuvchi amalga oshiradi.

O'rovlari, bog'ichlari (tasmalari) va muhrlari (plombalari) shikastlangan pochta jo'natmalari pochta aloqasi obyektlaridan qabul qilinmaydi, bu haqda yukxatlar va ularning nusxalariga belgi qo'yiladi.

Kuzatuvchi almashinuv punktiga pochta kuzatish va almashish huquqini beruvchi guvohnomasiz yoki yukxatsiz kelgan bo'lsa, pochta undan qabul qilib olinadi, ammo unga faqat bosma nashrli qoplar va bog'lamlar hamda yozma xat-xabarlar beriladi. Pochta aloqasi obyektiga yukxatining ikkala

nusxasida quyidagi mazmundagi belgi qo'yiladi: «Pochta kuzatuvchisi (qoida buzilganligi ko'rsatilsin) kelganligi sababli unga almashinuv punktidan xat-xabarli qoplar, davriy nashrli qoplar va bog'lamlar berildi. Qolgan pochta berilmadi». Pochta almashinuvi to'liq amalga oshirilmaganligi to'g'risida pochta aloqasi obyektining rahbari (o'rinbosari) qoidani buzgan xodim ishlaydigan pochta aloqasi obyektining rahbariga telegramma orqali xabar qiladi.

Pochtani kuzatish va qo'riqlash bo'yicha majburiyatlarni amalga oshirishda kuzatuvchi quyidagi vazifalarni bajarishga majbur:

- yo'nalish bo'yicha tashishga qabul qilingan pochta yonida hech qayoqqa ketmay bo'lish, pochtani qarovsiz qoldirmaslik va uni qo'riqlashni boshqa shaxslarga topshirish;

- pochta yo'nalishlari bo'yicha pochta tashilganda uning saqlanishini ta'minlash;

- pochtaga ehtiyotkorlik bilan muomalada bo'lish;

- pochta avtomashinasi harakatlanishining belgilangan yo'nalishiga aniq rioya qilish, jadvalda ko'zda tutilmagan joylarda to'xtashlarga yo'l qo'yimaslik;

- avtomashinada begona shaxslarning bo'lishiga yo'l qo'yimaslik;

- pochta almashinuv punktlarida begona shaxslar almashuv joyiga kira olmasliklarini kuzatish;

- avtomashinada ketayotgan shaxslarga chekish va gugurt yoqish, avtomashinada tez alangalanuvchi moddalarni tashishga yo'l qo'yimaslik;

- FV yuzaga kelganda pochtani saqlash choralari ko'rish;

- pochta almashish va qayta yuklash punktlarida pochtdan begona shaxslarning foydalana olishlariga yo'l qo'yimaslik.

Yo'lda pochtaning bir kuzatuvchi tomonidan ikkinchi kuzatuvchiga berilishi qat'iyan man etiladi.

Uzoq davom etadigan yo'nalishdagi yo'lda kuzatuvchilar almashilganda almashish amalga oshiriladigan pochta aloqasi obyekti bir kuzatuvchidan qabul qilib oladi va uni alohida

yukxatlar bilan birgalikda qaytadan tuzilgan yoʻnalish yukxati boʻyicha boshqa kuzatuvchiga topshiradi.

Xalqaro pochtaamt, yoʻnalish boshlangʻich punktining pochta aloqasi obyektiga qaytganidan keyin kuzatuvchi yoʻnalish yukxatini va alohida yukxatlarni topshirishi shart.

Xalqaro pochtaamt, boshlangʻich punktning pochta aloqasi obyektiga yetkazilgan pochta uni kuzatuvchi aloqa xodimidan pochta qabul qilish va joʻnatish yuklangan mansabdor shaxslar tomonidan qabul qilib olinadi. Pochtani qabul qilayotgan aloqa xodimlari meʼyoriy hujjatlarda koʻzda tutilgan tartibda yoʻnalish yukxatini va alohida yukxatlarni qabul qilib olishlari kerak. Bunda pochta harakatlanish jadvalining bajarilishi tekshiriladi. Qandaydir qoidalar buzilganligi aniqlanganda choralar koʻriladi.

Qabul qiluvchilar yoʻnalish boʻyicha joylashgan pochta aloqasi obyektlariga pochta topshirilishi toʻgʻri rasmiylashtirilganligini tekshiradilar va tekshiruv natijalari toʻgʻrisida yoʻnalish yukxatiga belgi qoʻyadilar.

Pochta almashinuvida aniqlangan nosoz pochta joʻnatmalari yoʻnalishning boshlangʻich punktiga qaytganda kuzatuvchidan barcha hollarda qabul qilinadi. Ular ochilganda boshlangʻich punktdagi Xalqaro pochtaamt, pochta aloqasi obyektining xodimlari bilan birgalikda dalolatnomani imzolaydigan kuzatuvchi ham boʻlishi kerak. Pochtani topshirish punktida nuqsonli pochta bitta kuzatuvchidan ikkinchisiga topshirilganda ham huddi shu tartibda rasmiylashtiriladi.

Pochtani qabul qilish vaqtida bogʻlami, muhri yoki oʻrovi shikastlanganda pochta joʻnatmasi yoki buyum ochilmaydi, balki boshlangʻich punkt Xalqaro pochtaamti, pochta aloqasi obyektining sugʻurtali muhri bilan muhrlanadi. Bu haqda yukxatga belgi qoʻyiladi, bu posilka boʻlsa, blankka ham belgi qoʻyiladi. Belgi pochta almashinuvida ishtirok etgan aloqa xodimlarining imzolari va Xalqaro pochtaamt, pochta aloqasi obyekti taqvim shtempeling izi bilan tasdiqlanadi.

Shundan so'ng pochtni kuzatayotgan aloqa xodimi reys oldidan olgan guvohnomasi, quticha (jomadon, sumka), bo'sh qoplarini topshiradi.

Agar kuzatuvchi boshlang'ich punktidagi Xalqaro pochtaamt, pochta aloqasi obyektiga topshirilgan pochta uchun tilxatli, pochta aloqasi obyektiga taqvim shtempelining izi bo'lmagan yo'nalish yukxatini yetkazsa, pochta aloqasi obyektiga rahbarining nomiga pochta qabul qilib olinganligini tasdiqlash iltimosi bilan so'rov yuboriladi. Pochta aloqasi obyektining rahbari bunday so'rovni olishi bilanoq darhol eng tez usul bilan qabul qilingan pochta turlari bo'yicha miqdorini tasdiqlaydi.

Kuzatuvchi quyidagi huquqlarga ega:

- pochta noto'g'ri berkitilganda, kuzatuv hujjatlari noto'g'ri rasmiylashtirilganda, shuningdek, o'rovlari, bog'ichlari (tasmalari) va muhrlari shikastlangan pochta jo'natmalari aniqlanganda pochtni qabul qilishdan bosh tortish;

- pochta almashinuvi joylarida aloqa xodimlaridan pochtni almashish tartibi talablari bajarilishini talab qilish;

- avtomashinaga hujum qilish, pochta yo'qolishi va o'g'irlanishi faktlari bo'yicha, shuningdek, yo'l-transport hodisasi yuz bergan holda hududiy huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilish.

Bosh kuzatuvchiga, shuningdek, pochtni qo'riqlash uchun qo'shimcha ajratilgan aloqa xodimlariga, avtomashina haydovchisiga pochtni qo'riqlash, almashish va avtomashinaning pochta yo'nalishi bo'yicha harakatlanish jadvaliga rioya qilish masalalari bo'yicha farmoyishlar va ko'rsatmalar berish huquqi beriladi.

Kuzatuvchi quyidagilar uchun javobgar:

- a) kuzatuvchining aybi bilan sodir bo'lgan pochta jo'natmalarining yo'qotilishi, o'g'irlanishi, kamomadi, ulardagi joylanmaning kamomadi, shikastlanishi yoki buzilishi uchun qonun hujjatlariga muvofiq;

b) kuzatuvchining aybi bilan sodir bo'lgan pul summalari va boshqa pochta qimmatbaho buyumlarining yo'qotilishi, o'g'irlanishi va kamomadi uchun — yetkazilgan zarar miqdorida;

d) kuzatuvchining aybi bilan sodir bo'lgan pochtaning almashilmaganligi va avtotransport harakatlanish jadvalining buzilishi, normativ hujjatlar talablarining buzilishi, ushbu bandning a) kichik bandida ko'zda tutilgan javobgarlikdan tashqari, intizomiy javobgar ham bo'ladi;

e) yovuz niyatli odamlarning hujum qilishlarining oldini olish choralarini ko'rmaslik;

f) avtomashina va tashiladigan pochtaning harakatlanish jadvali to'g'risidagi axborotni oshkor qilish;

g) avtomashinada begona shaxslarning va ruxsat berilmagan yukning olib ketilishi.

3.1.5. FV yuzaga kelish xavfi bo'lganda kuzatuvchining xatti-harakatlari

FV yuzaga kelganda kuzatuvchining xatti-harakatlari:

— pochtni tashiyotgan transport vositasiga hujum qilingan holda;

— o'q otish qurolini qo'llagan holda hujumni qaytaradi;

— mobil aloqa vositalaridan foydalanib darhol yo'nalish bo'yicha boshlang'ich va keyingi pochta aloqasi obyektining rahbariga xabar qiladi, bunday imkoniyat bo'lmaganda pochta yo'nalishi bo'yicha ketayotgan fuqarolar orqali axborotni uzatish yo'li bilan eng yaqin pochta aloqasi obyektiga va huquqni muhofaza qilish organlariga xabar qiladi;

— pochtni kuzatish va qo'riqlash davomida FV yuzaga kelganligi to'g'risida Xalqaro pochtaamt, pochta aloqasi obyektlari rahbarlariga o'z vaqtida ma'lum qiladi;

— zarur bo'lganda, shoshilinch chaqiruv xizmatlari (yong'indan saqlash, tez yordam xizmati, tegishli avariya xizmatlarining brigadasi, militsiya xodimlari va b.)ni chaqiradi;

— avtomashinaga hujum qilish, pochtaning yo‘qotilganligi va o‘g‘irlanganligi, yo‘l-transport hodisasi faktlarini tekshirish uchun huquqni muhofaza qilish organlariga axborot taqdim etadi;


— aloqa xodimlari (haydovchilar, kuzatuvchilar) kuchlari bilan pochtaning qo‘riqlanishini ta‘minlaydi, shuningdek, zarur bo‘lganda pochta qo‘riqlash masalalari bo‘yicha huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlariga murojaat qiladi;

— axborotni olishi yoki keng ko‘lamli FV (zilzila, suv toshqini, bahorgi suv toshqini, sel oqimlari)ning yuzaga kelishi bilan transport vositalarini binolar, inshootlar, energetik kommunikatsiyalar (gaz, neft quvurlari, yuqori voltli liniyalar), kuchli ta‘sir ko‘rsatadigan zaharli moddalar saqlanadigan, ishlab chiqaradigan iqtisodiyot obyektlarining qulash xavfi bo‘lgan rayonlardan olib ketish choralarini ko‘radi. FVning kengayishiga yo‘l qo‘ymaslik bilan shug‘ullanuvchi bo‘linmalar, xizmatlar (hududiy hokimiyat organlari, IIV, FVV) ma‘lumotlari bo‘yicha yuzaga kelgan vaziyatni va avtomashina harakatlanishining eng xavfsiz yo‘nalishlarini aniqlashtiradi.

3.2. Tashishda pochta jo‘natmalarining saqlanishini ta‘minlash

3.2.1. Tashishda pochta jo‘natmalarining saqlanishini ta‘minlashga qo‘yiladigan umumiy talablar

Pochta jo‘natmalari tashiladigan qoplar pishiq materialdan tayyorlanishi va ular tarkibidagi joylanmaga nisbatan aniq va yaqqol ko‘rinadigan belgilarga ega bo‘lishi kerak. Hozirgi vaqtda xalqaro amaliyotda bir marta ishlatiladigan qoplardan foydalanish tendensiyasi mavjud, bu narsa rentabel hisoblanadi. Bu qoplar yetarlicha pishiq bo‘lishi va pochtaga ishlov berish va tashish oddiy protseduralariga moslashtirilgan bo‘lishi kerak.



21-rasm. Shpagat yordamida sug'urtali qoplarni berkitish namunasi.



22-rasm. Berkituvchi qurilma namunasi.

Qoplar shunday tayyorlangan bo'lishi kerakki, ularni noqonuniy ochishga har qanday urinishlar qopni bog'lash joyida aniq ko'rinib turishi kerak.

Pochta qoplarini surg'uchli muhr bilan muhrlash (plombalash) va berkitish bo'yicha qoidalarni qat'iy bajarmaslik xat-xabarlarni o'g'irlash va shikastlash uchun potensial imkoniyatlar yuzaga kelishiga olib keladi. Bir nechta asosiy qoidalarni bajarish lozim:

— qop yaxshi holatda ekanligi va yirtilmagan yoki shikastlanmaganligiga ishonch hosil qilish uchun uni sinchiklab koʻzdan kechirish kerak;

— qop pochtaning saqlanishini ishonchli taʼminlaydigan tarzda tayyorlangan boʻlishi lozim;

— qopdan pochtaning sezdirmay olib qoʻyilmasligi uchun zich bogʻlanishi kerak. Qop mahkamlangan tegishli yorliqqa ega ekanligiga ishonch hosil qilish zarur;

— plombalar yengil metall, plastik yoki neylon materialdan tayyorlanishi lozim, bunda ochish yoki qaytadan plombalashga har qanday urinishlar ularda oshkora izlar qoldirishi kerak.

Pochta joʻnatmalari solingan sugʻurtali qoplar quyidagi tartibda berkitiladi.

Qopning yuqori qismi yigʻiladi va oldindan «Sugʻurtali» — «Sugʻurtali» yozuvi qayd qilingan tegishli shakldagi yorliq qoʻyiladigan kanop ip bilan ikki marta aylantiriladi. Kanopning uchlari oʻzaro birlashtiriladi va birining uchi ikkinchisi orqali ikki marta aylantirilgan ip tagidan oʻtkaziladi, shundan soʻng uni tarang qilib tortib, uchlari ikki qayta tugun qilib bogʻlanadi (21-rasm). Bogʻich shunday moʻljal bilan bogʻlanadiki, qopdagi joylanma siljimasligi kerak. Qop plombalanadi yoki muhrlanadi. Yorliq qopga ishlov berishda va berkitishda ishtirok etgan aloqa xodimlari tomonidan imzolanadi.

Sugʻurtali qoplarni berkitishda berkituvchi qurilmalardan foydalanish mumkin (22-rasm).

Plombani ochish yoki yechishga urinishlar natijalari qanchalik aniq koʻrinishiga nisbatan foydalaniladigan plombalash amaliyotini baholash maqsadga muvofiq. Koʻpgina UPIga aʼzo-mamlakatlarda yechilishi oson boʻlgan tasmada qoʻrgʻoshin plombalardan foydalaniladi.

Pochta xodimlarini kerakli tarzda plombalashni bajarish va yaxshi plombalanmagan qoplarni aniqlashga oʻrgatish kerak.

Pochtaga ishlov berish va tashishning eng ilgʻor shakllaridan biri konteynerlarni qoʻllash hisoblanadi. Konteyner

manzil belgisi bo'yicha birlashtirilgan yuklar to'plamlarini tashish, ishlov berish va omborxonaga taxlash uchun mo'ljallangan idishdan iborat. Plombalangan konteynerlardagi pochta yuklarining to'plamiga bitta yuk sifatida ishlov beriladi, bu transport-yuklash ishlariga sarflanadigan mehnat xarajatlari ancha kamaytiradi, bir qator nazorat operatsiyalarini bajarmaslik imkonini beradi, pochtaning saqlanishini oshiradi, uning harakatlanishini tezlashtiradi, yanada tezroq yuklash va tushirish hisobiga transport vositalarining turib qolishlarini qisqartiradi. Pochta aloqasida konteynerlardan posilkalar, qoplar, gazeta bog'lamlari, banderollarni tashish uchun foydalaniladi.

Konteynerlarning hozirgi zamon nomro'yxati tashiladigan yuklarning vazifasi, xarakteri, turi va b.ga bog'liq massasi, gabaritlari, konfiguratsiyasi va konstruktiv xususiyatlari bo'yicha katta farq bilan tavsiflanadi. Iqtisodiy maqsadga muvofiklikdan kelib chiqqan holda pochtaning konteynerlarda tashilishi, asosan, yirik almashinuv punktlari o'rtasida joriy qilinadi.

Pochta jo'natilishidan avval konteyner pochta konteynerda jo'natishga tayyorlagan pochta aloqasi obyekti tomonidan muhrlanadi (plombalanadi). Konteynerlar tashilganda ularni qabul qilish-topshirish muhrlar (plombalar)ning sozligi, mavjudligi va saqlanishini tekshirgan hamda konteynerlar va plombalar raqamlarining blanklardagi yozuvlar bilan muvofiqligini tekshirgan holda ularning miqdori bo'yicha amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi milliy operatori tomonidan magistral pochta yo'nalishlari bo'yicha pochta jo'natilayotganda pochta avtomashinalarining kuzovlarini plombalash amaliyoti kiritilgan.

Xalqaro pochta tomonidan normativ hujjatlar talablariga muvofiq magistral pochta yo'nalishlari bo'yicha pochta almashinuvi bajariladigan Xalqaro pochta tomonidan almashuv sexi va pochta aloqasi obyektlari uchun plombir puan-sonlarining matnlari belgilanadi. Pochta avtomashinalarini

plombalash uchun mo'ljallangan plombirlar, plombir puansonlari va plombalar, shu jumladan, foydalanilgan, ta'minlangan tartibda saqlanadi. Yo'nalishga chiqishdan oldin kuzatuvchiga kerakli miqdordagi plombalar beriladi.

Foydalanilgan va foydalanilmagan plombalar Xalqaro pochtaamtning moddiy javobgar bo'lgan shaxsiga qaytariladi. Plombalarni topshirish va qaytarish hisobi plombalarni topshirish va qabul qilishni hisobga olish jurnali bo'yicha bajariladi.

Magistral pochta yo'nalishi bo'yicha jo'natishda avval pochta joylanmalari joylangan pochta avtomashinasining kuzovini plombalash, shuningdek, plombaning butunligini va uning belgilangan namunaga muvofiqligini tekshirish quyidagilar tomonidan amalga oshiriladi:

— Xalqaro pochtaamt — Xalqaro pochtaamt smena boshlig'i bilan birgalikda PXX bo'limining xodimi hamda kuzatuvchi tomonidan;

— pochta almashinuv punktlarida — almashinuv punktining xodimi (pochta almashuvi uchun javobgar) bilan birgalikda PXX bo'limining xodimi hamda kuzatuvchi tomonidan.

Pochta avtomashinasining kuzovini plombalash fakti va plombani tekshirish natijasi har bir pochta avtomashinasi bo'yicha yuritiladigan va yo'nalishga chiqishdan oldin Xalqaro pochtaamtning smena boshlig'i tomonidan kuzatuvchiga beriladigan pochta avtomashinasi kuzovining plombalanishini va plombaning butunligini tekshirish natijalarini qayd qilish jurnalida aks ettiriladi. Pochta avtomashinasi kuzovining plombalanishini va plombaning butunligini tekshirish natijalarini qayd qilish jurnali raqamlanishi, tikib bog'lab qo'yilishi va Xalqaro pochtaamtning muhri bilan muhrlanishi kerak.

Plomba butunligini ruxsatsiz buzish FV hisoblanadi. Plomba butunligining buzilishi fakti to'g'risidagi axborotning uzatilishi normativ hujjatlarda belgilangan tartibga muvofiq bajarilishi kerak.

3.2.2. Pochta avtomashinalarini plombalash va plombalar butunligini tekshirish

Pochta magistral pochta yoʻnalishi boʻyicha joʻnatilishidan avval pochta avtomashinasining kuzovi Xalqaro pochta xodimlari tomonidan plombalanadi, bu haqda pochta avtomashinasi kuzovining plombalanishini va plombaning butunligini tekshirish natijalarini qayd qilish jurnaliga yozib qoʻyiladi.

Har bir pochta almashinuv punktida xodimlar tomonidan plombadagi plombir puansonining izi va uning pochta avtomashinasi kelayotgan Xalqaro pochta yoki pochta almashinuv punkti uchun belgilangan plombir puasoni izining namunasiga muvofiqligi tekshiriladi. Pochta topshirilib, qabul qilinganidan keyin pochta avtomashinasi ushbu pochta almashinuv punkti uchun belgilangan plombir puansonining izini plombaga tushirgan holda plombalanadi. Plombaning butunligi va pochta avtomashinasining kuzovi plombalanganligi tekshirilganligi toʻgʻrisida pochta avtomashinasi kuzovining plombalanishini va plombaning butunligini tekshirish natijalarini qayd qilish jurnaliga yozib qoʻyiladi.

Pochta avtomashinasi magistral pochta yoʻnalishidan qaytganda Xalqaro pochta xodimlari tomonidan plombaning butunligi va plombadagi plombir puasoni izining pochta avtomashinasi kelayotgan oʻsha pochta almashinuv punktining belgilangan namunasiga muvofiqligini tekshirish bajariladi, bu haqda pochta avtomashinasi kuzovining plombalanishini va plombaning butunligini tekshirish natijalarini qayd qilish jurnaliga yozib qoʻyiladi. Jurnal Xalqaro pochta tashilash smena boshligʻida belgilangan tartibda saqlanadi.

3.2.3. Muhr (plomba)ning butunligi buzilganda aloqa xodimlarining xatti-harakatlari

Pochta avtomashinasining yuki huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari, kuzatuvchi tomonidan koʻzdan kechirilganda dalolatnoma tuziladi.

Pochta avtomashinasi buzilganda, zarur bo'lganda pochta avtomashinasining kuzovida bo'lgan asboblari yoki ehtiyot qismlardan foydalanish kerak bo'ladi, dalolatnoma tuziladi.

Yo'nalish yukxati bo'yicha pochta jo'natmalarining mavjudligi tekshiriladi va dalolatnoma tuziladi. Pochta almashinuv punktida pochta almasuvi o'tkazilganidan keyin avtomashinaning kuzovi plombalanadi.

Dalolatnomalarning birinchi nusxalari pochta almashinuv punktining hujjatlariga qo'shib qo'yiladi. Pochta avtomashinasi magistral pochta yo'nalishidan qaytganda dalolatnomalarning ikkinchi nusxalari Xalqaro pochta tarmogining smena boshlig'iga topshiriladi.

Pochta almashinuv punktining xodimi tomonidan pochta kuzatgan xodimlarning aybi bilan plombaning buzilganligi fakti to'g'risida pochta avtomashinasi kuzovining plombalanishini va plombaning butunligini tekshirish natijalarini qayd qilish jurnaliga yozib qo'yiladi.

Navbatdagi pochta almasuvi yuz berishi kerak bo'lgan pochta almashinuv punktiga yoki Xalqaro pochta tarmogiga muhirsiz (plombasiz) yoki muhri (plombasi) buzilgan konteyner kelganda, almashinuv punktining xodimi (pochta almasuvi uchun javobgar bo'lgan) yoki Xalqaro pochta tarmogining smena boshlig'i tomonidan PXX bo'limining xodimi hamda kuzatuvchi bilan birgalikda kelgan pochta blanklarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini, pochta o'rovining holatini tekshirishlari shart. Tekshiruv natijalari bo'yicha dalolatnoma tuziladi. Farqlar bo'lganda, dalolatnomaga mavjud bo'lmagan pochta jo'natmalari va buyumlarning raqamlari yozib qo'yiladi.

O'rovlari shikastlangan, muhri maydalangan va noaniq, plombasi shikastlangan sug'urtali qoplar pochta vagoniga pochta vagonidan, pochta aloqasi obyektidan pochta aloqasi obyektiga qabul qilinmaydi. Bunday hollarda pochta qabul qiluvchi va topshiruvchining imzolari bilan taxminan quyidagi mazmundagi belgi qo'yiladi: «Farg'onadan Qarshiga



23-rasm. «Lyumograf-1MK» komplektining tashqi ko‘rinishi.



24-rasm. «Lyumograf-1SK» seriyasidagi identifikatsiya qilish vositalari.

jo‘natilgan sug‘urtali qop qabul qilinmadi — plombasi shikastlangan». Poyezdning turish vaqti cheklanganligi bunday belgini bajarish imkonini bermasa, haqiqiy qabul qilingan buyumlarning miqdori uchun tilxat beriladi. Pochta vagonining brigadasi, pochta aloqasi obyekti tomonidan qabul qilinmagan sug‘urtali qoplar nosozlik sababini tekshirish va zarur choralarni ko‘rish uchun sug‘urtali qop berkitilgan joyning pochta aloqasi obyektiga qaytariladi. Pochta vagoni yo‘lidagi

oxirgi punktda pochta almashinuvida aniqlangan o'rovlari shikastlangan, muhri maydalangan va noaniq, plombasi shikastlangan sug'urtali qoplar sayyor brigadadan har qanday holatda ham qabul qilinadi. Ular oxirgi punktdagi pochta aloqasi obyektining xodimlari bilan birgalikda ochilganda pochta vagonining boshlig'i (o'rinbosari) ishtirok etishi kerak, u 51-shakldagi dalolatnomani imzolaydi. Pochta vagoniga qabul qilingan sug'urtali qoplar muhrlar (plombalar) nosozligi sababli borish yo'lidan qaytarilmaydi.

Pochta vagonidan pochtni qabul qilish vaqtida bog'ichi, muhri (plombasi) shikastlanganda sug'urtali qop ochilmaydi, balki pochta vagonining muhri (plombasi) bilan muhrlanadi.

3.3. Pochta jo'natmalari saqlanishining nazoratini o'tkazish shakllari va metodlari

3.3.1. Belgi qo'yuvchi vositadan foydalangan holda tekshiruv tadbirlarini o'tkazish

Pochta jo'natmalari (joylanmalari) o'g'irlangan joylarni va bunga aloqador bo'lgan shaxslarni aniqlashning samarali vositasi bo'lib, maxsus texnik vositalar: sanoat televideniyesi va kimyoviy belgi qo'yuvchi moddalardan foydalangan holda o'tkaziladigan tekshiruv chora-tadbirlari hisoblanadi.

Ulardan eng foydalanish qulay bo'lgani «LYUMO» komplekti tarkibiga kiradigan «Lyumograf-1MK» (23-rasm), «Lyumograf-1SK» (24-rasm) va sh.k. kimyoviy belgi qo'yuvchi vositalari hisoblanadi.

Bu vosita oddiy yoritilganda ko'zga ko'rinmaydi va uzun to'liqinli ultrabinafsha nuri bilan yoritilganda yorqin yonib ko'rinadi, har qanday yuzada mahkam o'rnashadi va uzoq vaqt (6 oy)gacha o'z xususiyatlarini yo'qotmaydi.

Bunday tadbirlarning muvaffaqiyati ko'p hollarda ularning o'tkazilishini tashkil qilishga bog'liq.

Tekshiruv chora-tadbirini tashkil qilish, asosan, quyidagi birinchi navbatdagi vazifalarni hal qilishga olib boradi:

1) o'tkazilayotgan tekshiruv chora-tadbirining maqsadini belgilash;

2) ko'zda tutilgan shaxs(lar) biz uchun kerak bo'lgan yo'nalishda harakat qiladigan kerakli vaziyatni ishlab chiqish va yaratish;


3) tekshirilayotgan shaxsda shubha uyg'otmaydigan va keyinchalik ekspertizani o'tkazish imkonini beradigan tegishli tekshiruv (nazorat) pochta jo'natmasini tayyorlash.

Odatda, tadbir maqsadi pochta jo'natmalarini o'g'irlashning aniqlangan holatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Ko'pincha tadbirning maqsadi quyidagilar hisoblanadi:

— jo'natilayotgan pochta jo'natmasi yoki sug'urtali qopni ruxsatsiz ochish (foydalanish) faktini aniqlash;

— aniq o'g'irlash joyi (ishlov berish uchastkasi)ni, shuningdek, qoidani buzgan ehtimoliy aniq shaxsni aniqlash.


Tanlangan vaziyat pochtaga ishlov berish texnologik uchastkasining kundalik faoliyatiga va tekshirilayotgan shaxsning ishlashiga haqiqatdan va mantiqan mos tushishi juda muhim. Muayyan shaxslar tekshirilganda ular tekshiruv jo'natmasiga katta qiziqishni namoyish qilgan holda




25-rasm. Konvert klapanlariga belgilarning tushirilishi.

tekshiruvchilar uchun kerakli bo'lgan yo'nalishda harakat qilishlari uchun kerakli sharoit yaratish, kerakli vaqt va tegishli joyni ajratgan holda bu jo'natmadan foydalanish sharoitlari va imkoniyalarini yaratish kerak.

Vaziyatga yanada ishonchli tus berish, shuningdek, tekshirilayotgan shaxsning e'tiborini chalg'itish uchun tadbirlarda bunga hech qanday aloqasi bo'lmagan va uni o'tkazish maqsadlari va vazifalari to'g'risida bilmaydigan shaxslar qatnashishlari mumkin.



26-rasm. Manzil yorlig'i zonasida belgilarni tushirish.



27-rasm. Bog'ich zonasida belgilarni tushirish.

Shuni qayd etish kerakki, tekshirilayotgan shaxs o'z xatti-harakatlarini to'liq namoyon qiladigan tegishli vaziyatni yaratishning ishlab chiqilishi — asosiy va yetarlicha murakkab bo'lgan vazifadir.

3.3.2. Tadbirni tayyorlash va o'tkazish

Bu masalani ko'rib chiqib, o'tkazilayotgan tekshiruv tadbirlarida belgi qo'yuvchi vositadan foydalanishning asosiy prinsipi va mexanizmini aniq tushunib yetish kerak.


Uning asosi belgi qo'yuvchi vositani keyinchalik ruxsatsiz foydalanish faktini ishonchli tarzda belgilash imkonini beruvchi uchastkalarga tushirishdan iborat. Bunda belgi qo'yuvchi vositalar tushiriladigan yuza ultrabinafsha nuri bilan nurlantirilganda kuchli luminessensiyalanmasligi (nurlanmasligi) maqsadga muvofiq.

O'tkaziladigan tekshiruv chora-tadbirlarining vazifalariga bog'liq holda belgi qo'yuvchi vositalar quyidagilarga tushiriladi:

- qop idishlarning bog'ichlari va choklari;
- sug'urtali muhrlarning surg'uchli izlari;
- konvertlar klapanlari (27-rasm), banderollar va posilkalarning o'rovi;
- yopishtirilgan konvertlar va pochta jo'natmalarining yelimli qatlami;
- posilkalar yumshoq o'rovlarining choklari;
- posilkalar fanera qutilarining bog'ichlari va mixlarining qalpoqchalari;
- qog'oz va sintetik o'rovlash tasmalari;
- pochta joylanmalarining alohida buyumlari va sh.k.

Quyida «LYUMO» komplektidan foydalangan holda pochta jo'natmalarining alohida turlari va konteynerlar (qop idishlari)ga belgi qo'yish metodikasi keltiriladi.

Agar o'g'irlik quyidagi yo'l bilan amalga oshirilganda joylanmalardan ruxsatsiz foydalanish faktini aniqlash imkonini beradigan pochta jo'natmalari joylangan qoplarga belgi qo'yish:



28-rasm. Posilkali qutilarning bog‘ichiga belgilarni tushirish.


— qop og‘zidan bog‘ichini olish (plomba yoki sug‘urtali muhr buzilganda bog‘ich kanop ipining kesilganligi va yopishtirilganligi, almashtirilganligi yoki joyidan siljiganligi);

— kuchsiz tortilgan bog‘ich orqali qop og‘zining tortilishi.

Belgi qo‘yish biroz qorong‘ilashtirilgan joyda quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

— bog‘ichga va qopning yuzasiga bir-birining qat’iy qarama-qarshisiga flomaster bilan kerakli miqdordagi belgilarni tushirish;

— ultrabinafsha fonari yordamida tushirilgan belgilarning sifatini nazorat qilish;



29-rasm. Tushirilgan belgilarning dastlabki holatiga nisbatan siljishi.

— bajarilgan belgi qo'yish kam nurlangan holatda xuddi shu joyga belgi qo'yuvchi moddadan qo'shimcha ravishda belgi tushirish.

Belgilarni bog'ichning, shu jumladan, manzil yorlig'i zonasidagi bir nechta joylariga qo'yish mumkin (26, 27-rasmlar).

Agar o'g'irlik quyidagi yo'l bilan amalga oshirilganda, qutilarda jo'natiladigan pochta jo'natmasining joylanmasidan ruxsatsiz foydalanish faktini aniqlash imkonini beradigan posilkali qutilar bog'ichiga belgi qo'yish:

- bog'ichni olish;
- bog'ichning kesilishi va uning mahkam yelim yoki tugun bog'lash yordamida ulanishi.

Posilka qutisidan olingan va unga qaytadan joylangan tugunlar bilan mahkamlangan bog'ich cho'zilishi mumkin yoki uning tugunli bog'langan joylari joyidan ko'chgan bo'ladi.

Belgi qo'yish bog'ichning istalgan uchastkasida yoki tugunli bog'langan joyida qoplarga belgi qo'yishga o'xshash tartibda amalga oshiriladi (28-rasm).

Agar xizmatga oid tekshiruv davomida gumon qilingan o'g'rida belgi qo'yilgan nazorat pochta jo'natmasi joylanmasining buyumlari topilsa, bu uning sodir etilgan huquqbuzarlikda ishtirok etganligining rad qilib bo'lmaydigan dalili bo'lib hisoblanadi.

Belgi qo'yish shartli simvol ko'rinishida joylanma buyumining istalgan joyiga tushiriladi.

3.3.3. Nazorat pochta jo'natmasidagi belgilarni o'rganish

Tekshiruv chora-tadbirini o'tkazishning oxirgi va eng muhim payti bo'lib, belgilarni o'rganish hisoblanadi.

O'rganish, odatda, qorong'ilashtirilgan xonada ultra-binafsha lampasidan foydalanib o'tkaziladi. Bunda belgilar tushiriladigan zona va ularning holati o'rganiladi. Agar

belgilar joyidan ko'chgan bo'lsa va bir-biriga mos kelmasa, u holda nazorat pochtasidan ruxsatsiz foydalana olish belgilarining mavjudligi to'g'risida xulosaga kelish mumkin (29-rasm).

Aniqlangan belgilar bo'yicha o'tkazilgan tekshiruv chora-tadbirining natijasi aks ettirilgan xulosalar tayyorlanadi.

3.3.4. Nazorat jo'natmalari

Nazorat jo'natmalaridan pochtni o'g'irlash holatlarini aniqlash va oldini olish bo'yicha tekshiruv chora-tadbirlarini o'tkazishda foydalaniladi. Bunday chora-tadbirlar, odatda, samarali hisoblanadi, ammo muayyan talablarga rioya qilishni talab qiladi.

Tekshiruv uchun vosita sifatida xat, banderol, posilka, mayda paket, sug'urtali qop bo'lishi mumkin. U Pochta xavfsizligi xizmati tomonidan tayyorlanadi va undan pochtaga ishlov berish muddatlarini, texnologik operatsiyalarning to'g'riligini, aloqa xodimlari va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning halolligini tekshirish uchun foydalaniladi. Jo'natma pochta oqimiga qandaydir muayyan punktda muayyan uchastkada aniq bir shaxs tomonidan ishlov berilishini ko'zda tutgan holda kiritilishi mumkin.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, pochtni yo'qolishi bilan kurashishning eng samarali va tejamkor usuli bo'lib oldini olish choralari hisoblanadi. Mavjud oldini oluvchi choralarga qaramay pochtni yo'qotilishi sodir bo'lsa, nazorat jo'natmalaridan foydalanish ko'pincha muammoni hal qilishi mumkin. Tekshiruv qachon va qanday oraliqda o'tkazilishini belgilovchi holatlar turli omillarga bog'liq va vaziyatga ko'ra o'zgarib turadi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, odatda, bir oy ichida o'zaro bog'liq yo'qotishlar tekshiruv o'tkazilishini talab qiladi.

Shunga bog'liq holda «ko'r-ko'rona tekshirish» va nazorat qilinadigan tekshiruv («jonli test») eng tarqalgan tekshiruvlar hisoblanadi.

«Ko'r-ko'rona tekshirish», odatda, boshidan oxirigacha kuzatilmaydigan va muayyan shaxsga qaratilmagan tekshiruvdan iborat. Bunday tekshiruvlarning o'tkazilishi pochtaga ishlov berish sifatini, hatto yo'qotishlar ham bo'lmaganda nazorat qilish vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. «Ko'r-ko'rona tekshiruv»ni tekshiruvlarning boshqa turlari kabi tayyorlash kerak. Nazorat jo'natmasini poch-taning umumiy oqimiga kerakli joyda «joriy qilish» kerak, shundan keyin uni aniqlash uchun maxsus sharoitlarni yaratmaslik lozim. Ammo tekshiruv yashirin tarzda o'tka-zilishi zarur.

Odatda, bunday tekshiruvlar tegishli tahlil uchun yetarlicha axborot bo'lmaganda dastlab poch-tani o'g'irlash joyini aniqlash uchun qo'llaniladi. Buning uchun yo'qotish sodir bo'lishi mumkin bo'lgan barcha ehtimoliy uchastka-lardan boshlash kerak.

Qabul qilish joyi pochta aloqasi obyektida nazorat jo'natmasini kiritish va uni belgilangan punktda olish mumkin.

Agar jo'natma yo'qolsa, u holda doirani toraytirish darkor. Keyingi jo'natmani qabul qilish joyi pochta aloqasi obyektidan keyingi punktda kiritish va adresatdan oldingi punktda olish kerak. Butun jarayon ko'pincha uzoq vaqt davom etadi va bir nechta jo'natmalar jo'natilishini talab qiladi.

Jo'natmaning tarkibi birinchi yo'qotishdan keyinoq yo'qolgan joy yoki gumon qilinayotgan shaxsni aniqlashga yordam beradi. Uchastka ma'lum bo'lsa, ba'zida tegishli tarzda ishlov berilgan pullardan foydalanish mumkin.

Nazorat jo'natmasida belgi qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'lgan tovarlar ham bo'lishi mumkin. Joylanmalar bir xil bo'lishi va, imkoni boricha, tez aniqlanadigan bo'lishi kerak. Ularga: zanjigalkalar, sport poyabzali, ko'zoynaklar, soatlar kiradi.

«Ko‘r-ko‘rona tekshiruv» usuli pochta vagonlarida yetkazilganida pochtni nazorat qilishda eng maqsadga muvofiqdir. Bunda butun yetkazib berish yo‘nalishi bo‘yicha Pochta xavfsizligi xizmati xodimlarining xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish zarur. Oraliq punktlarda nazorat jo‘natmalarini operatsiyaning maqsadini ochmasdan tekshirish kerak. Pochta xavfsizligi xizmatining vakillarini yo‘nalishning keyingi bosqichida tekshiruv natijalari to‘g‘risida tezkor xabardor qilish zarur. Nazorat jo‘natmalari sifatida pochta qoplari hamda posilkalar, paketlar va xatlardan foydalanish mumkin.

Maksimal darajada nazorat qilinadigan va muayyan shaxs yoki joyga qaratilgan test jo‘natmasi «jonli test» deb ataladi. Bu metoddan gumon qilinayotgan shaxs aniqlangan va kutilayotgan natija — pochtni o‘g‘irlashda gumon qilinayotgan shaxs tutilganda foydalaniladi. Bu metoddan o‘g‘irlash joyi ma‘lum bo‘lganda ham foydalaniladi. «Jonli test» jismoniy jihatdan bajarish mumkin bo‘lmagan hollardan tashqari har doim o‘tkazilishi kerak.

Jo‘natmani pochta oqimiga kiritish va olish uchun to‘g‘ri rejalashtirish talab qilinadi.

Nazorat pochta jo‘natmalarini «joriy qilish» uchun pochta uzoq vaqt turmaydigan uchastka tanlanishi lozim. Tekshiruv to‘g‘risida faqat bu haqda bilishi kerak bo‘lgan shaxslarga ma‘lum qilish kerak. Qaysidir aloqa xodimining yordami kerak bo‘lganda, unga ishning mohiyatini ochmagan holda faqat muayyan xatti-harakatlarni tushuntirish zarur.

Nazorat jo‘natmasi barcha jo‘natmalar kabi ko‘rinishga ega bo‘lishi, uning tarkibi esa qimmatbaho bo‘lishi kerak. Gumon qilinayotgan shaxslar xatlardan pullarni o‘g‘irlayotganliklari ma‘lum bo‘lsa, boshqa holatda jo‘natma tarkibiga identifikatsiyalash uchun belgi qo‘yilishi shart. Joylanmaga, ayniqsa, pullarga kimyoviy moddalar bilan ishlov berish umumiy hol bo‘lib hisoblanadi. Ko‘rinadigan kimyoviy moddalar ishlov berilgan yuza bilan aloqada

bo'lgan gumon qilinuvchi shaxslarni aniqlashga yordam beradi. Operatsiyaning yanada maxfiyligi uchun ko'zga ko'rinmaydigan kimyoviy moddalardan foydalanish kerak.

Tekshiruvlarni o'tkazish, ayniqsa, «jonli test» uchun to'g'ri va puxta tayyorgarlik ko'rish kerak. Kerakli axborotni olishdan oldin operatsiyaning borishini tezlashtirish ko'pincha xatoga olib keladi. Gumon qilinayotgan shaxs to'g'risida ko'proq ma'lumotlar yig'ish zarur. Bu shu shaxs tomonidan qonunga xilof harakatlarni sodir etish sabablari va sharoitlarini, shuningdek, ushbu shaxsning pochta aloqasi obyektida ilgari sodir etilgan o'g'irliklarga dahldorlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Gumon qilinuvchi shaxs katta hajmdagi pochtdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa, bir nechta «jonli testlar» kerak bo'lishi mumkin. Ehtimol, faqat gumon qilinuvchi nazorat qilinayotgan pochtaga ishlov beradigan tarzda operatsiyani tashkil qilish talab qilinadi. Shu bilan birga pochtaga ishlov berishning odatiy tartibi buzilmasligini kuzatish lozim. Gumon qilinuvchini pochta o'g'irlanganda va gumon qilinuvchi shaxs unga egalik qilayotganligi katta ehtimoli mavjud bo'lganda qo'lga tushirish kerak. Shubhalar bo'lganda qo'lga tushirish tadbirini o'tkazish maqsadga muvofiq emas. Bu rejalashtirilgan operatsiyaning maqsadini ochmasdan keyingi safar tekshirish imkonini beradi.

Pochtani o'g'irlashlardan himoya qilish bo'yicha ish tajribasidan pochtaga ishlov berishning turli bosqichlarida nazorat xat-xabarlari sifatida foydalaniladigan xat-xabarlarning turlariga nisbatan ma'lum yondashuvlar shakllantirilgan.

Pochtaga ishlov berish punktlarida bajariladigan tekshiruvlarda maxsus tayyorlab qo'yilgan xatlar, banderollar, posilkalar, mayda paketlardan, shuningdek, gap yetkazib berish uchastkalaridagi pochta xalqaro pochta jo'natmalarining yo'qolishlari to'g'risida borsa, pochta joylangan qoplardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shuni qayd etish kerakki, odatda, test jo‘natmasida isbotlashning ishonchli elementi bo‘lib hisoblangan yashirin belgilarning mavjud bo‘lishi ijobiy natijaga olib keladi.

3.3.5. Ko‘zdan kechirish nazorati pochta jo‘natmalari, pul mablag‘lari va moddiy boyliklarining yo‘qolishi va o‘g‘irlanishi bilan bog‘liq vazifalarni hal etishda pochta xavfsizligi bo‘linmalari faoliyatining metodi sifati

Ko‘zdan kechirish nazorati — bu gumon qilinuvchi shaxslar bilan bevosita aloqani istisno etuvchi, bu shaxslarning xatti-harakatlari to‘g‘risida axborotga ega bo‘lish usuli. Bu nazorat sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan qonunga xilof harakatlar to‘g‘risidagi mavjud ma‘lumotlar asosida o‘tkazilishi mumkin. Kuzatish obyekti sifatida muayyan shaxs yoki shaxslar guruhi, ish joyi, hudud uchastkasi, pochtni yetkazib bergan avtomobil va b. bo‘lishi mumkin.

Kuzatuvning muvaffaqiyatli o‘tkazilishiga quyidagi talablarga rioya qilish yordam beradi: uzluksizlik, maqsadlarning yashirinligi, natijalarni qayd qilishdagi tezkorlik, pochta xavfsizligi inspektorlari va mas‘ul pochta xodimlari harakatlaridagi muvofiqlik, tegishli texnik jihozlanganlik, pochtni yetkazib berish yo‘nalishining oldindan tekshirilishi.

Uzluksizlikka erishish uchun gumon qilinayotgan shaxs yoki shaxslar faoliyatining turli uchastkalarida ularning xatti-harakatlari nazoratini ta‘minlash maqsadida kerakli miqdordagi xodimlar va vositalarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Maqsadlarning yashirinligi kuzatuvning gumon qilinuvchi o‘tkazilayotgan operatsiyaning maqsadini ochish imkonini bermaydigan tarzda tashkil qilinishini ko‘zda tutadi.

Natijalarni qayd qilishdagi tezkorlikka kerakli isbotlash bazasini yaratish (video- va fotosuratga olish, guvohlik ko‘rsatmalarini ta‘minlash, natijalarning hujjatli rasmiy-

lashtirilishi) bo'yicha amaliy choralar kompleksi yordamida erishiladi.

Pochta xavfsizligi inspektorlari, huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari va jalb qilinadigan aloqa xodimlarining xatti-harakatlaridagi muvofiqlikka operatsiyaning barcha bosqichlarida ularning kuchlarini to'g'ri taqsimlash va tezkor tarzda axborot almashish hisobiga erishish mumkin.

Kuzatuvning muvaffaqiyatli o'tkazilishi uchun tegishli texnik jihozlanish zarur. Birinchi navbatda, bu televizion kuzatish va videoyozuv tizimlari, optik asboblari, avtomobillar, aloqa vositalari va h.k. mavjudligidir.

Hodisa joyi yoki harakatlanish yo'nalishini dastlab tekshirish kuzatuv obyekti o'zini qanday tutishini, shuningdek, pochta xavfsizligi xodimlari xatti-harakatlarining eng ehtimoliy variantlari oldindan prognoz qilinishini ta'minlaydi.

Mazmuni bo'yicha kuzatuv «jismoniy» yoki «texnik» bo'lishi mumkin.

«Jismoniy» kuzatuv — bu vaziyatni bevosita ko'zdan kechirib nazorat qilish. U obyekt va holatni yanada ko'lamliroq ravishda nazorat qilish imkonini beradi, ammo maskirovka qilinishi murakkabroqdir.

«Texnik» kuzatuv — bu statsionar hamda mobil televizion tizimlar yordamida vaziyatni nazorat qilish. Texnik kuzatuv yanada to'liq yashirinlikni ta'minlaydi, ammo kuzatilayotgan shaxs xatti-harakatlariga nisbatan chora ko'rishda unchalik tezkor emas va axborotning butun to'liqligini bermaydi, chunki bir vaqtning o'zida bir nechta obyektlarga qaratila olmaydi. Ammo ikki element — «jismoniy» va «texnik» elementlarning mohirona uyg'unlashishi qo'yilgan vazifalarni yanada to'liq amalga oshirish imkonini beradi.

Ko'zdan kechirish nazoratining obyektlari sifatida pochta bilan ishlashga: pochta jo'natilganda (olinganda), yetkazib berilganda, pochta qoplari yoki konteynerlari ochilganda, buyurtma, qiymati e'lon qilingan, shikastlangan yoki manzili yozilmagan jo'natmalarni saralash, ishlov berish, talab qilib

olinmagan posilkalarni saqlashga jalb qilingan shaxslar bo'lishi mumkin.

Xulq-atvorga xos bo'lgan bilvosita belgilar, bu belgilar asosida ko'zdan kechirish nazoratini o'tkazish zarurati yuzaga keladi:

- xatlarni yorug'likka tutib qarash;
- pochta jo'natmasini uzoq vaqt tekshirish, uning tarkibini paypaslab aniqlashga urinish;
- xodim atrofiga ko'p alanglaydi, boshliqlarning xatti-harakatlarini kuzatadi;
- tekshirish vakolatiga ega mansabdor shaxslarning paydo bo'lishidan xavotirga tushadi;
- texnologiyada ko'zda tutilmagan ayrim pochta jo'natmalarini saralash (harbiy xizmatchilarga yuborilayotgan xatlar, joylanmasi katta bo'lgan pochta jo'natmalari va b.);
- ochilgan yoki shikastlangan pochta qopi, posilka, mayda paket yoki xatning tarkibini aniqlashga qiziqish;
- pochta avtomobillarining uzoq vaqt kelmasligi, ularning yo'nalishdan og'ishi;
- televizion kuzatish tizimlarining ishiga qiziqish.

Muayyan joyni kuzatish uchun asos bo'lib, u yerda o'g'irlangan va turli muddatdagi xat-xabarlarning aniqlanishi xizmat qiladi, bu ushbu joyning o'ziga xos «yashirish joyi» deb hisoblash imkonini beradi.

Operatsiyaning yakuniy natijasi — bu qoidabuzarni jinoyat ustida ushlab olish ekanligini hisobga olib, ayrim hollarda yordam ko'rsatish uchun huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlarini jalb qilish zarur.

Ko'zdan kechirish nazorati nafaqat muayyan shaxslar ustidan, balki o'g'irlik sodir bo'layotgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan joylar ustidan ham tashkil qilinadi. Pochta xodimlarining barcha xatti-harakatlarini kuzatish mushkul bo'lgan katta hajmdagi xat-xabarlar ishlov beriladigan ish joylari, shuningdek, doimiy nazoratni amalga oshirish qiyin bo'lgan joylar nazorat qilinadigan joylar bo'lishi mumkin.

Televizion tizimlardan foydalanishda psixologik jihat ham hisobga olinishi kerak, bu jihat natijasida «hozir bo‘lish effekti» shakllanadi. Bu, ishlayotgan xodimlarning fikriga ko‘ra, televizion tizim orqali kuzatish doimiy olib borilayotganligi hisobiga yuz beradi. Ushbu holatni muntazam ravishda ma‘lum amaliy choralar bilan qo‘llab-quvvatlab turish kerak.

Masalan, muntazam ravishda xodimlar oldida boshqariladigan va statsionar telekameralarning ko‘rish zonasini to‘g‘rilash, ularning ishlash qobiliyatini tekshirish, ish joylarini ko‘rish zonasida joylashtirish va h.k. Ushbu protsedura xodimlarda ularning xatti-harakatlari doimiy nazorat ostida ekanligi hissini shakllantiradi va ehtimoliy qonunga xilof harakatlarga nisbatan ogohlantiruvchi chora hisoblanadi. Mobil telekameralardan foydalanganda maqsadlarning to‘liq yashirinligini ta‘minlash, ularni o‘rnatayotganda begona shaxslarning bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Pochta muassasasining xavfsizligini ta‘minlash borasida bu muassasa mijozlarining kuzatilishini amalga oshirishda bevosita pochta xavfsizligi xodimlari tomonidan va televizion tizim yordamida vaziyatni nazorat qilishning uyg‘unlashishi zarur. Shuningdek, odamlarning umumiy oqimidan muassasada pochta jo‘natmalarini olish yoki jo‘natish bilan bog‘liq biror-bir maqsadsiz, o‘zini tutishi bo‘yicha shubhali shaxslarni ham ajratish kerak. Tashrif buyuruvchilarni kuzatayotganda paketlar, sumkalar, diplomatlar va boshqa buyumlar qoldirib ketilmasligiga ham e‘tibor qaratish lozim.

Shu tariqa, kuzatuvni tashkil qilish va o‘tkazish bilan bog‘liq butun choralar kompleksi pochta qonunga xilof harakatlardan himoyalashga yordam berishi kerak.

3.4. Pul mablag‘larining saqlanishi

Oshkora sabab bo‘yicha eng yuqori xavfga ega pul mablag‘lari hisoblanadi, sababi o‘g‘rilar va jinoyatchi shaxslarning eng e‘tiborni tortadigan narsa pul mablag‘lari hisoblanadi. Pul mablag‘larining yo‘qotilishi yoki o‘g‘irlanishi korxonaning

moliyaviy jihatdan ta'minlanganligiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi, shu sababli pul mablag'larini himoya qilishning samarali tizimini yaratish va ishlashini qo'llab-quvvatlash muhimdir. Pul mablag'lari uchun eng oshkora xavf bu ularning ichki va tashqi o'zlashtirilishi, shuningdek, o'g'irlanishi hisoblanadi. Agar aloqa xodimi tomonidan ichki o'zlashtirish yaxshi ichki nazorat tizimi doirasida pul operatsiyalarini tartibga solish va auditorlik tekshiruvlari tizimi tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin bo'lsa, o'g'irlikning oldini olish eng murakkab vazifa bo'lib, xizmatchilar va mijozlarga qo'shimcha zarar keltirish xavfini tug'diradi, bu ushbu masalani yanada dolzarb vazifaga aylantiradi.

Boshqa xavfsizlik masalalaridagi kabi, o'g'irlashning oldini olish usullari xavfga to'g'ri baho berish va tahlil qilishdan boshlanadi. Atrofdagilar va jinoiy faoliyat darajasini, himoyalananadigan pul mablag'larining qiymati va harakatini, jinoyatni sodir etayotgan shaxslar uchun ularning zaif va o'ziga jalb qiladigan tomonlarini bilish muhim. Bu masalalarni o'rganib va xavfga baho berishning yaxshi usullari va prinsiplaridan foydalanib, pochta xavfsizligi mutaxassislari va rahbariyat zaif tomonlarni ko'ra olishlari mumkin. Birinchi navbatda, jinoyatni sodir etish uchun eng o'ziga jalb qiladigan joylarda xavfga duchor bo'ladigan mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Tayyorlashning maqsadi, eng avvalo, o'g'irlikning sodir bo'lish holatida xizmatchilarni xavfsizlik choralariga o'rgatish, shuningdek, mablag'larni himoya qilish uchun to'g'ri usullardan foydalanishda va keyingi tekshiruvda yordam ko'rsatishga ko'maklashish.

Himoyalash va keyingi tekshiruvni operatsion oynadan ishga tushiriladigan qo'riqlash signalizatsiyasi, «tuzoq» sifatida qo'llaniladigan to'lov topshiriqlari yoki pullar, videokuzatuv kameralaridan foydalanib jismoniy takomillashtirishlar hisobiga yaxshilash mumkin. Navbatchilikda turgan, yaxshi o'rgatilgan qo'riqchilar o'g'rilarga qarshi eng ushlab turuvchi vosita hisoblanadi. Bino ichida joylashgan, yaxshi

qo'riqlanadigan xonalarda naqd pullarni saqlashdan foydalanishni cheklash masalasini yaxshilab o'ylab ko'rish kerak. Bundan tashqari, rahbarlar moliyaviy faoliyatni boshqarish va daromadlarni himoya qilish operatsion tuynuklarda iloji boricha cheklangan naqd pullar bo'lishligini talab qiladi, bu xavfli vaziyatlarning yuzaga kelishini va yetkaziladigan zararni kamaytiradi.

Moliyaviy faoliyatning yaxshi boshqarilishi va daromadlarni himoya qilish, shuningdek, xizmatchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan kamomad, o'g'irlash va yo'qotishlar xavfini kamaytirish uchun zarur. Xodimlar tomonidan jinoyatlarni sodir etish ehtimolini kamaytirish uchun hisobot topshirish va nazorat qilish aniq protseduralariga, shuningdek, moliyaviy javobgarlikni anglab yetadigan yaxshi tayyorlangan xodimlarga ega bo'lish kerak. Buning hammasini joriy hamda to'satdan o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvlari tizimi hisobidan kerakli darajada qo'llab-quvvatlash lozim. Videokameralar, pochta aloqasi obyektining hududi va ichki xonalariga kirishni nazorat qilish vositalari ham o'g'rilarga qarshi ushlab turuvchi omil sifatida xizmat qilishi mumkin.

Har bir pochta aloqasi objekti naqd pullar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun kassaga ega bo'lishi kerak. Naqd pullarni qabul qilish, berish va vaqtincha saqlash uchun mo'ljallangan maxsus uskunalangan va ajratilgan xona kassa deb ataladi. Pochta aloqasi obyektlari rahbarlari kassani uskunalash va kassa xonasida pullarning saqlanishini ta'minlashga majbur hamda ularning aybi bilan pul mablag'larining saqlanishini ta'minlaydigan kerakli sharoitlar yaratilmagan holatlarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar. Korxonalar kassalari, zarur hollarda sug'urta tashkiloti tomonidan sug'urta qilinishi mumkin.

Pochta aloqasi obyektlari rahbarlari kassa operatsiyalarini olib borish, qo'riqlash-yong'in signalizatsiyasi vositalariga xizmat ko'rsatish, pul mablag'larini qo'riqlash va tashish bilan bog'liq ishlarga olish yoki lavozimga tayinlashda, yoki

shaxslarni yuqorida ko'rsatib o'tilgan ishlarga davriy ravishda jalb qilganlarida, kassa operatsiyalarini olib borish, qo'riqlash-yong'in signalizatsiyasi vositalariga xizmat ko'rsatish, pul mablag'larini qo'riqlash va tashishga quyidagi shaxslar qo'yilmasligini nazarda tutgan holda, bu shaxslar to'g'risida ma'lumotlar olish uchun ichki ishlar organlari va tibbiyot muassasalariga murojaat qilish tavsiya etiladi:

— qonunda belgilangan tartibda sudlanganlik muddatlari o'tib ketmagan yoki olib tashlanmagan, ilgari qasddan sodir etilgan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar;

— surunkali kasalliklarga yo'liqqan;

— jamoat tartibini muntazam ravishda buzadigan;

— spirtli ichimliklarni muntazam ravishda iste'mol qiladigan yoki shifokor ko'rsatmasisiz giyohvand moddalarni iste'mol qiladigan shaxslar.

Markalarning mavjud zaxirasi o'g'rilarni o'ziga jalb qilmasa-da, pochta xizmatlari uchun oshkora xavf tug'diruvchi obyekt bo'lib hisoblanadi. Sodir etilgan o'g'irlik yoki boshqa shaxsning o'zlashtirishi oqibatida markalar mavjud zaxirasining yo'qolishi moliyaviy o'g'irlash oqibatida yetkazilgan zarar kabi pochta ishining yakuniy natijalariga huddi shunday salbiy ta'sir ko'rsatadi. Katta miqdordagi markalarning zaxirasi uchun naqd pullarga ishlov berish uchun foydalaniladigan hisobot topshirish, saqlash va tashish metodlari tizimini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Shuni esda tutish kerakki, ba'zida markalarning mavjud zaxirasi bilan amalga oshiriladigan manipulatsiyalardan moliyaviy kamo-madlarning boshqa turlarini yashirishga urinadigan pochta xodimlari tomonidan foydalaniladi, shu sababli ichki auditorlik tekshiruvi protseduralarida unga mavjud imkoniyat sifatida qarash kerak. Va nihoyat, pochta to'lovi belgilarini yo'q qilish bilan bog'liq xavfga e'tibor qaratish lozim. Markalarning eski zaxirasini yo'q qilish samarali tizimi o'z ichiga qat'iy nazorat qilish, davriy tekshiruvlar va javobgar xodimlar tomonidan markalarni o'g'irlash yoki o'z foydasiga

noqonuniy muomalaga kiritilishining oldini oluvchi choralarni olishi kerak.

3.4.1. Qalbakilashtirilgan pochta to'lovi belgilarini aniqlash

PTDBga pochta jo'natmalariga yopishtiriladigan yoki bosmaxona usulida pochta konvertlari va pochta varaqchalariga tushiriladigan pochta markalari, frankirlash mashinalarining izlari kiradi.

Frankirlash mashinasining izi oddiy va buyurtma xatlar, pochta varaqchalari va banderollarga pochta aloqasi xizmatlarining to'lovi, qabul qilish sanasi va boshqa axborotni tasdiqlaydigan tamg'a izlarini tushirish uchun mo'ljallanadi.

Frankirlash mashinasining izi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- manzilli va/yoki boshqa axborot joylashtiriladigan manzilli tamg'a;

- pochta aloqasi obyekti — pochta jo'natmalari qabul qilingan joy nomi, uning pochta indeksi va frankirlash sanasiga ega taqvim shtempeli;

- pochta jo'natmasini yuborish bo'yicha pochta aloqasi xizmatining to'lovini tasdiqlaydigan PTDB.

Pochta aloqasi faoliyatida fotonusxa olish texnikasi, chuqur va ofset bosma vositalari yordamida tayyorlangan soxta pochta to'lovining davlat belgilari (markalar, markalangan konvertlar va pochta varaqchalari)dan foydalanish holatlari uchrab turadi.

Chiqarish va foydalanish muayyan qoidalariga ega rasmiy mavjud prototipi bo'lgan pochta to'lovining belgilari soxta hisoblanadi. Shuning uchun tegishli ruxsatsiz pochta to'lovining rasmiy belgilaridan har qanday nusxa olish yoki qayta aks ettirish qalbaki hisoblanadi.

Pochta to'lovining davlat belgilarini sotish maqsadida tayyorlashda yoki sotishda, shuningdek, frankirlash mashina-

lari tamg'alarining oldindan ma'lum qalbaki izlaridan foydalanishda aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Muomalada keng foydalaniladigan va qalbakilashtirilgan pochta markasini pochta xat-xabarlarining katta oqimida aniqlash murakkab bo'lgan standart chiqarilgan pochta markalari qalbakilashtirishning eng ko'p tarqalgan obyektlari hisoblanadi.

Texnologik va tashqi belgilarni hisobga olgan holda qalbakilashtirilgan pochta markalarini quyidagi belgilar bo'yicha aniqlash mumkin:

- bosish (rasmni tushirish) usuli;
- rasm bo'yoqlarining rangi va xususiyatlari;
- tushirish usuli va perforatsiyalash (tishlatish) parametrlari:
- markaning formati va iz rasmining muvofiqligi;
- qog'ozning turi.

Standart pochta markalarini tayyorlash uchun ofset bosma usulidan, ayrim hollarda esa — yuqori usuldagi bosmadan foydalaniladi. Bunday bosish bo'yoqning bir tekis tushirilishi va iz rasmi barcha elementlarining aniq aks ettirilishi bilan tavsiflanadi.

Asl markalardan farqli ravishda, markalar qo'lda, ayniqsa, fotonusxa olish texnikasi va printerlardan foydalanib tayyorlanganda, bo'yoq bir tekis tushmaydi, iz rasmining murakkab konturlari noaniq, bo'yoq bilan ortiqcha bo'yalgan yoki rangli nuqtalardan iborat bo'ladi.

Pochta markalarining miqdori, o'lchamlari va tishlatish turi har bir seriya chiqarilganda qat'iy beriladi va Pochta markalari katalogida ko'rsatiladi. Ularning parametrlari kengligi va balandligi bo'yicha tishlari miqdorining nisbati bilan ifodalanadi.

Markalarga tishlar rasmi bosmaxona varag'ining butun maydoni bo'ylab teshiklarni kesadigan taroqsimon yoki ramkali perforatsiyaning liti bilan tushiriladi.

Taroqsimon usul bilan perforatsiyalash gorizontaal va vertikal yo‘nalishlarda ketma-ket tushiriladi, ramkali usulda — bir vaqtning o‘zida butun marka varag‘iga tushiriladi.

Markalar qo‘lda ishlab chiqarilganda perforatsiyalash teshish (igna yordamida «shtampovka qilish») metodi bilan tushiriladi. Bunday perforatsiyalashning qatorlari va teshiklari bir tekis emas, kengligi va balandligi bo‘yicha parametrlari bir xil (masalan, 12:12), kesishgan joyda esa teshiklar bir-biriga mos kelmaydi.

Tishlarning to‘g‘ri tushirilganligini filatelistlar orasida keng tarqalgan maxsus o‘lchash chizg‘ichi — tisho‘lchagich yordamida yoki o‘rganilayotgan marka va uning asl nusxasining tishlarini taqqoslash (bir-birining ustiga qo‘yish) yo‘li bilan tekshirish mumkin.

Standart markalarni tayyorlash texnologiyasida faqat suvda erimaydigan bo‘yoqlardan foydalaniladi va har bir seriya uchun Katalogda ko‘rsatiladigan qat‘iy yakka tartibdagi rang belgilanadi. Nusxa olish texnikasi va printerlar yordamida tayyorlangan soxta markalarning bo‘yoqlari asl nusxalardan rangi va xususiyatlari (suvda erishi, tekis tushirilganligi va tushirish usuli) bilan sezilarli darajada farq qiladi.

Standart markalarning farqlovchi belgilaridan biri bo‘lib, bitta marka adadi uchun qat‘iy yakka tartibda bo‘lgan ularning umumiy formati, o‘lchami va rasmining identikligi hisoblanadi.

Shu bilan birga, markaning formati va rasmi o‘lchamlaridagi har qanday o‘zgarish (tasvirning kichrayishi, kattalashishi, buzilishi), shuningdek, ulardagi ayrim detallarning izohlab bo‘lmaydigan yo‘qligi yoki mavjudligi ushbu marka qalbaki ekanligidan dalolat qilishi mumkin.

Standart pochta markalarini tayyorlash uchun ultrabinafsha nurlarida ozgina luminessensiyaga ega maxsus turdagi oqlangan yoki ofset qog‘oz qo‘llaniladi («LYUMO» komplektidagi fonardan foydalanish tavsiya etiladi). Markalarni qalbakilash-tirish uchun foydalaniladigan qog‘ozning esa, odatda, sifati ancha past va buning farqini paypaslab ko‘rib yoki ultrabinafsha

nurlari ostida ko‘proq nurlanishidan aniqlash mumkin. Bunda markalarni tayyorlash uchun ishlatiladigan oqlangan qog‘oz ofset qog‘ozidan farqli ravishda oddiy yorug‘likda nisbatan yorug‘roq fonga va ultrabinafsha nurlarida nisbatan yorqinroq luminessensiyaga ega.

Qalbaki markalarni haqiqiyliги shubha tug‘dirayotgan namunalarini asl nusxalar bilan solishtirish yo‘li orqali aniqlasa bo‘ladi.

Buni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

— o‘rganilayotgan markani tashqi ko‘zdan kechirish orqali, turli yoritish burchaklari ostida uning namunadan tashqi farqlari aniqlanadi: bo‘yoq rangi, rasmni tushirish usuli, qog‘oz strukturasi, bosish nuqsonlari (kerakli yoki qo‘shimcha rasm elementlarining yo‘qligi yoki mavjudligi), tishlatish turi;

— tishlar miqdorini o‘lchash. Markadagi tishlarning muvofiqligini tisho‘lchagich yordamida uning shkalalariga o‘rganilayotgan markaning tishlari to‘liq mos kelguncha ketma-ket qo‘yish orqali tekshirish mumkin. Tisho‘lchagich bo‘lmaganda o‘rganilayotgan va namuna tishlarini bevosita ustma-ust qo‘yish (taqqoslash) yo‘li orqali bunday solishtirishni o‘tkazish mumkin;

— marka va tushirilgan rasm o‘lchamlarini o‘lchash. Marka va uning rasmi o‘lchamlari solishtirilganda tegishli o‘lchamlar olinadi va ayrim elementlari solishtiriladi;

— markani ultrabinafsha nurlari ostida ko‘rish. O‘rganilayotgan marka asl nusxa bilan birga ultrabinafsha yoritgich ostiga joylanadi («LYUMO» komplektidagi lampa), bunda ular qog‘ozi va bo‘yog‘i xususiyatlarining qiyosiy tahlili o‘tkaziladi;

— bo‘yoqning namlikka chidamliligini aniqlash. Bo‘yoqning namlikka chidamliligini aniqlashda o‘rganilayotgan marka rasmining elementiga suv tomchisini tomizish kerak. Agar markani tayyorlashda suvda eriydigan bo‘yoqdan foydalanilgan bo‘lsa, suv tomchisi qog‘ozga singib, bo‘yoq rangiga kiradi,

bo'yoqning o'zi esa yoyilib ketadi. Yuzasida himoya qatlami mavjud bo'lganda — tomchi marka yuzasida qolaveradi.

Pochta muomalasida qalbakilashtirilgan pochta markalarini aniqlash faktlari bilan bir qatorda aynan bir xil markalardan bir necha marta foydalanish hollari ham kam emas. Shu maqsadda foydalanilgan markalar fizik va kimyoviy vositalar yordamida hisobdan chiqarish izlaridan tozalanadi. Ba'zida ushbu jarayonni osonlashtirish uchun markalarning yuzasi qandaydir himoya qatlami (stearin, lak va sh.k.) bilan qoplanadi.

Qayta foydalanilayotganligi shubhasiga sabab bo'lgan markalar diqqat bilan tekshirilganda, ularning yuzalarida ularga xos bo'lgan belgilarni aniqlash mumkin:

- rangning yo'qolishi;
- dog'lar va rasmning chaplashib ketgan ranglari;
- chetlari yoki yuzasidagi yirtiqlar;
- marka orqa tomonidagi yelimning yo'qligi yoki uning ortiqcha miqdori;
- qog'oz qiyshayib qolgan;
- avvalgi hisobdan chiqarish izlarining ko'rinib turgan belgilari;
- turli qiymatdagi markalar kombinatsiyasi;
- pochta jo'natmalariga yopishtirilgan, markalangan konvertlar yoki pochta varaqchalaridan qirqib olingan, hisobdan chiqarilmagan pochta markalarini imitatsiya qiluvchi qalbakilashtirilgan markalar;
- avvalgi hisobdan chiqarish izlarini yoki ularni yo'qotish oqibatida yuzaga kelgan shikastlanishlar belgilarini yo'qotish maqsadida bitta markaning ikkinchi markaga ozgina ustma-ust tushirilishi;
- marka yuzasidagi qiya qilib yoritilganda yaltiraydigan himoya qatlamining mavjudligi.

Avvalgi hisobdan chiqarish izlarini, shuningdek, texnik vositalar yordamida, masalan, infraqizil yoki ultrabinafsha nurlanish yordamida aniqlash mumkin.

Ba'zida konvertlar va pochta varaqchalariga frankirlash mashinalarining qalbakilashtirilgan izlari va pochta to'lovining ba'zi belgilari tushirilgan holatlar ham uchragan.

Markalangan konvertlar va pochta varaqchalarining haqiqiyliги pochta markalarini o'rganishda tavsiya etilganidek, ularning texnologik belgilarini analoglar namunalari bilan qiyosiy tahlil qilish orqali aniqlanadi.

Pochta to'lovi belgilari (markalar, markalangan konvertlar va pochta varaqchalari) haqiqiyliğining rasmiy ekspertizasini faqat ularni tayyorlovchi o'tkazishi mumkin.

3.4.2. Pul mablag'larini tashishda xavfsizlik prinsiplari

Xavfsizlik masalalarini ko'rib chiqishda pul aktivlarini yig'ish, saqlash va tashish alohida ahamiyat kasb etadi. Naqd pullarning katta summasini tashishda yetkazib berish usuliga, shu jumladan, foydalanilayotgan transport vositasining turiga, shuningdek, tashqi kuryerlik xizmatlari, kuzatish va h.k.ga alohida e'tibor qaratish kerak.

Pul mablag'larini tashishda kassir, uni kuzatuvchi shaxslar va transport vositasining haydovchisiga quyidagilar taqiqlanadi:

- harakatlanish yo'nalishini va yetkazib berilayotgan pul mablag'lari va boyliklari summasining miqdorini oshkor qilish;
- transport vositasining saloniga ularni yetkazib berish uchun begona shaxslarni qo'yish;
- piyoda, hamroh yoki jamoat transportida yurish;
- do'konlar, bozorlar va shunga o'xshash joylarga borish;
- qandaydir topshiriqlarni bajarish hamda pullarni yetkazib berishdan istalgan boshqa tarzda chalg'ish.

Pul mablag'lari tashilayotganda ularning saqlanishini korxonalar rahbarlari o'z kuchlari (ixtisoslashtirilgan qo'riqlash bo'linmasi yoki boshqa shaxslarni jalb qilgan holda) yoki tashqi tashkilotlar (xususiyl qo'riqlash korxonalari, idoradan tashqari qo'riqlash bo'linmalari, inkassatsiya xizmatlari)ning xizmatlaridan foydalanib ta'minlashga haqlidirlar.

Pul mablag'larining saqlanishi ularni bankdan olishda hamda banklarga topshirishda ta'minlanishi kerak. Bunda Kassa operatsiyalarini yuritish qoidalariga muvofiq aloqa korxonalari xizmat ko'rsatuvchi banklar bilan kelishilgan tartib va muddatlarda kassadagi naqd pullar qoldig'ining belgilangan limitlaridan tashqari butun naqd pullarni bankka topshirishlari shart ekanligini hisobga olish kerak. Har bir aloqa korxonasiga kun oxiriga kassada belgilangan limitlar doirasidagi naqd pullar qoldig'iga ega bo'lishga ruxsat beriladi. Bankka pullarni topshirish aloqa korxonasi tomonidan inkassatsiya yo'li bilan amalga oshiriladi.

Faqat xizmat ko'rsatuvchi bank muassasasi bilan kelishuv bo'yicha korxona kassaga kelib tushayotgan pul tushumini sarflashga ruxsat olganidan keyingina bu pul tushumidan O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish mumkin. Har qanday holatda ham korxonalar to'lashning belgilangan muddatigacha bo'lajak xarajatlar (shu jumladan, oylik ish haqi, ijtimoiy xarakterdagi to'lovlar va stipendiyalar)ni amalga oshirish uchun o'z kassalarida naqd pullarni yig'ishga haqli emaslar.

Bankdan olingan yoki bankka topshirilishi kerak bo'lgan naqd pullarni tashish uchun naqd pullar brezent standart qoplarga joylanadi. Qopning yuqori qismi kanop ip bilan ikki marta aylantiriladi va o'rab bog'lanadi, kanopning uchlari o'zaro birlashtiriladi va birining uchi ikkinchisi orqali ikki marta aylantirilgan kanop ip tagidan o'tkaziladi, shundan so'ng uni tarang qilib tortib, uchlari ikki qayta tugun qilib bog'lanadi, bog'lov tagiga pullarning joylanishini amalga oshirgan xodimlar tomonidan imzolanadigan yorliq qo'yiladi. Bog'lov shunday mo'ljal bilan bog'lanadiki, qopdagi joylanma aralashib ketmasligi kerak. Qop plomba-lanadi yoki muhrlanadi.

Pul mablag'lari joylangan qoplarni tashish yopiq kuzovlar bilan uskunalangan avtomashinalarda amalga oshirilishi kerak.

Pul mablagʻlari joylangan qabul qilingan qoplarning saqlanishi, qoplardagi plombalarning butunligi uchun pul mablagʻlarining belgilangan joyga yetkazilishi uchun masʼul barcha kuzatuvchilar (inkassatorlar) toʻliq moddiy javobgar boʻladilar.

Kuzatuvchilar (inkassatorlar) tomonidan qabul qilingan pul mablagʻlari joylangan qoplarni avtomashinada tashish uchun olib chiqish naqd pul mablagʻlari solingan qoplarning butun toʻplamini qabul qilish tugaganidan keyin amalga oshiriladi.

Naqd pul mablagʻlari solingan qoplar har safar avtomashinaga, xonadan xonaga koʻchirilganda ular, albatta, qayta sanaladi.

Naqd pul mablagʻlari solingan qoplarni avtomashinalarda tashish ushbu topshiriqni bajarayotgan barcha kuzatuvchilar (inkassatorlar) brigadasining kuzatuvida amalga oshiriladi. Bunda topshiriqni bajarish vaqtida transport haydovchilarining oʻz ishlari boʻyicha yoki boshqa joylarga ketishlari taqiqlanadi. Reysga joʻnatiladigan har bir avtomashinaga Bosh kassa boshligʻi yoʻnalish yukxatini tuzadi va kuzatuvchilar (inkassatorlar)dan birini reys boʻyicha boshliq etib tayinlaydi, uning familiyasi yoʻnalish yukxatida koʻrsatiladi. Reys boʻyicha bosh kuzatuvchining pochtani qoʻriqlash, almashish va pochtaning harakatlanish jadvaliga rioya qilish masalalari boʻyicha farmoyishlari va koʻrsatmalari qolgan kuzatuvchilar (inkassatorlar) va avtomashina haydovchisi (haydovchilari) uchun majburiy hisoblanadi.

Avtomashinaning harakatlanishi davomida reys boʻyicha bosh kuzatuvchi haydovchi kabinasida, qolgan kuzatuvchilar (inkassatorlar) — mashina kuzovida oʻtirishlari kerak. Kuzatuvchilar (inkassatorlar)ning qayergadir borishlari, shuningdek, avtomashinada begona shaxslarni va pul mablagʻlariga tegishli boʻlmagan yuklarni olib ketish qatʼiyan man etiladi. Reys boʻyicha bosh kuzatuvchining barcha farmoyishlari aniq va soʻzsiz bajarilishi shart.

Agar yoʻlda transport buzilib qolgan, yoʻl-transport va boshqa hodisa yuz bergan boʻlsa va avtotransportning keyingi harakatlanishining imkoni boʻlmasa, reys boʻyicha bosh kuzatuvchi bu haqda darhol korxona rahbariga xabar qiladi. Korxona rahbari pul mablagʻlarini belgilangan joyga but-butun yetkazib berish, yuz bergan hodisa sabablarini aniqlash va uni darhol bartaraf etish choralarini koʻrishi shart.

Pochta aloqasi boʻlimlari kassalardagi naqd pullarning limitdan tashqari qoldiqlari mavjud boʻlganda, ularni boʻysunuv boʻyicha yuqori turuvchi tashkilotning Bosh kassasiga yuboradilar.

Pochta aloqasi boʻlimlari (pochtamtlar, pochta aloqasi bogʻlamasi)ning kassalaridagi naqd pulning limitdan tashqari qoldiqlarining joʻnatilishi toʻgʻrisida xabar qilish uchun maxsus kod ishlab chiqiladi, bu kodni almashtirish istalgan sanadan boshlab amalga oshirilishi mumkin, ammo yilda bir martadan kam emas. Kodga bevosita aloqasi boʻlgan aloqa xodimi almashganda, kod almashtirilishi kerak.

Kod bilan oʻtkazma operatsiyalarni bajaruvchi barcha hisobot beruvchi pochta aloqasi boʻlimlari taʼminlanadi. Kod kodlangan bildirishnomalarni uzatuvchi va qabul qiluvchi shaxslarda belgilangan tartibda saqlanishi kerak.

Kassalardagi naqd pulning limitdan tashqari qoldiqlarining yuborilishi toʻgʻrisidagi kodlangan bildirishnomani pochta aloqasi boʻlimining boshligʻi (oʻrinbosari) telefon orqali (telefon boʻlmaganda — boshqa mavjud aloqa vositalari yordamida) pochta aloqasi obyekti rahbarining buyrugʻi bilan maxsus tayinlangan aloqa xodimiga uzatadi.

Axborotni kodlashning shunga oʻxshash tartibi kassada pul oʻtkazmalari, pensiyalar va nafaqalarni toʻlash uchun naqd pul mablagʻlari yetishmaganida ham qoʻllaniladi — pochta aloqasi boʻlimining boshligʻi (oʻrinbosari) pochta aloqasi obyekti rahbarining buyrugʻi bilan maxsus tayinlangan aloqa xodimiga madad naqd pul mablagʻlarining yuborilishi uchun kodlangan talabnomani uzatadi.

Kassalarning limitdan tashqari naqd pul mablagʻlari qoldiqlarini va madad naqd pullar mablagʻlarini yuborish sugʻurtali qoplarda amalga oshiriladi. Madad naqd pullari va kassalarning limitdan tashqari naqd pul mablagʻlari qoldiqlari pochta aloqasi boʻlimida ikkita aloqa xodimi tomonidan sugʻurtali qoplarga joylanadi.

Qishloq joylarida kassalarning limitdan tashqari naqd pul mablagʻlari qoldiqlarini va madad naqd pullar mablagʻlarini yuborish pochta bilan birga amalga oshiriladi. Viloyat markazlarida va Toshkent shahrida kassalarning limitdan tashqari naqd pul mablagʻlari qoldiqlari joylangan sugʻurtali qoplarni yigʻish yoki madad naqd pullar joylangan sugʻurtali qoplarni yetkazib berish uchun alohida reyslar tashkil etiladi.

Reys davomida avtomashina faqat yoʻnalish yukxatida koʻrsatilgan pochta aloqasi boʻlimlariga borishi kerak. Toʻxtash joylarida avtomashina motori toʻxtamasdan ishlashi lozim. Harakatlanish vaqtida va toʻxtash joylarida avtomashina eshiklari va oynalari ichidan yopilgan boʻlishi kerak. Pochta yoʻnalish boʻyicha joʻnatilganidan keyin javobgar shaxslar pochta avtomashinasining belgilangan yoʻnalish boʻyicha harakatlanish nazoratini amalga oshirishlari shart.

3.4.3. Naqd pul mablagʻlarini pochta aloqasi obyektlarida saqlash tartibi

Pochta aloqasi obyektlarining rahbarlari Bosh kassadagi naqd pul mablagʻlarining, shuningdek, bankdan yetkazib berishda yoki bankka topshirishda ularning butunligini taʼminlashlari shart va ularning aybi bilan naqd pullarning saqlanishini taʼminlaydigan kerakli sharoitlar yaratilmagan holatlarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar boʻladilar.

Naqd pul mablagʻlari va shartli boyliklarni saqlash uchun pochta aloqasi obyektlari Bosh kassalarining xonalari ushbu

xonalarning texnik mustahkamlanganligi talablariga muvofiq yong'inga qarshi vositalar bilan jihozlanadi.

Bosh kassa xonasi ajratilgan bo'lishi, kassaga kiradigan eshiklar esa — ichki tomondan berkitilgan bo'lishi kerak. Eshiklari ochilganidan keyin seyflar va boshqa narsalar saqlanadigan joylarning kalitlarini qulf teshiklarida qoldirish qat'iyan man etiladi. Bosh kassaning ishiga aloqasi bo'lmagan shaxslarning Bosh kassa xonasiga kirishi taqiqlanadi. Bosh kassa xonasida naqd pul qoldiqlari, pullik hujjatlarni saqlash, olingan yoki jo'natishga tayyorlab qo'yilgan naqd pullar solingan sug'urtali qoplarni (naqd pullar qoldig'idan alohida) saqlash uchun kerakli miqdorda seyflar o'rnatiladi.

Naqd pul mablag'larining saqlanishini ta'minlash bo'yicha shunga o'xshash talablar pochta aloqasi bo'limlari narsalar saqlanadigan joylarining jihozlanishiga nisbatan qo'yilishi kerak.

Bosh kassalarning xonalarida o'rnatilgan qo'riqlash signalizatsiya vositalari shartnoma asosida Ichki ishlar vazirligining hududiy organlaridagi Markazlashtirilgan qo'riqlash xizmati bilan bog'langan bo'lishi kerak.

Ish tugaganidan keyin, kassa tekshirilganidan so'ng, barcha narsalar saqlanadigan joylar qulflanadi, Bosh kassa xonasi esa — ikki marta qulflanadi (ichki va tashqi) va surg'uchli muhr bilan muhrlanadi. Pochta aloqasi obyektlari Bosh kassasi xonasidagi seyflar va temir javonlar kassa ishini yuritadigan aloqa xodimining nazorat muhri bilan muhrlanadi. Bosh kassa xonasi ikkita muhr: mas'ul navbatchida saqlanadigan sug'urtali muhr va Bosh kassa boshlig'i (operatori)ga birlashtirilgan nazorat muhri bilan muhrlanadi. Bosh kassa ichki qulfining sug'urtali muhri va kaliti mas'ul navbatchida, nazorat muhri, seyf va tashqi qulf kalitlari — Bosh kassa boshlig'i (operatori)da saqlanadi.

Bosh kassa yopilishidan oldin barcha seyflar, javonlar, derazalar, deraza eshiklari yopilganligi, chiroq o'chirilganligi, signalizatsiya yoqilganligi tekshiriladi.

Bosh kassa xonasi belgilangan tartibda qo‘riqlash uchun Ichki ishlar vazirligining hududiy organlaridagi Markazlashtirilgan qo‘riqlash xizmati va/yoki qo‘riqchiga topshiriladi. Maxsus kitobda Bosh kassa xonasi haqiqiy yopilgan va qo‘riqlashga topshirilgan vaqti ko‘rsatiladi. Bosh kassani Markazlashtirilgan qo‘riqlash xizmatiga qo‘riqlashga topshirishning imkoni bo‘lmasa, Bosh kassa xonasi belgilangan tartibda maxsus kitobga imzo qo‘ygan holda qo‘riqchiga topshiriladi.

Pochta aloqasi bo‘limlarining Bosh kassasi, seyf, temir shkaflar kalitlarining zaxira nusxalari (dublikatlari) batafsil ro‘yxatning birinchi nusxasi bilan birga mato bilan tikiladigan paketga joylanadi. Bosh kassa boshlig‘i (operatori) yoki pochta aloqasi bo‘limi boshlig‘ining nazorat muhri bilan muhrlanadi va saqlash uchun Bosh kassa boshlig‘i (operatori) yoki pochta aloqasi bo‘limining boshlig‘ida qoladigan ro‘yxatning ikkinchi nusxasiga imzo qo‘ygan holda pochta aloqasi bog‘lamasining rahbariga topshiriladi.

Pochta aloqasi obyektlarining rahbarlari va moddiy-javobgar shaxslar zaxira (dublikat) kalitlari, sug‘urtali va nazorat muhrlaridan ish vaqtida va undan boshqa vaqtda boshqa shaxslar tomonidan foydalanish imkoniyatini istisno etuvchi bu kalitlar va muhrlarning kerakli darajada saqlanishini ta’minlashlari shart.

Bosh kassada mavjud bo‘lgan seyflar, metall javonlarning barcha muhrlari va kalitlari, plombirlar, taqvim shtempellari moddiy javobgar shaxslarga maxsus kitobga imzo qo‘yib topshiriladi, bu kitob raqamlanishi, tikib bog‘lanishi va unga pochta aloqasi obyektiga berilgan muhr izi qo‘yilgan bo‘lishi kerak. Varaqlar miqdori pochta aloqasi obyektining rahbari va bosh buxgalterining imzolari bilan tasdiqlanadi.

Bosh kassalar, pochta aloqa bo‘limlari omborxonalari, seyflar va temir shkaflar ochish ularni yopgan va muhrlagan shaxslar tomonidan bajariladi. Shu bilan birga, Bosh kassa xonasini Ichki ishlar vazirligining hududiy organlaridagi Markazlashtirilgan qo‘riqlash xizmati qo‘riqlayotgan bo‘lsa,

uning qo‘riqlashdan olinishi belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bosh kassa xonasi, seyf (javon)larining ochilishidan oldin, Bosh kassa boshlig‘i (operatori) qulflar, eshiklar, deraza panjaralari, kanop ip va muhrlarning saqlanishini ko‘rib chiqishi shart.

Eshiklar ochilayotganda muhrlar izlari olib tashlanmaydi, balki kanop ip bitta aylanasi qirqish yo‘li bilan kesiladi. Bosh kassa xonasi yoki boshqa narsalar saqlanadigan joylar ochilganidan va ko‘zdan kechirilganidan keyin, buzilishlar bo‘lmasa, muhrlarning olingan izlari yo‘q qilinadi.

Muhr shikastlangan yoki olingan, qulflar, eshiklar yoki derazalardagi panjaralar buzilgan, qo‘riqlash-yong‘in signalizatsiyasi nosoz bo‘lgan holda, shuningdek, xonaga kirishga urinish shubhasi paydo bo‘lganda, bu haqda darhol pochta aloqasi obyektining rahbariga xabar qilinadi, u belgilangan tartibda yuz bergan hodisa to‘g‘risida ichki ishlar organlariga ma’lum qilishi kerak.

Bunday holda pochta aloqasi obyektining rahbari, bosh buxgalteri, shuningdek, pochta aloqasi obyektini Bosh kassasining boshlig‘i, ichki ishlar organlaridan ruxsat olishi bilan Bosh kassada saqlanayotgan pul mablag‘lari mavjudligini tekshiradilar. Tekshiruv kassa operatsiyalari boshlangunga qadar o‘tkazilishi kerak. Tekshiruv natijalari to‘g‘risida dalolatnoma tuziladi, uni tekshiruvda ishtirok etayotgan barcha shaxslar imzolaydilar.

Zarur bo‘lganda (fors-major vaziyatlari, xodimning to‘satdan kasal bo‘lib qolishi yoki vafot etishida) narsalar saqlanadigan joylarni yopish va muhrlashda ishtirok etgan shaxslar bo‘lmaganda, ularni ochish uchun pochta aloqasi obyektining rahbari tomonidan komissiya tuziladi, bu komissiya narsalar saqlanadigan joyning ochilishini, unda saqlanayotgan naqd pullarning tekshirilishini bajaradi.

Kassa operatsiyalarini yuritish vaqtida naqd pul mablag‘lari, pullik hujjatlar va shartli boyliklar (pochta to‘lovi

belgilari, lotereya chiptalari va b.) aloqa xodimlarining ish joylaridagi saqlash uchun moslashtirilgan va soz qulflarga ega metall qutichalar, javonlar yoki stollarning tortmalarida saqlanadi.

Ish tugaganidan va tekshiruv o'tkazilganidan hamda shartli boyliklarning avanslari to'ldirilganidan keyin aloqa xodimlari qutichalarni kalit bilan qulflashlari va ularni xodimlarda saqlanadigan nazorat muhrlari bilan muhrlashlari shart.

Bosh kassalar boshliqlari va kassa operatsiyalarini amalga oshiradigan aloqa xodimlari, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ular qabul qilib olgan naqd pullar, shartli boyliklarning saqlanishi, shuningdek, beparvo, ehtiyotsiz yoki qasddan xatti-harakatlar natijasida pochta aloqasi obyektiga yetkazilgan har qanday zarar uchun to'liq yakka tartibda moddiy javobgar bo'ladilar.

Moddiy javobgarlik bilan bog'liq lavozimlarga qabul qilinayotgan shaxslar bilan To'liq yakka tartibdagi moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalar tuziladi.

3.4.4. Yetkazib berish uchastkalarini pochta xavfsizligi nuqtayi nazaridan baholash

3.4.4.1. Umumiy qoidalar

Yetkazib berish uchastkalarini pochta xavfsizligi nuqtayi nazaridan baholash uyga yetkazib beriladigan pensiya va nafaqalar, pul o'tkazmalari, pochta jo'natmalarini o'z vaqtida, but-butun va xavfsiz uyga yetkazib berilishini ta'minlash maqsadida o'tkaziladi.

Yetkazib berish uchastkalarini baholash quyidagi imkoniyatlarni beradi:

— pochta aloqasi obyektlarida xavfli joylarni belgilagan holda pochta yonlarning yetkazib berish uchastkasi bo'yicha harakatlanish sxemalarini tuzish;

— pensiyalar, nafaqalar, pul o'tkazmalarini yetkazib berishda pochta yonning xavfsizlik choralari ta'minlash va «xavfli» yetkazib berish uchastkalarida kommunal xizmatlar uchun to'lovni qabul qilish bo'yicha tashkiliy tadbirlarni o'tkazish.

Yetkazib berish uchastkalarini baholash quyidagi mezonlar bo'yicha bajariladi:

— aholi punktida yuzaga kelgan qoniqarsiz (xavfli) kriminogen vaziyat;

— yetkazib berish uchastkalarida tajovuz qilish uchun xilvat joylar, yoritilmagan joylar, yerosti o'tish yo'llari, odam yashamaydigan imoratlar, xarobazorlar, o'rmonzor parklar, xiyobonlarning mavjudligi;

— ish kuni davomida pochta yonning yetkazib berish uchastkasiga chiqishlar miqdori (bundan keyin — yetkazib berishga chiqishlar miqdori);

— aholi punktida ATK, manzil-koloniya larining mavjudligi;

— pochta yonlarga tajovuz qilish faktlarining mavjudligi.

Yetkazib berish uchastkalarini baholash quyidagilar tomonidan o'tkaziladi:

— pochta aloqasi bog'lamasida, aloqa bo'limida — pochta aloqasi bog'lamasining boshlig'i (o'rinbosari) bilan birgalikda PXX bo'limining texnigi tomonidan;

— pochta aloqasi hududiy tashkilotining ishlab chiqarish uchastkasida — ishlab chiqarish uchastkasining boshlig'i bilan birgalikda PXX bo'limining boshlig'i tomonidan.

Baholash natijalari bo'yicha yetkazib berish uchastkalariga «Xavfli» yoki «Xavfli emas» toifasi beriladi.

3.4.4.2. Yetkazib berish uchastkalarini baholash

Yetkazib berish uchastkalarini baholash hududiy IIB bilan o'zaro hamkorlikda o'tkazilishi kerak.

Yetkazib berish uchastkasida quyidagi mezonlardan biri: qoniqarsiz kriminogen vaziyat, aholi punktida ATK, manzil-

koloniyalarining mavjudligi, pochta-lyonlarga tajovuzlar qilish faktlarining mavjudligi bo'lishida — ushbu uchastkaga «Xavfli» toifasi berilishi kerak.

Mezonlar quyidagicha belgilanadi:

— pochta-lyonning harakatlanish sxemasidagi o'rgani-
layotgan yetkazib berish uchastkasini tekshirish yo'li bilan
quyidagilar belgilanadi: xilvat joylar, yoritilmagan joylar,
yerosti o'tish yo'llari, odam yashamaydigan imoratlar,
xarobazorlar, o'rmonzor parklar, xiyobonlar;

— mezonlar mavjudligi aniqlanganidan keyin, ularning
pochta-lyonlar uchun haqiqatda ham xavf tug'dirishini aniqlash
bo'yicha tahliliy ish olib boriladi. Ushbu tahlil hududiy ichki
ishlar organlaridan ma'lumot olish, mahalliy aholi, mahalla
qo'mitalaridan sodir etilgan huquqbuzarliklar faktlari
to'g'risida so'rash, ushbu joylardagi jinoiy elementlarni yig'ish
yo'li bilan o'tkaziladi.

3.4.4.3. «Xavfli» yetkazib berish uchastkasida xavfsizlik choralarini ta'minlash bo'yicha tashkiliy tadbirlar

Yetkazib berish uchastkalarini tekshirish davomida
aniqlangan, pochta-lyonlar uchun xavfli bo'lgan joylar
pochta-lyonning yetkazib berish uchastkasi bo'yicha harakat-
lanish sxemasiga kiritiladi. Sxemalar barcha pochta aloqasi
bog'lamalari, pochta aloqasi bo'limlari, filiallarning ishlab
chiqarish uchastkalaridagi pochta-lyonlarning ish joylarida
bo'lishi kerak, pochta-lyonlar bu sxemalar bilan imzo qo'ygan
holda tanishgan bo'lishlari lozim.

«Xavfli» yetkazib berish uchastkalarida pochta-lyonlar-
ning xavfsizligini ta'minlash maqsadida PXX bo'limlari
hududiy IIB va mahalla qo'mitasi bilan birgalikda «Xavfli»
yetkazib berish uchastkalarida pensiya va nafaqalarning
xavfsiz yetkazib berilishini ta'minlash rejasi ishlab chi-
qilishi zarur.

Ushbu rejada yetkazib berish uchastkalarini tahlil qilishdan kelib chiqib, quyidagi tadbirlar aks ettirilishi kerak:

- «Xavfli yetkazib berish uchastkalari»ni militsiya patrul-post xizmatining patrullik qilish zonasiga kiritish;

- yetkazib berish uchastkalaridagi tezkor vaziyatning murakkablashish faktlari, jinoyatlarni sodir etish faktlari bo'yicha IIB va PXX bo'limi, pochta aloqasi obyektlari o'rtasida axborot almashish;

- yetkazib berish uchastkalarida pochtaalyonlarni kuzatish shubhali faktlari, pochtaalyonlarga tahdid qilish faktlari to'g'risida pochta aloqasi obyektlari tomonidan hududiy IIBga xabar qilinishi;

- pochtaalyonlarning pul mablag'larining saqlanishini ta'minlash vositalari (xavfsizlik nimchalari, signalizatorlar va b.) bilan ta'minlanganlik va pullarni yetkazib berishda ularning pochtaachilar tomonidan qo'llanishining nazoratini kuchaytirish;

- hududiy IIB tezkor xodimlari tomonidan pochtaalyonlarni ekstremal sharoitlardagi xatti-harakatlarga, ularga tajovuz qilinganda o'zini-o'zi himoya qilish usullariga o'rgatish;

- yirik pul summalarini yetkazib berish uchun kamida ikkita aloqa xodimlarini ajratish;

- yirik pul summalarini mahalla qo'mitalarining vakillari bilan birgalikda yetkazib berish;

- pul summalarining sutkaning kechki (tungi) vaqtida yetkazilishini taqiqlash;

- pochtaalyonlar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar.

Hududiy IIB bilan birgalikda ishlab chiqilgan «Xavfli» yetkazib berish uchastkalarida pensiya va nafaqalarning xavfsiz yetkazib berilishini ta'minlash rejasi pochta aloqasi obyektining rahbari va hududiy IIB boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi. Reja uch nusxada tuziladi. Rejaning birinchi nusxasi pochta aloqasi obyektida, rejaning ikkinchi

nusxasi — hududiy IIBda, rejaning uchinchi nusxasi — PXX bo‘limida saqlanadi. Chora-tadbirlar rejasining bajarilishini nazorat qilish filialning PXX bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

Yetkazib berish uchastkalarini baholash yakunlari bo‘yicha «O‘zbekiston pochta» AJ PXX bo‘limiga «Yetkazib berish uchastkalarining joriy holati to‘g‘risida hisobot» taqdim etiladi.

«Xavfli bo‘lmagan» yetkazib berish uchastkasida pochta yonlarga tajovuz sodir etilganda, yetkazib berish uchastkasida pochta yonning xavfsizligi uchun real xavfdan iborat boshqa mezonlar yuzaga kelganda, ushbu yetkazib berish uchastkasiga «Xavfli» toifasi beriladi, bu haqda «O‘zbekiston pochta» AJ PXX bo‘limiga xabar qilinadi.

Nazorat savollari

1. Pochtani yo‘lda kuzatish va qo‘riqlash kim tomonidan amalga oshiriladi?

2. Pochtani tashish uchun mo‘ljallangan avtotransportni jihozlashga qanday talablar qo‘yiladi?

3. Pochtani yo‘lda kuzatish tartibi qanday?

4. Pochtani jo‘natish va almashish uchun javobgar shaxslar majburiyatlarini sanab bering.

5. Kuzatuvchining qanday majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklari bor?

6. FV yuzaga kelish xavfi paydo bo‘lganida kuzatuvchi qanday ishlarni amalga oshirishi kerak?

7. Pochta jo‘natmalarini tashishda ularning butligini ta‘minlashga qo‘yiladigan umumiy talablarni aytib bering. Sug‘urta qopini berkitish tartibi qanday?

8. Pochta avtomashinalarini plombalashdan maqsad nima?

9. Muhr (plomba)ning butunligi buzilganda aloqa xodimlarining amalga oshiradigan ishlari to‘g‘risida so‘zlab bering.

10. Tekshiruv tadbirlarini o'tkazishdan maqsad nima? Tekshiruv tadbirlarini o'tkazishda qanday maxsus texnik vositalar qo'llanadi?

11. Belgi qo'yuvchi vositadan foydalangan holda tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazishning tartibi qanday?

12. Nazorat jo'natmalaridan qanday maqsadda foydalaniladi?

13. Ko'zdan kechirib nazorat qilish nima?

14. Pul mablag'larini yo'qotish va o'g'irlashdan himoya qilishning qanday ogohlantiruvchi usullarini bilasiz?

15. Pochta to'lovining davlat belgilariga nimalar kiradi? Pochta to'lovining qalbakilashtirilgan belgilari nimalar?

16. Pul mablag'larini tashishda xavfsizlik prinsiplari nimalardan iborat?

17. Pochta aloqasi obyektlarida naqd pullarni saqlash tartibi qanday?

18. Yetkazib berish uchastkalarini pochta xavfsizligi yuzasidan baholash qanday mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi?

19. «Xavfli» yetkazib berish uchastkasida xavfsizlik choralarini ta'minlashga qanday tashkiliy tadbirlar kiritilishi mumkin?

4-BOB. POCHTA TRANSPORTINING JIHOZLANISHIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

4.1. Transport vositalariga qo'yiladigan talablar

Pochta jo'natmalarini magistral, viloyatichi, tumanichi va shahar pochta yo'nalishlarida tashish, shuningdek, tumanichi va shahar pochta yo'nalishlarida pul mablag'larini tashish pochta aloqasi operatorlari va provayderlariga tegishli transport vositalarida, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalarida shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Pochta avtotransporti pochmani nomaqbul ob-havo ta'sirlari, o'g'irlashlar, shikastlanishlar va ochishga urinishlardan himoya qilishi kerak. Haydovchi joyidan turib pochmadan foydalana olmasligi kerak. Imkoni bo'yicha qulflanadigan va plombalanadigan avtomashinalardan foydalanish zarur.

Pochta aloqasi operatorlari va provayderlarining avtomobillari furgon tipida (kuzov-furgon yoki vagon tipidagi kuzov) bo'lishi kerak.

Pochta jo'natmalarini viloyatichi va tumanichi pochta yo'nalishlarida tashish uchun ochiq kuzovli avtomobillardan foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Avtomobillarni tanlashda, birinchi navbatda, quyidagi omillar hisobga olinishi kerak:

a) yuk ko'tara olish qobiliyati va tashilayotgan pochta jo'natmalari, shuningdek, pul mablag'larining hajmi;

b) ekspluatatsiya qilishning turli sharoitlari (yo'llar, yo'lsizlik, qumlar va b.)da harakatlanish uchun yuqori darajadagi o'tuvchanlik va yaroqlilik;

d) yo'l harakatining xavfsizligini ta'minlash borasida xavfsizlik talablariga muvofiqlik sertifikatining mavjudligi.

Transport vositalari soz holatda bo'lishi, shuningdek, kerakli butlovchi qismlar, asboblari va materiallar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

4.2. Transport vositalarining jihozlanishiga qo'yiladigan talablar

Tashilayotgan pochta jo'natmalari, shuningdek, pul mablag'larining saqlanishini ta'minlash maqsadida pochta aloqasi operatorlari va provayderlarining transport vositalari, shuningdek, shartnoma asosida pochta jo'natmalari va pul mablag'larining tashilishini amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalari transport vositalarining muayyan turlari va modellari uchun pochta aloqasi operatorlari va provayderlari tomonidan ishlab chiqiladigan texnik shartlarga muvofiq jihozlanishi kerak.

Magistral pochta yo'nalishlarida pochta jo'natmalarini tashish uchun pochta vagonlaridan, shuningdek, kuzov-furgonli avtomobillardan foydalanish lozim.

Pochta vagonlari pochta jo'natmalarini saqlash uchun yo'nalish va tranzit omborlari bilan jihozlangan bo'lishi zarur.

Omborlarning tashqi eshiklari ichidan yopilishi va ishonchli qulflarga ega bo'lishi kerak. Omborlarning ichki eshiklari kalit bilan qulflanishi va plombalash moslamalariga ega bo'lishi darkor.

Pochta vagonining saralash zali hujjatlar va ekspluatatsion materiallarni saqlash uchun metall javonlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Javonlar ishonchli qulflarga, muhrlash yoki plombalash moslamalariga ega bo'lishi va vagon poliga ishonchli mahkamlanishi lozim.

Pochta vagonining oynalariga ularning o'lchamlariga mos keladigan himoya panjaralari o'rnatilgan bo'lishi shart.

Kuzov-furgon tipidagi avtomobil kuzovi to'liq yopilgan bo'lishi, mustahkam, tegishli ventilatsiya, yoritish tizimlari bilan jihozlangan bo'lishi, shuningdek, teshiklari bo'lmasligi kerak.

Kuzov-furgon eshiklari tashqariga ochilishi va oxirigacha ochilgan holatda mahkamlanishi kerak, rezina profillardan ishlangan zichlagichlar, ishonchli qulflar va ularni plombalash moslamalariga ega bo'lishi zarur.

Viloyatichi, tumanichi va shahar pochta yo'nalishlarida pochta jo'natmalari va pul mablag'larini tashish uchun vagon tipidagi kuzovli avtomobillardan foydalanish kerak.

Kuzovning yon va orqa eshiklari ishonchli qulflarga va muhrlash moslamalariga ega bo'lishi kerak.

Vagon tipidagi kuzovli avtomobillarning yon va orqa oynalarida (agar mavjud bo'lganda) oynalarning o'lchamlari va konfiguratsiyasiga mos keladigan himoya metall panjaralari o'rnatilgan bo'lishi lozim. Oynalari to'silgan yoki parda tutilgan bo'lishi darkor.

Viloyatichi pochta yo'nalishlarida ochiq kuzovli avtomobillardan foydalanilganda, bunday avtomobillar kuzov shakli bo'yicha tayyorlangan metall panjara bilan to'liq jihozlangan bo'lishi kerak. Panjara kuzov ichida o'rnatilgan bo'lishi, shift qismiga va qulflanadigan eshikka ega bo'lishi zarur.

Panjara yonmaydigan va rezinalangan matodan tayyorlangan brezent bilan to'liq o'ralgan bo'lishi kerak. Brezent bortlarni yopib turishi va metall elementlar yoki qulflanadigan moslamali boshqa qurilmalar bilan mahkamlanishi lozim.

Avtomobil kuzovining ichida tashqi elektr simi bo'lmasligi kerak. Yoritish elektr chiroqlari kuzov shiftiga o'rnatilgan bo'lishi va himoya plafonlariga ega bo'lishi darkor.

Begona shaxslar kuzovga ruxsatsiz kirganda, shuningdek, avtomobilga hujum qilingan hollarda, yon (mavjud bo'lganda) va orqa eshiklar kuzov eshiklari ochilganda ishlab ketadigan va haydovchi kabinasiga tovush signalini uzatadigan signalizatsiya bilan jihozlangan bo'lishi zarur.

Avtomobillar maxsus tovush signallarini uzatish uchun asbobning tanlangan tipi, konstruksiyasi, xarakteristikalariga mos keladigan va avtomobilga qattiq mahkamlanadigan joylarda o'rnatiladigan tovush signal qurilmalari bilan jihozlanishi kerak.

Avtomobillar haydovchilari faqat avtomobilga hujum qilingan hollarda tovush signal qurilmalarini yoqishlari kerak. Signallar boshqa tovush signallaridan farqlanadigan shovqin yoki boshqa

tovush signallari fonida eshitalishi, shuningdek, militsiya xodimlari va boshqa shaxslarning e'tiborini tortishi lozim.

Avtomobillarga o'rnatilgan tovush signal qurilmalari chiqaradigan maxsus tovush signallari bu avtomobillar harakatlanganda ularga ustunlik bermaydi.

Qo'shimcha jihozlangandan keyin avtomobillarning texnik holati yo'l harakati xavfsizligi talablari, qoidalar va normalariga javob berishi kerak.

Transport vositalari pochta vagoni ichida, avtomobil kabinasida yoki aloqa xodimining foydalanishi uchun qulay bo'lgan joyda o'rnatiladigan kukunsimon o't o'chirgich, uglekislotali o't o'chirgich tipidagi ikkita o't o'chirgichlar bilan jihozlangan bo'lishi shart.

Avtomobil kabinasidan tashqarida o'rnatilgan o't o'chirgichlar atmosfera yog'inlari, loylarning ta'siridan himoyalangan bo'lishi kerak. Kronshteyn konstruksiyasi o't o'chirgichlarning ishonchli mahkamlanishini va zarur bo'lganda ularning tez olinishini ta'minlashi lozim.

Pochta jo'natmalari va pul mablag'larini jihozlanmagan transport vositalarida tashish taqiqlanadi.

Pochta aloqasi operatorlari va provayderlarining transport vositalariga ularning idoraviy mansubligi aniqlanadigan tanish-ajratish belgilariga ega maxsus ajratish belgilari tushirilgan bo'lishi kerak.

Nazorat savollari

1. Pochta jo'natmalari va pul mablag'larini tashish uchun avtomobillarni tanlashda, birinchi navbatda, qaysi omillar e'tiborga olinadi?

2. Pochta jo'natmalari va pul mablag'larini tashish uchun transport vositalarini jihozlashga qanday talablar qo'yiladi?

3. Vagon turidagi avtomobilga, furgon-kuzoviga ega avtomobilga, furgon turidagi avtomobilga ta'rif bering.

5-BOB. NAZORAT-O‘TKAZISH REJIMINI TASHKIL QILISH

5.1. Nazorat-o‘tkazish rejimining maqsadlari va vazifalari

Korxona xavfsizligining ishonchli tizimini qurish — murakkab va serqirra jarayon. U yoki bu obyektning ishonchli himoyasini ta’minlashning muhim omillaridan biri muayyan nazorat-o‘tkazish rejimini tashkil qilish va qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi.

Nazorat-o‘tkazish rejimini korxonaning qonuniy huquqlariga, uning mulkiga, intellektual mulkiga, ishlab chiqarish intizomiga, texnologik peshqadamliligiga, ilmiy yutuqlariga va muhofaza qilinadigan axborotiga bo‘lgan tajovuzlarni aniqlash, oldini olish va to‘xtatishning normativ, tashkiliy va moddiy kafolatlarini ta’minlash tizimi; NO‘P orqali obyekt xodimlari, tashrif buyuruvchilar, transport va moddiy boyliklarni o‘tkazish tartibini belgilaydigan tashkiliy-huquqiy cheklovlar va qoidalarining jami sifatida belgilash mumkin.

Tabiiyki, ishonchli nazorat-o‘tkazish rejimini yaratish katta xarajatlarni talab qiladi. Ammo korxona faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi barcha ehtimoliy oqibatlarni baholasak, bu xarajatlar unchalik katta bo‘lib ko‘rinmaydi, sababi korxonaning barqaror iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlaydi va ehtimoliy yo‘qolishlarni kamaytiradi.

Nazorat-o‘tkazish rejimini tashkil qilish muayyan murakkabligi bilan farqlanadi. Hamma gap shundaki, nazorat-o‘tkazish rejimini amalga oshirish mexanizmi bir subyektlar (korxona va uning xodimlari)ning huquq va manfaatlarini ta’minlash uchun qo‘riqlanadigan obyektlar, binolar

(xonalar) chegaralarini kesib o'tuvchi boshqa subyektlarga nisbatan «taqiqlar» va «cheklashlar»ni qo'llashga asoslangan. Nazorat-o'tkazish rejimining asosiy maqsadlari quyidagilar:

- korxonaning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ichki boshqaruv tartibining barqarorligini qo'llab-quvvatlash;
- korxona mulkining saqlanishini, undan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash;
- korxonaning ichki va tashqi barqarorligiga erishish;
- tijorat sirlarini va intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni saqlash.

Maqsadga erishish uchun nazorat-o'tkazish rejimi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- xodimlar va tashrif buyuruvchilarning ruxsat berilgan tarzda o'tishlarini, moddiy boyliklarni olib kirish (olib chiqish)ni, korxonaning bir maromda ishlashini ta'minlash;
- qo'riqlanadigan hududlar va alohida binolar (xonalar)ga shaxslarning noqonuniy o'tishlari, transport vositalarining nazoratsiz kirishi (chiqishi)ni istisno qilish;
- korxonaning hayotiy muhim manfaatlariga tahdidlarni, korxonaga, uning normal ishlashi va rivojlanishiga moddiy va ma'naviy zarar yetkazilishiga yordam beruvchi sabablar va sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash;
- korxona tashqi va ichki aloqalarining tashkiliy barqarorligini qo'llab-quvvatlashning ishonchli kafolatlarini shakllantirish, rivojlanishdagi tahdidlar va salbiy tendensiyalarga tezkor javob qaytarish mexanizmini ishlab chiqish;
- korxonaning qonuniy manfaatlariga tajovuzlarni to'xtatish, uning xavfsizligiga tahdidlar manbalarini aniqlash va zaiflashtirishning yuridik, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy-psixologik, texnik va boshqa vositalaridan foydalanish.

Normativ kafolatlar huquq normalarini talqin qilish va amalga oshirish, ularning amal qilish chegaralarini anglash, zarur huquqiy munosabatlarni shakllantirish, cheklovchi choralardan foydalanish xavfsizligi, korxonaning qonuniy manfaatlariga tajovuz qiluvchi jismoniy va yuridik shaxslarga

nisbatan jarimalarni qo'llash borasida korxona bo'linmalari va xodimlarining huquqiy faoliyatini belgilash va ta'minlashdan iborat.

Tashkiliy kafolatlar korxonaning faoliyatiga tahdidlarni aniqlash va bostirish, uning optimal ishlashi, kadrlarni tegishli tayoirlashni rag'batlantirish samarali mexanizmidan foydalanish jarayonini boshqarishning umumiy tashkiliy strukturasi ishlab chiqish, qurish va yuqori darajadagi ishchanlik qobiliyatini qo'llab-quvvatlash yo'li bilan shakllantiriladi.

Moddiy kafolatlar korxona faoliyatiga tahdidlar manbalarini o'z vaqtida aniqlash, zaiflashtirish va bostirish, ehtimoliy zarar va uning tarqalishining oldini olish hamda uning faoliyatining maqbul imkoniyatlari va sharoitlarining yaratilishini ta'minlaydigan moliyaviy, texnik, kadrlarga oid, intellektual, axborot va boshqa resurslarini ajratish hamda ulardan foydalanish hisobidan shakllantiriladi. Ushbu kafolatlar normativ va tashkiliy xavfsizlik choralariga amaliy mazmun kasb etadi, korxona xavfsizlik madaniyatining rivojlanishi uchun real asos bo'ladi.

Nazorat-o'tkazish rejimining asosiy tadbirlari xavfsizlik xizmati tomonidan ishlab chiqiladi va korxona rahbari tomonidan tasdiqlanadi hamda nazorat-o'tkazish rejimi to'g'risidagi yo'riqnoma bilan rasmiylashtiriladi. Nazorat-o'tkazish rejimining tashkil etilishi uchun javobgarlik xavfsizlik xizmati boshlig'ining zimmasiga yuklanadi. Nazorat-o'tkazish rejimini amalga oshirish qo'riqlash xodimlari (NO'P bo'yicha navbatchilar, kontrollorlar, qo'riqchilar) zimmasiga yuklanadi, bu xodimlar obyektga o'rnatilgan nazorat-o'tkazish rejimining qoidalarini, obyektga (obyektdan) xodimlar va tashrif buyuruvchilarni o'tkazish, tovar-moddiy boyliklarni olib kirish (olib chiqish) tartibi bo'yicha amaldagi hujjatlarni bilishlari kerak. Nazorat-o'tkazish rejimi butun obyekt bo'yicha hamda alohida korpuslar, binolar, bo'limlar, narsalar saqlanadigan joylar va boshqa maxsus xonalarda o'rnatilishi mumkin.

Nazorat-o'tkazish rejimi bo'yicha talablar majburiy tartibda obyektning har bir xodimiga yetkazilishi kerak. Barcha xodimlar va xizmatchilar ularga rioya qilishlari shart. Nazorat-o'tkazish rejimining har bir buzilish holati bo'yicha ma'muriy tekshiruv o'tkazilishi kerak. Nazorat-o'tkazish rejimi bo'yicha qo'riqchilarning majburiyatlari NO'P kontrollorlarining yo'riqnomasida va lavozim majburiyatlarida belgilanadi.

5.2. Nazorat-o'tkazish rejimini ishlab chiqish uchun dastlabki ma'lumotlarni ishlab chiqish

Nazorat-o'tkazish rejimining tadbirlari va normativ hujjatlarini ishlab chiqish dastlabki ma'lumotlarni belgilashdan boshlanadi. Dastlabki ma'lumotlarga baho bera turib, ishlab chiquvchi nazorat-o'tkazish rejimi to'g'risidagi yo'riqnomaning asosiy qoidalarini belgilaydi. Dastlabki ma'lumotlarni belgilash va baholashning quyidagi ketma-ketligini taklif qilish maqsadga muvofiq:

a) korxonaning tashkiliy strukturasi, uning ayrim elementlarining joylashgan joyi va ulardagi ishlab chiqarish (faoliyat) xarakteri. Bu masalalarni aniqlashtirish quyidagi amaliy vazifalarni hal etish imkonini beradi:

— nazorat-o'tkazish rejimini tashkil qilish zarur bo'lgan obyektlar, maydonchalar, binolar, xonalarni ajratish;

— xodimlar, transport vositalarini o'tkazish uchun NO'P xarakterini belgilash;

b) NO'P orqali va ayrim binolar (xonalar)ga o'tadigan transport vositalari, yuklar, moddiy boyliklar va odamlar (firma xodimlari va tashrif buyuruvchilar) oqimlarining «sutkalik hajmi»ni baholash. Faqat o'tkazish joylarining haqiqiy holatini baholash asosida amaldagi NO'Pning o'tkazuvchanlik qobiliyatini baholash va uni obyektidagi asosiy ishlab chiqarish vazifalariga muvofiqlik holatiga keltirish mumkin. Bunday baholash qo'riqlanadigan hududlarga o'tishni

Obyekt hududlarini rejim toifalari bo'yicha tasniflash

Zona toifasi	Zona-ning nomi	Funksional vazifasi	Xodim-larning kira olish shartlari	Mijozlar-ning kira olish shartlari	Qo'riq-chilar-ning mavjudligi	Qo'riqlash texnik vositalar-ning mavjudligi
1	2	3	4	5	6	7
0	Erkin zona	Erkin ki-rish joylari	Erkin	Erkin	Bor	Yo'q
I	Kuzati-ladigan zona	Tashrif buyuruv-chilarni qa-bul qilish xonasi	Erkin	Erkin	Bor	Kuzatish vositalari
II	Ro'y-xatga olish zonasi	Xodimlar kabinetlari	Erkin	Shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar bo'yicha qayd qil-gan holda erkin kira olish	Kuchay-tirilgan qo'riq-lash	Qo'riq-lash signali-zatsiyasi
III	Rejim-li zona	Kotibiyat. Kompyuter zallari. Arxivlar	Xizmat guvohno-malari yoki identifi-katsiyalash kartalari bo'yicha	Bir martalik guvohno-malar bo'yicha	Kuchay-tirilgan qo'riq-lash	Qo'riqlash signali-zatsiyasi, kira olish-ni nazorat qilish tizimi
IV	Ku-chay-tirilgan himo-yalash zonasi	Kassa-operatsion zallar. Moddiy boyliklar omborlari	Maxsus ruxsatno-malar bo'yicha	Maxsus ruxsatno-malar bo'yicha	Kuchay-tirilgan qo'riq-lash	Qo'riqlash signaliza-tsiyasi (2-chegara), kira olish-ni nazorat qilish tizi-mi, mu-handislik to'siqlari

V	Yuqori hi- moya- lash zonasi	Yuqori rahbarlar kabinetlari, konfidensial muzokara- larni olib borish xo- nalari, maxsus saqlaydigan joylar	Maxsus ruxsatno- malar bo'yicha	Maxsus ruxsatno- malar bo'yicha	Kuchay- tirilgan qo'riq- lash	Qo'riqlash signali- zatsiyasi (2-che- gara), nazorat qilish tizimi
---	--	--	--	--	--	---

avtomatlashtirish va nazorat qilishning maqbul variantini tanlash imkonini beradi;

d) hududda belgilangan chegaralarni kesib o'tuvchi obyektlar, transport vositalari va yuklarining toifalarini, shuningdek, shaxslar toifalarini ajratish (muhimlik darajasi bo'yicha). Aniqlikka erishish uchun ta'riflarda obyekt xonalari va hududini kira olish shartlari va himoyalanganlik darajasiga bog'liq holda rejimning oltita toifasi («xavfsizlik zonalari»)ga tasniflash taklif etiladi. Tasniflash 1-jadvalda berilgan.

Jadvaldan ko'rinib turganidek, rejimning oltita toifasi xizmat xonalari funksional vazifalarining deyarli barcha variantlarini qamrab oladi. Bundan tashqari, jadval nazorat-o'tkazish rejimini tashkil qilishda va obyekttni texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlash bo'yicha dastlabki hujjatlarni ishlab chiqishda aniqlashtirish kerak bo'lgan savollarga aniq javob berishi mumkin.

Xonalarni rejimning bitta toifasiga keltirish quyidagilarni tartibga solish va asoslashga yordam beradi:

— korxona xodimlari va tashrif buyuruvchilarning obyektga kira olish shartlarini, umumfoydalanadigan, yopiq va kira olish cheklangan obyektlar, binolar, xonalarni aniqlash;

— shaxslar, transport vositalari va moddiy boyliklarning obyektga o'tkazilishining ruxsat berilgan tartibining maqbul variantini ishlab chiqish bo'yicha korxona ma'muriyatining takliflari;

— fizik qo'riqlashning mavjudligi va turi;

— xavfsizlikni ta'minlash uchun foydalaniladigan texnik vositalarning turlari.

5.3. O'tkazish rejimi to'g'risidagi yo'riqnoma ishlab chiqish

O'tkazish rejimi korxonani qo'riqlash umumiy tizimining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Bu masalalarning amaliy hal etilishi «O'tkazish rejimi to'g'risidagi yo'riqnoma» ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Ko'rsatilgan yo'riqnoma obyektga (obyektdan) o'tishning ruxsat beruvchi tartibi (rejimi)ni belgilaydigan tashkiliy-huquqiy qo'riqlash tadbirlari tizimini belgilashi kerak:

a) umumiy qoidalar. Bu bo'limda quyidagilar ko'rsatiladi:

— normativ hujjatlar, bu hujjatlar asosida yo'riqnoma tuzilgan;

— nazorat-o'tkazish rejimini va uni o'rnatish maqsadini belgilash;

— o'tkazish rejimiga rahbarlik qilish, uni amalga oshirish kimning zimmasiga yuklanadi;

— nazorat-o'tkazish rejimining buzuvchilariga nisbatan jarimalar;

— turli xonalarning jihozlanishiga qo'yiladigan talablar;

b) korxona xodimlari, shu korxonaga jo'natilgan shaxslar va tashrif buyuruvchilarni NO'P orqali o'tkazish tartibi. Bu bo'limda quyidagilar tavsiya etiladi:

— barcha NO'P va ularning vazifasini, tavsifi, joylashishini sanab o'tish va ularning yagona raqamlanishini o'rnatish;

— NO'Pning jihozlanishiga qo'yiladigan talablarni bayon etish;

— xodimlar va tashrif buyuruvchilarning obyekt hududiga va toifalashtirilgan bo‘linmalarga o‘tish tartibini o‘rnatish;

— NO‘P kontrollorlarining huquq va asosiy majburiyatlarini belgilash;

— tashrif buyuruvchilar va tashqi tashkilotlar vakillarini qabul qilish taqiqlanadigan xonalarni aniqlash;

d) obyektga transport vositalarining kira olishi, mahsulotlar, hujjatlar va moddiy boyliklarni olib chiqish tartibi. Bu bo‘limda quyidagilar ko‘rsatiladi:

— obyekt hududiga (obyekt hududidan) unga tegishli bo‘lgan avtotransportni kiritish (chiqarish) tartibi;

— obyekt hududiga xodimlarga tegishli bo‘lgan transportning kirishi va to‘xtashi;

— ish vaqtida va ish vaqtidan tashqari paytda obyekt manziliga yuk bilan kelgan tashqi tashkilotlar avtomashinalarini o‘tkazish tartibi;

— tovar-moddiy boyliklarni olib chiqish (olib kirish) tartibi;

— obyekt hududidan moddiy boyliklarni olib chiqish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalari;

e) ruxsatnomalar turlari, ularni rasmiylashtirish tartibi. Bu bo‘limda quyidagilar belgilanadi:

— ruxsatnomalar turlari, ularning soni va maqomi;

— ruxsatnomalarning tavsifi;

— ruxsatnomalarni rasmiylashtirish va berish tartibi;

— ruxsatnomalarning umumiy almashtirilishi va qayta ro‘yxatga olinishi;

— xodim tomonidan ruxsatnoma yo‘qotilgandagi tadbirlar;

f) nazorat-o‘tkazish rejimini ta‘minlash bo‘yicha mansabdor shaxslarning majburiyatlari;

g) hisobga olish va hisobot, ruxsatnomalar, muhrlarni saqlash tartibi.

Korxona strukturasi va faoliyatining xarakteriga bog‘liq holda yo‘riqnoma boshqa bo‘limlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

5.4. Ruxsatnomalar turlari

Korxonaga, ayrim xonalarga kirish uchun, odatda, ruxsatnomalarning bir nechta turlari belgilanadi. Bular: doimiy, vaqtinchalik, bir martali va moddiy ruxsatnomalar bo'lishi mumkin. Ruxsatnomalar blanklarining namunalari obyekt ma'muriyati (xavfsizlik xizmati) tomonidan ishlab chiqiladi. O'zining tashqi ko'rinishi va tarkibi bo'yicha ruxsatnomalar bir-biridan farq qilishi va himoya xususiyatlariga ega bo'lishi kerak. Moddiy ruxsatnomalardan tashqari ruxsatnomalarning barcha turlari yozma talabnomalar bo'yicha ruxsatnoma berish byurosi (yoki boshqa bo'linma) tomonidan rasmiylashtiriladi va beriladi. Ruxsatnomalar turlari korxona spetsifikasiga bog'liq holda belgilanadi.

Doimiy ruxsatnomalar obyektning doimiy ishga qabul qilingan xodimlariga, shuningdek, obyektga doimiy xizmat ko'rsatish uchun biriktirilgan boshqa tashkilotlarning xodimlariga beriladi. Doimiy ruxsatnomalar guruhlariga bo'linishi mumkin, ularning miqdori va vazifasi nazorat-o'tkazish rejimi to'g'risidagi yo'riqnomada belgilanadi. Doimiy ruxsatnomalar obyekt xodimlarida hamda NO'Pdagi kabinalarda saqlanishi mumkin. Obyektdan uzoq vaqt (ta'til, kasalligi, xizmat safari va sh.k.)ga ketadigan shaxslarning doimiy ruxsatnomalari saqlash uchun ruxsatnomalar berish byurosi (xodimlar bo'limi)ga topshiriladi, bunday ruxsatnomalar kabina, yacheyka (ruxsatnoma saqlanadigan joy)da qoldirilganda, tegishli belgi qo'yiladi. Ishdan bo'shagan xodimlarning ruxsatnomalari belgilangan tartibda yo'q qilinadi.

Vaqtinchalik ruxsatnomalar shartnoma bo'yicha ishlaydigan, vaqtincha ishda bo'lgan, korxonaga xizmat safariga yuborilgan shaxslarga beriladi va, odatda, NO'Pda saqlanadi. Vaqtinchalik ruxsatnomalarning amal qilish muddati va rasmiylashtirish tartibi nazorat-o'tkazish rejimi to'g'risidagi yo'riqnomada belgilanadi.

Vaqtinchalik ruxsatnomalar fotosuratli va fotosuratsiz bo'lishi mumkin. Fotosurati bo'lmagan vaqtinchalik ruxsatnomalar faqat shaxsni tasdiqlovchi hujjat ko'rsatilganda haqiqiy hisoblanadi.

Bir martalik ruxsatnomalar (tashrif buyuruvchilar va mijozlar uchun) bitta shaxsga va korxona hamda uning bo'linmalariga faqat bir marta tashrif buyurish uchun beriladi. Ruxsatnoma shaxsni tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lganda rasmiylashtiriladi va amal qiladi. Bir martalik ruxsatnomalar blanklarning rangi va boshqa farqlovchi belgilar bo'yicha davriy ravishda almashtirib turilishi kerak.

Transport vositasining haydovchisiga berilgan bir martalik ruxsatnoma ayni vaqtda transport vositasi uchun ham bir martalik ruxsatnoma bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bir martalik ruxsatnoma ma'lum bir vaqt davomida obyekt yoki uning bo'linmasi hududiga kirish uchun haqiqiydir. Bir martalik ruxsatnoma bo'yicha korxonaga tashrif buyurgan shaxslarni nazorat qilish ruxsatnomaning teskari tomonidagi belgi yordamida amalga oshiriladi, u yerda tashrif buyuruvchini qabul qilgan shaxsning imzosi bilan tasdiqlangan tashrif buyurish vaqti ko'rsatiladi.

Bir martalik ruxsatnoma tashrif buyuruvchi obyektдан chiqayotganda postdagi kontrollor tomonidan olib qo'yiladi va ruxsatnomalar berish byurosiga topshiriladi. Ruxsatnomaning belgilangan amal qilish muddati tugaganidan keyin obyektдан chiqmagan shaxslar to'g'risida kontrollor kechikish sabablarini aniqlashtirish bo'yicha choralar ko'rish uchun qorovul boshlig'i (NO'P bo'yicha navbatchi)ga xabar qiladi.

Tovar-moddiy boyliklarni olib chiqish uchun moddiy ruxsatnomalar korxona ma'muriyati tomonidan beriladi. Ruxsatnomaning amal qilish muddati nazorat-o'tkazish rejimi to'g'risidagi yo'riqnomada belgilanadi. Moddiy ruxsatnomalar NO'Pda olib qo'yilishi va ruxsatnomalar berish byurosiga topshirilishi kerak.

Amaldagi ruxsatnomalar namunalari NO'Pda bo'lishi lozim. Qo'riqlash xodimlarini o'qitish uchun kerakli miqdordagi ruxsatnomalar namunalari ajratiladi.

Ish vaqti bo'lmagan paytda, dam olish va bayram kunlarida xodimlarning obyektga kira olishlari cheklangan bo'lishi va bo'linmalar rahbarlarining oldindan berilgan talabnomalari (ro'yxatlari) bo'yicha amalga oshirilishi kerak.

Smena almashib ishlaydigan obyektning maxsus xizmatlari navbatchilari (elektriklar, santexniklar, aloqa xodimlari va h.k.) ish vaqti bo'lmagan paytda, dam olish va bayram kunlarida obyekt hududiga tegishli xizmatlarning boshliqlari tomonidan imzolangan va xavfsizlik xizmatining mas'ul xodimi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatlar bo'yicha qo'yiladi.

Korxonaga o'tish vaqti korxona ma'muriyati tomonidan tasdiqlangan ichki tartib qoidalarida belgilanadi. Korxona xodimlari tegishli ruxsatnomalarni ko'rsatganlaridan keyin NO'P orqali hududga o'tadilar. Ko'rsatilgan ruxsatnoma NO'Pdagi mavjud namunalar va taqdim etuvchining shaxsi bilan solishtirilganidan keyin o'tishga ruxsat beriladi.

Ruxsatnomalar bo'yicha NO'P orqali o'tadigan shaxslar yakka tartibda foydalaniladigan shaxsiy buyumlar (ayollar sumkasi, portfellar, keyslar, paketlar va sh.k.)ni to'siqsiz olib o'tish huquqiga egadirlar, agar o'tkazish rejimi bo'yicha yo'riqnomada boshqasi ko'zda tutilmagan bo'lsa.

Shaxsda noto'g'ri rasmiylashtirilgan, haqiqiy bo'lmagan, yo'qotilgan deb e'lon qilingan ruxsatnomalar aniqlanganda, bu shaxs ushlab qolinadi, ruxsatnoma olib qo'yiladi va tekshirish uchun navbatchiga topshiriladi.

Shubhaga sabab bo'lgan buyumlar va buyumlar egasining oldida va uning roziligi bilan obyekt bo'yicha navbatchining ishtirokida tekshirilishi mumkin. Qonunga xilof belgilar aniqlanganda buyumlar va ularning egasi ushlab qolinadi. Buyumlar egasi kuzatuvida tekshirish va qaror qabul qilish uchun navbatchiga topshiriladi. Shaxs tekshirish uchun buyumlarni ko'rsatishni rad etganda bu shaxs obyekt

ma'muriyatining vakili bilan masala hal qilingunga qadar obyektga qo'yilmaydi.

Dam olish va bayram kunlarida, shuningdek, tungi vaqtda qo'riqlanadigan obyektlarga kiritish ma'muriyat tomonidan tasdiqlangan ro'yxatlar bo'yicha amalga oshiriladi. Bunday ro'yxatlar NO'Pda yoki obyekt bo'yicha navbatchida bo'ladi. Bu shaxslarning o'tishi jurnalda belgilangan shakl bo'yicha qayd qilinadi.

5.5. Nazorat-o'tkazish punktining jihozlanishi

O'tkazish rejimini tashkil qilish uchun korxonada NO'P jihozlanadi. NO'Pning jihozlanishi kerakli o'tkazish qobiliyatini va o'tayotgan shaxslarning ruxsatnomalarini, hujjatlarini sinchiklab tekshirish, barcha turdagi transport, olib o'tilayotgan yuklarni ko'zdan kechirish imkoniyatini ta'minlashi hamda quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- odamlar va transport vositalarining NO'P orqali obyektдан (obyektga) ruxsatsiz kirishlari imkoniyatini istisno qilish;

- hujjatlarni tekshirish, transport va moddiy boyliklarni tekshirish uchun vaqtni qisqartirishga yordam berishi;

- odamlar va transportni o'tkazishda qo'riqchi xatolarini istisno qilish (kamaytirish)ga yordam berishi;

- transport vositalarini tekshirganda qo'riqchining xavfsizlik choralari ta'minlashi kerak.

Barcha turdagi NO'P qo'riqlash rezervini chaqirish uchun kerakli aloqa turlari va «trevoga» signalizatsiyasi bilan uskunalangan bo'lishi kerak. NO'Pda ichki telefon va korxona ma'muriyatining telefonlari ro'yxatini joylash tavsiya etiladi. Kirishga qo'shimcha ravishda, shuningdek, chiqish nazoratini ham ta'minlash muhim, signalizatsiyali eshiklar bilan uskunalangan zaxira chiqishlarga bo'lgan ehtiyojni e'tirof etgan holda, ba'zi hollarda o'g'irlikni sodir etish yoki ruxsatsiz kirish imkoniyatlarini cheklash kerak. Kira olishni nazorat

qilishning boshqa samarali choralari ancha sodda. Kirishni ko'rsatuvchi yoki buni taqiqlovchi belgilar kabi vositalar yoki videokameralar va avariya signalizatsiya tizimlari, shuningdek, tanish texnologiyalari kabi murakkab tizimlar.

Odamlarning o'tishi uchun NO'P

Obyektga va ayrim binolar (xonalar)ga o'tadigan shaxslarni nazorat qilish uchun NO'P quriladi. Har bir odamlar o'tadigan NO'Pni: qo'riqchilar uchun xona, fuqarolarni tekshirish xonasi, narsalarni saqlash kamerasi, garderoob, qayd qiluvchi qurilmalar — tambalarga ega turniketlar bilan jihozlash tavsiya etiladi.

Xonalarning joylashishi loyihalarda belgilanadi va mexanizatsiyalash vositalari, NO'Pning avtomatlashtirilganligi va korxona xususiyatlariga bog'liq.

Nazorat-o'tkazish zalida qo'riqlash texnik vositalari va fizik to'siqlar bilan uskunalanadigan o'tishlar jihozlanadi. Jihozlash komplektiga, odatda, quyidagilar kiradi:

— mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish vositalari, kirishni nazorat qilish tizimlari;

— fizik to'siqlar (turniketlar, eshikchalar);

— asosiy va rezerv yoritish;

— aloqa va «trevoga» signalizatsiyasi vositalari;

— videonazorat tizimlari.

Kirishni nazorat qilish vositalari sifatida turli turniketlardan foydalanish mumkin. Turniketlar odamlar oqimlarini boshqarish va kirish (chiqish)ni tartibga solish uchun mo'ljallangan. Keyingi vaqtlarda elektromexanik turniketlar keng tarqaldi. Katta va boshqarilishi noqulay bo'lgan mexanik turniketlardan farqli ravishda elektromexanik turniketlar qo'riqchi pultidan osongina boshqariladi va kirishni avtomatlashtirilgan nazorat qilish tizimi tarkibida ishlashi mumkin.

Turniketni tanlashda ular «normal ochiq» va «normal yopiq» bo'lishi mumkinligini e'tiborga olish kerak. «Normal ochiq» turniketlar (masalan, yaqin paytgacha Rossiya

shaharlaridagi metroda o'rnatilgan ikki yoqqa ochiladigan) jahon amaliyotida ancha kam ishlatiladi. Ular kirayotgan shaxsga qattiq urilishi mumkin va samarali nazoratni amalga oshirish imkonini bermaydi.

Ishonchli nazoratni amalga oshirish uchun ko'pincha «normal yopiq» turniketlar: rotorli turniketlar — «vertushka»lar, turniket-tripodlar va eshikchalardan foydalaniladi. Eshikchalar odamlar oqimlarini boshqarish — bir tomonga erkin o'tishni (kirish yoki chiqishga) va ikkinchi tomonga o'tishni taqiqlashni tashkil qilish uchun qo'llaniladi. Eshikchalar do'konlar, aeroportlar, vokzallarda keng qo'llaniladi. Kirishni nazorat qilish uchun eshikchalarni qo'llash samarali natija bermaydi, bu eshikchalar odamlar oqimini bittalab ajratmasligi bilan bog'liq, sababi eshikcha ochilganidan keyin u orqali bir nechta odam o'tishi mumkin. Eshikchalar erkin kirishni tashkil qilish uchun o'rnatilishi mumkin, kirish nazorati esa tripodlar yoki «vertushka»larga topshiriladi (30-rasm).

Uchta to'suvchi plankali turniket-tripodlar ruxsat bilan o'tishning nazoratini amalga oshirish uchun eng maqbul



30-rasm. Uchta to'suvchi plankali turniket-tripodlar.

vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. Tripodlar zamonaviy ixcham ko'rinishga ega bo'lib, oson montaj qilinadi. Tripodlar kirishning samarali nazoratini amalga oshirish imkonini beradi, chunki yuqori o'tkazuvchanlik qobiliyatini ta'minlagan holda odamlar oqimini bittadan ajratadi. Tripodlar elektron o'tkazish tizimlarida, shu jumladan, odamlarning katta oqimi sharoitlarida qo'llanishi mumkin. Turniket plankalari ostidan o'tish yoki ular ustidan sakrab o'tish imkoniyatining oldini olish uchun, turnikda ruxsatsiz o'tishga urinishda ishlab ketadigan maxsus datchiklarni o'rnatish tavsiya etiladi.

Rotorli turniketlar — «vertushkalar» o'tish zonasini to'liq to'sish zarur bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Ular balandligi bo'yicha turlicha bo'lishi mumkin — belgacha bo'lgan turniketlardan tortib konstruksiyasi jihatidan aylanadigan eshiklarga o'xshash odam bo'yi baravar turniketlarga bo'lishi mumkin.

Avtotransportni o'tkazuvchi NO'P

Korxonada nazorat-o'tkazish rejimini tashkil qilishda avtotransportning harakatlanishini, shuningdek, uning to'xtash joyini nazorat qilish masalasiga alohida e'tibor berish kerak. Transport vositalari potensial xavfga ega, sababi ulardan ruxsat etilmagan buyumlar va odamlarni binolarga yetkazish, shuningdek, o'g'irlangan tovarlar, uskunalar, pochta yoki mulkni tashish uchun foydalanish mumkin. Bundan tashqari, transport vositalari (bu haqda haydovchi yoki yo'lovchilar bilishlari yoki bilmasliklaridan qat'i nazar) terroristlarning portlatish qurilmalarini binolarga yoki ular yaqiniga tashish uchun eng ommabop va samarali vosita bo'lib hisoblanadi.

Avtotransportni o'tkazuvchi NO'P tarkibiga tekshirish maydonchasi va xizmat xonalari kiradi. Tekshirish maydonchasi tekshirish vaqtida avtomobillarni joylashtirish uchun mo'ljallangan. Tekshirish maydonchalari korxona hududida hamda uning tashqarisida, NO'Pning asosiy darvozalariga bevosita tutash bo'lgan joyda joylashishi mumkin.

Tekshirish maydonchasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- tekshirilayotgan transportni joylashtirish uchun yetarlicha maydonga, qo'riqchining ishlashi uchun normal sharoitlarni ta'minlash uchun texnik vositalarga ega bo'lishi;

- obyektga (obyektdan) odamlar va transport vositalarining ruxsatsiz kirish imkoniyatini istisno etishi;

- harakatlanishning belgilangan jadalligida sutka va yilning istalgan vaqtida avtomobil transporti va tashilayotgan yuklarning tekshirilishini ta'minlash;

- obyektning qo'riqlanishi va NO'Pning jihozlanishiga aloqasi bo'lmagan boshqa inshootlardan ajratilgan bo'lishi;

- o'z majburiyatlarini bajarishda qo'riqchining xavfsizlik choralarini ta'minlash.

Tekshirish maydonchasining o'lchamlari transport va tashilayotgan yuklarning gabaritlariga bog'liq holda belgilanadi hamda quyidagilarni tashkil etadi: bo'yiga 10 dan 12 m gacha va eniga 5 dan 6 m gacha.

Tekshirish maydonchasini qurish uchun ajratilgan hududda yomg'ir va eriydigan qor suvlari turib qolmasligini hisobga olgan holda joyni rejalashtirish bajariladi. Tekshirish maydonchasining ko'ndalang qiyaligi uning yon tomonlari yo'nalishida qo'riqchi qo'yilgan joydan kamida 2 foiz qilib olinadi (mashina yuradigan qismga perpendikular ravishda). Tekshirish maydonchasining yuzasi beton yoki asfalt bilan qoplanadi.

Maydonchaning mashina yuradigan qismida oq randagi bo'yoq bilan ikkita «STOP» chizig'i bilan chegaralangan tekshirish uchun transportning to'xtash joyi ajratiladi. Tekshirish maydonchasiga kirishdan oldin asosiy va yordamchi darvozalar (shlagbaum)ning tashqi tomonidan, ulardan 3 m masofada ham ko'ndalang chiziq va «STOP» yozuvi tushiriladi. Transport harakatining xavfsizligini ta'minlash maqsadida darvozadan kamida 100 m masofada o'ng tomonda yoki yo'l ustida «Bir qator harakatlanish» ko'rsatkich belgisi

o'rnatiladi, belgidan 50 m masofada esa — tezlikni 5 km/s gacha cheklash belgisi o'rnatiladi.

Avtotransportni o'tkazuvchi NO'P svetoforlar, avtomobillarni tortish uchun tarozi, tekshirish o'rasi yoki yuklarni tekshirish uchun estakada, fiksatorli darvozalarni avtomatik ochish va yopish uchun mexanizatsiyalashgan qurilmalar bilan jihozlanishi mumkin.

Tekshirish maydonchalari perimetri bo'yicha fizik to'siqlar va signalizatsiya chegarasi bilan jihozlanadi. Maydonchalar, odatda, metall to'rdan ishlangan yoki balandligi 2,5 m gacha bo'lgan yaqqol ko'rinadigan devor yoki dekorativ panjaralar bilan to'siladi. Maydonchada asosiy va yordamchi mexanizatsiyalashgan darvozalar jihozlanadi. Asosiy darvoza obyektning asosiy to'sig'i liniyasida, yordamchi darvoza — tekshirish maydonchasining teskari tomonida o'rnatiladi. Darvozalar o'rniga mexanizatsiyalashgan shlagbaumlarni qo'llanishi mumkin. Avtomobillarni o'tkazuvchi NO'Pda balandlik bo'yicha gabaritlari cheklangan va cheklanmagan darvozalar foydalaniladi. Konstruksiyasi bo'yicha bu darvozalar ikki yoqqa ochiladigan yoki surma bo'lishi mumkin. Ikki yoqqa ochiladigan darvozalar fiksatorlar bilan jihozlanishi kerak.

NO'P tekshirish maydonchalariga olib boradigan yo'llar orqali o'tadigan transport harakatlanishini tartibga solish uchun qizil va yashil rangdagi linzali ikki seksiyali svetoforlar qo'llanishi mumkin.

Avtomobil transporti uchun NO'Pning elektromexanik jihozlari tarkibiga, odatda, quyidagilar kiradi:

- elektr dvigatellar, darvozalar yuritmasi;
- darvozalarning to'liq yopilgan va ochilgan tavaqalarida elektr dvigatellarni avtomatik o'chirishning oxirgi uzgichlari;
- elektr dvigatellarning magnit ishga tushirgichlari;
- svetoforlarning elektr jihozlanishi;
- kabel, katta kuchlanishli liniyalar.

NO'Pning jihozlanishi kerakli o'tkazuvchanlik qobiliyatini va o'tayotgan shaxslarning ruxsatnomalarini sinchiklab

tekshirish imkoniyatini ta'minlashi kerak hamda quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- obyektga (obyektdan) NO'P orqali odamlar va transport vositalarining ruxsatsiz o'tish imkoniyatini istisno etishi;

- hujjatlarni tekshirish, transport va moddiy boyliklarni ko'zdan kechirish uchun ketadigan vaqtni qisqartirishga yordam berishi;

- odamlar va transportni o'tkazishda qo'riqchining xatolarini istisno etish (kamaytirish)ga yordam berish;

- ish vaqtida qo'riqchining xavfsizlik choralari ta'minlash.

Korxonaga kiradigan (chiqadigan) transport vositalarini nazorat qilish quyidagi ketma-ketlikda bajariladi.

Korxonaga tegishli transport vositalarini korxona hududiga qo'yish (hududidan chiqarish) haydovchi shaxsiy ruxsatnomasi va yo'l varaqasini ko'rsatganda bajariladi. Transport bilan birga ketayotgan yukchilar va kuzatuvchi shaxslar NO'P orqali umumiy asoslarda o'tkaziladi.

Shaxsiy mulk huquqlari asosida xodimlarga tegishli transportning korxona hududiga kirishi va to'xtashiga faqat maxsus ro'yxatlar bo'yicha ruxsat beriladi.

Transport vositasi tekshiruvdan o'tkazilishi kerak. Avtomashinaning kuzovi, saloni, kabinasi, yukxonasi va hujjatlari shaxsan NO'Pning navbatchisi tomonidan ko'zdan kechiriladi. Obyektdan qonunga xilof chiqish yoki obyektga kirish belgilari aniqlanganda transport vositasi va uning hujjatlari ushlab qolinadi. Hujjatlar tekshirish uchun navbatchiga topshiriladi.

Transport vositalarining kirishi va chiqishi, odatda, ish vaqtida amalga oshiriladi. Ish vaqtdan tashqari paytda transport vositasining kirishi va chiqishiga ma'muriyat vakili yoki tezkor navbatchining shaxsiy farmoyishi bo'yicha ruxsat beriladi.

Huquqni muhofaza qilish organlari, shoshilinch chaqiruv brigadalarining transport vositalari va ularda ketayotgan shaxslar qo'riqlanadigan hudud bo'yicha ma'muriyat,

qo‘riqlash yoki PXX vakilining kuzatuvida harakatlanish vakolatlarini tasdiqlovchi tegishli xizmat guvohnomalari bo‘yicha qo‘riqlanadigan hududga kirish huquqiga egadirlar.

Korxona manziliga yuk bilan kelgan tashqi tashkilotlarning avtomashinalari ma‘muriyat vakili (yuk oluvchi) tomonidan kuzatilishi kerak. Obyekt hududidan tayyor mahsulotlar va boshqa moddiy boyliklarni olib chiqish belgilangan namunadagi moddiy ruxsatnomalar bo‘yicha amalga oshiriladi.

5.6. Korxonaga kirishni nazorat qilish va boshqarish tizimini tashkil qilish

Xavfsizlik va mehnatni tashkil qilishni ta‘minlash uchun kerakli yechim bo‘lib korxonadagi KNBT (nazorat qilish va boshqarish tizimi) hisoblanadi. KNBT — bu texnik va tashkiliy vositalarning jami, ular yordamida xonalar va qo‘riqlanadigan zonalarga odamlar o‘tkazilishini boshqarish masalalari, shuningdek, hisobga olish va nazorat qilish masalalari hal qilinadi.

Kirish darajasining talab qilinadigan nazoratini rejalashtirib, uning asosida xavfni baholashning metod va prinsiplaridan amaliy foydalanish yo‘li bilan aniqlanadigan xavf va tahdid darajasi mavjud ekanligini esda tutish muhimdir. Kirish darajasi — berilgan vaqt oraliqlarida berilgan qo‘riqlanadigan zonalarga kirishga ruxsat berilgan muayyan shaxs yoki shaxslar guruhiga belgilanadigan kirishning vaqt oraliqlari (vaqt tuynuklari) va o‘tish joylari (siljish yo‘nalishlari)ning jami. Kirish darajalarining nazorati foydalanuvchilarning ayrim guruhlari bilan bog‘liq huquqlarni tartibga soladi.

Korxonada KNBTni joriy qilishning asosiy vazifasi — bu korxonalarda avtomatlashtirilgan va avtomatik o‘tish joylarini yaratish. Korxonaning o‘tish joyida kirishni nazorat qilish tizimi berilgan cheklashlar, avtomatik rejimdagi parametrlar va jadvallarni hisobga olgan holda o‘tish joylaridagi o‘tish

punktlari yoki NO'P orqali korxona hududiga xodimlar va tashrif buyuruvchilarning kirishlarini chegaralash va tartibga solish imkonini beradi.

Kirishni chegaralash muayyan shaxslar yoki ularning guruhlari (turli bo'linmalar xodimlari, doimiy mijozlar, bir martalik tashrif buyuruvchilar va h.k.) uchun beriladigan hafta kunlari va aniq sanalar, smena jadvallari va ish grafiklari bo'yicha jadvallarni hisobga olib amalga oshirilishi mumkin.

Ruxsatnomalar egalarini ko'zdan kechirib identifikatsiya qilish bironing ruxsatnomasi yordamida korxona hududiga begonalar kirishining oldini olish uchun zarur. Ruxsatnomakartaning kodini o'qish vaqtida o'tish joyida o'rnatilgan kompyuter ekranida ko'rsatilgan ruxsatnoma egasining fotosurati va u to'g'risidagi matnli axborot paydo bo'ladi. Xavfsizlik xizmati xodimi kompyuter ekranidagi fotosuratni ruxsatnomani ko'rsatgan shaxsning yuzi bilan solishtirishi mumkin va, zarur bo'lganda, boshqaruv pulti yordamida turniketni blokirovka qilishi (blokirovkadan chiqarishi) mumkin.

Korxonalar uchun KNBT kompleksi quyidagilar imkonini berishi kerak:

- xodimlarning qo'riqlanadigan obyektlarga kirishlarini cheklash;

- xodimlarning obyektlar bo'yicha harakatlanishining vaqt bo'yicha nazoratini kiritish;


- xodimlarning korxona hududiga kelish va ketish vaqtini qayd qilish.

Korxonalar uchun KNBT kompleksi, asosan, quyidagi asosiy komponentlardan iborat (31-rasm):

- kirishni nazorat qilish va boshqarish qurilmalari (kontrollorlar, dasturiy ta'minot);

- bajarish qurilmalari (elektromagnit qulflar, eshik yopqichlari (dovodchiklar), turniketlar, tripodlar, shlagbaunlar, darvozalar uchun avtomatika);

- identifikatsiyalash qurilmasi (identifikatorlar — proksimiti-kartalar, kodni o'qish moslamalari;



31-rasm. Korxona uchun KNBT prinsipial sxemasi.

— xonadan avariya vaqtida chiqish qurilmasi («Chiqish» elektron tugmasi).

O'tish joyi, ma'muriy binolar va xonalarga kirishlar to'suvchi qurilmalar (qulflar, turniketlar, shlagbaumlari) va kirish kartalarini o'qish moslamalari bilan jihozlanadi. Barcha bu qurilmalar tizim kontrollerlari — uning intellektual qismiga ulanadi, ular, o'z navbatida, tarmoqqa birlashadi va kompyuterga ulanadi, uning yordamida ularning holatini boshqarish va nazorat qilish amalga oshiriladi. Bajaruvchi qurilmalar va mexanizmlar turli identifikatorlar va o'qish moslamalaridan foydalanib xodimlarning avtomatik o'tishini ta'minlaydigan turniket-tripod bazasida bajariladi. Turniket navbatchi xonasida joylashgan puldan takrorlovchi boshqaruvga ega bo'lishi kerak. FV yuzaga kelganda odamlarning erkin o'tishlari imkoniyatini ta'minlaydigan «Antipanika» tipidagi to'siq o'rnatilishi ko'zda tutilgan bo'lishi darkor.

Odamlarni identifikatsiya qilish uchun tizimda yakka tartibdagi kodli kontaktsiz plastik kartalar xizmat qiladi. Har bir kartaga kartaning egasi va kirish darajasi to'g'risidagi tegishli

axborot kiritilgan. Xodimlar bu kartalardan ruxsatnomalar yoki kalitlar sifatida foydalanib korxona hududiga, xonalarga o'tadilar. Karta o'tish nuqtasida o'rnatilgan axborot o'qiydigan moslamaga yaqin olib borilganda tizim kartadagi kod bilan kontrollorda saqlanadigan axborotni solishtiradi va karta egasining kirishiga ruxsat berilganligini aniqlaydi. Agar kirishga ruxsat berilgan bo'lsa, tizim avtomatik ravishda o'tishni bajarish uchun turniket yoki qulfni avtomatik ravishda blokirovkadan chiqaradi.

Tizim xodimlarning barcha o'tishlarini eslab qoladi va bu axborotdan ish vaqtini hisobga olish hamda intizom nazoratini tashkil qilish uchun foydalaniladi.

Bino, inshootning tashqi perimetrini himoya qilishdan tashqari, ularning ichida bu zonalar hududlariga kirishni nazorat qilishning turli darajasiga ega lokal xavfsizlik zonolari mavjud bo'lishi mumkinligi to'g'risida ham bilish muhimdir. Ko'rsatilgan hududlarga qo'yilgan shaxslarning nazorat qilinishini osonlashtirish uchun kirishning turli darajasini belgilovchi maxsus belgilarni taqib yurish amalda qo'llaniladi. Bundan tashqari, loyihalashtirish bosqichida naqd pullar, qimmatbaho buyumlar va pochtani saqlash hamda ishlash uchun mo'ljallangan maxsus himoyalangan xonalarga bo'lgan ehtiyojni ko'zda tutish kerak. Umuman olganda, o'g'irlikni sodir etish ehtimolini kamaytirish uchun bu xildagi xonalarni inshoot ichida joylashtirish va bunday xonalarga kirish ruxsatiga ega barcha shaxslarning qat'iy hisobini yuritish imkonini beradigan kirishni nazorat qilish qurilmalari, videokameralar va tizimlar bilan jihozlash kerak.

KNBT bu nafaqat apparatura va dasturiy ta'minot, balki bu puxta o'ylangan xodimlar harakatlanishini boshqarish tizimidir. Obyektga kirishni nazorat qilish, turniketlar yordamida xodimlar ish vaqtining hisobini yuritish mumkin. Kirishni nazorat qilish xizmatchilarga ma'lum vaqtda ma'lum bir xonaga kirishga ruxsat berish yoki kirishni taqiqlash imkonini beradi. KNBT videokuzatuv tizimlari bilan birgalikda

qo‘riqlanadigan obyektning kafolatlanadigan xavfsizligini ta‘minlaydi.


Kirishni nazorat qilish masalasi perimetr va to‘siqni nazorat qilish bilan uzviy bog‘langan. Vositalarning qimmatbaholigi va kirishning talab etiladigan darajasidan kelib chiqib, kirishni nazorat qilishning tegishli darajasini ko‘rib chiqish zarur. Masalan, xodimlar va tashrif buyuruvchilarning harakatlanishini kuzatish mumkin bo‘lgan turniketlar, kirish-chiqishlar, metall detektorlar, elektron identifikatsiyalash kartochokalari, avtonom kontrollorlar, tarmoq kontrollorlari, axborotni o‘qish moslamalari nazorat qilishning talab etiladigan darajasiga javob beradimi?

Avtonom kontrollorlar elektron kalit-tugmachalar yoki qulflarning istalgan tiplariga ega Proksi-karta axborotni o‘qish moslamalari bilan birgalikda kirishni nazorat qilish va avtomatika tizimlarida foydalanish uchun mo‘ljallangan. Kontrollorlarga misollar 32, 33-rasmlarda berilgan.

Proksimiti-kartalarni o‘qish moslamasi foydalanuvchilarda maxsus kirish kartalarining mavjudligini talab qiladigan,



32-rasm. Ko‘chaga o‘rnatish uchun mo‘ljallangan
Rosslare AC-F43 kontrollori.



33-rasm. Ichkariga o'rnatish uchun mo'ljallangan ikki eshikli
«Rosslare AC-020» kontrollori.

devorga o'rnatiladigan qurilma bo'lib, ular yordamida, misol uchun, eshikni ochish yoki turniketni aylantirish mumkin. Qo'llaniladigan texnologiyalarga bog'liq holda foydalanuvchidan axborotni o'qish moslamasiga kartani yaqin olib borish talab qilinadi yoki bunday kartaga ega bo'lishning o'zi kifoya. Axborotni o'qish moslamalariga misollar 34, 35-rasmlarda berilgan.



34-rasm. Jezli ustama qurilmaning «Atis RTM-G» axborotni
o'qish moslamasi.



*35-rasm. «Rosslare AY-K12 RFID» proksi-kartalar
va breloklarni o'qish moslamasi.*

Bino va inshootning xavfsizligini baholay turib, kalitlardan foydalanishni nazorat qilish to'g'risida esda tutish muhimdir. Bunday nazoratning yo'qligi inshootning umumiy xavfsizligini pasaytirishi mumkin, shu sababli kalitlarni taqsimlash, ularni hisobga olish, berish va dublikatlarini nazorat qilish qoidalarini ishlab chiqish zarur. Zaruratga bog'liq holda qimmatbaho narsalardan foydalanishni ikki hisobot topshiruvchi shaxslar (masalan, pochta aloqasining hududiy (viloyat) tashkilotlari, bog'lamalari, pochta tashkilotlarning Bosh kassalarida narsalar saqlanadigan joylar ikki marta qulflanishi kerak, ularning kalitlari Bosh kassada ishlaydigan ikki turli xodimda bo'lishi shart) muvofiqlashtirishi kerak bo'lgan xavf ostidagi joylarda ikkitali kalitlar tizimidan foydalanishni ko'rib chiqish kerak. Qoidalarda kalitlar yo'qotilgan holda qat'iy choralarning ko'rilishi ko'zda tutilishi lozim. Shunga o'xshash tarzda qulflar, narsalar saqlanadigan joylar va seyflardan foydalana olish kombinatsiyasi nazorat ostida bo'lishi va davriy ravishda o'zgarib turishi kerak, ayniqsa, xizmatchilar ishdan bo'shatilganda yoki boshqa joyga o'tkazilganda.

5.7. Xodimlar, tashrif buyuruvchilarni obyektga va alohida (toifalashtirilgan) xonalarga o'tkazish

Xodimlar va tashrif buyuruvchilarning obyekt hududiga, toifalashtirilgan bo'linmalarga o'tishi va orqaga qaytishi obyektga o'rnatilgan ruxsatnomalar bo'yicha, NO'P orqali amalga oshiriladi. Ruxsatnoma o'tish huquqini beruvchi asosiy hujjat bo'lib hisoblanadi.

Xizmat safariga yuborilgan (tashrif buyuruvchilar)ni kiritish vaqtinchalik, bir martalik ruxsatnomalar bo'yicha ruxsatnomada belgilangan va ko'rsatilgan soatlarda, istisno holatlarda — xavfsizlik xizmatining boshlig'i tomonidan tasdiqlangan ro'yxatlar bo'yicha shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgan holda bajariladi.

Ommaviy axborot vositalarining vakillari obyektga umumiy asoslarda ma'muriyat vakillarining kuzatuvida qo'yiladi.

Ish vaqti bo'lmagan paytda, dam olish va bayram kunlarida xodimlarning obyektga qo'yilishi cheklanishi va bo'linmalar rahbarlarining xavfsizlik xizmati boshlig'ining imzosi bilan tasdiqlangan dastlabki talabnoma (ro'yxat)lar bo'yicha, doimiy ruxsatnomani taqdim qilgan holda bajarilishi kerak. Smenali ish rejimiga ega korxonalarda ruxsatnomaga qo'shib smenaning maxsus vkladishlari berilishi mumkin.

Obyektning smena bo'yicha ishlaydigan maxsus xizmatlarining navbatchilari (elektriklar, santexniklar, aloqa xodimlari va h.k.) ish vaqti bo'lmagan paytda, dam olish va bayram kunlarida obyekt hududiga tegishli xizmatlarning boshliqlari tomonidan imzolangan va xavfsizlik xizmatining boshlig'i tomonidan tasdiqlangan ro'yxatlar bo'yicha qo'yiladi.

Amaldagi qonun hujjatlari va ma'muriyatning qarori asosida ayrim toifadagi shaxslar xizmat guvohnomasini ko'rsatgan holda ruxsatnomasiz obyektga kirish huquqidan foydalanadilar. Ular toifasiga quyidagilar kiradi:

- prokuratura xodimlari;
- hududiylik bo'yicha militsiya xodimlari;

— hududiylik bo'yicha mehnat, qozonlarni nazorat qilish, energiya nazorati inspektorlari;

— sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi sog'liqni saqlash organlarining sanitariya-epidemiologik xizmatlarning mansabdor shaxslari va xodimlarining alohida toifalari.

Obyektga ruxsatnomasiz (xizmat guvohnomalari bo'yicha) kirish huquqiga ega shaxslar toifalari nazorat-o'tkazish rejimi to'g'risidagi yo'riqnomada aniq aks ettirilishi kerak.

Obyekt hududi va uning tarkibiy bo'linmalarida o'tkazish rejimini amalga oshirish maqsadida korxona boshlig'ining buyrug'i bilan toifalashtirilgan bo'linmalar (xonalar), narsalar saqlanadigan joylar ro'yxati tasdiqlanadi. Bu xonalarda maxsus rejim va bu bo'linmalarning xodimlari unga rioya qilishlari uchun yuqori darajadagi javobgarlik o'rnatiladi.

Bu xonalarga kirish xavfsizlik xizmati bilan kelishilgan ro'yxatga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Tashqi tashkilotlar va korxonalardan tashrif buyuruvchilarni qabul qilish, odatda, maksimal darajada cheklanadi.

Toifalashtirilgan bo'linmalarning barcha xonalarida oynalangan ramkalarda bu xonalarga kirish huquqiga ega xodimlarning ro'yxatlari osilgan bo'lishi kerak. Ish tugaganidan keyin barcha xonalar bo'linmalar bo'yicha navbatchilar va ularning yong'inga qarshi holati uchun mas'ul shaxslar tomonidan ko'zdan kechiriladi. Elektr yorituvchi va elektr isitish apparaturasi tokdan uziladi, derazalar va darchalar yopiladi, eshiklar qulflanadi va muhrlanadi. Ish kuni tugaganidan keyin qo'riqlash signalizatsiyasi bilan jihozlangan toifalashtirilgan xonalar, maxsus narsalar saqlanadigan joylar, omborlar va boshqa obyektlar bu bo'linmalarning mas'ul shaxslari tomonidan yopiladi va muhrlanadi. Xonalar qorovullarning qo'riqlashi uchun topshiriladi. Qo'riqlash vakili xonani topshirayotgan xodimlar oldida signalizatsiyani tekshiradi. Bu xonalarning kalitlari muhrlangan penallarda tilxat bilan qorovullar boshlig'iga topshiriladi.

Kalitlar olishni, qo‘riqlash signalizatsiyasi bilan jihozlangan xonalarning ochishni doimiy ruxsatnomani taqdim etgan holda bu xonalarni ochish huquqiga ega shaxslar bajaradi. Ko‘rsatilgan xonalarni ochish (yopish) huquqiga ega shaxslar ro‘yxatlari xonalar muhrlanadigan muhrlar raqamlarini va xizmat telefonlarining raqamlarini ko‘rsatib, bo‘linma boshlig‘i tomonidan imzolanadi va xavfsizlik xizmatining boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

NO‘P orqali ruxsatnomani ko‘rsatmasdan yoki birovlarining, noto‘g‘ri rasmiylashtirilgan ruxsatnoma bo‘yicha o‘tishga, obyektga (obyektdan) taqiqlangan buyumlarni olib o‘tishga uringan barcha shaxslar ushlab qolinadi va korxonaning xavfsizlik xizmatiga topshiriladi. Ushlab qolishning har bir fakti bo‘yicha qorovullar boshlig‘i yoki obyekt bo‘yicha navbatchi o‘tkazish rejimining buzilganligi to‘g‘risida xizmat yuzasidan yozilgan ma’lumot tuziladi.

5.8. Korxona hududiga transport vositalarini qo‘yish, moddiy boyliklarni olib chiqish

Korxonaga tegishli bo‘lgan transport vositalarini korxona hududiga (hududidan) qo‘yish (chiqarish) haydovchi maxsus shifrlı shaxsiy ruxsatnomasini yoki transport ruxsatnomasi va yo‘l varaqasini ko‘rsatganda bajariladi. Transport bilan birga ketayotgan yukchilar va kuzatuvchi shaxslar NO‘P orqali umumiy asoslarda chiqariladi.

Barcha transport vositalari NO‘P orqali o‘tayotganda tekshiruvdan o‘tkaziladi. Shaxsiy mulk huquqlari asosida xodimlarga tegishli transport vositalarining korxona hududiga kirishi va to‘xtashiga maxsus ro‘yxatlar bo‘yicha ruxsat beriladi.

Ish vaqtida korxona manziliga yuk bilan kelgan tashqi tashkilotlarning avtomashinalari avtotransport NO‘Pda tekshirilgan holda xizmat yuzasidan yozilgan ma’lumotlar bo‘yicha hududga qo‘yiladi. Korxona hududiga mashinalarni

olib kirish shtatdagi haydovchi tomonidan ma'muriyat (yuk oluvchi) vakilining kuzatuvida bajariladi.

Temiryo'l transporti va unga xizmat ko'rsatuvchi brigadalar korxonaga belgilangan namunadagi ruxsatnomalar, ro'yxatlar bo'yicha yoki muassasa, idora, korxona tomonidan o'rnatilgan boshqa tartibda qo'yiladi. Temiryo'l transportini o'tkazish va tekshirish uchun qo'riqlash bo'linmasidan tekshirish guruhi ajratiladi.

Plombalangan vagonlar va konteynerlar tashqi tekshirilganidan keyin NO'P orqali o'tkaziladi, agar plombalar izlari kuzatuv hujjatlari yoki yukxatlardagi izlarga mos kelsa. Izlar mos kelmagan, vagon (konteyner)ning teshilganligi yoki plombasi uzilganda vagon (konteyner) ma'muriyat va temiryo'l vakillarining ishtirokida ochilishi va tekshirilishi kerak.

Obyekt hududidan tayyor mahsulotlarni olib chiqish belgilangan namunadagi moddiy ruxsatnomalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligi va ularning olib chiqilayotgan boyliklarga to'liq mosligiga ishonch hosil qilib, qo'riqchi NO'Pda ruxsatnomani qoldiradi, ruxsatnomaga yuk olib chiqilayotgan sana va vaqtini qo'yadi, imzosini qo'yadi hamda moddiy boyliklarni olib chiqishga ruxsat beradi.

Korxonadan olib chiqilayotgan barcha hujjatlar, moddiy boyliklar ruxsatnomalar byurosida hisobga olish kitobiga qayd qilinadi va keyingi kun davomida buxgalteriyaga topshiriladi. Barcha turdagi moddiy ruxsatnomalar blanklari bosmaxona usulida tayyorlanadi va buxgalteriyada saqlanadi, xizmat yuzasidan yozilgan ma'lumotnomalar bo'yicha korxona bo'linmalariga beriladi. Moddiy boyliklarni olib chiqish uchun hujjatlar faqat bir vaqtda olib chiqiladigan yuklar (joylar, og'irlik va sh.k.) uchun yoziladi va faqat ruxsat beruvchi hujjatda ko'rsatilgan sanaga haqiqiydir.

Qurilish va yog'och chiqindilari, makulatura, metallolom, metall qirindisini korxona hududidan moddiy boyliklar sifatida

buyruq-hisob bo'yicha olib chiqish tavsiya etiladi. Turli xil axlat, tuproq va qorni obyekt hududidan olib chiqish hujjatlarni rasmiylashtirmasdan, ammo avtotransport NO'Pda majburiy ro'yxatdan o'tib bajarilishi mumkin.

Moddiy boyliklarni ular saqlanadigan (turgan) joylardan boshqa joylarga ko'chirish ruxsat olingan tartibda bajariladi. Moddiy boyliklarni ko'chirish uchun asos bo'lib ular uchun moddiy javobgar bo'lgan shaxsga ma'muriyatning yozma ruxsatnomasi hisoblanadi.

Moddiy boyliklar qo'riqchilar kuzatuvida ko'chiriladi. Qo'riqlanadigan hududdan moddiy boyliklarni olib chiqish moddiy boyliklarni hisobot ostiga olgan vakolatlangan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Moddiy boyliklar NO'P orqali quyidagilar mavjud bo'lgan holda o'tkaziladi:

- moddiy javobgar shaxsga korxona omboridan moddiy boyliklarni olish uchun berilgan ishonchnoma;

- moddiy boyliklarni ishonchnoma bo'yicha javobgar shaxsga berilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi yukxat;

- buyumlar nomlari, joylar miqdori, o'rovning turi, moddiy javobgar bo'lgan shaxsning familiyasi, ism-sharifi, ombordan ortish sanasi va vaqtini ko'rsatgan holda qo'riqlanadigan hududdan tashqariga moddiy boyliklarni olib chiqish uchun ruxsatnoma.

NO'Pni kesib o'tuvchi yuk kuzatuv hujjatlariga mosligi nuqtayi nazaridan dastlabki nazorat tekshiruvidan o'tkazilishi kerak.

Qo'riqlash xodimi kuzatuv hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilganligiga ishonch hosil qilib, olib kirilayotgan (olib chiqilayotgan) yuk nomi va miqdorining kuzatuv hujjatlaridagi ma'lumotlarga mosligiga ishonch hosil qilishi, shuningdek, transport vositasining yashirin (o'g'irlik uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan) joylarini tekshirishi kerak. Shu maqsadda u maxsus tekshirish maydonchasi, estakadadan foydalanib,

transport vositasi va yukni ko'zdan kechiradi. Transport vositasidagi moddiy boyliklar nazorat qilish uchun qulay bo'lgan tartibda qo'yilgan bo'lishi kerak. Plombalangan (muhrlangan) yuklarni o'tkazayotganda qo'riqchi plomba (muhr)larni yukxatlarda ko'rsatilgan plomba (muhr)lar bilan solishtiradi, yuk nomi va miqdorining kuzatuv hujjatlariga mosligiga hech qanday shubha qolmaganidan keyin avtotransportning kirishiga yoki chiqishiga ruxsat beriladi. Moddiy ruxsatnomalar, tovar-transport yukxatlari qo'riqchi tomonidan ularning kelish tartibiga qat'iy rioya qilgan holda hisobga olish kitobida (olib kiriladigan va olib chiqiladigan yukxatlar uchun alohida) qayd qilinadi.

5.9. Nazorat-o'tkazish rejimi sohasidagi qoidabuzarliklarni hujjatlashtirish tartibi

Nazorat-o'tkazish rejimining buzilishlari quyidagilar hisoblanadi:

- NO'Pni chetlab o'tib, qo'riqlanayotgan obyektga kirish yoki kirishga urinish;

- qo'riqlanadigan obyektga taqiqlangan buyumlar (buyumlar)ni olib kirishga urinish;

- o'rnatilgan tartibni buzgan holda NO'P orqali moddiy boyliklarni olib o'tishga urinish yoki olib o'tish;

- ruxsatnomasiz yoki haqiqiy bo'lmagan ruxsatnoma bo'yicha NO'P orqali o'tishga urinish yoki o'tish;

- qo'riqlashning mansabdor shaxsi tomonidan NO'P orqali shaxslar, transport vositalari va moddiy boyliklarni o'tkazish qoidalariga rioya qilmaslik.

Rejimning buzilishini sodir etgan, o'rnatilgan tartibni buzgan holda NO'P orqali o'tadigan shaxslar qo'riqlash xizmati tomonidan ushlab qolinadi va rejimni buzganlik holatlarini aniqlash hamda tegishli choralar ko'rish uchun korxona bo'yicha navbatchiga yoki ma'muriyat vakiliga topshiriladi.

Korxona xavfsizlik xizmatining boshlig'i ushlab qolingani va obyektga olib kirish (obyektdan olib chiqish) taqiqlangan buyumlar (buyumlar)ni huquqni muhofaza qilish organlariga topshirish masalalarini hal qiladi.

Nazorat savollari

1. Nazorat-o'tkazish rejimi nima? Nazorat-o'tkazish rejimini amalga oshirishdan maqsad nima?
2. Nazorat-o'tkazish rejimini ishlab chiqish uchun qanday dastlabki ma'lumotlardan foydalaniladi?
3. Obyekt hududi rejimlilik toifalari bo'yicha qanday tasniflanadi?
4. Nazorat-o'tkazish rejimi to'g'risida yo'riqnomani ishlab chiqishda qanday omillar hisobga olinadi?
5. Korxonaga kirish uchun ruxsatnomalar turlarini sanab bering.
6. Nazorat-o'tkazish punkti qanday talablarga javob berishi kerak?
7. Odamlar o'tishi uchun NO'P, avtotransport NO'P qanday asbob-uskunalar bilan ta'minlanadi?
8. KNBT nima? Korxona uchun KNBT prinsipial sxemasiga nimalar kiradi?
9. Avtonom kontrollorlar qanday vazifalarni bajaradi?
10. Xodimlar, tashrif buyuruvchilarni obyektga va alohida (toifalashtirilgan) xonalarga o'tkazish tartibi qanday?
11. Korxona hududida transport vositalarini kiritish, moddiy boyliklarni olib chiqish tartibi qanday?
12. Nazorat-o'tkazish rejimi sohasida qoidabuzarliklar qanday hujjatlashtiriladi?

6-BOB. POCHTA XAVFSIZLIGI BO‘LINMALARI FAOLIYATINING SHAKLI SIFATIDA XIZMATGA OID TEKSHIRUV

6.1. Xizmatga oid tekshiruvlarni o‘tkazishning umumiy qoidalari

Qonunbuzarlikka daxldor shaxs (shaxslar)ni, uning sodir etilishi sabablari va sharoitlarini aniqlash uchun, shuningdek, yuzaga kelgan shubhalarning mohiyatiga aniqlik kiritish uchun xizmatga oid tekshiruv o‘tkaziladi.

Xizmatga oid tekshiruv (xizmat tekshiruvi) — xodimlar (ishchilar)ning intizomiy nojo‘ya ish qilganligi yoki ularning funksional majburiyatlarini bajarmaslik fakti bo‘yicha materiallarni o‘z vaqtida, har tomonlama, to‘liq va obyektiv yig‘ilishi va o‘rganilishi bo‘yicha tegishli mansabdor shaxslarning intizomiy ishlab chiqarish doirasidagi faoliyati.

Xizmatga oid tekshiruv amaliyot ko‘rsatganidek, o‘z ichiga obyektiv haqiqatning o‘rnatilishiga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksini oladigan pochta xavfsizligi bo‘linmalarining faoliyati shakllaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Intizomiy xatoga yo‘l qo‘ygan, mehnat shartnomasini buzgan yoki funksional majburiyatlarni vijdonan bajarmagan xodim (ishchi)ning aybdorligi yoki aybsizligi to‘g‘risidagi masalani hal qilish uchun qo‘shimcha tekshiruv zarur bo‘lganda xizmatga oid tekshiruvning o‘tkazilishi to‘g‘risidagi qarorni ixtiyoriy ravishda muassasa, idora, korxonaning birinchi rahbari qabul qiladi.

Xizmatga oid tekshiruv bu alohida ichki tekshiruv, xizmatga oid tekshiruv doirasi xodimlar (ishchilar)ning doirasi bo‘yicha ham, hajmi bo‘yicha ham muassasa, idora, korxona doirasidan chiqmasligi kerak. Ichida xizmatga oid

tekshiruv o'tkazilayotgan struktura shtatiga kirmaydigan shaxslar faqat ixtiyoriy tartibda o'z xohishi bo'yicha guvohlar sifatida yozma ko'rsatmalar berishlari va mutaxassislar sifatida jalb etilishlari mumkin.

Xizmatga oid tekshiruvni o'tkazish tartibi muassasa, idora, korxonaning tegishli yo'riqnomasida belgilanadi, ammo bu tartib fuqarolik muassasalari uchun Mehnatga oid qonun hujjatlari talablariga zid kelmasligi kerak. Xizmatga oid tekshiruvni o'tkazish tartibiga qo'yiladigan umumiy talablar bo'lib, o'tkazish muddatlariga rioya qilish, tekshirilayotgan shaxs huquqlariga, obyektivlik va holislikka rioya qilish hisoblanadi.

Xizmatga oid tekshiruvga ekspertlar sifatida maxsus bilimlar sohasidagi maslahatlar berish uchun mutaxassislar (shtatdagi buxgalterlar va sh.k.) jalb qilinishi mumkin. Taftish yoki moliya-xo'jalik faoliyatining tekshiruvi ham o'tkazilishi mumkin.

Xizmatga oid tekshiruvni o'tkazish to'g'risidagi qarorni muassasa, idora, korxonaning birinchi rahbari qabul qiladi. Xizmatga oid tekshiruvni boshlash to'g'risida xizmat yuzasidan tekshirilayotgan shaxs xabardor qilinadi, unga intizomiy xatoga yo'l qo'yganligi fakti bo'yicha yozma tushuntirish berish taklif qilinadi.

Xizmatga oid tekshiruv natijalari bo'yicha xizmat yuzasidan tekshirilgan shaxsning aybdor yoki aybsiz ekanligi to'g'risidagi natijalarga ega xulosa chiqariladi.

Xizmatga oid tekshiruvni o'tkazish muddati muassasa, idora, korxonaning tegishli yo'riqnomasida belgilanadi, ammo bu muddat fuqarolik strukturalari uchun Mehnatga oid qonun hujjatlari bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortish muddatlaridan oshmasligi kerak.

Umumqabul qilingan amaliyotga ko'ra ko'pchilik strukturalarda xizmatga oid tekshiruvni o'tkazish muddati xodim (ishchi)ning kasal bo'lishi, ta'tilda, xizmat safarida bo'lish vaqtini istisno qilgan holda bir oydan oshmasligi

kerak. Xizmatga oid tekshiruv muddatlarining buzilishi aybdor shaxsni avtomatik ravishda intizomiy jazodan xalos etadi.

Xizmat yuzasidan tekshirilayotgan shaxsning huquqlari muassasa, idora, korxonaning tegishli yo'riqnomasida belgilanadi, ammo inson va fuqaro huquqlaridan kelib chiqadigan umumiy huquqlar mavjud. Xizmat yuzasidan tekshirilayotgan shaxs quyidagi huquqlarga ega:

- xizmatga oid tekshiruv nima munosabat bilan o'tkazilayotganligini bilish;

- xizmatga oid tekshiruv masalalari bo'yicha yozma tushuntirishlar berish;

- xizmatga oid tekshiruvni o'tkazish davomida iltimos qilib ariza berish;

- xizmatga oid tekshiruv materiallariga qo'shib qo'yish uchun hujjatlar, ashyoviy dalillarni taqdim etish;

- xizmatga oid tekshiruvni o'tkazish davomida keyingi so'roq qilinishlari uchun guvohlarni taqdim etish.

Xizmatga oid tekshiruv natijalari bo'yicha, xizmat yuzasidan tekshirilayotgan shaxsning xatti-harakatlarida ayb mavjud ekanligi to'g'risida yetarlicha ma'lumotlar olingan holda muassasa, idora, korxonaning birinchi rahbari aybdor shaxsni intizomiy yoki moddiy javobgarlikka tortish to'g'risida qaror qabul qiladi. Jazo to'g'risidagi qaror tegishli buyruq bilan mustahkamlanadi.

Xizmatga oid tekshiruv davomida sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlar faktlari aniqlangan bo'lsa, xizmatga oid tekshiruvni o'tkazayotgan shaxs bu haqda darhol tegishli davlat organlariga va xizmatga oid tekshiruvni o'tkazishga farmoyish bergan boshliqqa xabar qilishi shart. Xizmat yuzasidan tekshirilayotgan shaxs xatti-harakatlarida jinoyat tarkibi mavjud bo'lganda, xizmatga oid tekshiruv materiallari jinoiy ishni qo'zg'atish masalasini hal etish uchun mansublik bo'yicha topshiriladi. Bunday holatda intizomiy javobgarlikka tortilish to'g'risidagi qaror jinoyat-protsessual kodeks

talablariga muvofiq materiallar ko'rib chiqilmagunga qadar qabul qilinmaydi, bu haqda xizmatga oid tekshiruv natijalari bo'yicha xulosada ko'rsatib o'tiladi.

Xizmatga oid tekshiruv materiallari mehnat nizosini ko'rib chiqish davomida sudga taqdim etilishi mumkin.

Xizmatga oid tekshiruvni o'tkazish natijalari ustidan shikoyat qilish tartibi muassasa, idora, korxonaning tegishli Yo'riqnomasida belgilanadi. Odatda, xizmat yuzasidan tekshirilgan shaxs yuqori turuvchi boshliqqa shikoyat qilish huquqiga ega. Umumiy tartibda xizmatga oid tekshiruvni o'tkazish natijalari ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

Pochta xavfsizligi bo'linmalarining amaliy faoliyatini tahlil qilish asosida pochta aloqasi korxonalarining manfaatlarini himoya qilishda foydalanish mumkin bo'lgan xizmatga oid tekshiruvlarni o'tkazishning umumiy metodlari va usullarini chiqarish mumkin.

Xizmatga oid tekshiruvni bajarishda quyidagilar zarur:

a) aniqlanishi kerak:

— voqea-hodisa (pul mablag'lari, boyliklar yoki pochta jo'natmalarini o'g'irlash, kamomadi, almashtirilishi, yo'qotilishi va b.) sodir bo'lganmi;

— huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt, sana va joyi (ishlab chiqarish xonasida, transport vositasida va sh.k.);

— bu qanday vaziyatlarda sodir etilgan, qaysi usul bilan, qanday qurol yoki vositalardan foydalanib;

— huquqbuzarlikni kim sodir etgan;

— huquqbuzarlikni sodir etish sabablari va sharoitlari, ularni bartaraf etish qanday choralari va kim tomonidan ko'rilgan;

— yetkazilgan moddiy zarar xarakteri va o'lchami, uning o'rnini to'ldirish bo'yicha qabul qilingan choralar;

b) pochta aloqasini tashkil etishda ishlab chiqarish jarayonini o'rganish, aloqa sohasida amalda bo'lgan normativ hujjatlar talablarining bajarilishini tekshirish, jabrlanganlar va pochta aloqasi strukturasiga mansub bo'lmagan boshqa shaxslarning arizalari va axborotidan foydalanish;

d) huquqbuzarlik faktiga aloqasi bo'lgan ashyoviy dalillarni olib qo'yish, huquqbuzarlik sodir etilgan hudud yoki xonani ko'zdan kechirish;

e) ishlab chiqarish hujjatlari, shuningdek, huquqbuzarlikni sodir etishda yoki uni sodir etish uchun sharoitlar yaratishda aybdor deb gumon qilinayotgan aloqa xodimlarini tavsiflovchi ma'lumotlar bilan tanishish;

f) huquqbuzarlik sodir etilgan ish uchastkalari uchun shaxsan javobgar bo'lgan, bu ish uchastkasiga kira oladigan shaxslarni, shu jumladan, vaxtyorlar, mexaniklar, farroshlar, transport haydovchilari va b.ni aniqlash;

g) ilgari shunga o'xshash huquqbuzarliklar faktlari bo'lgan-bo'lmaganligini, shuningdek, takroran shunga o'xshash huquqbuzarlik sabablarini aniqlash;

h) huquqbuzarlikda bevosita aybdor bo'lgan aloqa xodimlaridan, zurrur bo'lganda — pochta aloqasi tashkilotining boshqa xodimlaridan yozma tushuntirishlarni olish.

Xizmatga oid tekshiruv o'tkazilayotganda bevosita aybdorlar bilan bir qatorda o'zlarining beparvoliklari, nazorat qilmasliklari, xizmatdagi kamchiliklari bilan huquqbuzarlikning sodir etilishi uchun sharoitlar yaratib bergan mansabdor shaxslar aniqlanishi kerak.

Xizmatga oid tekshiruv natijalari pochta hujjatlarining nusxalari, ashyoviy dalillar (pochta jo'natmasining o'rovi, qop tarasi, plombaning bog'ichi, huquqbuzarlikni sodir etish quroli va h.k.)ni ilova qilgan holda dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Dalolatnomada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

— nima asosda va qaysi fakt bo'yicha tekshiruv o'tkazilganligi;

— tekshirilayotgan huquqbuzarlik vaziyatlari (kim tomonidan, qachon va qanday qonunga xilof xatti-harakatlarga yo'l qo'yilgan, qonunlar, Pochta qoidalarining qaysi normalari buzilgan, qonunbuzarliklarga qasddan yoki beparvolik oqibatida yo'l qo'yilgan);

— huquqbuzarlikning sodir etilishini keltirib chiqargan sabablar va sharoitlar;

— huquqbuzarlikni bartaraf etish va shunga o'xshash huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish bo'yicha takliflar.

6.2. Ashyoviy dalillarni tahlil qilish

Xizmatga oid tekshiruvlarni o'tkazish jarayonida nafaqat pochta jo'natmasini ruxsatsiz ochish yoki uni o'g'irlash faktini ko'rsatib berishi, balki tekshiruv uchun qo'shimcha axborot berishi mumkin bo'lgan ashyoviy dalillarning tahliliga alohida e'tibor beriladi. Bir qator hollarda bunday axborot huquqbuzarlik amalga oshirilgan joy to'g'risida xulosa chiqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi, shuningdek, unga dahldor bo'lgan odamlar doirasini aniqlash imkonini beradi.

Pochta jo'natmasining dastlabki holatini har qanday buzish va keyingi tiklash shubhasiz uning tashqi ko'rinishining buzilishi va o'zgarishining bilvosita belgilari paydo bo'lishiga olib keladi.

Tekshirilayotgan obyekt va uning alohida qismlarining tashqi holatini tavsiflovchi belgilar eng muhim hisoblanadi, sababi aynan shu belgilar bo'yicha ehtimoliy buzish fakti bo'yicha birlamchi fikr belgilanadi.

Pochta xavfsizligi bo'linmalarining ish tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, pochta jo'natmalari yoki ulardagi joylanmalarni o'g'irlash faktlari bo'yicha xizmatga oid tekshiruvlar natijaliligi ko'p hollarda ashyoviy dalillar holatini to'g'ri baholashga bog'liq, bu ashyoviy dalillar bo'lib pochta qoplari, ularni berkitish elementlari (bog'ichlar, plombalar, sug'urtali muhrlarning surg'uchli izlari), posilka jo'natmalarining o'rovlari, pochta paketlari, konvertlar va boshqa buyumlar yoki pochta jo'natmalarining boshqa qismlari xizmat qilishi mumkin.

O'g'irliklarni sodir etgan shaxslar ularning huquqbuzarliklari izlari va oqibatlari imkoni boricha sezilmay qolishidan

manfaatdorlar. Buning uchun ular o'zlarining qonunga xilof faoliyatlarini maskirovka qiluvchi turli nayranglarni ishlatadilar, bunday qonunga xilof faoliyatni tashqi va ichki, bevosita va bilvosita belgilarni to'g'ri baholab aniqlash mumkin, shuningdek, ushbu huquqbuzarlik qanday usul bilan va qaysi uchastkada sodir etilganligi to'g'risida muayyan xulosalarga kelish va, oqibatda, unga dahldor bo'lgan shaxslar doirasini ajratish mumkin.

AMHga a'zo-davlatlarning PXXning amaliy faoliyati va eksperimental tadqiqotlari asosida o'rganish obyekti dastlabki holatining ehtimoliy buzilishi faktini ko'rsatuvchi belgilarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh o'rganilayotgan obyekt va uning alohida qismlarining tashqi holatini tavsiflovchi belgilarni, ikkinchi guruh — o'rganilayotgan obyekt yopiq (tashqaridan ko'zga ko'rinmaydigan) qismlarining holatini tavsiflovchi belgilarni birlashtiradi.

Tashqi ko'zdan kechirilayotganda, odatda, o'rganilayotgan obyektlarni ehtimoliy buzishga xos bo'lgan bevosita va bilvosita belgilarning birinchi guruhiga amal qilish kerak, bunda bunday buzilishlar izlarini aniqlash ehtimoli kuchliroq bo'lgan uchastkalarga ko'proq e'tibor qaratish lozim.

Tekshiruv davomida obyektning umumiy holati aniqlanadi, mavjud o'zgarishlar va dastlabki ko'rinishidan boshqa farqlar hisobga olinadi.

6.3. Pochta jo'natmalarini ruxsatsiz ochish belgilari

6.3.1. O'rganilayotgan obyektlar yoki ular alohida qismlarining tashqi holatini tavsiflovchi belgilar guruhi

Pochta xizmatlarining ishonchliligini ta'minlash har qanday fuqaroning huquqi bo'lib hisoblanadi va pochta xizmatlari nafaqat mijoz oldida, balki gap xalqaro pochta almashinuvi to'g'risida ketsa, bir-birlari oldida ham pochtaning saqlanishi uchun javobgardirlar.

Pochta xavfsizligi bo'linmalarining ish amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, keyingi yillarda pochta jo'natmalarini

yo‘qolish va o‘g‘irlash holatlarining soni qisqarib bormoqda. Ammo posilkalar, banderollar va mayda paketlar joylanmalarini o‘g‘irlash faktlari hali ham uchrab turibdi. Bu buzilishlar tahlili pochta topshiruvchi va qabul qiluvchi aloqa xodimlari o‘rtasida pochta qabul qilish hali yetarlicha yuqori professional darajada o‘tkazilmayotganligi sababli pochta jo‘natmalari va buyumlarini ruxsatsiz ochish yuz berayotganligini ko‘rsatmoqda. Aloqa xodimlari plombalar, qop tarasini, shuningdek, posilkalar, banderollar va mayda paketlarning o‘rov materialini buzish belgilarini har doim ham ajrata olmaydilar.

Pochta tarasi sifatida pishiq matodan ishlangan qoplardan, alohida toifadagi pochta jo‘natmalarini o‘rovlash uchun esa — qismlari mashina yoki qo‘l chokida ulangan matoli o‘rovdan keng foydalaniladi.

Pochta qoplariga joylangan pochta va matoli o‘rovga o‘rovlangan pochta jo‘natmalaridagi joylanmalar o‘g‘irlanganda ularni ulovchi choklar buziladi. Bunda ichki yoki tashqi choklar kerakli uzunlikkacha so‘kiladi, keyin ularning avvalgi holatiga o‘xshatib tashqi tomondan qaytadan tikiladi.

Shunga o‘xshash buzilishlar tashqi tomondan uncha ko‘zga tashlanmaydi va pochta ishlov berishning so‘nggi bosqichida pochta xodimlari tomonidan yoki pochta jo‘natmasini olganidan keyin adresat tomonidan aniqlanadi.

Quyida pochta jo‘natmalari va buyumlari butunligi buzilishining o‘ziga xos belgilari berilgan.

Pochta qopi

Pochta qoplari pishiq matoning bir bo‘lagidan tikiladi. Matoning bir tomoni va tagi yoki ikki yon tomoni tikiladi, qopning og‘zi hoshiyalanadi, u yerga arqondan vkladish qo‘yiladi. Vkladish diametri qopning o‘lchamiga bog‘liq holda tanlanadi. Vkladish qop yuqori qismning mustahkamligini ta‘minlaydi va bog‘ichning qop og‘zidan to‘liq siljishini maksimal qiyinlashtiradi.

Pochta qopi buzilishlarining qismlari (36-rasm):

- a) qop matosining istalgan qismidagi ochiq yirtiq (kesik):
 - ochiq yuzada;
 - bog'ich ostidagi qistirmalarda yoki uning ustida;
 - qop matosining yirtilgan joyidagi qo'l choki.

Bog'langan bog'ichdan pastdagi qop yuzasidagi yirtilgan joyning maqsadi aniq, bog'ich ustidagi yirtilgan joy esa bog'ichni yirtiqdan yuqoriroqqa siljitish va keyin avvalgi joyiga qaytarilishi yo'li bilan joylanmaning ehtimoliy ochilganligi to'g'risida dalolat qilishi mumkin;

b) qop mashina choklarining buzilganligi va ularning qo'lda tikilganligi:

- chok buzilgan joyda burmaning yangidan qayltirib tikilganligi;

- yangi chok bir tekis emas va butun uzunligi bo'yicha tortilgan;

- shubhali chokning burmalarida ipning kesilgan qismlari va igna bilan teshilgan bo'sh joylar mavjud;

d) qop og'zidan bog'ichini tortish yo'li bilan uning ichidagi joylanmasini olgan hollarda qop hoshiyasi va uning vkladishining buzilishi, bunda ushbu operatsiyani osonlashtirish uchun hoshiyadan vkladish olinadi, keyin u yana joyiga qo'yiladi, burmaning buzilgan uchastkasi esa qo'l chokida tikiladi.

Buzilish belgilari:

- qopning yuqori qismi va hoshiyalash belbog'i bog'ichdan tortish uchun qo'llaniladigan asbobning ta'siridan hosil bo'lgan mato yuzasining o'ziga xos yirtilari va ishqalanishlariga, shuningdek, bog'ich joyidan siljatilganda qopning ushbu qismini qattiq siqish natijasida hosil bo'lgan aniq ko'rinadigan vertikal burmalarga ega;

- vkladish uchlari tutashgan sohadagi hoshiyalash belbog'ining qismi yoki uning ko'ndalang choki qo'lda tikilgan;

e) bog'ich kanop ipining buzilganligi.

Buzilish belgilari:

- qop og'zi tugunli ulangan kanop ip bilan bir marta aylantirib o'ralgan;

— bog'ich kanop ipi o'ralgan yoki yelimlangan;
f) plomba (surg'uchli muhr)ning almashtirilganligi yoki buzilganligi.

Qop joylanmasini olishning eng tarqalgan usuli bo'lib, pochta qoplari plombalanadigan (muhrlanadigan) plombalarni yoki sug'urtali muhr surg'uchli izini buzish hisoblanadi;

g) plombalar quyidagi yo'l bilan buziladi:

— bog'ich kanop ipining uchlari siqilgan plombaning ichki kanallarini qattiq buyum bilan kengaytirish va siqish, tashqi tugunni tushirish yoki yelimlash yo'li bilan qaytadan mahkamlash;

— plombaning yon tomonlaridan birining kesilganligi;

— birlamchi plombaning boshqa plombir bilan tayyorlangan qalbaki plombaga yoki dublikatga almashtirilishi.

Buzilish belgilari:

— plomba yuzasining deformatsiyasi va asbob bilan ta'sir qilish izlarining mavjudligi;



36-rasm. Pochta qoplari va uni berkitish elementlarining butunligi buzilganligining o'ziga xos belgilari.

— plomba yon devoridagi kesilgan joy;
— plombadan chiqib turadigan bog‘ich kanop ipi uchlarining tugunli mahkamlanishi;

— plomba kanallaridan chiqib turadigan yelim;
— plombadagi izning mos kelmasligi;

h) surg‘uchli izning buzilishi:

— surg‘uchli iz manzil yorlig‘idan ajratilganda va bog‘ichdan kesib olinganda, keyin qaytadan yangilangan bog‘ichga qo‘yilganda va yelimli tarkib yoki boshqa surg‘uch bilan mahkamlanganda surg‘uchli izdan takroran foydalanish;

— iz kanop ip joylashgan chiziq bo‘yicha sindiriladi, singan joydan mahkamlangan kanop ip ehtiyotlab olinadi, keyin avvalgi joyiga qaytarib qo‘yiladi va yelimli tarkib bilan mahkamlanadi;

— izning yuqori qismi buziladi va ochilgan kanop ip kesiladi, keyin bu kanop ip avvalgi joyiga qo‘yiladi va surg‘uch bilan quyiladi;

— buzilgan iz boshqa sug‘urtali muhr yoki dublikat — avval qo‘yilgan izdan olingan nusxa ko‘rinishida tayyorlangan bosma shakl bilan qayta tiklanadigan boshqa izga almashtiriladi.

Buzilish belgilari:

— iz matnining mos kelmasligi;

— iz tagidan chiqib turgan yelim yoki surg‘uchning boshqa qatlami, shuningdek, kesilgan kanop ip bo‘laklari;

— bog‘ich ustidagi izning yuqori qismi (bog‘ich mahkamlangan tugun oldidagi) qaytadan surg‘uch quyish izlariga ega;

— iz bog‘ichning unda mahkamlangan kanop ipning yo‘nalishiga mos keladigan o‘ziga xos siniqqa va yelimning ehtimoliy izlariga ega;

— iz yuzasida sug‘urtali muhrning dublikati (bosma shakli)ni tayyorlash uchun foydalaniladigan materialning qismi bo‘lishi mumkin bo‘lgan begona bo‘laklar mavjud.

Surg‘uchli izning holatini baholashda, agar bog‘ich kanop ipining butunligi va uning izdagi holati buzilmagan

bo'lsa, ayrim hollarda muhrlanadigan yuzadan izning ajratilib qolishi yoki unga yelim yoki boshqa surg'uch bilan mahkamlanishi har doim ham pochta jo'natmasining ochilganligidan dalolat qilmaydi.

Yog'och (fanera o'rovidagi) posilkalar

Xalqaro posilkalarda qonun hujjatlariga muvofiq chet elga jo'natishga ruxsat berilgan va belgilangan mamlakatga olib kirilishi taqiqlanmagan sanoat tovarlari, uzoq saqlanadigan oziq-ovqat mahsulotlari, madaniy-maishiy vazifadagi tovarlar yuboriladi. Ichki posilkalarda, bundan tashqari, bosma nashrlar, o'simliklar, tirik asalarilar, dori-darmonlar, tibbiy preparatlar va b. yuboriladi.

Posilkalar jo'natuvchilar tomonidan posilkali qutilarga (karton, yog'och, fanerali va polimer) yoki yumshoq o'rovga o'rovlanishi kerak.

Posilka o'rovini joylanma xarakteriga, yo'lning davomiy-ligiga, jo'natish sharoitlariga mos kelishini, tashilganda joylanmaning shikastlanish, o'rovining buzmasdan uni olish imkoniyatini istisno etilishini hisobga olib, jo'natuvchining o'zi tanlaydi.

Mato bilan tikilmagan yog'och (fanerali) qutildagi posilkalar qutining yonlaridagi kesiklar bo'yicha yaxlit pishiq



37-rasm. Posilka qattiq o'rovi (fanerali quti) butunligining o'ziga xos buzilishlari.

kanop ip bilan bog‘lanadi. Bog‘ich tarang tortiladi va kesishgan joylarida uni olib yoki siljitib bo‘lmaydigan darajada tugun qilib bog‘lanadi. Bog‘ich uchlari sug‘urtali muhr izi bilan qutining devoriga muhrlab yopishtiriladi. Bo‘sh tortilgan bog‘ichning kesilishi yoki siljirilishi va keyin qopqog‘idan mixlarning sug‘urilishi qutining qopqog‘ini surish yoki olib qo‘yish va bu bilan pochta jo‘natmasining joylanmasini olish imkonini beradi.

Buzilish belgilari:


- bog‘ichning kanop ipida tugun, buralgan, yopishtirilgan yoki ip bilan tikilgan joyining mavjudligi, bular, odatda, quti tirqishining kesiklarida yoki bog‘lashning kesishish tugunlarida maskirovka qilinadi;

- bo‘sh bog‘ich — uning ayrim halqalarini yon qirrasining chetiga surish va qutidan yechib olish imkonini beradi (38-rasm);

- mixlarning yangi boshchalari, shuningdek, qoqilgan mixlarning bo‘sh yoki yirtiq o‘rinlari;

- quti qismlari va bog‘ich elementlarini dastlabki holatidan siljitish izlari.

Posilka bog‘ichining kesilganligi va tugun, yelim, o‘rash yoki tikish orqali keyingi ulanishi. Bog‘ichda tugunlar, buralgan, yelimlangan yoki ip bilan tikilgan joyi, qo‘shimcha qo‘yilgan surg‘uch qatlamining mavjudligi buzilish belgilari



38-rasm. Mixlar olinganidan keyin quti yon elementlarining olinishi.

bo‘lib hisoblanadi. Odatda, bunday ulashlar qutining tirqishlarida yoki bog‘ich kesishgan tugunlarda maskirovka qilinadi.

Yumshoq o‘rovdagi posilkalar

Yumshoq o‘rov (mato) ustki kiyim, gilam yoki boshqa yumshoq mahsulotlar solingan posilkalarni o‘rovlash, shuningdek, qiymati e‘lon qilingan posilkalarning qutilari (karton qutilari)ning qoplamasi uchun xizmat qiladi.


Yumshoq qobiq (mato) yaxlit, och rangda, ichki choklari (tikuv mashinasida yoki qo‘lda) tikilgan bo‘lishi kerak, tashqi (konvertsimon) chok posilkaning faqat bir tomonida (manzil yozilgan joydan chap tomonda) bir xil rangdagi ip (zich qaviq) bilan bajariladi. Tashqi chok sug‘urtali muhrning surg‘uchli izlari bilan muhrlanadi. Bunda iz tashqi chokning chetlariga qo‘yilishi shart, izlar markazlari orasidagi masofa 10 sm dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Yumshoq o‘rov butunligi buzilganligining o‘ziga xos belgilari 39-rasmda berilgan.

Avvalgi holatini imitatsiya qilgan holda posilka jo‘natmasi yumshoq o‘rovidagi surg‘uchli izlar va yuqori klapan chokining buzilishlari:



39-rasm. Yumshoq o‘rov butunligining o‘ziga xos buzilishlari.



40-rasm. Surg'uchli izning buzilganligi va chokning turli rangdagi va navdagi ip bilan tikilganligi namunasi.

— surg'uchli muhrlar izlarining qayta qo'yilishi yoki tiklanishi (surg'uch izlari uchun sanab o'tilganlarga o'xshash), shuningdek, bunday izlarning yo'qligi;

— o'rovning yuqori klapani rangi, sifati, qalinligi bilan farqlanadigan turli choklar va har xil iplar bilan tikilgan (40-rasm).

Yumshoq o'rov matosining ochiq yirtilganligi (kesilganligi) va uning keyin tashqi tomondan qo'l chokida mahkamlanishi:

— buzilgan choklarni maskirovka qilish uchun bu choklarga ortiqcha miqdordagi surg'uchli izlarning tushirilishi;

— matoning yirtilgan (kesilgan) joyida qo'l chokining mavjudligi (pochta qopi buzilishining fragmentlariga o'xshash).

Keyinchalik tashqi tomondan qo'l usulida mahkamlagan holda mashina tub (quyi) yoki yon tomondagi choklarning buzilganligi (kesilganligi):

— eski chokdan qolgan ninaning o'rni;

— chok boshidagi ipning tuguni yumshoq o'rovning tashqi tomonida joylashgan;

— buzilgan uchastkadagi chok bir tekis emas.

Surg'uchli izlarning buzilganligi, qo'l chokining qisman yoki to'liq almashtirilganligi:

— surg'uchli izlarning qisman buzilishi, klapani yopish uchun foydalaniladigan ip rangi va sifatining turliligi;



41-rasm. Surg'uchning turli tarkibi va mansubligiga ega sug'urtali muhrlar surg'uchli izlarining namunasi.

— surg'uchning boshqa tarkibi va mansubligiga ega turli sug'urtali muhrlar izlarining mavjudligi (41-rasm);

— qisman buzilgan surg'uch izi sohasida ulovchi chokdagi kesilgan joylar va tugunlarning mavjudligi.

Qattiq o'rovdagi (o'rovlash tasmasi bilan mahkamlangan karton qutilardagi) posilkalar

Butun uzunligi bo'yicha karton qutisining klapanini ulovchi dastlabki o'rovlash tasmasining ko'ndalang kesilganligi va keyin bu kesikning shaffof yopishqoq tasma bilan ulanishi:

— qo'shimcha qo'yilgan, ehtimol, dastlabki o'rovlash tasmasidan farqlanadigan yopishqoq tasma;

— o'rovda «Joylanmaning ko'chishi» shtampi mavjud bo'lganda o'rovdagi joylanma siljmaydi.


Qutining yuqori qismidan yon qismlariga o'tish joyida o'rovlash tasmasining ko'ndalang kesilganligi, quti yon devorining joylanmani olgunga qadar ichiga yoki tashqarisigacha bosib ezilishi va keyin shaffof yopishqoq tasma bilan ulanishi:

— quti yon devorining deformatsiyasi (bukilganligi) izlari;

— qo'shimcha ravishda yopishtirilgan yopishqoq tasma;

— buzilgan uchastkadagi o'rovlash tasmasining ko'ndalang kesilganligi.

Yon tomondagi o'rovlash tasmasining ko'ndalang kesilganligi, kesilgan o'rovlash tasmasining klapan tomonidan



42-rasm. O‘rovlash tasmasining chetlari bo‘ylab klapanlar
karton yuzasi yuqori qatlamining ko‘chish izlari
bo‘lgan karton qutisi.

olinganligi va keyin yelimdan foydalanib uning avvalgi holatining tiklanganligi:

— o‘rovlash tasmasining chetlari bo‘yicha klapanlar karton yuzasi yuqori qatlamining ko‘chish izlari (42-rasm);

— o‘rovlash klapanlarining deformatsiyasi (bukilishi) izlari;

— chiqib turgan yelim qatlamining mavjudligi.

Qog‘oz o‘rovdagi qiymati e‘lon qilingan banderollar

Banderollarni o‘rovlash uchun pochta konvertlari, jildlar, karton qutilar, yog‘och (fanerali) qutichalar qo‘llaniladi. Banderollarni o‘rovlash materiallari sifatida pishiq qog‘ozdan, polietilen plyonkadan, och rangli sidirg‘a matodan va sertifikatlashtirilgan o‘rovlash materiallarining boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Jo‘natuvchi Pochta qoidalarining talablariga muvofiq yuborilayotgan jo‘natmaning xarakterini hisobga olgan holda o‘rovni tanlaydi. Qiymati e‘lon qilingan banderollarning eng ko‘p tarqalgan o‘rovi — pishiq qog‘ozga o‘rovlanishi. Bunday banderollar jo‘natuvchi oldida o‘rovning barcha klapanlari joylanmaning saqlanishini ta‘minlaydigan sug‘urtali muhrning surg‘uchli izlari bilan mahkamlangan holda o‘rovlanadi, yopishtiriladi va sug‘urtali muhr bilan muhrilanadi.



43-rasm. Surg'uchli izlari buzilgan banderol o'rovining buzilganligi namunasi.

Qiymati e'lon qilingan banderollar qog'oz o'rovi butunligining o'ziga xos buzilishlari:

- a) o'rovlash tasmasi keyingi mahkamlangan holda (maskirovka yordamida) qog'oz o'rovning kesilganligi (yirtilganligi): o'rovlash tasmasining qo'shimcha qatlamlari;
- b) o'rovning surg'uchli muhrlar bilan muhrlangan va yopishtirilgan klapanlarining buzilishi:

- ancha buzilgan surg'uchli izlar, ularning qolgan qismlari o'zaro mos kelmaydi (43-rasm);
- klapaning dastlabki holatidan siljishi;
- klapan tagidan chiqib turgan yelim izlari;
- klapanlardagi qo'shimcha deformatsiyalar (burmalar, bukilishlar).

Plastik paketlardagi qiymati e'lon qilingan banderollar

Keyingi yillarda pochta jo'natmalarini o'rovlash uchun qalin shaffof bo'lmagan materialdan tayyorlangan plastik paketlardan keng foydalanilmoqda. Ochishdan himoyalash sifatida yopiladigan klapan teshiklarga ega, payvandlab yopishtiriladigan choklari esa dekorativ ramka bilan qoplangan. Klapan uning ichki qismiga tushirilgan yopishqoq tarkib yoki klapaning tashqi tomonidan yopishqoq tasma yordamida berkitiladi.

Yopiladigan klapan quyidagi yo‘l bilan ochilishi mumkin:

- klapan ostidagi paket yuzasini kesish va yelimning qo‘shimcha qatlami bilan klapani qaytadan mahkamlash;
- klapan yopishtirilgan joyning mexanik ko‘chirilishi;
- erituvchi yordamida klapani ochish;
- klapani birlamchi berkitish uchun mo‘ljallangan yopishqoq tasmani kesish yoki almashtirish.

Buzilish belgilari:

- klapan yuzasining deformatsiyasi;
- klapandagi himoyalash teshiklarining yirtilganligi;
- klapan va uning teshiklari tagidan chiqib turgan yelimli tarkib yoki erituvchi ta’siridan keyin qolgan dog‘larning mavjudligi;
- klapanda shubhali ko‘rinishdagi yopishqoq tasmaning mavjudligi.

Paketlar yon qismlarining kesilganligi va ularning qaytadan mahkamlanishi oson farqlasa bo‘ladigan izlarni qoldiradi:

- chetida dekorativ ramkaning qisman yoki to‘liq bo‘lmasligi;
- paket yon qismining bukilganligi;
- yelim yoki yopishqoq tasmaning mavjudligi.

Yozma xat-xabarlar

Ichki oddiy va buyurtma xatlarda yozma xabarlar, ish qog‘ozlari, fotosuratlar, badiiy otkritkalar, sxemalar va boshqa qog‘oz mahsulotlari yuboriladi. Oddiy va buyurtma xalqaro xatlarda yozma xabarlar, ish qog‘ozlari, turli xildagi kvitansiyalar, hisob-fakturalar, fotosuratlar yuboriladi.

Ichki oddiy va buyurtma banderollarda kam qiymatli bosma nashrlar (blanklar, broshuralar, plakatlar, gazetalar, jurnallar, kitoblar va b.), ish qog‘ozlari, qo‘lyozmalar, fotosuratlar, albomlar, daftarlar va b. yuboriladi.

Ichki oddiy mayda paketlarda dorivor o‘simliklar, urug‘lar, suvenir mahsulotlari (breloklar, magnitlar va b.), ichki buyurtma mayda paketlarda — mayda sinmaydigan buyumlar yoki jo‘natuvchi uchun qiymatga ega bo‘lmagan tovarlarning

yakka namunalari, mahsulotning reklama namunalari (atirlar, yog‘-upalarning probniklari va b.), kompakt-kassetalar, kompakt-disklar yuboriladi. Xalqaro mayda paketlarda mayda sinmaydigan buyumlar yoki tovarlarning yakka namunalari yuboriladi.

Qiymati e‘lon qilingan ichki banderollarda foydalanuvchi uchun ma‘lum qiymatga ega bo‘lgan buyumlar, mahsulotlar va hujjatlar (madaniy-maishiy vazifadagi buyumlar, bosma nashrlar, badiiy adabiyotlar, tasviriy san‘at bo‘yicha adabiyotlar, ish qog‘ozlari, ovoz yozish tasmlari, dorilar, uzoq vaqt saqlanadigan oziq-ovqat mahsulotlari va b.) jo‘natiladi.

Qiymati e‘lon qilingan xalqaro xatlarda hujjatlar (tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomalar, diplomlar, ish qog‘ozlari, qo‘lyozmalar va b.), notarial idoralar tomonidan tasdiqlangan hujjatlar va ma‘lumotnomalarning nusxalari, hujjatlar (diplomlar, tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma, nikoh to‘g‘risidagi guvohnoma va b.) dublikatlari va boshqa qimmatli qog‘ozlar jo‘natiladi.

Xatlarni o‘rovlash uchun pochta konvertlaridan foydalaniladi. Banderollar va sekogrammalarni o‘rovlash uchun pochta konvertlari, jildlar, karton qutilar, yog‘och (fanerali) qutichalar qo‘llaniladi. Banderollar va sekogrammalarni o‘rovlash materiali sifatida pishiq qog‘oz, polietilen plyonka, och rangli sidirg‘a matodan va o‘rovlash materiallarining boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Agar banderol yoki sekogrammada bir nechta buyumlar jo‘natilayotgan bo‘lsa, o‘rovga o‘rovlashdan oldin bu buyumlar kanop ip bilan bog‘lanadi.

Pochta jo‘natmalaridan o‘g‘irliklarni tekshirishda ashyoviy dalillar sifatida ularni berkitish uchun yelimli qatlam izlari mavjud bo‘lgan karton qutilar, qog‘ozli o‘rovlar, pochta konvertlari, markalar, o‘rovlash tasmasi va boshqa buyumlardan foydalanish mumkin.

Qog‘ozli o‘rovlar, pochta konvertlarini tekshirish bosqichida tashqi belgilarni jamlab yelimli ulangan joyning

buzilganligi va bu qanday usul bilan bajarilganligi to'g'risida dastlabki xulosaga kelish mumkin.

Ko'rsatilgan ashyoviy dalillarni tekshirish jarayonida ularning yelim bilan yopishtirilgan joylarini va yelim namunalarini o'rganishda olinadigan ma'lumotlar katta ahamiyatga ega.

Qog'oz va karton o'rovlar (qutilar, qobiqlar, paketlar, konvertlar)ga joylangan pochta jo'natmalaridan o'g'irliklarni amalga oshirishda, odatda, ularning o'rovi, yelim bilan yopishtirilgan joylari yoki o'rovlash tasmasi qasddan buziladi. Buzilgan uchastkalar ixtiyoriy tanlangan materiallardan foydalanib qaytadan berkitiladi, ushbu buzilgan joyning ko'zga tashlanadigan nuqsonlari bo'lganda ularni turli yo'llar bilan maskirovka qiladilar. Bunday buzilish faktini isbot qilish usullaridan biri bu ularning yelim bilan yopishtirilgan uchastkalarining holatini baholash hisoblanadi.

O'zining tarkibi bo'yicha yelim o'simlik, hayvonot, mineral va sintetik kelib chiqishga ega.

Pochta jo'natmalari joylanadigan o'rovlash materiallari va yuqorida ko'rsatilgan yopishtiruvchi moddalar tashqi tomondan o'xshashligiga qaramay, ularning qiyosiy tahlili uchun asos bo'ladigan ba'zi farqlovchi belgilar va xususiyatlarga ega.

Ashyoviy dalillar tekshirilganda quyidagi masalalar hal etiladi:

- tekshirilayotgan yelimli birikmaning tabiati qanday;
- yopishtiruvchi material o'zining tarkibi bo'yicha bir xilmi;
- o'rovning tekshirilayotgan uchastkasi ochilmaganmi.

Pochta jo'natmasining o'rovi tekshirilishini uning yuzalarini va berkitish elementlarini ko'rinadigan chiroqda, burchakdan yorug'lik tushib turganda lupa yordamida, shuningdek, ultrabinafsha nurlari («LYUMO» komplektidagi lampa)da tashqi ko'zdan kechirishdan boshlash kerak. Bunday ko'zdan kechirish yelim bilan yopishtirilgan joyning ehtimoliy

buzilganligi va keyin yana yopishtirilganligining o‘ziga xos belgilarini aniqlashga yordam beradi.

Ko‘zdan kechirishning ushbu bosqichida tashqi belgilarni jamlab, yelim bilan yopishtirilgan joyning buzilganligi va bu qanday usullar bilan bajarilganligi to‘g‘risida dastlabki xulosaga kelish mumkin.

Quyidagi misollarni keltirish mumkin:


1) bug‘ yoki erituvchilar yordamida yelim bilan yopishtirilgan joyning ochilishi va keyin yangi yelim bilan yopishtirilishi.

Qog‘ozli o‘rovlar va konvertlar klapanlarining yelim bilan yopishtirilgan joylari bug‘ yoki erituvchilar yordamida ochilganda, qog‘ozning usti deformatsiyalanadi, kichik qavariqlar hosil bo‘ladi, klapan relyefining tashqi ko‘rinishi o‘zgaradi. Shu bilan birga o‘rovlash materialining rangi, shuningdek, ayrim turdagi siyohlar va ulardagi pastalarning rangi va luminessensiyasi o‘zgarishi mumkin.

Namlikdan yopishtiriladigan materialning yuzasi deformatsiyalanadi, qaytadan yopishtirilganidan keyin yopishtirilgan qismlarga tushirilgan shtamplar, sug‘urtali muhrlar izlari va matn shtrixlarining detallari o‘zaro mos kelmasligi mumkin.

Shu bilan birga yana quyidagilarni aniqlash mumkin:

— yopishtirilgan klapan ostidan chiqib turgan yelimlovchi moddaning mavjudligi (44-rasm);



44-rasm. Klapan qayta yopishtirilganligi belgilariga ega pochta konverti.



45-rasm. Klapanlari qayta yopishtirilganligi belgilariga ega pochta konverti.

— yopishtirilgan polosa va uning tashqarisidagi qog‘ozning ko‘chishi;

— yopishtiriladigan qatlam uchastkalaridagi konvert qog‘ozi buzilganligining maskirovka qilingan izlari;

— matn yoki himoya shtrixlarining surkalib ketishi (45-rasm), shuningdek, sharikli ruchka bilan yozilgan yozuvlardan bosilgan izlarning qisman tekislanishi;

2) yelim bilan yopishtirilgan joyni mexanik usulda (erituvchilardan foydalanmasdan) ochish.


Qog‘ozli o‘rovlarning yelimli erituvchilarini va konvertlarning klapanlarini mexanik usulda ochish (erituvchilarni qo‘llamasdan yelim bilan yopishtirilgan joylarni ajratish yoki ularning yuzasini ochiq kesish), albatta, deformatsiya, yopishtirilgan qismlarning ko‘chishi yoki yirtilishi bilan kuzatiladi, bunday joylar, odatda, maskirovka qilinadi. Quyidagilar bunday maskirovka bo‘lishi mumkin:

— o‘rovning yuzasiga ixtiyoriy ravishda qo‘yilgan o‘rovlash tasmasi (46-rasm);

— o‘rovning yon qirralarini qo‘shimcha mahkamlash;

— yon qismini kesish va yopishtirish (47-rasm);


— ochilgan klapani yopishqoq tasma bilan mahkamlash (48-rasm);



46-rasm. Ochilganligi va keyin ochilgan joyini o‘rovlash tasmasi bilan maskirovka qilish belgilariga ega qiymati e’lon qilingan banderol.




47-rasm. Yon qismini kesish va yopishtirish izlariga ega pochta konverti.



48-rasm. Klapani yopishqoq tasma bilan mahkamlangan pochta konverti.


- qo‘shimcha o‘rovlash tasmasini qo‘yish (49-rasm);
- o‘rovlash tasmasini qayta yopishtirish (50-rasm);
- klapan qismining yuzasiga yopishtirilgan o‘rovlash tasmasi (51-rasm).



49-rasm. Yon qirralari o‘rovlash tasmasi bilan qo‘shimcha ravishda mahkamlangan pochta konverti.



50-rasm. O‘rovlash tasmasidan foydalanib klapanlari qayta yopishtirilgan pochta konverti.



51-rasm. Klapan qismi kesilgan va keyin kesilgan joyi shaffof bo‘lmagan o‘rovlash tasmasi bilan yopishtirilgan pochta konverti.



52-rasm. Tarkibi turli xil bo‘lgan yelimlardan foydalanilgan yelimlab yopishtirilgan joy namunalari.

Tekshirilayotgan yopishtirilgan joyda tarkibi turli xil bo‘lgan yelimlar turlarining aniqlanishi (52-rasm) ushbu konvert yoki o‘rov ikki marta yopishtirilganligidan dalolat beradi.

Tekshiriladigan uchastkalarda yelimning qo‘shimcha qatlami aniqlangan hollarda uni birlamchi qatlam bilan solishtirish zarurati yuzaga keladi. Bunday solishtirish quyidagi asosiy xarakteristikalar bo‘yicha o‘tkaziladi:

- yelimning suvda va muayyan erituvchilarda erish qobiliyati;
- ularning tarkibida kislota yoki ishqorning bo‘lishi;
- anorganik yoki organik komponentlarning mavjudligi.

Yelim bilan yopishtirilgan joylarni tekshirish va berkitish materiallari hamda yelim tarkibini har tomonlama tahlil qilish tugaganidan keyin ushbu yopishtirilgan joy saqlangan yoki buzilganligiga baho beriladi.

6.3.2. Tekshirilayotgan obyekt yopiq qismlarining (tashqi ko‘rinmaydigan) holatini tavsiflovchi belgilar guruhi

Tadqiqotning ushbu bosqichini o‘tkazishda obyektning holati to‘g‘risidagi yakuniy xulosa qanchalik oshkora bo‘lishiga qaramay, faqat bitta belgi asosida chiqarila olmaydi, sababi belgilarning har biri alohida holda joylash (o‘rash) texnolo-

giyasi qoidalariga rioya qilmaslik natijasi bo'lishi yoki tashishda tasodifan yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun faqat aniqlangan tashqi belgilarning tekshirilayotgan obyektning yashirin (tashqi ko'rinmaydigan) qismlari (belgilarning ikkinchi guruhi)ni o'rganish natijalari bilan birgalikdagi jami ularning haqiqatda buzilganligi yoki dastlabki holati to'g'risida fikr yuritish uchun asos bo'ladi.


Belgilarning ikkinchi guruhi o'rganilganda pochta jo'natmasi, uning o'rovi va berkitish elementlari ochiladi: plombalar kesiladi, surg'uchli izlar muhrlash materialidan olinadi (kesib olinadi), pochta qoplari va yumshoq o'rovlar teskari tomoniga ag'dariladi, o'rovlash tasmasi yopishgan joyidan ajratib olinadi va h.k. Tekshirilayotgan obyektning ochilgan qismlari avval ko'zdan kechiriladi, keyin maxsus texnik vositalar, shu jumladan, optik moslamalar va asboblardan hamda infraqizil nurlanish spektridan foydalanib sinchiklab tekshiriladi.

Plombalarni ko'zdan kechirish va holatini baholash


Plomba (fransuz tilidagi «plomb» — qo'rg'oshin so'zidan) ko'p hollarda ma'lum buyumga osilgan qo'rg'oshin muhrdan iborat. Yopuvchi qurilmalardan farqli ravishda plombalar qaysi usul bilan bo'lsa ham kirishni qiyinlashtiruvchi to'siq bo'lib hisoblanmaydi, balki taqiqlovchi belgi va ular shikastlangan holda plombalangan obyektning ehtimoliy ochilganligi faktini ko'rsatuvchi signal moslamasi vazifasini bajaradi.

Plombalash kanop ipi (tasmasi)ni korpusga mahkamlash usuli bo'yicha plombalarni ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga plombalarning zagotovkasini maxsus plombalash qisqichlari (plombir) bilan siqish yordamida plombalash materialiga mahkamlanadigan plombalar kiradi. Bunda plombalarning yuzasiga muayyan aloqa korxonasini shartli belgilaydigan harflar, raqamlar va alohida belgilar ko'rinishidagi relyef izlari tushiriladi. Bunday plombalar turli shakl va o'lchamlarga ega (53-rasm). Ular qo'rg'oshin, aluminiy qotishmalari va sintetik materiallardan tayyorlanadi.



53-rasm. Turli shakllar va o'lchamlardagi plombalar namunalari.



54-rasm. Turli teshikli plombalarning namunalari (kesimda).

Plombalash materiali (masalan, kanop ipni) mahkamlash uchun plombalar o'z korpusida ikkita kiradigan teshikli kameraga yoki ikki uchi ochiq parallel kanallarga ega (54-rasm).

Ikkinchi guruhni o'zi qulflanadigan plombalar va maxsus qurilmalar tashkil etadi:

— yopilganda plombalash materialini mahkam mustahkamlaydigan yopuvchi mexanizm elementlariga ega ochiq quticha ko'rinishidagi tunukadan tayyorlangan «qutisi-mon» tipdagi (55-rasm);

— pishiq sintetik materialdan tayyorlangan va o'z ichiga qiya tishli yoki yuzasidagi yo'g'onroq joylar va u orqali o'rab bog'laydigan tasmani faqat bir tomonlama yo'nalishda tortish hamda mahkamlangan holatda uni mustahkam ushlab turish imkonini beradigan mahkamlovchi mexanizmga ega o'rab bog'laydigan tasmani olgan, pishiq sintetik materialdan tayyorlangan yaxlit konstruksiyalar (56-rasm).



55-rasm. «Qutisimon» tipdagi plombalar namunalari.




56-rasm. Sintetik materialdan tayyorlangan o'zi qulflanadigan plombalarning namunalari.

Bunday plombalar va o'zi qulflanadigan qurilmalarni yopuvchi qurilmalarning korpusi, tasmasi yoki elementlariga shikast yetkazmasdan ochish qiyin.

Plombalangan konteynerlar yoki sug'urtali qoplardan pochta jo'natmalari o'g'irlangan holatlarda ularning butunligini buzishning eng keng tarqalgan obyektlari bo'lib plombalar hisoblanadi.

PXX faoliyatining amaliyotida plombalar butunligini buzishning bir nechta usullari ma'lum:

— plomba qandaydir qattiq buyum yordamida uning ichki kanallarini kengaytirish yo'li bilan bog'ichdan olinadi, keyin yana takroran siqib avvalgi joyiga mahkamlanadi;



57-rasm. Yon tomoni kesilgan plomba.

— dastlabki plomba yechib olinadi va boshqasi bilan almashtiriladi;

— bo'sh mahkamlangan plomba bog'ichdan tortib olinadi va so'ngra plomba orqali tortilish jarayonini osonlashtiradigan nisbatan ingichkaroq kanop ipga osib qo'yiladi;

— plombaning yon tomoni kesiladi va bog'ich kanop ipining siqilgan uchlaridan biri bo'shatiladi (57-rasm).

Plombaning har qanday buzilishi mexanik shikastlanishga xos bo'lgan bir qator belgilar ko'rinishida namoyon bo'ladigan uning dastlabki holatining o'zgarishiga olib keladi. Bunday belgilar plombaning tashqi tomonida hamda plombaning ichida bo'lishi mumkin. Ular plombalarning muayyan uchastkalarini sinchiklab ko'zdan kechirilganda oson aniqlanadi.

Plombalar butunligi tekshirilishini uchta bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqichda plombaning tashqi holatini tavsiflovchi belgilarni ko'zdan kechirib baholanadi. Bu baholash pochta qabul qilinganda, shuningdek, pochta qoplarini ochish uchastkalarida o'tkaziladi. Ushbu bosqichda plomba ehtimoliy buzilganligining birlamchi belgilari aniqlanadi.

Ikkinchi bosqichda laboratoriyada plomba ichki yuzasining butunligi sinchiklab tekshiriladi. Plomba kanallarini diqqat

bilan o'rganish mumkin bo'lishini hisobga olib ikki qismga kesiladi. Bu ish kerakli texnik vositalar yordamida bajariladi va ma'lum tadqiqot ko'nikmalarini talab qiladi.

Uchinchi bosqich o'z ichiga aniqlangan tashqi va ichki belgilarni kompleks ravishda baholash va tahlil qilishni oladi, ular asosida plombaning haqiqiy holati aniqlanadi va yuzaga kelgan shubhalar mohiyatiga aniqlik kiritiladi. Bu bosqich quyidagi savollarga javob berish imkonini beradi:

— tekshirilayotgan plomba dastlab plombalanganidan keyin buzilganmi va mavjud shikastlanishlarning tarkibi qanday;

— plomba qanday usul bilan qasddan buzilgan va qaytadan mahkamlangan.

Tekshiruv jarayonida plomba butunligining umumiy parametrlaridan kelib chiqib, shikastlanmagan namuna mavjud bo'lganda — qiyosiy tahlil metodi bilan uning tabiiy holatidan barcha ehtimoliy og'ishlar hisobga olinadi.

Shikastlanmagan plomba (58-rasm) plombirning aniq relyefli izlari ko'rinib turgan bir tekis kontakli yuzaga va yaxlit korpusga ega. Plomba bog'ichning kanop ipiga qattiq mahkamlangan. Plombadan chiqib turgan kanop ipning uchlari nisbatan tekis va uncha titilib ketmagan.

Tekshiruv davomida, avvalo, plomba kontakt yuzasining holatiga ahamiyat beriladi. Plombaning kontakt yuzasida uning ehtimoliy buzilganligi faktini ko'rsatuvchi bir qator o'ziga xos belgilarni aniqlash mumkin.



58-rasm. Shikastlanmagan plomba.

Bunda quyidagilar misol bo‘ladi:

1) agar plomba uning ikki uchi ochiq kanallarini yoki kamerasini qattiq buyum bilan kengaytirish yo‘li bilan bog‘ichdan olingan va yumshoq qistirma orqali qaytadan siqish yo‘li bilan mahkamlangan bo‘lsa, bunday xatti-harakatga xos bo‘lgan belgilar quyidagilar hisoblanadi:

— plombaning yuzasida katta bo‘lmagan bo‘rtiqlar yoki o‘yiqlar ko‘rinishidagi hosil bo‘lgan deformatsiyalar;

— plombadan chiqib turgan kaltalashtirilgan va bog‘ich kanop ipining ko‘zga ko‘rinadigan titilgan uchlari (59-rasm);

— plombaning kontakt yuzasidagi yumshoq qistirma strukturasining relyefli izi (60-rasm);



59-rasm. Bog‘ich kanop ipining uchlari titilgan qayta siqish belgilariga ega plomba.



60-rasm. Yumshoq qistirmani qo‘llagan holda qayta siqish belgilariga ega plomba.

— muhrlash materiali bo‘ylab cheklangan siljishi (chay-qalib turishi) bilan tavsiflanuvchi plombaning bo‘sh mahkamlanganligi;

— kiruvchi va chiquvchi teshiklarning kengaytirilgan va voronkasimon shakldagi chetlari. Bunda ular atrofida ushbu plombani qayta siqish va shaklini tekislash uchun foydalanilgan asbobdan qolgan qirilgan joylar, qirindilar yoki shu asbobning izini ko‘rish mumkin (61-rasm);

2) bo‘sh siqilgan plomba tortilganda bog‘ich kanop ipi bo‘sh uchlarining metallashtirilganligi (plomba qo‘rg‘oshin zarralarining mavjudligi) va ular qattiq titilganligini kuzatish mumkin;

3) ba’zi hollarda buzilgan plomba yangi plombaga almashtiriladi, yangi plombaning mansubligini maskirovka qilish uchun plombirning relyefli izi kesib olinadi yoki qoqib kirgiziladi;

4) plombaning yon tomonlaridan birini jonlamasiga kesish yo‘li bilan bog‘ich kanop ipining uchini olganda o‘ziga xos kesilgan joy qoladi;

5) buzilishning barcha sanab o‘tilgan hollarida plomba oldidagi bog‘ichda ikkitali tugun bo‘lmasligi mumkin.

Ko‘rsatilgan belgilarning har biri alohida berkitish texnologiyasining qoidalariga rioya qilmaslik natijasi yoki



61-rasm. Begona asbob yordamida qayta siqish belgilariga ega plomba.

tashishda tasodifan yuzaga kelishi mumkin. Plomba oldidagi bog'ichda tugunning bo'lmasligini buzilish belgisi deb hisoblab bo'lmaydi: bu tugun plombaning qayta mahkamlanishi natijasida emas, balki beparvolik tufayli bog'lanmagan bo'lishi mumkin. Kameralarda kanop ipning bimalol siljib yurishi ba'zida plombir zagotovkasining bo'sh siqilganligi natijasida yuzaga kelishi mumkin, plomba yuzasidagi relyefli belgilanishlarning shikastlanganligi va ayrim o'yiqlar — tashishda plombaga qattiq buyumlarning tasodifan ta'sir ko'rsatganligi yoki plombir o'zining nuqsoni bo'lishi mumkin.

Shu sababli tekshirilayotgan plombaning haqiqiy holati to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun ikkinchi bosqich — plomba ichki yuzasini baholash va tahlil qilish bosqichi o'tkaziladi.


Plombaning butunligi tekshirilganda uning ko'zga ko'rinmaydigan ichki yuzasining holatini o'rganish natijalari katta ahamiyatga ega bo'ladi. Plomba ichida, ikki uchi ochiq teshiklar va kamera devorlarida, odatda, eng ishonchli hisoblangan va ularning tasodifan kelib chiqishini istisno etadigan belgilarning asosiy guruhi mujassamlashgan.

Tekshirilayotgan plomba kontakt yuzalarga parallel ravishda ingichka kesuvchi asbob yordamida kesiladi (arralanadi) va lupa yoki mikroskopdan foydalanib o'rganiladi.


Shikastlanmagan plomba bir qator farqlovchi xususiyatlarga ega:

- plomba ichida kanop ipga osilgan zagotovka siqilganda kamera va kanallarning devorlarida kanop ip tolalari strukturasi va holatining o'ziga xos relyefli izi hosil bo'ladi;

- shikastlanmagan plomba devorlarida hosil bo'lgan kanop ipning relyefli izi aniq va o'z konfiguratsiyasi bo'yicha uning o'ralishiga va kameradagi holatiga (tugunli, kesishgan, to'g'ri) mos keladi. Kanop ip plombaga zich yopishgan va undan olinganda kanallar yuzasida iplardan qolgan presslangan (yopishib qolgan) tolalarni qoldiradi.



62-rasm. Shikastlanmagan plomba (kesimida).



63-rasm. Plomba ichidagi bog'ichning kanop ipi kesilgan shikastlangan plomba.


Agar tekshiruv davomida plomba ichidagi bog'ichning kanop ipi kesilgan bo'lsa, bu plomba buzilganligining shak-shubhasiz isboti bo'lib hisoblanadi (63-rasm).

Tekshirilayotgan plomba qasddan buzilganligi faktini ko'rsatuvchi belgilarga quyidagilar kiradi:

- plomba kanallari va kameralarining devorlarida ularni kengaytirilgan qattiq buyumlardan qolgan izlarning mavjudligi. Turli shakl va kattalikdagi chuqurchalar, qirindilar, qirilgan joylar izlari bo'lishi mumkin (64-rasm);

- dastlabki kesishgan yoki tugunli ulangan joy izlari mavjud bo'lganda plomba ichidagi kanop ipning parallel joylashuvi (65-rasm);

- to'qilgan iplardan yopishib qolgan tolalar qoldirmasdan plomba kanallarining yuzasidan osonlik bilan ko'chishi.



64-rasm. Qattiq buyumlardan qolgan qasddan buzilish izlariga ega plombalar.



65-rasm. Ichida kanop ip noto'g'ri joylashgan qasddan buzilish izlariga ega plombalar.

Aniqlangan belgilar har tomonlama o'rganilgandan keyin plombaning haqiqiy holati to'g'risida yakuniy xulosa chiqariladi, shuningdek, uni buzish va keyingi tiklanishining ehtimoliy usuli aniqlanadi.

Surg'uchli izlarni ko'z bilan tekshirish va holatini baholash

Surg'uch smolali asosdagi moddalarning qattiq, mexanik qotishmali aralashmasidan iborat, bu aralashma qizdirilganda plastik massani hosil qilgan holda oson eriydi, qotganidan keyin esa tushirilgan yuzaga mahkam yopishadi.

Sug'urtali qoplar va pochta jo'natmalarining o'rovlari muhrlanganida surg'uchli massa ularni berkitish elementlari (bog'ich kanop ipi, o'rovlarning choklari va klapanlari)ni

mahkam ulaydi, muhrlarning relyefli belgilanishlarini yaxshi mahkamlaydi va uzoq vaqt saqlanadi.

Pochta jo'natmalarini berkitishning boshqa elementlari kabi surg'uchli izlar ko'p hollarda tekshirish obyektlari bo'ladi. Ko'pincha ular muhrlangan sug'urtali qoplardan pochta jo'natmalarini va posilkalar hamda banderollardan joylanmalarni o'g'irlash bilan bog'liq xizmatga oid tekshiruvlarda ashyoviy dalillar sifatida namoyon bo'ladilar, bunda surg'uchli izlar qasddan buziladi va ularning avvalgi holatini imitatsiya qilgan holda qayta tiklanadi.

Bunday buzilishlarning eng tarqalgan usullari quyidagilar:

— surg'uchli izning muhrlanadigan yuzadan ajratilishi va keyin uning yelim, mastika, qizdirib eritilgan surg'uchning qo'shimcha qatlami yordamida yoki uning quyi qismini qizdirish yo'li bilan avvalgi joyiga mahkamlanishi. Bunday usuldan, odatda, bog'ich kanop ipini yoki izning o'zini oldin foydalanilgan boshqa izga almashtirilgan hollarda foydalaniladi;

— izda mahkamlangan bog'ichning kanop ipini bo'shatish imkonini beradigan uning katta bo'lmagan uchastkasining buzilishi va keyin bu iz qismining qizdirib eritilgan surg'uchli massa bilan tiklanishi;

— buzilgan izning turli relyefli buyumlar (tangalar, nishonlar, jetonlar va sh.k.) bilan imitatsiya qilinishi yoki qalbaki muhrlar va nusxalar bilan tiklash.

Sug'urtali muhrlarning surg'uchli izlarini plombalarni kabi tekshirish bir nechta shartli bosqichlarda o'tkaziladi.

Birinchi bosqich — surg'uchli izning tashqi holatini tavsiflovchi belgilarni baholash va tahlil qilish. Pochtani qabul qilish, ochish va ishlov berishning barcha uchastkalarida o'tkaziladi hamda eng mas'uliyatli bosqich bo'lib hisoblanadi, sababi uning birlamchi natijalari asosida keyingi tekshirishga bo'lgan zarurat aniqlanadi.

Ikkinchi bosqich — muhrlash materialidan olinganidan keyin izning ko'zga ko'rinmaydigan quyi yuzasining holatini tavsiflovchi belgilarni baholash va tahlil qilish.

Uchinchi bosqich — surgʻuch tarkibini texnik oʻrganish va qiyosiy tahlil qilish. Koʻzdan kechirish va laboratoriya sharoitlarida texnik vositalardan foydalangan holda oʻtkaziladi.

Toʻrtinchi bosqich — yakuniy hisoblanadi va tekshirish natijalarini tahlil qilish hamda izning haqiqiy holati toʻgʻrisida tegishli xulosalarni tayyorlashni koʻzda tutadi:

— tekshirilayotgan izning haqiqiy muhrga yoki mavjud namunaga muvofiqligi aniqlanadi;

— iz muhrlanadigan yuzaga dastlab qoʻyilganidan keyin buzilgan yoki yoʻqligi, buzilgan boʻlsa, qaysi usul bilan buzilganligi toʻgʻrisida xulosa chiqariladi;

— tekshirilayotgan iz va mavjud namunaning surgʻuchi tarkibining oʻxshashligi yoki farqi aniqlanadi.

Surgʻuchli izlar tashqi qismining holatini tekshirish koʻzdan kechirish, zarur boʻlganda — lupa va ultrabinafsha nurlar manbayi («LYUMO» komplektidagi lampa)dan foydalanib tekshiriladi. Tekshirish davomida iz va uning yuzasining umumiy tashqi holati baholanadi, muhr relyefli izining mosligi va sifati, izning mustahkamligi va mahkamlash usuli hamda boshqa oʻziga xos xususiyatlari baholanadi.

Shikastlanmagan surgʻuchli iz bogʻich kanop ipining uchlari bir xil surgʻuchli massa bilan toʻliq qoplaydi, muhr izining aniq relyefi boʻlgan bir tekis kontakt yuzaga ega hamda muhrlanadigan yuzaga zich yopishib turadi (66-rasm).



66-rasm. Shikastlanmagan surgʻuchli iz.



67-rasm. Nusxa materialining zarralariga ega surg'uchli iz.

Tekshirilayotgan izni asl nusxaning namunasi bilan solishtirib ehtimoliy qalbakilashtirilganligini aniqlash mumkin. Buning uchun:

- ularning tashqi konturlari, muhr izi belgilarining mosligi va o'lchamlari solishtiriladi;
- ko'zga ko'rinadigan va ultrabinafsha nurlarida surg'uchning strukturasi, rangi va uning luminessensiyasining jadalligi solishtiriladi;
- tekshirilayotgan iz yuzasida nusxa materialining ehtimoliy zarralari mavjudligi aniqlanadi (67-rasm).

Uning dastlabki holatining buzilganligi to'g'risida dalolat qiluvchi belgilarga quyidagilar kiradi:

- iz tagidan chiqib turgan yelim yoki qo'shimcha ravishda qo'yilgan surg'uch qatlami ushbu materiallar yordamida uning qaytadan mahkamlanganligi faktini ko'rsatadi (68-rasm);



68-rasm. Iz tagidan chiqib turgan yelim izlariga ega surg'uchli iz.




69-rasm. Qo‘shimcha qo‘yilgan surg‘uchga ega surg‘uchli iz.

— yuzaning bo‘rtib chiqqanligi, muhr relyefining yoyilib ketganligi, shuningdek, izning ezilgan chetlari quyi qismini qizdirish yo‘li bilan qaytadan mahkamlanganligi to‘g‘risida dalolat qilishi mumkin;

— mahkamlangan bog‘ich ustidagi qo‘shimcha qo‘yilgan surg‘uch uchastkasining mavjudligi bu uchastkadagi iz bog‘ich kanop ipini bo‘shatish uchun qisman buzilganligi va yana qayta tiklanganligi to‘g‘risidagi xulosaga kelish uchun asos beradi (69-rasm);

— izning yon qismidan chiqib turgan kesilgan kanop ipning uchlari ushbu izdan takroran foydalanilayotganligi yoki bog‘ich kanop ipining almashtirilganligini ko‘rsatadi (70-rasm);

— izga mahkamlangan bog‘ich kanop ipining yo‘nalishiga mos keladigan ushbu izdagi o‘ziga xos siniq, bu siniq kanop



70-rasm. Kesilgan kanop ip uchlari bo‘lgan surg‘uchli iz.




71-rasm. O‘ziga xos siniqqa ega surg‘uchli iz.

ipni ko‘zga ko‘rinmaydigan tomondan bo‘shatish uchun qasddan qilingan (71-rasm).


Surg‘uch izining ko‘zga ko‘rinmaydigan quyi qismini tekshirish qo‘shimcha ma‘lumotlarni olish maqsadida o‘tkaziladi, bu ma‘lumotlar surg‘uchning butunligi buzilgan yoki yo‘qligi to‘g‘risida yakuniy xulosaga kelish imkonini beradi. Bunday ma‘lumotlar eng ishonchli va tasodifiy kelib chiqishga ega emas.

Tekshirilayotgan iz muhrlanadigan yuzadan olinadi (kesib olinadi) va o‘rganiladi. Ushbu operatsiyani o‘tkazishda izning qisman buzilishiga yo‘l qo‘yiladi, bu o‘rganish natijasiga ta’sir ko‘rsatmaydi.

Shikastlanmagan izning quyi (orqa) qismi bog‘ichning yaxlit kanop ipi uchlari zich eritib yopishtirilgan bir xildagi surg‘uchli massaga ega (72-rasm).



72-rasm. Bog‘ich yaxlit kanop ipining eritib yopishtirilgan uchlariga ega shikastlanmagan surg‘uchli izning quyi qismi.




73-rasm. Iz ostidagi bog'ichning kanop ipi kesilgan surg'uchli iz.

Izning dastlabki holatini qasddan buzishning yaqqol dalili bo'lib quyidagi belgilar hisoblanadi:

— iz ostidagi bog'ich kanop ipining kesilganligi (73-rasm);

— bog'ich kanop ipining uchlari va izning muhrlanadigan yuzaga yelim yoki qo'shimcha surg'uch qatlami bilan mahkamlanganligi (74-rasm).

Surg'uchli izlarni tekshirish jarayonida ba'zida surg'uch namunalarini solishtirish zarurati yuzaga keladi. Bunday qiyoslash rangi, konsistensiyasi, yuzaning ko'rinishi, rangi,



74-rasm. Muhrlanadigan yuzaga yelim va qo'shimcha surg'uch qatlami bilan mahkamlash belgilariga ega surg'uchli izlar.

ultrabinafsha va ko'k nurlarda fluoressensiyasi, qattiqligi va h.k.ning qiyosiy tahliliga asoslangan oddiy fizik metodlar yordamida amalga oshiriladi.

Surg'uch namunalarini oddiy yorug'likda solishtirish rangi bo'yicha, ultrabinafsha nurlarida («LYUMO» komplektidagi fonar) — luminessensiyaning rangi va yorug'ligi bo'yicha, lupa ostida yangi siniq yon qirrasini tekshirganda uning strukturasi solishtiriladi.

Laboratoriya sharoitlarida qiyosiy tahlil tarkibini kimyoviy tekshirish, shuningdek, ingichka qatlamli xromatografiya va ayrim komponentlarini qog'ozdagi luminessent tahlil qilish metodi yordamida o'tkaziladi.

Pochta qoplari va pochta jo'natmalaridagi bog'ich sifatini aniqlash

Pochta qoplari va ayrim toifadagi pochta jo'natmalarini berkitishning muhim elementi bo'lib ularning bog'ichi hisoblanadi. Pochta aloqasida bog'ich sifatida kanop ip yoki tabiiy yoxud sintetik tolalardan tayyorlangan qalin ipdan foydalaniladi. Bog'ichning kanop ipi berkitish obyekti ustidan tarang tortiladi va muhrlanadi (plombalanadi). Bunda to'g'ri qo'yilgan bog'ich o'zining dastlabki holatiga nisbatan siljimasligi kerak.

Sug'urtali qoplardagi joylanmalar va pochta jo'natmalarini o'g'irlash holatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, ularning katta qismi ulardagi mavjud bog'ich holatining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan ekan.


Tarang tortilganda qop og'zi bog'ichi yoki quti, yashik, qog'ozli o'rov va h.k. tashqi o'rovining kanop ipi kesiladi, keyin kesilgan joyi tugun, yelim yoki uning tolalarini to'qish yo'li bilan mahkamlanadi.

Bog'langan joy bo'shashganda, bog'ich qop og'zidan yoki pochta jo'natmasining boshqa o'rovidan osongina yechib olinadi, keyin yana qaytadan joyiga qo'yiladi. Bunda berkitish elementlari buzilmaydi.

Berkitilgan sug'urtali qoplar va pochta jo'natmalarini ochish o'ziga xos belgilar bilan kuzatiladi, bu belgilar



75-rasm. Sugʻurtali qop bogʻichini kesish orqali buzish va kanop ipini bir marta aylantirib tugun qilib ulash.



76-rasm. Kesishgan joyida keyingi maskirovka qilgan holda posilka bogʻichining buzilishi.

qop yoki joʻnatma ochilganligini bevosita yoki bilvosita koʻrsatadi:


1) bogʻichning kesilgan kanop ipi tugun qilib mahkamlanadi. Bunda qopning bogʻichi, odatda, bu qop ogʻzi atrofida bir marta aylantiriladi (75-rasm).

Pochta joʻnatmasining bogʻichidagi tugun kesishgan joyida maskirovka qilinadi (76-rasm);

2) bogʻich kanop ipining kesilgan qismlari mustahkam yelim bilan ulanganda, ulangan joyni rangi va yuzasining oʻziga xos qattiqligi boʻyicha aniqlash mumkin (77-rasm);



77-rasm. Sugʻurtali qopning buzilganligi va keyin yelim bilan ulanganligi belgilariga ega bogʻichi.




78-rasm. Bogʻich kanop ipidagi buzilgan va keyin kesilgan joy uchastkasi toʻqilgan belgilariga ega sugʻurtali qopning bogʻichi.


3) bogʻich kanop ipidagi kesilgan joyning oʻralgan uchi (78-rasm), odatda, oʻramdagi iplar yoki tolalarning qalinroq va yumshoqroq koʻrinishiga, shuningdek, ulangan joyda mustahkamlik uchun qoʻshib oʻralgan qoʻshimcha ipga ega.

Boʻsh bogʻich oʻzining dastlabki holatiga nisbatan butunlay yoki ayrim qismlari ancha bemalol koʻchib yurishi bilan tavsiflanadi:


- qop ogʻzida (79-rasm);
 - fanera qutida (80-rasm);
 - pochta joʻnatmasining tashqi oʻrovida (81-rasm).
- Posilkali joʻnatmaning fanerali qutisidagi boʻsh bogʻich



79-rasm. Sugʻurtali qopning oʻzining dastlabki holatiga nisbatan bemalol koʻchib yuradigan bogʻichi.



80-rasm. Posilkaning fanerali qutisidagi boʻsh bogʻich.



81-rasm. Qiymati eʻlon qilingan banderoldagi boʻsh bogʻich.



82-rasm. Bo'sh bog'ich tufayli posilka fanerali qutisi qopqog'ining siljish namunasi.

uni to'liq yechib olish yoki qopqog'ini qisman siljitishni osonlashtiradi (82-rasm), bu joylanmani olish imkonini beradi.


Pochta qoplaridagi bo'sh bog'ich uni qop og'zi bo'ylab siljitishni amalga oshirish imkonini beradi, xususan:

— qopning kesilgan joyidan yuqoriga ko'tarish (84-rasm), keyin yana avvalgi holatiga qaytarish;

— bog'ichni yuqoriga qop chetiga ko'chirish, undan joylanmani to'liq olish kattaligigacha qop og'zining qismini tortib olish, keyin teskari tartibda uning avvalgi holatini tiklash.



83-rasm. Qop og'zidagi o'rovi kesilgan sug'urtali qop.



84-rasm. Mahkamlash tugunidan siljigan surg'uchli iz va plombaning namunalari.

Ayrim hollarda qoplarni berkitishning ba'zi xususiyatlari ularning joylanmasini olishga yordam berishi mumkin, xususan, bog'ich kanop ipining uchlari uni mahkamlash tugunidan 15 mm dan ko'p masofaga siljigan holda muhrlanganda yoki plombalanganda (83-rasm).

Bunday hollarda bog'ichni mahkamlash tugunini berkitish elementlarini buzmasdan uning avvalgi holatini keyin tiklagan holda iz yoki plomba tomon siljitish hisobiga mavjud bog'ichni bo'shashtirish potensial imkoniyati yuzaga keladi.

Shikastlanmagan berkitishda sug'urtali qoplar va pochta jo'natmalari bo'sh bog'ichining sanab o'tilgan belgilari ko'rinib turadi va qo'shimcha tekshiruvlarni talab qilmaydi. Ayni paytda, ashyoviy dalil sifatida berkitish obyektidan yechib olingan bog'ich mavjud bo'lganda nazorat qilish maqsadida bog'lash yo'li bilan uning to'g'ri qo'yilganligining nazorat tekshiruvini o'tkazish mumkin.

Bunday tekshiruv jarayonida ochilgan qop (pochta jo'natmasi) yoki uning analogining nazorat bog'ichi bog'lanadi, shundan keyin bog'ich kesib olinadi va tekshirilayotgan bog'ich bilan solishtiriladi.

Tekshirilayotgan bog'ich kanop ipining uzunligi nazorat maqsadidagi bog'ichning uzunligidan ikki marta aylantirilganda

30 mm dan ko'pga oshsa, bunday bog'ich bo'sh hisoblanadi.

Bo'sh bog'ich va uni berkitish elementlari batafsil tekshirilganda ushbu bog'ich o'zining dastlabki holatiga nisbatan siljiganligini ko'rsatuvchi bir qator belgilarni aniqlash mumkin. Bu haqda, xususan, quyidagilar dalolat beradi:

— bog'ich kanop ipining manzil yorlig'i uzilganligining mavjudligi;

— yorliq yuzasi va bog'ich kanop ipidagi suv dog'lari, quruq sovun yoki mumning izlari;

— bog'ich kanop ipi va manzil yorlig'ida qop matosi bo'yog'i izlarining mavjudligi;

— qop og'zidagi bog'ichni siljitish vaqtida siqilganda hosil bo'lgan ochiq ko'rinib turgan ko'ndalang burmalar.

Qopda vkladish (sim, arqon)li hoshiyalash belbog'i (tepasi qaytarilgan) bo'lganda qop og'zini tortishni yengillashtirish uchun undan vkladish olinadi, buning uchun qayrilgan joy choki so'kiladi.

Pochta qoplari va matoli o'rovdagi choklarni tekshirish

Pochta tarasi sifatida pishiq matodan tikilgan qoplar, ayrim toifadagi pochta jo'natmalarini o'rovlash uchun esa — qismlari mashina yoki qo'l chokida ulangan matoli o'rovdan keng foydalaniladi.

Pochta qoplariga joylangan pochtani va matoli o'rovga o'ralgan posilka jo'natmalaridagi joylanmalarni o'g'irlash uchun ularning ulovchi choklari buziladi. Bunda mavjud ichki yoki tashqi choklar kerakli uzunlikkacha so'kiladi, so'ngra holatini imitatsiya qilgan holda tashqi tomondan qaytadan tikiladi.

Bunday buzilishlar tashqi tomondan uncha ko'zga tashlanmaydi va pochta xodimlari tomonidan pochtaga ishlov berishning oxirgi bosqichida va adresat tomonidan pochta jo'natmasini olganidan keyin aniqlanadi.

Chokning dastlabki holatining har qanday buzilishida shubhasiz buni bevosita yoki bilvosita ko'rsatadigan alohida o'ziga xos belgilar qoladi. Belgilar chokning tashqi (old)

tomonida hamda ichki (teskari) tomonida bo'lishi mumkin.

Shu sababli chok holatini baholash tashqi (old) tomoni hamda ichki (teskari) tomonini navbatma-navbat maqsadli tekshirish yo'li bilan o'tkaziladi.

Sug'urtali qop yoki o'rovni tashqi (yuza) tomondan ko'zdan kechirayotganda chokning buzilgan va qaytadan ulangan uchastkasi quyidagi belgilarga ega bo'lishini hisobga olish zarur:

- chok butun uzunligi bo'yicha tortilgan va burmasi yangidan qayrilgan;

- chok burmalari uning dastlabki holatiga mos kelmaydi, buzilgan uchastka bo'ylab ifloslangan polosa shuni ko'rsatib turibdi;

- chok qatori bo'sh va bir tekis emas;

- chokda ularni mahkamlash iplarining uzilgan uchlari yoki qo'shimcha tugunlarining mavjudligi.

Chokning ichki (teskari) tomoni tekshirilganda uni qasd-dan buzilganligining qo'shimcha, eng ishonchli belgilarini aniqlash mumkin.

Bu belgilar quyidagilar:

- buzilgan uchastkada ip qoldiqlari va igna bilan teshilgan bo'sh joylarning mavjudligi;

- chokning buzilgan uchastkasi dastlabki chokdan o'zining bajarilganligi, shuningdek, iplarining rangi va navi bilan farqlanishi mumkin;

- matoning ulanadigan ichki qismlarining cheti va qayrilgan joyini chok ipi bilan qamrab olish fragmentlarining mavjudligi.

Tashqi va ichki tomonlarni tekshirish jarayonida aniqlangan belgilar solishtiriladi va tahlil qilish asosida ularning xarakteri va ushbu buzilish amalga oshirilgan usul aniqlanadi.

Masalan, qo'l chokining bir tekis bo'lmagan va tortilgan qatori, teskari tomondagi matoning cheti va qayrilgan joyining ip bilan qamrab olinishi, shuningdek, tashqi tomondan

tugunning joylashishi ushbu chok tashqi tomondan bajarilganligidan dalolat beradi.

Pochta jo‘natmasi matoli o‘rovining klapanini berkitish chokining buzilishi belgilari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

— tekshirilayotgan chokda surg‘uchning boshqa tarkibiga ega qo‘shimcha qo‘yilgan surg‘uchli izlarning mavjudligi (85-rasm);



85-rasm. Surg‘uchning boshqa tarkibiga ega qo‘shimcha qo‘yilgan surg‘uchli izlar belgilariga ega posilka matoli o‘rovining uchastkasi.

— qisman buzilgan surg‘uchli izlar tagida kesilgan joylar va chok ipini mahkamlash tugunlari mavjud.

Atrofi chatilgan mashina choklari qasddan buzilganda va keyin tiklanganda, davriy bosma nashrlar jo‘natiladigan qog‘oz (kraft) qoplarda atrofi chatilgan chok atayin so‘kiladi, to‘qish ilgagidan foydalanib qaytadan tiklanadi (86-rasm).


Ushbu buzilishni ikkita eng barqaror belgilar bo‘yicha aniqlash mumkin:

— tiklangan chok uchastkasidagi chatilgan joylar bir tekis emas va tarang tortilgan;


— tiklangan chok iplari ishqalangan (ifloslangan) ko‘rinishga ega.

Buzilgan choklarni tekshirish jarayonida, odatda, ularning iplarini asl nusxalarning namunalari bilan qiyosiy tahlil qilish zarurati yuzaga keladi. Iplarni solishtirish eng oʻziga xos belgilar boʻyicha oʻtkaziladi:

- oddiy yoritishda — rangi boʻyicha;
- ultrabinafsha nurlarida («LYUMO» komplektidagi fonar) — luminessensiyaning rangi va yorugʻligi boʻyicha;
- optik asboblardan (lupa, mikroskop)dan foydalanilganda — strukturasi (qalinligi, toʻqilish oʻramlarining miqdori, tolalarning tuzilishi) boʻyicha;



86-rasm. Qoʻlda keyin tiklangan atrofi chatilgan chok belgilariga ega qogʻoz paket.



87-rasm. Qogʻoz qoplar (paketlar)ni tikishda eng koʻp foydalaniladigan iplarning ayrim namunalari.

— ochiq alangalanganda namunalarning yonish (erish) qobiliyati bo'yicha — ip kesilgan joylarining eriganligi va kuyganligi bo'yicha ular tayyorlangan materialga bog'liq holda (87-rasm).

Aniqlangan belgilar har tomonlama tahlil qilinganidan keyin tekshirilayotgan chokning haqiqiy holati to'g'risida yakuniy xulosa chiqariladi, shuningdek, uni buzishning ehtimoliy usuli aniqlanadi.

6.4. Pochta to'lovining qalbaki belgilarini aniqlash

Pochta aloqasi faoliyatida fotonusxa olish texnikasi, chuqur va ofset bosish vositalari yordamida tayyorlangan pochta to'lovining davlat belgilari (markalar, markalangan konvertlar va pochta varaqchalari)dan foydalanish holatlari uchraydi.

Chiqarish va foydalanishning muayyan qoidalariga ega rasmiy mavjud prototipiga ega pochta to'lovining shunday belgilari soxta hisoblanadi. Shu sababli tegishli ruxsatsiz pochta to'lovining rasmiy belgilaridan har qanday nusxa olish yoki qayta aks ettirish qalbakilashtirish hisoblanadi.

Muomalada keng foydalaniladigan va qalbakiligini pochta xat-xabarlarining katta oqimida ajratish ancha mushkul bo'lgan standart chiqarilgan pochta markalari qalbakilashtirishning eng tarqalgan obyektlari bo'lib hisoblanadi.

Texnologik va tashqi belgilarni hisobga olgan holda qalbakilashtirilgan pochta markalarini quyidagi belgilar bo'yicha aniqlash mumkin:

- bosish (rasm tushirish) usuli;
- rasm bo'yoqlarining rangi va xususiyatlari;
- perforatsiya (tishlatish)ni tushirish usuli va parametrlari;
- markaning formati va iz rasmining muvofiqligi;
- qog'ozning navi.

Standart pochta markalarini tayyorlash uchun bosmaning ofset¹ usulidan, ayrim hollarda esa — yuqori usuldagi² bosmadan foydalaniladi. Bunday bosma usuli bo‘yoqning bir tekis tushirilishi va iz rasmi barcha elementlarining aniq aks ettirilganligi bilan tavsiflanadi.

Markalarning asl nusxalaridan farqli ravishda, ular, ayniqsa, fotonusxa olish texnikasi va printerlardan foydalanib qo‘lda bajarilganda, bo‘yoq notekis tushirilgan, iz rasmining murakkab konturlari noaniq, ortiqcha bo‘yoq bilan bo‘yalgan yoki rangli rastrli nuqtalardan iborat.

Pochta markalari tishlarining miqdori, o‘lchamlari va turi har bir seriya chiqarilayotganda qat’iy belgilab beriladi va Pochta markalari katalogida ko‘rsatiladi. Ularning parametrlari marka yuzasining 2 sm kengligi va balandligi bo‘yicha tishlar miqdorining nisbati bilan ifodalanadi.

Tishlar markalarga rasmi bosmaxona varag‘ining butun maydoni bo‘ylab teshiklarni tekis teshib tushiradigan («kesadigan») taroqsimon yoki ramkali perforatsiyaning liti bilan tushiriladi.

Perforatsiya taroqsimon usul bilan gorizontal va vertikal yo‘nalishlarda qatorma-qator ketma-ket tushiriladi, ramkali usulda — bir vaqtning o‘zida butun marka varag‘iga tushiriladi.

Markalar qo‘lda tayyorlanganda perforatsiya teshish metodi (igna yordamida «shtampovka qilish») bilan tushiriladi. Bunday perforatsiyaning qatorlari va teshiklari bir tekis emas, uning kengligi va balandligi bo‘yicha parametrlari bir xil (masalan, 12×12), kesishgan joylarida esa teshiklar bir-biriga mos kelmaydi.

¹ Bosishning ofset usuli — ofset bosma shakldagi bosishning boshqa usullaridan farqli ravishda barcha oraliq va bosuvchi elementlar bitta tekislikda joylashgan.

² Yuqori (chuqur) bosish usuli — bosma shakldagi oraliq va bosuvchi elementlar turli tekisliklarda joylashgan (bosuvchi elementlar oraliq elementlardan yuqoriroq joylashgan).

Tishlar to'g'ri tushirilganligini filatelistlar orasida keng tarqalgan maxsus o'lchash chizg'ichi — tish o'lchagich yordamida yoki tekshirilayotgan marka va uning asl nusxasining tishlarini solishtirish (ustma-ust qo'yish) orqali tekshirish mumkin.

Standart markalarni tayyorlash texnologiyasida faqat suvda erimaydigan bo'yoqlardan foydalaniladi va har bir seriya uchun Katalogda ko'rsatiladigan qat'iy yakka tartibdagi rang belgilanadi. Nusxa olish texnikasi va printerlar yordamida tayyorlangan soxta markalarning bo'yoqlari rangi va xususiyatlari (suvda erib ketishi, bir tekis tushirilganligi va tushirish usuli) bo'yicha asl nusxalardan ancha farq qiladi.

Standart markalarning farqlovchi belgilaridan biri bitta markaning adadi uchun qat'iy yakka tartibda bo'lgan ularning umumiy formati, rasmining o'lchami va identikligi hisoblanadi. Bunda rasm atrofidagi maydonlar bosish va tishlatishning texnologik xususiyatlariga ko'ra turli bosmaxona varaqlarida farqlanishi — rasm perforatsiya bilan cheklangan markazida bo'lmasligi mumkin.

Ayni vaqtda marka va rasm formatining o'lchamlaridagi har qanday o'zgarish (tasvirning kichrayishi, kattalashishi, buzilishi), shuningdek, ulardagi ayrim detallarning izohlab bo'lmaydigan yo'qligi yoki mavjudligi ushbu marka qalbaki ekanligi to'g'risida dalolat qilishi mumkin.

Standart pochta markalarini tayyorlash uchun ultrabinafsha nurlarida kam luminessensiyaga ega maxsus turdagi oqlangan yoki ofset qog'oz qo'llaniladi («LYUMO» komplektidagi fonardan foydalanish tavsiya etiladi). Markalarni qalbakilashtirish uchun ishlatiladigan qog'oz esa, odatda, nisbatan past sifatli va uni farqini paypaslab yoki ultrabinafsha nurlari ostida nisbatan jadal nurlanishi bo'yicha aniqlash mumkin. Bunda markalarni tayyorlash uchun foydalaniladigan oqlangan qog'oz ofset qog'ozdan farqli ravishda oddiy yorug'likda ko'rilganda nisbatan

yorqinroq fonga va ultrabinafsha nurlarida nisbatan yorqin luminessensiyaga ega.

Qalbakilashtirilgan markalarni shubhaga sabab bo'lgan namunalarni asl nusxalar bilan solishtirish yo'li orqali aniqlash mumkin.

Bu quyidagicha bajariladi:

- tekshirilayotgan markani turli yoritish burchaklari ostida tashqi ko'zdan kechirish orqali uning namunadan tashqi farqlari aniqlanadi: bo'yoqning rangi, rasmni tushirish usuli, qog'oz strukturasi, bosish nuqsonlari (kerakli yoki qo'shimcha rasm elementlarining mavjudligi), tishlatish turi;

- tishlar miqdorini o'lchash. Markadagi tishlarning muvofiqligini tish o'lchagich yordamida uning shkalalariga tekshirilayotgan marka tishlarini ular to'liq mos kelguncha ketma-ket qo'yish yo'li bilan tekshirish mumkin. Tish o'lchagich bo'lmaganda bunday solishtirishni tekshirilayotgan marka va namunaning tishlarini bevosita qo'yish (solishtirish) yo'li orqali o'tkazish mumkin;

- marka va tushirilgan rasm o'lchamlarini o'lchash. Marka va uning rasmining o'lchamlari solishtirilganda tegishli o'lchamlar olinadi va ayrim elementlar solishtiriladi;

- marka ultrabinafsha nurlarida ko'zdan kechiriladi. Tekshirilayotgan marka asl namuna bilan birga ultrabinafsha yoritgich («LYUMO» komplektidagi lampa) ostiga joylanadi, u yerda ular qog'ozi va bo'yog'i xususiyatlarining qiyosiy tahlili o'tkaziladi;

- bo'yoqning namlikka chidamliligini aniqlash. Bo'yoqning namlikka chidamliligini aniqlashda tekshirilayotgan marka rasmining elementiga kichikroq suv tomchisi tomiziladi. Agar markani tayyorlashda suvda eriydigan bo'yoqdan foydalanilgan bo'lsa, u holda suv tomchisi qog'ozga singib bo'yoq rangiga kiradi, bo'yoqning o'zi esa — yoyilib ketadi. Markaning yuzasida himoya qatlami bo'lganda — suv tomchi markaning yuzasida qoladi.

Pochta muomalasida qalbakilashtirilgan markalarni aniqlash faktlari bilan bir qatorda aynan bitta markalardan bir necha marotaba foydalanish hollari ham bo'lgan. Shu maqsadda foydalanilgan markalar fizik va kimyoviy vositalar yordamida hisobdan chiqarish izlaridan tozalanadi. Ba'zida ushbu jarayonni osonlashtirish uchun markalarning yuzasi qandaydir himoya qatlami (stearin, lak va sh.k.) bilan qoplanadi.

Qayta foydalanilganligi shubhasiga sabab bo'lgan markalar sinchiklab tekshirilganda ularning yuzasida ularga xos bo'lgan belgilarni aniqlash mumkin:

- rangi yo'qolgan;
- dog'lar va rasmning yoyilib ketgan ranglari;
- chetlari yoki yuzasidagi yirtiqlar;
- markaning orqa tomonidan yelimning yo'qligi yoki uning ortiqcha miqdori;
- qog'ozi qiyshaygan;
- ko'rinib turgan avvalgi hisobdan chiqarish belgilari;
- turli qiymatdagi markalar kombinatsiyasi;
- pochta jo'natmalariga yopishtirilgan hisobdan chiqarilmagan pochta markalarini imitatsiya qiluvchi, markalangan konvertlar yoki pochta varaqchalaridan qirqib olingan qalbakilashtirilgan markalar;
- avvalgi hisobdan chiqarish izlarini yoki markani olib tashlash oqibatida shikastlash belgilarini bartaraf etish maqsadida bir markaning boshqa markaning ustiga biroz qo'yilishi;
- qiyalab ko'rilganda yaltiraydigan marka yuzasidagi himoya qatlamining mavjudligi.

Avvalgi hisobdan chiqarish izlarini, shuningdek, texnik vositalar yordamida, masalan, infraqizil yoki ultrabinafsha nurlanish yordamida aniqlash mumkin.

Yozma xat-xabarlarni jo'natish uchun qalbakilashtirilgan markalangan konvertlar va pochta varaqchalaridan foydala-

niladi. Bunday konvertlar va pochta varaqchalari rangli va oq-qora nusxa olish texnikasi yordamida tayyorlanadi.

Konvertlar va pochta varaqchalariga frankirlash mashinalari qalbakilashtirilgan izlari va pochta to'lovining boshqa belgilari tushirilgan hollar ham bo'lgan.

Markalangan konvertlar va pochta varaqchalarining haqiqiyliги pochta markalarini o'rganishda tavsiya qilinganidek, ularning texnologik belgilarini analoglarning namunalarini qiyosiy tahlil qilish orqali aniqlanadi.

Pochta to'lovi belgilari (markalar, markalangan konvertlar va pochta varaqchalari) haqiqiyliğining rasmiy ekspertizasini faqat ularning tayyorlovchisi o'tkazishi mumkin.

6.5. Tekshiruv chora-tadbirlari

Pochta jo'natmalari (joylanmalari)ni o'g'irlash joylarini va ularga dahldor bo'lgan shaxslarni aniqlashning samarali vositasi bo'lib, texnik vositalar (sanoat televideniyesi va nazorat pochta jo'natmalariga tushiriladigan kimyoviy belgi qo'yuvchi moddalar)dan foydalanib o'tkaziladigan tekshiruv chora-tadbirlari hisoblanadi.

«LYUMO» komplektiga kiradigan kimyoviy belgi qo'yuvchi vosita eng foydalanish qulay bo'lgan vositadir. Nazorat pochta jo'natmasiga tushiriladigan bu vosita oddiy yorug'likda ko'zga ko'rinmaydi va uzun to'liqinli ultrabinafsha yorug'ligi («LYUMO» komplektidagi lampa) bilan yoritganda yorqin namoyon bo'ladi. Tushirilgan belgi har qanday yuzada mahkam o'rnashib turadi va uzoq vaqt (kamida bir yil) o'z xususiyatlarini yo'qotmaydi. Shu sababli qandaydir buyumning yuzasiga tegishli belgi tushirilganda keyinchalik uning dastlabki joylashgan joyini nazorat qilish mumkin.

Tekshiruv tadbirining maqsadi:

— jo'natilayotgan pochta jo'natmasi yoki sug'urtali qop (konteyner)ni ruxsatsiz ochish faktini aniqlash;

— ehtimoliy o'g'irlash joyini, shuningdek, huquqbuzarlikni sodir etgan muayyan shaxsni aniqlash.

Pochta jo'natmalari (joylanmalari)ni o'g'irlaganlikda gumon qilinayotgan muayyan shaxslar tekshirilganda, ular tekshiruv obyektiga katta qiziqishni namoyon qilgan holda tekshiruvni o'tkazayotgan aloqa xodimlari uchun kerak bo'lgan yo'nalishda harakat qilishlari uchun kerak bo'lgan sharoitlarni yaratish kerak. Tanlangan vaziyat pochtaga ishlov berish texnologik uchastkasi va tekshirilayotgan shaxs ishining kundalik faoliyatiga real va mantiqan mos kelishi kerak. Kerakli vaqt ajratib va tegishli joyni tanlagan holda tekshirilayotgan shaxsning pochta jo'natmasini olishi uchun sharoitlar va imkoniyat yaratish zarur.

Haqiqiylik tusini berish, shuningdek, tekshirilayotgan shaxsni chalg'itish uchun tadbirda bunga hech qanday aloqasi bo'lmagan va bu tadbirni o'tkazish maqsadi va vazifalarini bilmaydigan shaxslar ishtirok etishi mumkin.

Tekshiruv tadbirlarini o'tkazishda belgi qo'yuvchi vosita pochta qopi yoki pochta jo'natmasining keyinchalik ularning joylanmalarini ruxsatsiz olish faktini ishonchli tarzda aniqlash imkonini beradigan uchastkalariga tushiriladi. Shu bilan birga belgi qo'yuvchi vosita tushiriladigan yuza ultrabinafsha nurida tabiiy luminessensiya (nurlanish)ga ega bo'lmasligi kerak.

Belgilab qo'yilgan vazifalarga bog'liq holda belgi qo'yuvchi vositalar quyidagilarga tushiriladi:

- sug'urtali qoplar va posilkali jo'natmalarning bog'ichlari;
- konvertlar va posilkali jo'natmalar qog'ozli o'rovlarining yelim bilan yopishtirilgan klapanlari;
- qog'oz va sintetik o'rovlash tasmalari;
- posilkali jo'natmalar yumshoq o'rovlarining choklari;
- plombalar va sug'urtali muhrlarning surg'uchli izlari;
- pochta jo'natmalarining ayrim buyumlari.

Tekshiruv tadbirlarini o'tkazishda nazorat pochta jo'natmalariga «LYUMO» vositasi bilan belgi qo'yishning quyidagi usullari qo'llaniladi:


1) sug'urtali qoplar va posilkali jo'natmalar bog'ichiga belgi qo'yilishi ushbu bog'ichning kanop ipi almashtirilganda yoki joyidan siljirilganda ularning joylanmalarini ruxsatsiz olish fakti (tushirilgan belgilarning mos kelmasligi yoki yo'qligi)ni aniqlash imkonini beradi.

Belgilar obyektning bog'ichiga va yuzasiga qat'iy bir-birining qarama-qarshisiga tushiriladi, bunda tushirilgan belgilar sifati ultrabinafsha fonari yordamida nazorat qilinadi.

Belgilarni bir nechta joylarga qo'yish mumkin;

2) yelim bilan mahkamlangan konvertlar klapanlari va posilkali jo'natmalarining qog'oz o'rovlariga belgi qo'yish ularning ruxsatsiz ochilganligi faktini ishonchli tarzda aniqlash imkonini beradi.

Belgi qo'yuvchi modda klapan chetiga va o'rov (konvert)ning yuzasiga bitta uzluksiz shtrix bilan tushiriladi (88-rasm);



88-rasm. Buzilish belgilariga ega klapanlarga belgi qo'yish izlariga ega pochta konverti.

3) pochta jo‘natmalarining klapanlarini ulovchi qog‘oz va sintetik o‘rovlash tasmalariga belgi qo‘yish.

Belgi qo‘yuvchi modda tasma va o‘rovlash materialiga uzluksiz chiziq bilan tushiriladi (89-rasm);


4) sug‘urtali qoplarning choklariga va posilkali jo‘natmalarining matoli o‘rovlariga belgi qo‘yish ularning buzilganlik faktini aniqlash imkonini beradi.

Belgi qo‘yuvchi modda mavjud chokning butun uzunligi bo‘yicha tushiriladi (90-rasm);

5) plombalar va sug‘urtali muhrlarning surg‘uchli izlariga belgi qo‘yish ular almashtirilganligi faktini aniqlash imkonini beradi.



89-rasm. Belgi qo‘yuvchi vosita mavjudligiga ega banderol o‘rovining uchastkasi.



90-rasm. Choklarida belgi qo‘yuvchi vositaning mavjudligiga ega matoli o‘rovdagi posilka o‘rovining uchastkasi.

Belgi qo'yuvchi modda plomba yoki surg'uchli izning kontakt yuzasiga tushiriladi. Belgi qo'yuvchi modda shartli simvol ko'rinishida tushiriladi. Bu operatsiyani konteyner plombalanguncha o'tkazish mumkin, keyin bu plombalarni aloqa xodimiga berish yoki tegishli belgilarni plombalangan konteynerlarga tushirish kerak;

6) nazorat pochta jo'natmalarida jo'natiladigan joylanmalarga belgi qo'yish, bu ushbu joylanmalarni ruxsatsiz ochish faktini aniqlash imkonini beradi.

Agar xizmatga oid tekshiruv davomida shubha qilinayotgan talon-taroj qiluvchi shaxsda nazorat pochta jo'natmasidagi belgi qo'yilgan buyumlar topilsa, bu shaxsning sodir etilgan huquqbuzarlikda ishtirok etganligining rad qilib bo'lmaydigan dalili bo'lib xizmat qiladi.

Belgi qo'yuvchi modda shartli simvol ko'rinishida jo'natilayotgan joylanmaning istalgan joyiga tushiriladi. Nazorat pochta jo'natmasidagi belgilarni o'rganish tekshiruv tadbiri o'tkazilishining eng asosiy daqiqasi bo'lib hisoblanadi.

Belgilarni o'rganish, odatda, qorong'ilashtirilgan xonada ultrabinafsha lampasidan foydalanib o'tkaziladi. Bunda belgilar tushirilgan zona va ularning holati sinchiklab o'rganiladi. Agar belgilar joyidan siljigan bo'lsa va mos kelmasa, nazorat pochta jo'natmasi ruxsatsiz ochilganligi belgilarining mavjudligi to'g'risidagi xulosaga kelish mumkin.

Nazorat pochta jo'natmasidagi belgilarni o'rganish natijalari bo'yicha tekshirilayotgan shaxsga nisbatan yuzaga kelgan shubhalarining mohiyatiga aniqlik kiritish imkonini beradigan tegishli xulosa chiqariladi.

6.6. Pochta jo'natmalarini yo'qolish va o'g'irlash faktlari bo'yicha xizmatga oid tekshiruvlarni o'tkazish

Pochta jo'natmalaridagi joylanmalar qismini o'g'irlash, yo'qolish, kamomadi faktlari tekshirilganda quyidagilar aniqlanadi:

— o‘g‘irlik, yo‘qolish, kamomad aniqlangan joy, vaqti va vaziyatlari hamda bu haqda tergov organlariga xabar qilingan yoki yo‘qligi; bu faktni aniqlagan shaxslarning familiyalari va lavozimlari;

— yo‘q bo‘lgan va qaysi hujjatlar bilan pochta jo‘natmasi birga kelgan pochtni kim, qachon, qaysi vaqtda va qayerdan yetkazganligi;

— ushbu pochta jo‘natmasini qabul qilgan aloqa korxonasi xodimlarining familiyalari va lavozimlari;

— pochtni kuzatib kelgan aloqa xodimlarining familiyalari va lavozimlari;

— pochta qabul qilinayotganda u ko‘zdan kechirilganmi, hujjatlar birga kelgan pochta jo‘natmalarini nomma-nom tekshirish, pochтамtlar, aloqa bo‘limlarida — posilkalar, qimmatli xatlar va banderollar og‘irligini o‘lchash; hujjatlarda pochta qabul qilgan shaxslarning tekshiruv to‘g‘risidagi qaydlarining mavjudligi;

— pochta jo‘natmasining kamomadi to‘g‘risidagi dalolat-nomaning o‘z vaqtida tuzilganligi; pochta jo‘natmasining almashinuvida va kamomad fakti aniqlangan vaqtda dalolat-nomani imzolagan xodimlar;

— pochta bilan yo‘qotilgan pochta jo‘natmasining yetkazib berilganligi fakti;

— pochtaning o‘z vaqtida qabul qilinmaganligi sabablari, agar shunday bo‘lgan bo‘lsa, shuningdek, pochta qabul qilinguncha uni saqlash joyi va usuli;

— pochtni qabul qilish vaqtida xonada begona shaxslar yoki xodimlarning bo‘lish fakti va ularning shu yerda bo‘lish sabablari;

— kelib tushgan pochta unga ishlov berilguncha qayerda saqlangan va olingan pochta jo‘natmalarining saqlanishini ta’minlash uchun kerakli sharoitlar mavjudmi;

— pochta jo‘natmalarini ishlov berishning bir qavatidan boshqa qavatiga, bir smena (brigada)dan boshqa smena (brigada)ga topshirish tartibi;

— pochtaga ishlov berish bajariladigan xizmat xonalaridan pochta jo‘natmalarini qarshiliksiz olib chiqish imkoniyatining yo‘qligi;

— pochtni qabul qilish va unga ishlov berishga dahldor shaxslarni ishga qabul qilishda belgilangan talablar va rasmiylashtirish qoidalariga rioya qilish;

— hujjatlar bo‘yicha pochta jo‘natmalarining kirimi va chiqimining balansini amalga oshirish;

— pochta almashinuvi va unga ishlov berishni bajargan aloqa xodimlarining oldiga begona shaxslarning kelishi va bu xodimlarning ularga qandaydir buyumlarni berib yuborishlari fakti;

— aloqa korxonasida qo‘riqlash xizmati, ishlab chiqarish xonalariga kirish nazoratining mavjudligi. Ishlab chiqarish va qo‘riqlash videokuzatuv tizimining texnik holati.

Tekshiruv o‘tkazilganda yetishmaydigan pochta jo‘natmalarining o‘rovlarini aniqlash maqsadida xonalar, podvallar, cherdaklar, platformalar ostidagi joylar va h.k. sinchiklab ko‘zdan kechiriladi, shuningdek, videokuzatuv tizimining arxiv videomateriallari ko‘rib chiqiladi.

Pochta jo‘natmalaridagi joylanma qismining kamomadi holatlari tekshirilganda quyidagilar aniqlanadi:

— joylanma qismining kamomadi aniqlangan joy, vaqt va vaziyatlar, kamomadni aniqlagan mansabdor shaxslarning familiyalari;

— pochta jo‘natmasi pochta vagonidan yoki yo‘nalishda joylashgan pochta aloqasi tashkilotidan kelgan vaqt, pochta jo‘natmasini kuzatib borgan mansabdor shaxslarning familiyalari;

— kuzatuvchi shaxsdan kelgan pochtni qabul qilgan shaxslarning familiyalari va lavozimlari, pochtni qabul qilishning belgilangan tartibiga rioya qilish;

— pochta aloqasi tashkilotiga kelganda kuzatuvchilardan pochtni o‘z vaqtida qabul qilish (tungi vaqtda pochtni qabul

qilishga alohida e'tibor qaratish kerak); kelgan pochta topshirilgunga qadar joylashgan joyi va vaqti hamda unga tekkan mansabdor shaxslarning familiyalari;

— pochta jo'natmasining tashqi holati uchun 51-shakldagi dalolatnomaning o'z vaqtida tuzilganligi, bu dalolatnoma tuzilayotganda Pochta qoidalariga rioya qilish;

— pochta jo'natmasi ochilganligi uchun dalolatnomaning mavjudligi, jo'natilayotgan joylanmadagi har bir buyumni unda sanab ko'rsatish (tashqi holati, o'lchami, og'irligi), shuningdek, tara (o'rovi)ning og'irligini ko'rsatish;

— pochta jo'natmasi pochta aloqasi tashkilotiga qanday holatda kelib tushgan bo'lsa, ashyoviy dalillar sifatida pochta jo'natmasining tarasi (o'rovi), plombasi, muhri, bog'ichining huddi shu holatda saqlanishi.

Tekshiruv davomida ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish, pochta jo'natmasi o'rovining nuqsoni borligi hisobiga joylanmani olish imkoniyatlarini aniqlash, pochta jo'natmasi (buyumi)ning bog'ichi, muhri, qopqog'i, yumshoq o'rovining tegishlilikini aniqlash zarur.

Ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish natijalari foto-, videomateriallarni ilova qilgan holda dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Pochta vagonlaridan pochta jo'natmalarining yo'qolishi holatlarini tekshirganda qo'shimcha ravishda quyidagilarni aniqlash zarur:

— pochta qaysi korxonadan, qanday hujjatlar bilan va kim tomonidan qabul qilingan;

— pochta jo'natmasini qabul qilgan, shuningdek, pochta-ning mavjudligini tekshiradigan sayyor brigada a'zolarining familiyalari va lavozimlari;

— pochta jo'natmasi, javon, omborxona kalitlari saqlanadigan joy, harakatlanish yo'li davomida kalitlar qulflar og'zida qoldirilmaganmi;

— vagonning harakatlanish yo‘li davomida va pochta almashinuvida begona shaxslarning yo‘qligi;

— bekatlar va vagonning turib qolish punktlarida sayyor brigada barcha a‘zolarining pochta vagonidan ketish faktining yo‘qligi;

— pochta vagonini qo‘riqlash tartibi va harakatlanish yo‘lida pochta saqlanishining ta‘minlanganligi;

— pochta jo‘natmalari o‘tishining qasddan kechiktirishi — olib o‘tilishi faktlari bo‘lganmi (ularning tegishli almashinuv punktlariga o‘z vaqtida topshirilganligini hujjatlar bo‘yicha tekshirish);

— yozib qo‘ymasdan pochta jo‘natmasini topshirish faktining yo‘qligi;

— topshirilgan pochta uchun tilxatlarning mavjudligiga alohida e‘tibor qaratib, yo‘l hujjatlarining to‘g‘ri yuritilishi va qabul qilingan hamda topshirilgan pochta jo‘natmalarining sutkalik (yo‘nalish) balansining mos kelishi;

— vagon xonasining sinchiklab tekshirilishi. Yo‘l varag‘ida pochta vagoni tekshirilganligi to‘g‘risidagi belgining mavjudligi;

— pochta jo‘natmalarini o‘g‘irlash belgilariga alohida e‘tibor qaratgan holda, pochtaning miqdori va holati;

— pochtaning hisobga olish hujjatlariga muvofiqligi.

Aeroportlardagi pochtani tashish va almashish punktlarida aviajo‘natmalar yoki ulardagi joylanma qismining kamomadi faktlari tekshirilganda qo‘shimcha ravishda quyidagilarni aniqlash zarur:

— samolyotga yuklash uchun pochtani qabul qilgan yoki xalqaro aeroportdagi pochta almashinuv punktiga pochtani yetkazib bergan aeroport xodimlarining familiyalari va lavozimlari;

— kuzatuv hujjatlariga muvofiq havo kemasi bortiga (bortidan) ortilgan (tushirilgan) pochta jo‘natmalari va buyumlarining miqdori;

— pochta aeroflot xodimlariga topshirish vaqti, samolyotning haqiqiy uchib ketish vaqti va samolyotning haqiqiy qo‘nish hamda pochta aloqa korxonasiga yetkazib berilgan vaqti, ya’ni pochta aeroport xodimlari ixtiyorida bo‘lgan vaqt;

— idoralararo dalolatnomaning o‘z vaqtida tuzilishi va bu dalolatnoma tuzilganda Pochta qoidalariga rioya qilish;

— pochta jo‘natmasining yo‘qotilganligi yoki joylanmasidagi buyumlarning o‘g‘irlanganligi uchun aviakorxonaga da’volarning o‘z vaqtida taqdim etilishi;

— samolyot ekipajining tarkibi, bort raqami, pochta bilan birga jo‘natilgan yoki kelgan aviakompaniya vakilining familiyasi. Fuqarolik aviatsiyasi xodimlari tomonidan suiiste’mol qilinganlikdan dalolat qiluvchi asoslar bo‘lganda, bu haqda darhol havo-transport korxonasiga xabar qilinadi va xizmatga oid tekshiruv materiallarini huquqni muhofaza qilish organlariga topshirish masalasi hal etiladi.

Pochta vagonlari bilan pochta almashinuvida, pochta yo‘nalish bo‘yicha harakatlanishida pochta jo‘natmalarini yo‘qolish faktlarini tekshirish jarayonida quyidagilar aniqlanishi kerak:

— pochta jo‘natmasi yo‘qotilganligi kim tomonidan, qayerda, qachon aniqlanganligi, qanday uni qidirib topish choralari ko‘rildi;

— pochta vagonlari (yo‘nalishda joylashgan korxonalar) bilan pochta almashinuvi uchun javobgar xodimlarni va haqiqatda kim tomonidan almashilgan (agar pochta perronga tushirilgan bo‘lsa, qancha vaqt va kim tomonidan qo‘riqlangan);

— kuzatuvchilar tomonidan yo‘nalishda joylashgan boshqa aloqa korxonalarida pochta qabul qilishning belgilangan qoidalariga rioya qilinishi;

— pochta tashilgan transport turi;

— transportning normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq jihozlanishi;

— harakatlanish yoʻli davomida pochtaning saqlanishini taʼminlash, kuzatuvchilar, shuningdek, agar boʻlsa, begona shaxslar joylashgan joy;

— pochtaning pochta vagonlari bilan almashinuv joyiga, almashinuvdan keyin — aloqa korxonasiga oʻz vaqtida yetkazilishi;

— temiryoʻl stansiyasida pochta almashinadigan xona va tegishli omborxonaning mavjudligi;

— pochta vagonlari bilan almashinuv sharoitlari va sutka vaqti, poyezd kechikib kelganmi va qancha vaqtga;

— pochta qanday hujjatlar bilan pochta vagoniga topshirilgan yoki vagondan olingan;

— yoʻqolgan pochta joʻnatmasini pochta vagonidan qabul qilish yoki pochta vagoniga yetkazish;

— poyezd ketganidan keyin pochta joʻnatmasining kamo-madi aniqlangan holda, pochta almashinuvini bajargan xodimlar tomonidan dalolatnoma tuzilganmi va dalolatnomani tuzishga temiryoʻl maʼmuriyatining vakillari yoki militsiya liniya boʻlimining xodimlari jalb etilganmi, dalolatnoma toʻgʻri tuzilganmi;

— pochta almashinuviga aloqasi boʻlmagan, ammo shu paytda shu yerda boʻlgan shaxslarni;

— yoʻnalish yukxatiga kiritilgan aloqa korxonalariga kirish ketma-ketligi, pochta yoʻlda va toʻxtash joylarida (qarindosh-urugʻlarnikiga, tanishlarnikiga, doʻkonga, oshxonaga va sh.k.ga kirganda) kim tomonidan va qay tarzda qoʻriqlangan;

— pochtni pochta vagoni, avtomashina yoki boshqa turdagi pochta transportiga olib borishda yordam bergan shaxslarni.

Pochta joʻnatmasi yoʻnalish boʻyicha tashilganda yoʻqolganligi aniqlangan holda qoʻshimcha ravishda quyidagilar aniqlanadi:

— yetkazib berish yoʻnalishining qaysi oxirgi aloqa korxonasida yoʻqotilgan pochta joʻnatmasi bor deb hisobga olingan;

— pochta jo‘natmasining yo‘qolganligi aniqlangan aloqa korxonasiga pochta jadval bo‘yicha kelganmi;

— o‘g‘irlikda haydovchi (tashuvchi) yoki kuzatuvchining ishtirok etganligi ehtimoli;

— pochtaning oraliq aloqa korxonasiga topshirish tartibi va uni kim qabul qilgan.

Tranzit pochta jo‘natmalarining yo‘qolish hollari tekshirilganda qo‘shimcha ravishda quyidagilar aniqlanishi kerak:

— pochta jo‘natmasi qanday hujjatlar bilan pochta aloqasi tashkilotidan qabul qilib olingan;

— pochta jo‘natmasini qabul qilgan, shuningdek, pochtaning mavjudligini tekshirgan mansabdor shaxslarning familiyalari;

— pochta jo‘natmalari topshirilgunga qadar pochta jo‘natmalari saqlanadigan joy, omborxonaning kalitlari turadigan joy;

— kelib tushgan pochtaga o‘z vaqtida ishlov berilishi;

— olingan va jo‘natilgan pochta uchun hujjatlarning o‘z vaqtida tekshirilishi, qabul qilingan va topshirilgan pochta jo‘natmalari hamda buyumlari sutkalik balansining mos kelishi;

— 16-shakldagi yukxatlar to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi (raqamlari, summasi, qabul qilish joyi va belgilangan joyini ko‘rsatgan holda tranzit sug‘urtali pochta jo‘natmalarini 16-shakldagi yukxatlarga yozib qo‘yish);

— yozib qo‘ymasdan pochta jo‘natmasining topshirilganlik faktining yo‘qligi;

— topshirilgan pochta uchun tilxatlarning mavjudligi.

Agar pochta kuzatuvchidan o‘z vaqtida qabul qilingan va shu bilan birga belgilangan tartibga rioya qilingan bo‘lsa, pochta jo‘natmasi jo‘natilgan joylanmasining yetishmaydigan qismiga ega yopiq pochta buyumining va pochta jo‘natmasining butunligini sinchiklab tekshirish zarur.

6.7. Posilkalar, shuningdek, ulardagi joylanmalar qismini o'g'irlash, yo'qolish, kamomadi holatlarini tekshirish xususiyatlari

Posilkalar va ulardagi joylanmalarining yo'qolish holatlari tekshirilganda qo'shimcha ravishda quyidagilar aniqlanishi kerak:

— posilkalarning tashqi holatini sinchiklab ko'zdan kechirib, nomma-nom tekshirib, kuzatuvchilardan posilkalarning o'z vaqtida va sifatli qabul qilinishini ta'minlash;

— 16-shakldagi yukxatlarda posilkali pochtaning qabul qilinganligi va tekshirilganligi hamda posilka haqiqatan ham kelganligi to'g'risidagi belgining mavjudligi;

— posilkalar saqlash uchun posilkalar saqlanadigan omborga kim tomonidan va kimga topshirilganligi hamda hujjatlarda posilkalarni qabul qilgan shaxs imzosining mavjudligi;

— 16-shakldagi yukxat bo'yicha posilkalar kim tomonidan, qachon hisobga olingan;

— joylanmasi yetishmaydigan posilkaning omborda bo'lgan vaqti;

— o'z majburiyatlari yuzasidan omborga kirish huquqiga ega shaxslar;

— omborda aloqa xodimlarining smenalari tomonidan posilkalarni topshirish tartibi;

— ish kuni tugaganidan keyin ombordagi posilkalar borligini 16-shakl yukxatdagi ma'lumotlar bilan solishtirish va ularni kalitlar hamda sug'urtali muhrlar bilan qo'riqlashga topshirish tartibi;

— operatsion kun boshlanishidan avval posilkali jo'natmalar saqlanadigan ombor ochilganda bo'lgan shaxslar;

— ombor uchun javobgar bo'lgan xodim vaqtincha bo'lmagan vaqt davomida ombor qulflanmasdan qolmaganmi;

— adresat pochta jo‘natmasi berilishidan oldin pochta jo‘natmasining massasidagi farq to‘g‘risida ogohlantirilganmi;

— pochta jo‘natmasi oluvchi huzurida tortilganmi.

Shuningdek, aloqa korxonasida shunga o‘xshash yo‘qolish holatlari bo‘lganligini aniqlash kerak. Shu maqsadda quyidagilarni tekshirish zarur:

— ombordagi posilkalarning hisobga olish ma‘lumotlariga mos kelishi, tashqi ko‘rinishi ularni joylanmasining saqlanishi shubhasiga sabab bo‘lgan posilkalar massasi;

— so‘nggi 2–3 oy ichidagi 16-shakldagi yukxatlarning mavjudligiga alohida e‘tibor qaratib, tekshirilayotgan davr ichida 16-shakldagi yukxatlar bo‘yicha kelib tushgan posilkalarning to‘liq hisobga olinishini, shuningdek, ularda tuzatishlar va o‘zgartirishlar mavjudligi;

— huddi shu davr ichida topshirilgan posilkalar miqdorining mavjud bildirishnomalarga mosligini va ularning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini;

— posilkalarni olmaganlik yoki ulardagi joylanmalar qismining kamomadini va boshqa holatlarni aniqlash maqsadida aloqa korxonasiga keladigan barcha shikoyatlar.

Jo‘natiladigan posilkalarning yo‘qolishi va joylanmasi qismining kamomadi holatlari tekshirilganda yo‘qolish qachon sodir bo‘lgan — posilkali pochta kuzatuvchiga topshirilganda yoki kuzatuvchi uni qabul qilib olganidan keyin sodir bo‘lganligini aniqlash zarur.

Posilka kuzatuvchiga topshirilishidan avval posilka yo‘qolgan (joylanmasi qismining kamomadi) fakti aniqlangan holda quyidagilar aniqlanishi kerak:

— yo‘qotilgan posilka kuzatuvchidan kim tomonidan va qachon qabul qilingan;

— qabul qilingan posilkalar qayerda saqlangan;

— posilkalar qabul qilingan kunda ularning jo‘natishga tayyorlik darajasi yoki ularni saqlash uchun omborga topshirilganlik fakti;

— posilkalar 16-shakldagi yukxatlarga kim tomonidan yozilgan va ular to‘liq yozilganmi (1-shakldagi daftar va yukxatlar nusxalari bo‘yicha tekshiriladi);

— operatsion kun tugaganidan keyin qabul qilingan posilkalarni topshirish tartibi va ular qabul qilinganligi to‘g‘risidagi tilxat mavjudmi (1-shakldagi daftarda va 16-shakldagi yukxatning nusxasida).

Posilkali pochta kuzatuvchi tomonidan qabul qilinganidan keyin posilkaning yo‘qotilganligi yoki joylanmasi qismining kamomadi fakti aniqlangan holda quyidagilar aniqlanishi kerak:

— pochta kuzatuvchidan kim tomonidan va qaysi vaqtda qabul qilingan, pochta qabul qilinganligi to‘g‘risidagi tilxat unga to‘liq berilganmi;

— posilkalarni kim bergan va qabul qilishda ularning hisobini kim olib borgan;

— posilkaning kamomadi, uning nosoz o‘rovda, bog‘ichi, muhri shikastlangan, massasi yetishmagan holda olinganligi to‘g‘risida 16-shakldagi yukxatlarda qaydning mavjudligi va bu kuzatuvchining imzosi bilan tasdiqlanganmi;

— posilka jo‘natuvchisining manzilini aniqlash, u bilan bog‘lanish va undan yozma shaklda ma’lumotlar olish, shuningdek, posilkaga qanday buyumlar joylanganligini, posilka jo‘natuvchi oldida muhrlangan yoki yo‘qligini bilish.

Posilka nosozligi tufayli u pochta vagoniga topshirilmagan holda joylanma qismining kamomadi tekshirilganda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish kerak:

— posilka qabul qilinmaganligi sabablari to‘g‘risida 16-shakldagi yukxatga sayyor brigadaning xodimi tomonidan tegishli belgi qo‘yilganmi va bu belgi pochtni almashuvchining imzosi bilan tasdiqlanganmi;

— ushbu posilka uni almashgan xodim tomonidan qaytarilganda aloqa bo‘limida sinchiklab ko‘rilganmi va posilkaning massasi tekshirilganmi;

— haqiqiy massasi va ilova manzilining blankida va 2-shakldagi yorliqda ko'rsatilgan massasi o'rtasidagi farq aniqlangan holda joylanmasini tekshirish uchun posilka ochilganmi;

— posilkani ochish va joylanmasini tekshirish uchun 51-shakldagi dalolatnoma tuzilganmi;

— jo'natuvchidan posilkada jo'natilayotgan buyumlar to'g'risidagi ma'lumotlar olinganmi va joylanmasi almashtirib qo'yilgan bo'lsa, nima bilan almashtirib qo'yilganligi aniqlanganmi.

Posilkaning yo'qolganligi yoki joylanmasi qismining kamomadi fakti aniqlangan holda posilka qabul qilingan joydagi aloqa korxonasida quyidagilar aniqlanishi kerak:

— jo'natuvchi posilkani pochtaga o'zi topshirganmi. Agar posilkani begona shaxs topshirgan bo'lsa, u holda kim tomonidan topshirilgan va o'rovlangan holda topshirilganmi;

— posilka qabul qilingan vaqtda muhrlanganmi;

— posilka jo'natish uchun topshirilgan vaqtigacha uning butunligining ishonchililigi;

— belgilangan joyga jo'natish uchun posilkalar qachon, qaysi vaqtda, qanday tartib bilan topshirilgan, shu jumladan, joylanmasi qisman olingan posilka;

— sug'urtali muhrni saqlash va undan foydalanish tartibi, sharoitlari.

Belgilangan joydagi pochta aloqasi obyektida aniqlangan posilkalar joylanmasining kamomadi holatlari tekshirilganda quyidagilar aniqlanishi kerak:

— posilka kuzatuvchidan qachon, kim tomonidan qabul qilingan;

— aloqa korxonasida posilka qayerda, qancha vaqt davomida saqlangan;

— joylanmaning kamomadi aniqlangan vaziyatlar va bu kim tomonidan aniqlangan;

— posilkaning tashqi holati va massasidagi farq to‘g‘risida 51-shakldagi dalolatnoma tuzilganmi, qachon va kim tomonidan;

— posilka ochilganda va adresatga berilganda 51-shakldagi dalolatnoma to‘g‘ri tuzilganmi;

— adresatga posilkada jo‘natilayotgan buyumlar ro‘yxati ma‘lummi va qanday ma‘lumotlar asosida;

— adresatdan posilkaning o‘rovi va joylanmaning o‘rniga qo‘yilgan buyumlar olinganmi.

Agar tekshiruv davomida ushbu aloqa korxonasida suiiste‘mol sodir etilganligi isbotlansa, u holda tekshiruv materiallari va ashyoviy dalillar (qop tarasi, bog‘ich, plomba yoki sug‘urta muhrli yorliqlar, o‘rovlar, tasmalar va sh.k.) belgilangan tartibda huquqni muhofaza qilish organlari (prokuratura, militsiya)ga yuborilishi kerak.

Posilkalardagi joylanma qismining kamomadi hollari tekshirilganda manzilli aloqa korxonalarida tuzilgan dalolatnomalar asosida dalolatnoma to‘g‘ri tuzilganligini va unga idoraviy tekshiruv materialil ilova qilinganligini aniqlash kerak. Yetishmaydigan ma‘lumotlar so‘raladi.

Aynan bir xil korxonalar orqali yoki pochta vagonlarining bitta liniyasi bo‘ylab jo‘natiladigan posilkalardagi joylanmalarning muntazam kamomadi uchrab turgan hollarda suiiste‘molchiliklar yuz berayotgan korxona, pochta vagoni brigadasining ishi nazorat ostiga olinishi kerak va, zarur bo‘lganda, ularning ishi sinchiklab tekshirilishi zarur.

6.8. Sug‘urtali qoplarning yo‘qolishi va/yoki ular qismining kamomadi holatlarini tekshirish xususiyatlari

Sug‘urtali qoplar yo‘qolgan va/yoki ular joylanmasi qismining kamomadi holatlari tekshirilganda qo‘shimcha ravishda quyidagilar aniqlanishi kerak:

— sug‘urtali qopni ochgan va sug‘urtali qop ochilganda shu yerda bo‘lgan mansabdor shaxslarning familiyalari va

lavozimlari, ular tomonidan sugʻurtali qopni ochish vaqti va tartibi;

— sugʻurtali qopni ochgan shaxslar tomonidan bogʻich va muhrning sinchiklab koʻrilishi, muhrini shikastlamagan holda bogʻichni yechib olish imkoniyatiga eʼtibor berish; birlamchi bogʻichning shikastlangan uchlarini berkitish maqsadida bu bogʻichning tuguniga surgʻuchni qoʻyish imkoniyatiga eʼtibor qaratish;

— sugʻurtali qopni ochgan shaxslarning qop kesilganidan keyin boshqa chok bilan tikilgan yoki yoʻqligini aniqlash uchun qopning ichki va tashqi tomonlarini koʻrib chiqishlari;

— sugʻurtali qopni ochgan shaxslar koʻrganda kesish izlarini yashirish maqsadida bogʻichning kesilganligi va tikilganligi, ulangan joyning yoʻrmab qoʻyilganligi faktining yoʻqligi;

— sugʻurtali qopning faqat bitta aloqa xodimi tomonidan ochilganligi faktining va faqat bu xodimning arizasi boʻyicha joylanmaning kamomadi holatida dalolatnoma tuzilganligi faktining yoʻqligi;

— xuddi shu aloqa xodimi tomonidan sugʻurtali qoplardagi joylanmaning kamomadi aniqlangan hollarning mavjudligi.

Agar pochta aloqasi tashkilotiga yetkazilgan joylanmasining kamomadiga ega sugʻurtali qop notoʻgʻri berkitilgan boʻlsa, bogʻichi yoki muhri shikastlangan boʻlsa yoki shikastlanib qayta tikilgan boʻlsa, pochtani kuzatib kelgan shaxsdan yozma tushuntirish olish va quyidagilarni aniqlash kerak:

— kuzatuvchi nuqsonli sugʻurta qopini qabul qilganligi sababini;

— kuzatuvchidan pochtaning oʻz vaqtida (jadval boʻyicha) kelib tushganligi;

— yoʻnalishda boʻlgan pochta vagoni, avtomashinasi yoki pochta aloqasi obyekti bilan pochtani almashish shartlari, almashinuv amalga oshirilgan sutkaning vaqti (kunduzi yoki tungi vaqtda);

— sugʻurtali qopning pochta aloqasi tashkilotida boʻlgan vaqti.

Agar tekshiruv natijasida pochtni olish, sugʻurtali qopni ochish va joylanmasini tekshirishning belgilangan tartibiga rioya qilinganligi aniqlansa va qoidabuzarlik belgilangan joydagi pochta aloqasi obyektida sodir etilganligi shubhasiga oʻrin qolmasa, sugʻurtali qop joʻnatilgan pochta aloqasi tashkilotida sugʻurtali qopni berkitish va joʻnatish tartibini tekshirish kerak. Zarur boʻlganda tekshiruv sugʻurtali qop oʻtgan barcha aloqa obyektlarida amalga oshiriladi.

Bunda quyidagilar aniqlanishi kerak:

— sugʻurtali qopni berkitgan va berkitishda ishtirok etgan mansabdor shaxslarning familiyalari va lavozimlari, sugʻurtali qop bitta shaxs tomonidan berkitilganligi faktini istisno etish;

— sugʻurtali qopni berkitish vaqti, sugʻurtali qop saqlanadigan joy; pochta joʻnatilgunga qadar vaqt davri.

6.9. Pul mablagʻlarining kamomadi va oʻgʻirlanishining tekshiruv xususiyatlari

Pul mablagʻlarining tarkibida naqd pullar eng koʻp harakatga ega, ularning harakati kassa operatsiyalari yordamida amalga oshiriladi. Kassa operatsiyalari oylik maoshining berilishini, maʼmuriy-xoʻjalik xarajatlarining katta qismini, hisobot beriladigan summalar va shu kabilar boʻyicha operatsiyalar kabi xoʻjalik faktlarini qamrab oladi.

Suiisteʼmolni aniqlash kassa operatsiyalarini reviziya qilishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Nafaqat kamomad (oʻgʻirlik) faktlarini aniqlash, balki ularni tayyorlagan, ularga yordam bergan va ularning oʻz vaqtida aniqlanishiga xalaqit bergan sharoitlarni ham aniqlash zarur.

Kassa operatsiyalarini tekshiruv oʻtkazishdan maqsad quyidagilarga rioya qilinishini tekshirish hisoblanadi:

— naqd pullar va boshqa boyliklarni kassada va bankdan yetkazib berishda saqlash sharoitlari va saqlanishiga;

— chek daftarchalari, cheklarning koreshogini (yirtib olinadigan qismini) saqlash va ular bo'yicha pul olishning belgilangan tartibiga;

— kassaga pul tushumi va kassadan pul berish operatsiyalarini hujjatli rasmiylashtirish qoidalariga;

— naqd pullarni kassada saqlash limitiga;

— xizmat safari va xo'jalik xarajatlari hamda boshqa ehtiyojlar uchun pullarni hisob berish sharti bilan berish tartibiga;

— banklar, yuridik va jismoniy shaxslardan olingan naqd pullarning kirim daftariga o'z vaqtida va to'liq qayd qilinishiga;

— kassa operatsiyalarini amalga oshirishda kassa intizomiga;

— kassa operatsiyalarini hisobga olish va kassada saqlanadigan boshqa boyliklar bo'yicha kassa daftarini va tahliliy hisob daftarlarini yuritishga;

— ortilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) va boshqa moddiy boyliklar uchun yuridik shaxslar bilan naqd pul bilan hisob-kitob qilish tartibiga;

— banklardan cheklar bo'yicha olingan naqd pullardan belgilangan maqsadda foydalanishga;

— ish kuni oxirida naqd pullar limitdan tashqari qoldiqlarining banklarga o'z vaqtida va to'liq qaytarilishiga;

— ishonch qog'ozini rasmiylashtirmasdan begona shaxslarga naqd pul berish hollarining mavjudligiga.

Kassa operatsiyalarini tekshirishning asosiy bosqichlari:

— naqd pullarning haqiqiy qoldig'ini inventarizatsiya qilish va uning kassa daftari bo'yicha hisobga olish ma'lumotlari bilan mosligi;

— naqd pullarning kirim daftariga to'liq va o'z vaqtida yozib qo'yilishini, kassa daftari bo'yicha hisobdan chiqarilishini tekshirish;

— kirim va chiqim orderlari rasmiylashtirilganligini tasdiqlovchi hujjat mavjudligini tekshirish;

— amalga oshirilgan xo‘jalik operatsiyalarining qonuniyligini tekshirish;

— amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq kassada saqlanishi kerak bo‘lgan, kassada saqlanayotgan boshqa boyliklar (qimmatli qog‘ozlar, qimmatbaho sovg‘alar, qimmatbaho buyumlar va boshqa boyliklar)ning haqiqatda mavjudligini tekshirish;

— kassa daftari va boshqa hisobga olish registrlaridagi (jurnallar-orderlar, qaydnomalardagi) jamini tekshirish;

— pul mablag‘lari olinganda, bankdan (korxonadan) yetkazib berilganda va korxonada saqlanganda hamda berilganda ularning butunligini ta‘minlash;

— kassir bilan to‘liq moddiy javobgarlik to‘g‘risida yozma shartnomaning mavjudligini tekshirish.

Kassa operatsiyalarining yuqorida bayon etilgan tekshiruvini o‘tkazish yo‘llari va usullaridan tashqari dasturga quyidagi masalalarni ham kiritish tavsiya etiladi:

— korxonada kassadagi naqd pul qoldiqlarini to‘satdan tekshiruvlari o‘tkaziladimi? Agar o‘tkazilsa, bunday tekshiruvlarni kim amalga oshiradi;

— buxgalteriya hisobotini tuzishdan kassadagi pul qoldiqlari olinadimi;

— kassaning kirim va chiqim orderlarini rasmiylashtirish vazifasi kimga yuklatilgan, bunda ushbu orderlar kassir tomonidan rasmiylashtirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi kerakligiga alohida e‘tibor qaratilishi kerak;

— kassirdan kassa hisobotlari va ularga ilova qilinadigan tasdiqlovchi hujjatlar qabul qilinishini kim amalga oshiradi;

— kassir tomonidan kassa daftarida oldin amalga oshirilgan yozuvlarga kelishilmagan tuzatishlar kiritilishiga yo‘l qo‘yiladimi;

— depozitga qo'yilgan pul mablag'larining kerakli tarzda hisobga olinishi amalga oshiriladimi?

Kassa operatsiyalarini tekshirayotib, tekshiruvchi kassa operatsiyalarini yuritish tartibiga qanday rioya qilinayotganligi, kassa intizomi, naqd pullar bilan amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini aniqlashi kerak.

Quyidagilar sinchiklab tekshiriladi:

— to'lov qaydnomalarida — pul oluvchilar imzosining haqiqiyliigi. Bitta oluvchi qaydnomada bir nechta odam uchun imzo qo'ygan holatlar ham bo'lgan;

— kassa kirim va chiqim orderlarini ro'yxatga olish daf-tarida — sanalar, tartib raqamlari va summalarining kirim va chiqim orderlari va kassa daftarlaridagi xuddi shu ko'rsat-kichlarga mos kelishi;

— chiqim orderlarida — olingan summalar yozuvlari (so'z bilan) pul oluvchining o'zi tomonidan yozilganligi va pul oluvchining imzosi pul oluvchining o'zi tomonidan qo'yilganligi, shuningdek, tashkilotning shtat jadvalida bo'lmagan oluvchilarning pasport ma'lumotlari to'g'ri to'ldirilganligini;

— barcha hujjatlarda — pul mablag'lari boshqaruvchilari imzolarining mavjudligini. Kassaning barcha chiqim hujjatlariga shaxsan rahbar imzo qo'yishiga e'tibor qaratiladi. Rahbar tashkilotda vaqtincha bo'lmagan va o'z vazifasini buyruq bilan boshqa vaqtincha uning vazifasini bajaradigan shaxsga topshirgan davrlar (ta'til, safar, kasalligi) bundan mustasno hisoblanadi;

— kassa daftarida — uning rasmiylashtirilishi va yuritilishi, kiritilgan tuzatishlarning to'g'riligi. Yakuniy pul aylanishlari-ni hisoblanishi va kun oxirida naqd pullar qoldig'i chiqarilishining to'g'riligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Bankdan cheklar bo'yicha olingan naqd pullarni kirim daftarida to'liq qayd qilinishini tekshirishda chek daftarining barcha koreshoklari mavjudligini tekshirish kerak.

Korxonada bir nechta kassir mavjud bo'lganda har bir kassir uchun ochiladigan olingan va berilgan pullarni hisobga olish daftarlari (KO-5-shakl) to'g'ri yuritilishi tekshirilishi kerak.

Kassa intizomiga rioya qilinishini tekshirayotib, quyidagilarni aniqlash lozim:

- bankdan olingan naqd pullarning kassada belgilangan maqsad uchun ishlatilganligi;

- kassadagi naqd pul qoldiqlarining bank tomonidan belgilangan limitga mosligi;

- ish haqi, mukofotlar, nafaqalar uchun olingan va boshqa tushumlar bo'yicha ishlatilmagan naqd pullarning bankka o'z vaqtida va to'liq topshirilganligi;

- naqd pullar bilan hisob-kitob qilishning belgilangan qoidalariga rioya qilinishi;

- naqd pullar qarzgaga berilgan yoki olinganligi.

Kassa operatsiyalari sohasidagi o'rganilgan suiiste'mollar quyidagi tarzda tasniflanishi mumkin:

- bankda cheklar bo'yicha olingan yoki yuridik va jismoniy shaxslardan kirim orderlari bo'yicha, shuningdek, yuridik shaxslardan ishonchnomalar bo'yicha olingan naqd pullarni kirim daftariga yozib qo'ymaslik yoki to'liq yozib qo'ymaslik;

- kassa daftarining tushumi bo'yicha yakuniy pul aylanmalarini kamaytirish yoki aksincha, chiqim bo'yicha pul aylanmalarini ko'paytirish, shuningdek, hisoblar (boshqa shunga o'xshash hujjatlar)dagi aniqlangan xatolar natijasida kassa bo'yicha (kassa daftari bo'yicha) pullarni ortiqcha hisobdan chiqarish. Aynan bitta hujjat bo'yicha pullarning takroran hisobdan chiqarilishi;

- naqd pul mablag'lari bilan hisob-kitob qilishning amaldagi tartibini buzish, shu jumladan: yuridik shaxslar va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmasdan ish ko'radigan tadbirkorlar bilan naqd pul bilan hisob-kitob qilishning belgilangan limitidan oshib ketish, jismoniy shaxslar bilan

nazorat-kassa mashinalarini qo'llamasdan yoki ularni soliq organlarida ro'yxatdan o'tkazmasdan qo'llagan holda hisob-kitob qilish;

— hujjatlarda mansabdor shaxslarning zarur imzolarining yo'qligi;

— hisobga olish registrlarida kirim-chiqim kassa hujjatlarini o'z vaqtida ko'rsatmaslik;

— hisobga olish registrlarida xo'jalik operatsiyalari yozuvlarini amalga oshirish uchun asos bo'ladigan hujjatlarining yo'qligi;

— kassadan pullarni asossiz yoki qalbaki (soxta) hujjatlar bo'yicha hisobdan chiqarish;

— chiqim orderlarida pul oluvchilar tomonidan summani yozishdagi xatolar;

— kirim yoki chiqim orderlarining sanalari yoki summalarining hisobga olish daftaridagi aynan shunday yozuvlarga mos kelmasligi;

— pul mablag'larini to'g'ridan to'g'ri o'g'irlash (juda kam uchraydi), kassadagi naqd pullarni inventarizatsiya qilish usuli bilan aniqlanadi. U ba'zida mansabdor shaxslarning asl kamomadni berkituvchi tilxatlari bilan maskirovka qilinadi. Pul kamomadi, shuningdek, boshqa noqonuniy operatsiyalar uchun pullarni vaqtincha noqonuniy o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Bank operatsiyalari tekshiruvlarining maqsadi quyidagicha bo'ladi:

— banklardagi hisoblarda aks ettirilgan pul mablag'larining tushumi va hisobdan chiqarilishi bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarning o'z vaqtidaliligi, qonuniyligi, ishonchligi va maqsadga muvofiqligi;

— ochilgan va hisob-kitoblarda ishtirok etgan hisob raqamlarining sonini, har bir ochilgan hisob raqami bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligini tekshirish;

— kreditlar va zaymlarni olish va foydalanishning asoslanganligi, ularning o'z vaqtida qaytarilishi;

— tuzilgan shartnomalar bo'yicha to'lov va hisob tartibining holatini tekshirish va h. k.;

— hisob raqamlariga kelib tushgan pul mablag'larining to'liq va o'z vaqtida kirim daftariga yozib qo'yilishini tekshirish;

— to'langan mablag'larining to'liqligi va taqdim etilgan hisoblarga mos kelishini tekshirish;

— tegishli hisob bo'yicha bank ko'chirmasida aks ettirilgan har bir summa bo'yicha tasdiqlovchi hujjat mavjudligini tekshirish;

— bank operatsiyalari bo'yicha hisob raqamlari korrespondensiyalarining to'g'ri qo'llanishini tekshirish;

— korxonalarda vakolatli shaxslarga ochiladigan hisob raqamlari bo'yicha operatsiyalarni tekshirish;

— tovarsiz hisoblar va boshqa noqonuniy operatsiyalar bo'yicha avanslar va boshqa to'lovlar, ayniqsa, tekshirilayotgan tashkilotga aloqasi bo'lmagan boshqa tashkilotlarning mahsulot va xizmatlari uchun to'lovlarga noto'g'ri pul o'tkazilishiga yo'l qo'yilmayaptimi;

— naqd pul olish uchun bankdan (banklardan) olingan chek daftarchalarining korxonada kerakli tarzda hisobga olinishi tashkil etilganmi?

Tashkilotning hisob raqamlari, joriy va valuta hisob raqamlari bo'yicha bank operatsiyalarini tekshirishning asosiy bosqichlari:

— korxonaning bank (banklar) bilan bank hisobiga xizmat ko'rsatish to'g'risidagi tuzgan shartnomasi bilan tanishish;

— kassadagi naqd pul qoldig'i limitini belgilash to'g'risida bankdan olingan ma'lumotnomaning mavjudligini tekshirish;

— pul tushumini bankka topshirish tartibi va muddati bilan tanishish;

— ish haqini berish kunlari bilan tanishish.

Bank operatsiyalarini yuritishdagi bir turdagi qoidabuzarliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- operatsiyani amalga oshirish faktini tasdiqlovchi to'lov hujjatlarining yo'qligi;

- kerakli tarzda rasmiylashtirilmagan hujjatlarning mavjudligi (hujjatlarning kseronusxalari, hujjatlarda bank belgilarining yo'qligi);

- xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirish uchun asos bo'lgan to'lov hujjatlari ilovalarining yo'qligi;

- naqd pullarni o'zlashtirish, ularni kassa bo'yicha kirim daftariga yozib qo'ymasdan hisob raqamidan olish; buning uchun bank ko'chirmalarini qalbakilashtirish; hisob raqami bo'yicha operatsiyalarni hisobga olish to'liq aks ettirmaganligi; ushbu operatsiyalar ma'lumotlarida (daftarlarida) ataylab qilingan xatolar; ko'chirmalarga ishlov berishda hisob raqamlari korrespondensiyalarini buzib ko'rsatish;

- mablag'larni hisob raqamidan boshqa (noqonuniy) yo'nalishlar bo'yicha o'tkazish; go'yoki bajarilgan ishlarga yoki qarzlarni to'lash uchun to'lov ko'rinishida soxta shaxslarga o'tkazish; davlat yoki kooperativ tashkilotlar bilan hisob-kitob shaklida jamg'arma banklariga o'tkazish;

- materiallarni xarid qilish va sotishda pul va moddiy mablag'larni o'zlashtirish: bank orqali to'langan tovar-moddiy boyliklarni noqonuniy olish; boyliklar va xizmatlarni sotishdan hisob raqamiga tushgan tushumlarni hisobga olishda hisob raqamiga kelib tushgan va hisob raqamidan olingan summalarni to'liq ko'rsatmaslik yo'li bilan o'zlashtirish; naqd pul ko'rinishida tushgan tushumni uni hisob raqamiga qalbaki qo'yish yo'li bilan yashirish;

- pul mablag'larini shaxsiy manfaatlarni ko'zlab ishlatish: xizmatlar, ishlar va moddiy boyliklar uchun mansabdor shaxslarning shaxsiy hisobidan to'lanishi kerak bo'lgan to'lovlarni korxona hisobidan to'lash; aybdor shaxslar

hisobidan to'lanishi kerak bo'lgan jarimalar va penyalarni to'lash.

Bankdan olingan naqd pullarni ko'chirmalarni soxtalashtirish yo'li bilan o'zlashtirish, bankda ko'chirmalarning haqiqiyliги tekshirilganda ochiladi. Shuningdek, hisob raqami, chek daftarchalarining koreshoklaridagi va kassa hisobi bo'yicha hisobga olish registrlaridagi qaydlar tekshirilishi kerak.

6.10. Tekshiruv materiallarini rasmiylashtirish

Jo'natma yo'qolishida va/yoki mablag'lar qismining kamomadida bevosita yoki bilvosita aybdor bo'lgan aloqa xodimlar o'zlarining tushuntirishlarida qoidabuzarliklarning barcha holatlarini, sharoitlarini va agar sodir bo'lgan bo'lsa, qoidabuzarlik faktini oshkor qilishlari kerak. Ba'zi bir ma'lumotlar noaniq bo'lgan hollarda ushbu aloqa xodimlariga qo'shimcha savollar beriladi.

Agar tekshiruvni o'tkazayotgan xodimlar aloqa xodimi qoidabuzarlikni sodir etganligiga amin bo'lsalar, unda ushbu xodimni so'roq qilishdan avval ular mahalliy huquqni himoya qilish organlariga murojaat qilishlari va ulardan keyingi qilinadigan ishlar to'g'risida maslahat olishlari kerak.

Yo'qolgan, almashtirilgan yoki joylanmasi qismining kamomadi aniqlangan pochta jo'natmalariga ishlov berish yoki ularni tashishda ishtirok etgan xodimlarga maxsus hisobga olish kartochkalari yoki familiyalari bo'yicha alifbo tartibidagi daftar yuritiladi.

Moddiy javobgarlik brigadaga yuklangan bo'lsa, hisobga olish kartochkasi brigada bo'yicha yuritiladi.

Tekshiruv materiallarini huquqni muhofaza qilish organlariga yuborilganda, pochta jo'natmasi to'g'risida — unda nima jo'natilganligi, yetishmayotgan joylanma buyumlari (nomi, rangi, o'lchami, iloji boricha qiymati, ishlab

chiqarilgan joyi, ishlab chiqaruvchi, o'rovining turi), ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish dalolatnomasi, tekshiruv xulosalari to'g'risidagi berilgan to'liq ma'lumotlar va manzil ma'lumotlari bo'lishi kerak.

Tekshiruv materiallari huquqni muhofaza qilish organlariga faqat qoidabuzarlik sodir bo'lgan joy bo'yicha, u aniqlanmaganida esa — qoidabuzarlik fakti aniqlangan joy bo'yicha beriladi. Materiallarga ashyoviy dalillar ilova qilinadi.

Ashyoviy dalillarni (17-shakl yorliqlari, sug'urta qoplarining bog'ichlari, konteynerlar plombalaridan tashqari) ular o'tgan qayta yo'l bo'ylab yoki boshqa pochta aloqasi tashkilotlariga yuborish man etiladi.

Nazorat savollari

1. «Xizmatga oid tekshiruv» tushunchasini ochib bering. U qanday maqsadda o'tkaziladi?

2. Xizmatga oid tekshiruvlarni o'tkazishning umumiy metodlari va usullari qanday?

3. Xizmatga oid tekshiruv dalolatnomasida nimalar ko'rsatiladi?

4. Xizmatga oid tekshiruv jarayonidagi ashyoviy dalillar tahlilining o'rni qanday?

5. Pochta qoplarining butunligi va ularni berkitish elementlari buzilishining o'ziga xos belgilarini aytib bering.

6. Qattiq o'rovdagi (faner qutidagi) posilkalar, yumshoq o'rovdagi posilkalar butunligining o'ziga xos buzilishlari qanday?

7. Qiymati e'lon qilingan banderollarning qog'oz o'rovlari va plastik paketlari butunligining o'ziga xos buzilishlarini sanab bering.

8. Pochta jo'natmalarining qog'oz o'rovi yelimlab yopishtirilgan joylarining o'ziga xos buzilishlari qanday?

9. Plombalarni ko'zdan kechirish va holatini baholash qanday amalga oshiriladi? Siz plombalarning qanday turlarini bilasiz? Plombaning ehtimoliy buzilishi faktini bildiradigan farqlovchi belgilar qanday?

10. Surgʻuchli izlarni koʻzdan kechirish va holatini baholash qanday amalga oshiriladi? Ularni tekshirish bosqichlarini aytib bering.

11. Surgʻuchli izning dastlabki holati buzilishi toʻgʻrisida dalolat beradigan oʻziga xos belgilari qanday?

12. Berkutilgan sugʻurta qoplari va pochta joʻnatmalarini ochishning oʻziga xos belgilari qanday?

13. Pochta toʻlovining qaysi belgilari soxderta hisoblanadi?

14. Pochta markalari, markalangan konvertlar va pochta kartochkalarining haqiqiyliqi qanday aniqlanadi?

15. Posilkalar, shuningdek, ulardagi joylanmalarning bir qismi oʻgʻirlanishi, yoʻqotilishi, kamomadini tekshirishning oʻziga xos xususiyatlari qanday?

16. Sugʻurta qoplari yoʻqolishi va/yoki ulardagi joylanmaning bir qismi yetishmasligini tekshirishning oʻziga xos xususiyatlari qanday?

17. Pul mablagʻlarining kamomadi va oʻgʻirlanishini tekshirishning oʻziga xos xususiyatlari qanday?

18. Tekshiruv materiallarini rasmiylashtirish tartibi qanday?

7-BOB. XAVFLI POCHTA JO‘NATMALARINI JO‘NATISH BILAN BOG‘LIQ TERRORIZM AKTLARINING OLDINI OLISH CHORALARI

7.1. Pochta jo‘natmalaridagi portlatish qurilmalarini aniqlash usullari

Terrorizm — odamlarning halok bo‘lishi yoki boshqa og‘ir oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lgan hamda davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxs yoki shaxslar guruhini qandaydir faoliyatni amalga oshirishi yoki amalga oshirishidan bosh tortishiga majbur qilish maqsadida aholini qo‘rqitishga yo‘naltirilgan portlatish, o‘t qo‘yish yoki boshqa jamiyat uchun xavfli bo‘lgan ishlarni sodir etish yoki sodir etish tahdidi.

Boshlanadigan ish, umuman, jamiyatga nisbatan tahdidni yoki aniq jismoniy shaxsga qarshi harakatni amalga oshirishga yo‘naltirilganligiga ko‘ra terrorizm shartli ravishda ommaviy (xalqaro, davlat, davlat ichidagi, diniy) va yakka tartibda amalga oshiriladigan (ma‘lum joyda amalga oshiriladigan) terrorizmga bo‘linadi. Ikkala holda ham terrorizmning maqsadi — bu mumkin darajada maksimal samaraga erishgan holda qo‘rqitish aksiyasini o‘tkazish: ma‘lum bir siyosiy, ijtimoiy yoki shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab hammani qo‘rqitish, vahimaga tushirish, jamiyatdagi xavfsizlik, osoyishtalik muhitiga zarar yetkazish.

Pochta aloqasi tizimida terrorizm aktlarining oldini olish samaradorligi nazorat-o‘tkazish rejimini mustahkamlash, pochta jo‘natmalaridagi xavfli buyumlarni aniqlash bo‘yicha maxsus texnika bilan jihozlash, pochta aloqasi xodimlarini FVda amalga oshiriladigan ishlarga o‘rgatish, pochta kanalidan

terroristik maqsadlarda foydalanishga qarshilik ko'rsatuvchi pochta texnologik jarayonlariga o'zgartishlar kiritish, shuningdek, pochta aloqasi obyektlarining IIV, MXX, FVVning pochta xavfsizligini ta'minlash va FVni tugatish masalalari bo'yicha bo'linmalari bilan o'zaro ishlash bo'yicha chora-tadbirlar kompleksi bilan belgilanadi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, portlash xavfi bo'lgan pochta jo'natmalarini muvaffaqiyatli aniqlash uchun pochta terrorizmining oldini olish yo'lida, kelib tushayotgan pochta jo'natmalarini qabul qilishning puxta protsedurasini va so'ngra shubhali pochta jo'natmalarining texnik vositalar yordamida tekshiruvini tashkil qilish kerak.

Pochta jo'natmalaridagi portlovchi qurilmalarni tashqi belgilari bo'yicha aniqlash usullari. Pochta jo'natmalarining tarkibi (joylanmasi) bo'yicha PM mavjudligiga shubhalilik belgilari:

1) yozma xat-xabarlarda:

— pochta jo'natmasini ehtiyotkorlik bilan o'g'irganda erkin siljiydigan buyumlarning yoki sochiladigan moddalarning mavjudligi;

— metall buyumlar, simlar, shuningdek, portlovchi qurilma elementlari bo'lishi mumkin bo'lgan, shakli va o'lchamlari bo'yicha gugurt qutisini, katta bo'lmagan silindr yoki diskni eslatadigan joylanmalarining mavjudligi;

2) posilkalar va banderollarda:

— pochta jo'natmasini ehtiyotkorlik bilan o'g'irganda aniqlanadigan erkin siljiydigan buyumlar, kukunsimon moddalar yoki to'kiladigan suyuqlikning mavjudligi;

— pochta jo'natmasi ichida chiqiillaydigan yoki boshqa tovushlarning mavjudligi;

— pochta jo'natmasini rentgen nurlarida ko'zdan kechirganda ko'rinadigan portlovchi qurilmalar elementlarini eslatadigan metall buyumlar, simlar va boshqa mahsulotlar va elektr sxemalarining mavjudligi.

Pochta jo'natmalaridagi portlovchi qurilmalarni texnik vositalarni qo'llagan holda aniqlash usullari. Hozirgi vaqtda pochta jo'natmalaridagi portlovchi moddalarni aniqlash maqsadida quyidagi nazorat qilishning texnik vositalari qo'llanmoqda:

— metall qidirgichlar — portativ («Sfinks VM-311», «VM-611» turidagi), statsionar («Poisk-3 M», «3 S», «3 MR» turidagi) — pochta jo'natmasining metall bo'lmagan o'rovi ichidagi kichik o'lchamli metall buyumlarni aniqlash uchun mo'ljallangan;

— PM bug'larining gaz analizatorlari — portativ («Pilot», «Shelf-DS» turidagi) — gazsimon mahsulotlarning mavjudligi, ularning parchalanishi yoki parlanishi bo'yicha PMni aniqlash imkonini beradigan;

— PM izlarining analizatorlari — pochta jo'natmalari va turli buyumlarning sirtidagi izlarning miqdori bo'yicha PMni aniqlash va identifikatsiya qilish uchun («NTR» kimyoviy reaktivlar komplektiga o'xshash);

— rentgen — ko'zdan kechirish texnikasi: olib yuriladigan («Norka» turidagi rentgen-televizion qurilma), statsionar («Kalan-M» turidagi) — pochta jo'natmalarini ochmasdan ularning ichidagi narsalarni tekshirish va identifikatsiya qilish imkonini beradigan.

Terrorizmning eng xavfli ko'rinishlaridan biri radioportlatgichli portlovchi moddalardan foydalanish hisoblanadi. Radioportlatgichning afzalligi shundan iboratki, uni ijro etadigan odam operatsiyani o'tkazishning aniq vaqtini erkin tanlay oladi. Zaryadni portlatish uchun signal beriladigan katta masofa terroristni atrofdagilar sezib qolishlari imkoniyatini istisno etadi. Xalaqitdan himoyalangan elektron sxemalardan va maxsus boshqariladigan signallardan foydalanish qo'yilgan portlovchi qurilmalar begona signallar ta'sirida va navodkalar ruxsatsiz ishlab ketishining oldini olish imkonini beradi.

Radioportlatgichni elektron blokirovka qilish (bostirish)ning mohiyati maxsus xalaqitlar generatorlari yordamida uning ishchi polosasida yetarli darajadagi xalaqitni hosil qilishdan iborat.

Portlatish qurilmalardan foydalangan holda terrorizm vositalarini aniqlashning asosiy qiyinchiligi ularning xilma-xilligi, shuningdek, niqoblash uchun foydalanish mumkin bo'lgan maishiy buyumlarning ko'pligidir. Shu sababli ularni aniqlash uchun qandaydir universal asbob paydo bo'lishini kutish befoyda. Yagona yo'l terrorizm bilan kurashishning tashkiliy va texnik tadbirlaridan kompleks ravishda foydalanishdan iborat.

7.2. Terroristlar tomonidan biologik (bakteriologik) vositalar, kimyoviy va radioaktiv moddalarning qo'llanishi va ularni tasniflash

Odatda, terroristik maqsadlarda biologik (bakteriologik) vositalar, kimyoviy va radioaktiv moddalardan foydalanish — muayyan shaxslar yoki obyektlarni shikastlashga yo'naltirilgan xarakterga ega bo'ladi, lekin ma'lum sharoitlarda keng ko'lamli shikastlash o'chog'i bo'lib xizmat qilishi mumkin. Pochta aloqasining tarmog'i biologik (bakteriologik) vositalar, kimyoviy va radioaktiv moddalarni manzilga yetkazib berishning ideal vositasi hisoblanadi.

Biologik (bakteriologik) vositalarga odamlar, hayvonlar va o'simliklarga zarar keltirish va g'amlab qo'yilgan oziq-ovqat mahsulotlarini zaharlash uchun foydalanish mumkin bo'lgan kasallikni qo'zg'atuvchi mikroblar, viruslar, griboklar va bakterial zaharlar (toksinlar) kiradi.

Jinoyat qilish maqsadida zaharlovchi moddalar bilan birga odamlarda psixik holatning turli buzilishlariga olib keladigan psixotrop vositalardan foydalanish mumkinligini ko'zdan qochirish kerak emas.

Teraktlarda oxirgi vaqtda biologik (bakteriologik) vositalar (kuydirgi, o'lat, tabiiy chechak)ning qo'llanishi keng tarqalmoqda. Ulardan foydalanishning afzalligi yuqori darajada zaharliligidir (kuydirgi sporalarining bir milligrami minglab odamlarni zaharlash uchun yetarli). Ushbu moddalar kichik dozalarda yuqori darajada shikastlash xususiyatiga ega, ular tashqi ta'sirlarga (past, yuqori haroratlarga) chidamli, shikastlovchi xususiyatlarini uzoq vaqt davomida saqlab qoladi. Biologik vositalar biologik vositalar bilan bevosita kontaktda bo'lish vaqtida (nafas olish, teri qoplamasi orqali), shuningdek, zararlangan odam yoki hayvon (hasharot) bilan aloqada bo'lganda o'tishi mumkin.

Radioaktiv moddalar terroristik maqsadlarda anchadan beri qo'llaniladi. Buning uchun terroristlar nuqtayi nazaridan turli asoslar bor: ta'sir qiladigan moddaning oz miqdori va terroristik akt amalga oshirilayotgan obyektga nisbatan yetkazib berishning va obyektga ta'sir qilishning juda yuqori maxfiyligi. Odatda, bunday obyekt sifatida muayyan shaxs tanlanadi. Odamlarning ommaviy yig'iladigan joylarida radioaktiv moddaning shikastlovchi ta'siri keng ko'lamli xarakterga ega bo'ladi.

Radioaktiv nurlanishning inson organizmiga ta'siri mutlaqo bilinmaydi, uni rangi, hidi, mazasidan bilib bo'lmaydi, lekin uning oqibatlari juda xavfli va ularni orqaga qaytarib bo'lmaydi.

Tabiiy va sun'iy kelib chiqishga ega biologik (bakteriologik) vositalar, kimyoviy moddalarning boshqa vositalardan farqli ravishda turli-tumanligi terrorizmning bunday vositalarini aniqlash uchun universal, oddiy, ishonchli asbob yaratish imkonini bermaydi. Bu vazifani faqat juda murakkab va qimmatbaho uskuna bilan jihozlangan mutaxassislar bajara oladilar. Shu sababli xavfli biologik (bakteriologik) vositalar va kimyoviy moddalarni aniqlashning asosiy usullaridan biri

ularni pochta jo'natmalarining tashqi belgilari bo'yicha aniqlash hisoblanadi.

Radioaktiv moddalar pochta jo'natmalarida quyidagi texnik vositalar yordamida aniqlanishi mumkin: «DRG-01T1», DP-5 (A, B) turidagi dozimetrlar, radioaktiv nurlanishning portativ signalizatorlari («NPO-3», «MIG-1», «GIR-1», «PS-D-8» turidagi).

7.3. Pochta xavfsizligi bo'yicha o'qitish va yo'l-yo'riq ko'rsatish

Aloqa xodimlari tomonidan ehtiyot choralarining talablarini tushunish, ularning ishtiroki va o'zlariga olgan majburiyatlari xavfsizlik sohasidagi ogohlantiruvchi choralarning puxta ishlab chiqilgan dasturining muhim elementlari hisoblanadi.

Ko'pgina holatlarda aloqa xodimlari xavfsizlikning birinchi bo'g'ini hisoblanadilar, ularning hushyorliklari xavfsizlik xizmatiga xabardorlikning ma'lum darajasini saqlab turish va qarshi harakatlarni amalga oshirish imkonini beradi. Xodimlar orasida kuzatish, eshitish va qo'yilgan masalaga munosabat bildirish, shuningdek, xavfsizlikning buzilishi to'g'risida dastlabki bosqichlarda xabar berishni asoslash darajasi qancha yuqori bo'lsa, qabul qilinadigan ogohlantiruvchi choralari ham shunchalik samaraliroq va muvaffaqiyatliroq bo'ladi.

Xavfsizlikni kerakli nazorat qilish ishga qabul qilish vaqtidan boshlanadi. Ishga qabul qilishdan avvalgi davriy ravishda yangilanib turadigan anketa ma'lumotlarini tekshiruvlaridan o'tishda qonunbuzarliklarga yo'l qo'yilgan shaxslarni ishga qabul qilinishiga yo'l qo'ymaslik uchun foydalanish mumkin. Xodimlar ishga qabul qilinganlaridan so'ng, puxta ishlab chiqilgan tanishuv va samarali malakaviy tayyorgarlik kursidan boshlash muhim, bunda xavfsizlik choralariga rioya qilinishi zarurligi va muhimligiga alohida e'tibor

berish kerak. Jinoyat sodir qilinishining oldini olish choralariga o'qitish va xabardorlikni oshirish hamda talonchilik va o'g'irlikning oldini olishga yo'naltirilgan yo'l-yo'riq ko'rsatish shunga o'xshash muammolar paydo bo'lishining oldini olishi mumkin. Xavfsizlik choralarini ta'minlashda ishtirok etish uchun doimiy ravishda xodimlarni jalb qilish, yo'l-yo'riq ko'rsatish va ularning malakasini oshirish uchun o'qitish, shuningdek, xavfsizlik bo'yicha manfaatdor xodimlarning barchaga barobar va samimiyligi xavfsizlik va ogohlantiruvchi choralarning xodimlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirishi mumkin. Aloqa xodimlarini pochta xavfsizligiga o'qitish uzluksiz va ko'p darajali xarakterga ega bo'lib, yo'l-yo'riq ko'rsatish va ma'ruzalar, suhbatlar, seminarlar, shuningdek, amaliy mashg'ulotlar shaklida o'qitish usullari bilan amalga oshiriladi.

Aloqa xodimlariga pochta xavfsizligi bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatish boshlang'ich yo'l-yo'riq ko'rsatish, ish joyida yo'l-yo'riq ko'rsatish, navbatdan tashqari va davriy yo'l-yo'riq ko'rsatishga bo'linadi. Xodimlar boshlang'ich yo'l-yo'riq ko'rsatish va ish joylarida lavozim yo'riqnomalariga muvofiq ko'rsatma olganlaridan so'ng mustaqil ishlashga yo'l qo'yiladi. Qandaydir sabablarga ko'ra (ta'til, safar, kasallik va h.k.) belgilangan vaqtda ko'rsatma olmay qolganlarida, ular ishga chiqqan kunlari ko'rsatma olishlari kerak bo'ladi.

Boshlang'ich yo'l-yo'riq ko'rsatish, ish joyida yo'l-yo'riq ko'rsatishni va davriy yo'l-yo'riq ko'rsatishni pochta xavfsizligi xodimlari PXX tomonidan ishlab chiqilgan dastur bo'yicha o'tkazadilar. Yo'l-yo'riq ko'rsatishning davriyligi tasdiqlangan dasturga muvofiq belgilanadi. Pochta xavfsizligi bo'yicha boshlang'ich yo'l-yo'riq ko'rsatish ma'lumoti, ushbu kasb bo'yicha ish staji yoki lavozimidan qat'i nazar yangi ishga qabul qilinadiganlar va vaqtinchalik ishlayotganlar, ishlab chiqarishga oid o'qishga yoki amaliyotga kelgan talabalarning barchasi bilan o'tkaziladi.

Pochta xavfsizligi bo'yicha ish joyida yo'l-yo'riq ko'rsatishni bevosita rahbarlar (aloqa bo'limlari, uchastkalar, sexlar, brigadalar boshliqlari) barcha yangi ishga qabul qilinganlar bilan, ular uchun yangi bo'lgan ishlarni bajaradigan xodimlar bilan, ishlab chiqarishga oid o'qishga yoki amaliyotga kelgan talabalar bilan, pochta aloqasi obyektining hududida qurilish-montaj ishlarini bajarayotgan quruvchilar bilan o'tkazadilar.

Pochta xavfsizligi bo'yicha ish joyida yo'l-yo'riq ko'rsatish har bir xodim bilan pochta xavfsizligini ta'minlash usullari va vositalarini amalda ko'rsatgan holda yakkama-yakka o'tkaziladi. Ish joyida yo'l-yo'riq ko'rsatish og'zaki savol-javob orqali bilimlarini tekshirish bilan yakunlanadi. Bilimlarni yo'l-yo'riq ko'rsatgan xodim tekshiradi. Pochta xavfsizligi bo'yicha qoniqarsiz bilimlarga ega bo'lgan shaxslarning mustaqil ishlashiga yo'l qo'yilmaydi va ular qayta yo'l-yo'riq olishga majburlar.

Boshlang'ich yo'l-yo'riq ko'rsatish va ish joyida yo'l-yo'riq ko'rsatish vaqtida quyidagi masalalar bo'yicha axborot taqdim etiladi:

- pochta aloqasining hududiy (viloyat) tashkiloti, obyekti to'g'risida, pochta aloqasining hududiy (viloyat) tashkiloti, obyekti joylashgan hududdagi obyektni qo'riqlashning o'ziga xos xususiyatlari, nazorat-o'tkazish rejimining amalga oshirilishi, jinoiy holat to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar;

- pochta aloqasi obyektida FV tushunchasi. Pochta aloqasi obyektida FVning mumkin bo'lgan ko'rinishlari;

- u yoki boshqa ko'rinishdagi favqulodda hodisa yuz berganida xodimning amalga oshiradigan harakatlari;

- pochta jo'natmalaridagi portlatish qurilmalarini, biologik (bakteriologik) vositalarni, kimyoviy va radioaktiv moddalarni aniqlash va ularni tasniflash usullari;

- xavfli pochta jo'natmasi aniqlanganda xavfsizlik choralari;

— pochta jo‘natmasida biologik (bakteriologik) vositalar, kimyoviy va radioaktiv moddalar, portlatish qurilmalari (portlash xavfi) borligi to‘g‘risida telefon orqali axborot olinganda xodim amalga oshiradigan ishlar tartibi;

— pochta aloqasi obyektida favqulodda hodisa yuz berganida ma’lumot uzatish tartibi;

— FV yuzaga kelganligi to‘g‘risida axborot olinganda pochta aloqasining filiali, obyekti bo‘yicha navbatchining bajaradigan ishlari;

— yakka tartibdagi himoya vositalari va ulardan foydalanish qoidalari;

— pochta aloqasi obyekti bo‘yicha navbatchining majburiyatlari va huquqlari;

— nazorat-o‘tkazish rejimi to‘g‘risida tushuncha. Nazorat-o‘tkazish rejimi buzilishining ko‘rinishlari. Ishlayotgan xodim, tashrif buyuruvchilar va transport vositalarini pochta aloqasining hududiy (viloyat) tashkiloti, obyektiga o‘tkazish tartibi;

— FV yuzaga kelganda ishlayotgan xodimlar va tashrif buyuruvchilarni evakuatsiya qilish qoidalari;

— pochta jo‘natmalari va pul mablag‘larining saqlanishini ta’minlash;

— pochta jo‘natmalari va pul mablag‘larini kuzatib borish tartibi;

— yakka tartibdagi himoya vositalaridan foydalanishda xavfsizlik choralari;

— pochta talyonlarning xavfsizligini ta’minlash usullari va vositalari;

— pochta xavfsizligini buzish, pochta jo‘natmalari va pul mablag‘larini o‘g‘irlash uchun javobgarlik.

Pochta xavfsizligi bo‘yicha navbatdan tashqari yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish quyidagi hollarda o‘tkaziladi:

— pochta xavfsizligining yangi yoki qayta ko‘rib chiqilgan normativ hujjatlari amalga kiritilganda;

— yuqori turuvchi tashkilotlarning buyruqlari, farmoyishlarining talablarini bajarish maqsadida;

— favqulodda hodisalarni bartaraf qilish bo'yicha mashg'ulotlar va mashqlar o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda;

— FVga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan pochta xavfsizligi talablari xodimlar tomonidan buzilganda;

— huquqni muhofaza qilish organlari, FVV bo'linmalari rahbarlari (o'rinbosarlari)ning tashabbusiga ko'ra.

Pochta xavfsizligi bo'yicha navbatdan tashqari yo'l-yo'riq ko'rsatishning hajmi va mazmuni uni o'tkazish zaruratini yuzaga keltirgan sabablar va holatlarga bog'liq holda har bir aniq holat uchun belgilanadi.

Pochta xavfsizligi bo'yicha davriy yo'l-yo'riq ko'rsatish har bir xodim bilan alohida yoki bir turdagi ishni bajaradigan xodimlar guruhi bilan o'tkaziladi. Davriy yo'l-yo'riq ko'rsatish navbatdan tashqari yo'l-yo'riq ko'rsatish bo'yicha axborot yetkazilganligi hisobga olingan holda ish joyida o'tkaziladigan yo'l-yo'riq ko'rsatishga o'xshash o'tkaziladi.

Pochta xavfsizligi xodimlarini ishga qabul qilishda ular pochta xavfsizligi bo'yicha o'qishlari kerak.

Pochta xavfsizligi bo'yicha o'qitish ma'ruzalar, suhbatlar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar shaklida o'tkazilishi ko'zda tutilgan tasdiqlangan o'quv dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi va imtihon bilan yakunlanadi. Imtihon biletlari pochta xavfsizligi bo'yicha normativ hujjatlar talablari va imtihon topshiruvchilarning lavozimi hisobga olingan holda ishlab chiqiladi.

Pochta xavfsizligiga o'qitish IIV, MXX, FVV, Sog'liqni saqlash vazirligi bo'linmalarining tegishli mutaxassislarini jalb qilgan holda o'tkazilishi mumkin.

Aloqa xodimlarini pochta xavfsizligi masalalariga muntazam o'qitish bilan bir qatorda ular bilan pochta aloqasi obyektlarida favqulodda hodisalarga yo'l qo'ymaslik yoki ularning oqibatlarini kamaytirish bo'yicha mashg'ulotlar va mashqlar

o'tkazib turish juda muhim. Mashg'ulotlar va mashqlarning o'tkazilishi aloqa xodimlarining FVni bartaraf etish va oqibatlarini kamaytirish bo'yicha to'g'ri harakatlarni amalga oshirishlarini ta'minlaydi.

7.4. Fuqarolik muhofazasi bo'yicha mashg'ulotlar va mashqlar o'tkazish

FM bo'yicha mashg'ulotlar va mashqlar quyidagi maqsadlarda tashkil etiladi va o'tkaziladi:

- boshqaruv organlari, kuchlar va vositalarni tabiiy, texnogen xarakterdagi FV va terroristik aktlar tahdid qilgan va yuzaga kelgan sharoitlarda bajariladigan harakatlarga tayyorlash;

- topshiriqlarni mustaqil va IIV, MV, MXX strukturalarining boshqa tuzilmalari va bo'linmalari bilan birgalikda bajarish uchun FM tuzilmalari harakatlarini tartibga solish, shuningdek, shtatdagi mulk va texnikani qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishga o'rgatish;

- FV yuzaga kelish xavfi sharoitlarida qilinadigan harakatlar vaqtida aloqa xodimlari o'zlarining majburiyatlarini amalda o'zlashtirib olishlari;

- FM tuzilmalari shaxsiy tarkibida yuqori darajadagi ma'naviy-psixologik sifatlarni shakllantirish;

- FM bo'yicha rejalarni ishlab chiqishda reallikni tekshirish va kamchiliklarni aniqlash;

- boshqaruv organlari va FM tuzilmalarining tashkiliy-shtat strukturasi, harakatlarining usullari va yo'llarini takomillashtirish;

- FM kuchlari va vositalarini doimiy tayyor holatda saqlash;

- obyektlarning barqaror ishlashini ta'minlash bo'yicha va FV zarar keltirishining oldini olish, kengayishiga yo'l qo'ymaslik, oqibatlarini tugatish maqsadida tadbirlar ishlab chiqish;

— aloqa xodimlarini hayot faoliyati xavfsizligi asoslariga o'rgatish.

FM bo'yicha mashg'ulotlar quyidagilarga bo'linadi:

- KSHM va qo'mondonlik-shtab mashg'ulotlari;
- MTM;
- OM;
- kompleks mashg'ulotlar.

KSHM yoki mashqlar vazirliklar va idoralarda, korxonalarda, muassasalar va tashkilotlarda yilda bir marta, bir sutka davomida o'tkaziladi. KSHM rahbar xodimlar, FM tuzilmalari, aloqa xodimlarini tayyorlashning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi va rahbar xodimlarga FM tadbirlarini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lish, yuzaga kelgan vaziyatni obyektiv baholash, eng maqsadga muvofiq qarorlar qabul qilish, bajaruvchilar va tashkilotlar oldiga topshiriqlar qo'yish va ularning bajarilishini tashkil qilish imkonini beradi. Mashg'ulotlarda hududda terroristik aktlar oqibatida yuzaga kelgan tabiiy ofatlar, avariya, halokatlar, FVda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sharoitlarga maksimal darajada yaqin bo'lgan murakkab sharoitlarda xodimlar, obyektlarni himoya qilish, qilinadigan harakatlarga o'rgatish bo'yicha tadbirlarga rahbarlik qilish masalalari puxta o'rganiladi. KSHM «boshliq o'ziga bo'ysunadigan xodimlarni o'rgatadi» prinsipi bo'yicha tashkil etiladi va o'tkaziladi. Odatda, KSHMni tayyorlash va o'tkazish bo'yicha barcha ishlarning asosiy tashkilotchisi obyektidagi FM shtabining boshlig'i hisoblanadi.

Mashg'ulotni FM tadbirlarini: rahbarlar shtabi, FM tuzilmalari, evakuatsiya qiluvchi organlar tomonidan boshqarishni puxta o'rganishni ta'minlovchi, «Tabiiy, texnogen xarakterdagi FV oldini olish va tugatish bo'yicha ishlar rejasi»da ko'zda tutilgan kompleks mavzular bo'yicha tayyorlash va o'tkazish kerak.

KSHMni o'tkazishdan oldin FM obyektlarining holatini kompleks ravishda tekshirish va rahbar xodimlarni tayyorlash

(ma'ruzalar, guruh mashg'ulotlari va mashqlar) o'tkaziladi. Bu boshqaruv organlarining ularga topshirilgan topshiriqlarni bajarishga tayyorligini ma'lum darajada saqlab turishni ta'minlaydi. Obyektdagi FM boshlig'i (yoki boshliq o'rinbosari) KSHM rahbari hisoblanadi.

KSHMni o'tkazish vaqtida FM tadbirlarini birgalikda o'tkazilishiga rahbarlik qilish bo'yicha masalalarni amalda puxta o'rganish va davlat boshqaruvining hududiy organlari, vazirliklar, idoralar, hududiy tezkor xizmatlar va FM tuzilmalarining tarkibiy bo'linmalari bilan birgalikdagi ishlarni tashkil etishda amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish ta'minlanishi kerak.

Olti soatgacha davom etadigan MTM, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning tuzilmalari bilan 3 yilda bir marta, yuqori darajada tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak bo'lgan tuzilmalar bilan — har yili o'tkaziladi. MTM FM tuzilmalaridan tinchlik paytida va «maxsus davr»da topshiriqlarni vazifasi bo'yicha bajarish uchun tayyorlashning asosiy va ko'p samara beradigan shakli hisoblanadi.

Jalb etiladigan FM tuzilmalarining soni mashg'ulot mavzusiga, o'quv maqsadlari va o'quv topshiriqlariga, shuningdek, mashg'ulot vaqtida o'tkaziladigan amaliy ishlar hajmi va xarakteriga bog'liq.

Mashg'ulotlar quyidagi maqsadlarda tashkil etiladi va o'tkaziladi:

a) avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni, shuningdek, obyektlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni tashkil qilishda rahbar xodimlar, qo'mondon-boshliq xodimlarning FM tuzilmalarini boshqarishdagi amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish;

b) FM topshiriqlarini mustaqil va manfaatdor vazirliklar va idoralarning boshqa tuzilmalari bilan birgalikda bajarish uchun FM tuzilmalarini tayyorlash va ishlarini tartibga solish;

d) FV vaqtida ishlarni bajarishda obyekt xodimlari tomonidan o'z majburiyatlarini amalda o'zlashtirib olish;

e) FM tuzilmalarining shaxsiy tarkibida yuqori darajadagi ma'naviy-psixologik sifatlarni hosil qilish.

OM uch yilda bir marta olti soatgacha o'tkaziladi. OM — bu tashkil etish bo'yicha soddalashtirilgan, bajariladigan tadbirlar va o'tkazish vaqti bo'yicha qisqartirilgan mashg'ulotlardir. Ular KSHM, MTMdan, asosan, faqat obyekt bo'yicha FMning tegishli rejalari (yoki FMning ma'lum topshiriqlari) tomonidan belgilanadigan tadbirlarni amalda bajarilishini ko'zda tutishi bilan farq qiladi.

OMning asosiy vazifasi — aloqa xodimlarini himoya qilishning asosiy, eng samarali usullari va yo'llarini, shuningdek, FVda obyekt ishining barqarorligini oshiruvchi tadbirlarni o'tkazish ishlarini puxta o'rganish.

OMda ishtirok etish uchun quyidagilar jalb etiladi: rahbar xodimlar, FM tuzilmalari. U obyekt hududida moddiy bazadan maksimal darajada foydalangan holda o'tkaziladi. Obyektning ishlab chiqarish faoliyati to'xtamaydi. Mashqlar obyekt uchun qulay vaqtda o'tkaziladi. Bu esa ish vaqti yo'qotilishini minimumgacha kamaytiradi. OMni tayyorlash shaxsan FM boshlig'i tomonidan obyektning ishlab chiqarish faoliyatini va FM tashkil etilganligini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar va OM (bundan keyin — mashg'ulotlar)ni tayyorlash uni o'tkazishga kamida ikki oy qolganida kechiktirmasdan boshlanadi. Mashg'ulotlarni tayyorlash va o'tkazish uchun quyidagi hujjatlar ishlab chiqiladi:

- tashkiliy ko'rsatmalar;
- FM boshlig'ining buyrug'i;
- mashg'ulotni tayyorlashning taqvim rejasi;
- mashg'ulot o'tkaziladigan tumanni tekshirib chiqish rejasi;
- mashg'ulot g'oyasi;
- mashg'ulotlarni o'tkazish rejasi;

- mashgʻulotlarni imitatsiya qilish rejas;
- mashgʻulotlar rahbarining oʻrinbosarlari, yordamchilarining alohida rejalari.

Mashgʻulotlarni tayyorlash va oʻtkazish toʻgʻrisidagi buyruq ishlab chiqiladi va uni oʻtkazishga kamida bir yarim oy qolganida bajaruvchilarga yetkaziladi. Unda mashgʻulotlarni oʻtkazish vaqti, oʻqitiladiganlar tarkibi va ularni tayyorlash tartibi, amaliy tadbirlar oʻtkaziladigan joylarni tayyorlash boʻyicha ishlar muddatlari va hajmi, masʼul ijrochilar koʻrsatiladi. Buyruq FM shtabining boshligʻi tomonidan ishlab chiqiladi va obyekt rahbari tomonidan imzolanadi. Mashgʻulotlar tadbirlarini oʻrganish uchun IIV, FVV, Sogʻliqni saqlash vazirligi tezkor xizmatlarining hududiy boʻlinmalari jalb qilinadi.

Mashgʻulotlarga tayyorgarlik koʻrish taqvim rejasiga muvofiq amalga oshiriladi. Taqvim reja rahbar xodimlarning ishchi hujjati hisoblanadi. Tayyorgarlik koʻrish rejasida sharoitni baholash vaqtida koʻrib chiqilgan masalalar aks ettiriladi va tayyorgarlik davrida mashgʻulot rahbari oʻtkazadigan tadbirlar koʻzda tutiladi, oʻqitiladiganlar aniqlanadi va ularni bajarish uchun zarur nazorat amalga oshiriladi.

Mashgʻulotga tayyorgarlik koʻrishning taqvim rejasini tuzishda tadbirlar navbati, ularni oʻtkazish muddatlari va masʼul ijrochilar koʻrsatiladi. Taqvim rejasida mashgʻulotlar rahbari tomonidan imzolanadi va obyekt rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Taqvim rejasida quyidagilar koʻrsatiladi:

- mashgʻulotlar rahbar xodimlarini, qoʻmondon-boshqaruv hamda tuzilmalarning barcha shaxsiy tarkibini, mashgʻulotlarda qatnashadigan boshqa ishchi va xizmatchilarni tayyorlash boʻyicha tadbirlar;

- mashgʻulotlar boʻyicha hujjatlarni ishlab chiqish muddatlari va ishlab chiqish uchun javobgar shaxslar;

- mashgʻulot oʻtkazish va imitatsiya qilish tumanini tayyorlash boʻyicha tadbirlar;
- aloqa va komendantlik xizmatini tashkil qilish;
- mashgʻulotning moddiy-texnik va tibbiy taʼminoti boʻyicha tadbirlar.

Rejani aniqlashtirish maqsadida qutqaruv ishlari oʻtkaziladigan obyektlar joylarining xarakteri va oʻziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi tekshirib chiqish rejasi, shuningdek, ishlarning tabiiy uchastkalarini jihozlash uchun kuchlar va mablagʻlarning kerakli soni ishlab chiqiladi.

Mashgʻulotlarni rejalashtirish uchun dastlabki maʼlumotlar oʻrganilganidan soʻng mashgʻulot rahbari yoki uning topshirigʻi boʻyicha mansabdor shaxs mashgʻulot gʻoyasini ishlab chiqadi.

Mashgʻulotlar mavzusi va maqsadini tanlashda obyekt rahbari mashgʻulot gʻoyasida oldindan aytib beriladigan va ushbu hududga koʻproq xos boʻlgan, obyektning qoʻriqlashning ishonchligiga, uning tabiiy ofatlarga chidamliligiga va texnogen avariyalarga qarshi kurashish boʻyicha tadbirlarning yetarliligiga taʼsir koʻrsatadigan vaziyatlarni maksimal darajada aks ettirishi kerak.

Mashgʻulotlar gʻoyasi matn bilan yoki xaritada (sxemada) rasmiylashtiriladi.

Mashgʻulotlarni oʻtkazish vaqtida rahbar xodimlar tomonidan qoʻllanadigan asosiy uslubiy yoʻllar quyidagicha boʻlishi kerak:

a) boʻysunadigan zvenolarga rahbarlik qilishni amalga oshirishda boshliqlarning ish uslubi va qoʻllaydigan usullarini oʻrganish;

b) ular tomonidan amaliy tadbirlar oʻtkazilishida oʻquvchilarning ishlarini kuzatish va nazorat qilish;

d) ishlab chiqilgan hujjatlarni oʻrganish;

e) mansabdor shaxslarning yuzaga kelgan sharoit, qabul qilingan qarorlar, berilgan koʻrsatmalar va oʻtkazilgan tadbirlar toʻgʻrisidagi maʼruzalarini eshitish.

Mashg'ulotlarning boshlanishi mashg'ulotlar turi, g'oyasi, mazmuniga bog'liq va shuningdek, rahbar xodimlar, FM tuzilmalari yig'ilishini yoki rejada ko'zda tutilgan boshqa masalalarni e'lon qilishdan (xabar qilishdan) boshlanishi mumkin.

Xabar berish va FM tuzilmalarini tayyor holatga keltirish tartibi tegishli rejalarda bayon qilingan. Bunda belgilangan normativ ko'rsatkichlar puxta o'rganiladi.

Bevosita mashg'ulotlardan oldin barcha qatnashchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatiladi, ushbu ko'rsatmalarda qatnashchilar mashg'ulotlar vaqtida duch kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar va xavfsizlik qoidalari to'g'risida ma'lumot oladilar. Mashg'ulot masalalarini puxta o'rganish obyekt rahbar xodimlariga, FM shtablariga FV vaqtida o'z funksional majburiyatlarini bajarishda o'zlarining bilimlari va ko'nikmalarini takomillashtirish imkonini beradi.

Mashg'ulotlar o'tkazish bosqichining barcha masalalarini puxta o'rganishda mashg'ulot rahbarlari, shtab va vositachilar ishlab chiqilgan hujjatlar va berilgan farmoyishlarni o'rganadilar, ishlab chiqilgan takliflarni tahlil qiladilar, mansabdor shaxslarning dokladlarini eshitadilar va FM tuzilmasining to'planadigan joyi va vaqti to'g'risida, shaxsiy tarkib va texnikani tekshirish to'g'risida, shuningdek, mashg'ulotlarni tahlil qilish joyi va vaqti to'g'risida ko'rsatmalar beradilar.

Har bir bosqichning mashg'ulot masalalari puxta o'rganilganidan so'ng mashg'ulot rahbari aniqlangan kamchiliklar va ijobiy tomonlarni belgilab dastlabki xulosalarni chiqaradi, o'tkazilgan bosqich bo'yicha yakun yasaydi. Mashg'ulot masalalarini puxta o'rganish vaqtida mashg'ulotning har bir bosqichida bajarilishi kerak bo'lgan barcha tadbirlar batafsil tahlil qilinadi.

Tahlil qilish mashg'ulotning yakunlovchi qismi hisoblanadi. Tahlil qilishdan maqsad har tomonlama tahlil

qilish asosida mashg'ulotlarga yakun yasash va o'quv maqsadlariga qay darajada erishilganligi va o'quv topshiriqlari qay darajada bajarilganligini aniqlash, kamchiliklarni ko'rsatishdan iborat.

Nazorat savollari

1. Terrorizmga ta'rif bering. Terrorizmning qanday turlarini bilasiz?
2. Pochta jo'natmalaridagi portlatish qurilmalarini tashqi belgilari bo'yicha va texnik vositalarni qo'llagan holda aniqlashning qanday usullari bor?
3. Terroristlar biologik (bakteriologik) vositalar, kimyoviy va radioaktiv moddalardan qanday foydalanadilar?
4. Aloqa xodimlariga pochta xavfsizligi bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatishning qanday turlarini bilasiz?
5. Boshlang'ich yo'l-yo'riq ko'rsatish va ish joyida yo'l-yo'riq ko'rsatishda qanday masalalar bo'yicha axborot beriladi?
6. FM bo'yicha qanday mashg'ulotlar va mashqlar qanday maqsadlarda o'tkaziladi?

**8-BOB. JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN
DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA VA
TERRORIZMNI MOLIYALASHTIRISHGA
QARSHI KURASHISH BO‘YICHA ICHKI
NAZORATNI AMALGA OSHIRISH**

**8.1. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni
legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga
qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar**

Moliyaviy tranzaksiyalar shiddatligida erishilgan taraqqiyot, jumladan, Internet-texnologiyalardan, elektron banking va boshqalardan foydalanishda faqatgina legal strukturalarnigina (moliyaviy institutlar, hukumatlar, kompaniyalar, jismoniy shaxslar) emas, balki o‘zining foydasini ko‘paytirish uchun yoki noqonuniy faoliyatni moliyalashtirish uchun barcha texnologik yutuqlardan foydalanadigan noqonuniy (jinoiy, terroristik) guruhlarini ham o‘ziga jalb qiladi.

Pullarni legallashtirish bilan kurashishning moliyaviy choralarini ishlab chiqish guruhi a‘zo bo‘lgan davlatlar vazirlarining qarori bilan 1989-yilda tashkil etilgan hukumatlararo organ bo‘lib hisoblanadi. FATF mandati pullarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy yo‘qotish qurollari tarqatilishini hamda xalqaro moliyaviy tizim butunligiga boshqa tahdidlar bilan bog‘liq moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha standartlarni belgilash va huquqiy, tartibga soluvchi hamda tezkor choralarning samarali qo‘llanishiga yordam berishni ko‘zda tutadi. Boshqa manfaatdor xalqaro ishtirokchilar bilan

hamkorlikda FATF xalqaro moliyaviy tizimni suiiste'mol-lardan himoya qilish maqsadida milliy darajadagi zaif joylarni aniqlash ustida ham ishlamoqda.

FATF tavsiyalari pullarni legallashtirish va terrorizumni moliyalashtirish, shuningdek, ommaviy qirg'in qilish quroli tarqatilishini moliyalashtirishga qarshi kurashish uchun mamlakatlar qo'llashi kerak bo'lgan choralarning kompleks va izchil strukturasini belgilaydi. Mamlakatlar turli huquqiy, ma'muriy va tezkor strukturalarga hamda turli moliyaviy tizimlarga ega, shunga bog'liq holda bu tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha o'xshash choralar qabul qila olmaydilar. Shu sababli mamlakatlar xalqaro standartlar bilan belgilanadigan FATF Tavsiyalarini o'zlarining muayyan sharoitlariga moslashtirishlari kerak. Tavsiyalar quyidagilarni bajarish uchun mamlakatlar ega bo'lishlari kerak bo'lgan kerakli choralarni belgilaydi:

- mamlakat ichida ehtimoliy xavflarni aniqlash, siyosatni ishlab chiqish va muvofiqlashtirishni amalga oshirish;

- pullarni legallashtirish, terrorizumni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolining tarqatilishini moliyalashtirishni ta'qib qilish;

- moliyaviy sektor va boshqa belgilangan sektorlar uchun ogohlantiruvchi choralarni qo'llash;

- vakolatli organlar (masalan, tergov, huquq-tartibot va nazorat organlari)ning vakolatlari va javobgarligini hamda boshqa institutsional choralar;

- yuridik shaxslar va tuzilmalarning benefitsiar mulki to'g'risidagi axborotning oshkoraligi va foydalana olish mumkinligini mustahkamlash;

- xalqaro hamkorlikni ta'minlash.

YOG — FATF (FATF) turidagi regional guruh. YOGga to'qqizta davlat kiradi: Belarus, Hindiston, Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston va

O'zbekiston. YOG pullarni legallashtirishga qarshi kurashishning moliyaviy choralarini ishlab chiqish guruhining assotsiatsiyalangan a'zosi hisoblanadi.

YOG faoliyati mintaqa davlatlariga pullarni legallashtirishga va TMga qarshi kurashishning kerakli huquqiy va institutsion asoslarini yaratishda yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish — bu mulkka (pul mablag'lari yoki boshqa mulkka) uni o'tkazish, aylantirish yoki almashtirish yo'li bilan egalikning paydo bo'lishiga huquqiy qiyofa beruvchi jinoiy javobgarlikka tortiladigan jamiyat uchun xavfli harakatdir. Bu esa, agar pul mablag'lari yoki boshqa mulk jinoiy faoliyat natijasida olingan bo'lsa, pul mablag'lari yoki boshqa mulkning asl xarakterini, manbayini, joylashgan joyini, egalik qilish usulini, aylanishini, unga nisbatan asl huquqlarni yoki uning tegishlilikini yashirish yoki sir tutish bilan barobar.

TM, shuningdek, terroristik tashkilot mavjudligini va faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga, terroristik aktlarni tayyorlash va amalga oshirishga, terroristik tashkilotlarga yoxud terroristik faoliyatga yordam ko'rsatadigan yoki ishtirok etadigan boshqa shaxslarga har qanday mablag'lar, resurslarni, boshqa xizmatlarni bevosita yoki bilvosita taqdim etish yoki yig'ish uchun yo'naltirilgan, jinoiy javobgarlikka tortiladigan jamiyat uchun xavfli harakatdir.

Korrupsiya va pul mablag'larini legallashtirish aslini olganda bir-biri bilan bog'liq. Poraxo'rlik va davlat fondidan o'g'irlik qilish kabi boshqa jiddiy jinoyatlar bilan taqqoslanadigan korrupsion jinoyatlar, odatda, shaxsiy foydaga ega bo'lish maqsadida amalga oshiriladi. Pul mablag'larini legallashtirish — bu jinoiy faoliyat natijasida olingan noqonuniy daromadlarni yashirish jarayonidir. Agar korrupsion jinoyatdan tushgan pullarni muvaffaqiyatli legallashtirishga erishilsa, qo'lga

kiritilgan noqonuniy daromadlarning musodara qilinishidan qoʻrqmay bermalol foydalanish mumkin.

Pullarni legallashtirish bilan kurash olib borish kun tartibidagi uyushtirilgan jiddiy jinoyat bilan kurashishda jinoyatchilarni nopok yoʻllar bilan olingan daromadlar olish erkinligidan mahrum qiladigan va nopok yoʻllar bilan olinadigan daromadlarni legallashtirishda yordam beradiganlarni qonun boʻyicha taʼqib qiladigan eng muhim masala hisoblanadi. FATF pullarni legallashtirish va TMning oldini olish boʻyicha choralar korrupsiya bilan kurashishga yordam berishini hisobga olgan holda korrupsiya va pullarni legallashtirish orasidagi aloqani tan oladi.

Pullarning legallashtirilishini globallashtirish yoki boshqa jahon jarayonlarining yangi koʻrinishlaridan biri deb boʻlmaydi, chunki olingan noqonuniy daromadlarni legallashtirish bilan bogʻliq jinoyatchilik allaqachon yetarli darajada har taraflama oʻrganilgan.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va TMga qarshi kurashish uchun yoʻnaltirilgan choralarga maxsus vakolatlarga ega davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat kiradi.

Pul mablagʻlarining pochta oʻtkazmalari bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan tashkilotlarning maxsus vakolatlangan davlat organiga xabar berishi kerak boʻlgan operatsiyalarni aniqlash boʻyicha faoliyati ichki nazorat hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish masalalari boʻyicha maxsus vakolatli organ boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasining Bosh prokurori huzuridagi Soliq, valuta jinoyatlari va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti hisoblanadi.

Maxsus vakolatlatga ega davlat organi:

— pul mablagʻlarining pochta oʻtkazmalari bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan tashkilotlar va jinoiy

faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga hamda TMga qarshi kurashishda ishtirok etadigan organlar ishini muvofiq-lashtiradi;

— qonun hujjatlariga muvofiq olinadigan pul mablagʻlari-ning pochta oʻtkazmalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar boʻyicha axborot tahlilini amalga oshiradi;

— yetarlicha asoslar mavjudligida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va TMga qarshi kurashish bilan bogʻliq pul mablagʻlarining pochta oʻtkazmalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar toʻgʻrisidagi materiallarni jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va TMga qarshi kurashishda ishtirok etadigan tegishli organlarga yuboradi;

— ana shunday operatsiyalar toʻgʻrisida olgan maʼlumot tekshiruv natijalariga koʻra isbotlangan boʻlsa, u pul mablagʻlarining pochta oʻtkazmalari bilan bajariladigan operatsiya-larni ikki ish kundan koʻp boʻlmagan muddatda toʻxtatish toʻgʻrisida koʻrsatma yuboradi;

— jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va TMga qarshi kurashish boʻyicha choralarni amalga oshirish uchun zarur axborotni, jumladan, avtomatlashtirilgan axbo-rot-maʼlumot tizimlarini MBdan soʻraydi va bepul oladi;

— qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Ichki nazoratni amalga oshirish vaqtida pul mablagʻlarining pochta oʻtkazmalari bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan shubhali deb tan olingan pul mablagʻlarining pochta oʻtkazmalari bilan amalga oshiriladigan va tayyorlanadigan operatsiyalar toʻgʻrisida maxsus vakolatga ega davlat organiga xabar berilishi kerak.

Amalga oshirishga tayyorlash, amalga oshirish jarayonida boʻlgan yoki amalga oshirilgan, pul mablagʻlarining pochta oʻtkazmalari bilan amalga oshiriladigan, ularga nisbatan ichki

nazorat qoidalari tomonidan belgilangan mezonlar va belgilarga muvofiq ularni jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va TM maqsadida amalga oshirilganligi to'g'risida shubha paydo bo'lgan operatsiyalar shubhali operatsiyalar deb tan olinadi.

Agar tomonlarning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va TMga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlikda qatnashmaydigan davlatda doimiy yashaydigan, bo'lgan yoki ro'yxatga olingan shaxs bo'lsa, pul mablag'larining pochta o'tkazmalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar maxsus vakolatga ega davlat organiga xabar berilishi kerak bo'lgan operatsiyalarga kiradi.

Pul mablag'larining pochta o'tkazmalari bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan tashkilotlar quyidagilarga majbur:

- mijozlarni kerakli tarzda tekshirish bo'yicha choralar ko'rishga;

- pul mablag'lari yoki boshqa mulk bilan maxsus vakolatga ega davlat organiga xabar berilishi kerak bo'lgan shubhali operatsiyalar aniqlanganida, bu organga aniqlangan kundan keyingi bir ish kunidan kechiktirmasdan ushbu operatsiyalar bo'yicha o'rnatilgan tartibda axborot berishga;

- «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonunda ko'zda tutilgan pul mablag'larining pochta o'tkazmalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni ushbu operatsiya amalga oshirilishi kerak bo'lgan sanadan boshlab uch ish kuniga to'xtatishga va maxsus vakolatga ega davlat organiga operatsiya to'xtatilgan kuni bunday operatsiya to'g'risida xabar berishga, yuridik yoki jismoniy shaxslarning hisobiga tushgan pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha operatsiyalar bundan mustasno. Maxsus vakolatga ega davlat organining pul mablag'larining pochta o'tkazmalari bilan

amalga oshiriladigan operatsiyalarni to'xtatish to'g'risida ko'rsatmasi yo'qligida ko'rsatilgan muddat tugaganidan so'ng pul mablag'larining pochta o'tkazmalari bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan tashkilot to'xtatilgan operatsiyani bajarishga kirishadi;

— ichki nazorat protseduralarini joriy etish va amalga oshirishga.

Maxsus vakolatga ega davlat organiga pul mablag'larining pochta o'tkazmalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar to'g'risida axborot taqdim etmaslik yoki taqdim etish muddatlarini buzish, ichki nazoratni tashkil etish, pul mablag'larining pochta o'tkazmalari bilan operatsiyalarni qonun hujjatlarida belgilangan holatlarda yoxud maxsus vakolatga ega davlat organining ko'rsatmasi bo'yicha to'xtatish bo'yicha choralar ko'rmaslik, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va TMga qarshi kurashish bilan bog'liq tijorat, bank va qonun tomonidan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etadigan ma'lumotlarni g'ayriqonuniy talab qilish, olish yoki oshkora qilish ma'muriy jazoga tortishga olib keladi.

Maxsus vakolatga ega davlat organi va uning xodimlari ularga ma'lum bo'lgan tijorat, bank sirini va boshqa sirni tashkil etgan ma'lumotlarning konfidensialligini va saqlanishini ta'minlashga majburdirlar.

Maxsus vakolatga ega davlat organi va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va TMga qarshi kurashishda qatnashadigan boshqa organlar pul mablag'larining pochta o'tkazmalari bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilot xodimlari ularga nisbatan nazorat o'tkazilishi to'g'risida yuridik va jismoniy shaxslarga ma'lumot berish huquqiga ega emaslar.

8.2. Pochta aloqasi korxonalarida ichki nazoratni tashkil etish

O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonunini bajarish maqsadida «Pochta aloqasi operatorlari, provayderlari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazoratni amalga oshirish qoidalari» normativ-huquqiy hujjati ishlab chiqilgan va amalga kiritilgan.

Ushbu normativ-huquqiy hujjat pochta aloqasi tizimida pul mablag'larining pochta o'tkazmalarini qabul qilish va yetkazib berish (topshirish)da jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va TMga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazoratni amalga oshirish tartibini belgilab beradi.

Pochta aloqasi obyektlaridagi ichki nazorat jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va TMga qarshi kurashishga yo'naltirilgan pochta o'tkazmalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni samarali aniqlash va oldini olish, aloqa xodimlarining jinoiy faoliyatga qasddan yoki tasodifan jalb qilinishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida amalga oshiriladi.

Ichki nazoratni o'tkazish bo'yicha pochta aloqasi obyektlari faoliyatining samaradorligiga quyidagilar natijasida erishiladi:

- pochta aloqasi obyektlari xodimlarini majburiy nazorat qilinishi va axborotning hujjat bo'yicha rasmiylashtirilishi kerak bo'ladigan operatsiyalarni aniqlash bo'yicha muntazam ravishda o'qitish va malakasini oshirish;

- pul o'tkazmalarini qabul qilish va to'lash bo'yicha aloqa xodimlarining ishini to'g'ri tashkil qilish;

— javobgar shaxslar tomonidan pochta aloqa uzellari (pochtamtlar), pochta bo'limlari ichki nazorat o'tkazilishi va ichki nazorat talablarining buzilishi faktlari bo'yicha xizmatga oid tekshiruvlar o'tkazilishining belgilangan talablariga rioya qilinishining monitoringini o'tkazish;

— ichki nazorat protseduralarini buzuvchi shaxslarga nisbatan ma'muriy ta'sir ko'rsatuvchi choralar ko'rish.

Ichki nazoratni tashkil qilish uchun mas'ul shaxslar pochta aloqasi hududiy tashkilotining rahbari tomonidan buyruq bilan rahbarlik lavozimini egallagan xodimlar ichidan tayinlanadilar. Mas'ul shaxslar pochta aloqasi hududiy tashkilotining o'zida va har bir pochta aloqasi uzeldida (pochtamtda) tayinlanadilar.

Ichki nazoratni tashkil qilish va unga rioya qilish uchun mas'ul shaxs quyidagilariga majbur:

— pochta aloqasi sohasidagi qonun hujjatlarini, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining normativ hujjatlarini bilishi;

— pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalari to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lishi, shuningdek, maxsus kurslarda muntazam malakasini oshirishi kerak.

O'z faoliyatida va shaxsiy xulqi bilan unga ishonib topshirilgan bo'linmani noto'g'ri boshqargan yoki ishlarni halol yuritmagan, shuningdek, iqtisod sohasidagi jinoyatlari uchun avval sud orqali jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar ichki nazoratni tashkil qilish va unga rioya qilish uchun mas'ul qilib tayinlanishi mumkin emas.

Mas'ul shaxslarga quyidagi majburiyatlar yuklanadi:

— ichki nazorat protseduralarini joriy qilish va amalga oshirishni hamda pochta aloqasi obyektlarida foydalanuvchilarning kerakli tekshiruvini tashkil qilish;

— ichki nazorat protseduralarini amalga oshirish vaqtida aniqlangan foydalanuvchilarning shubhali operatsiyalari yoki ishlari to'g'risida maxsus vakolatga ega davlat organiga o'z vaqtida axborot berish, shuningdek, maxsus vakolatga ega davlat organining qo'shimcha axborot taqdim etish to'g'risidagi talablarini bajarish;

— harakatlari shubhali operatsiyalar mezonlariga to'g'ri keladigan foydalanuvchilarga nisbatan keyingi qilinadigan ishlar to'g'risida qaror qabul qilish;

— pochta aloqasi obyektlari tomonidan ichki nazorat talablari bajarilishining tekshiruvlarini amalga oshirish;

— pochta aloqasi obyektlari xodimlarining majburiy tekshirilishi va hujjat bo'yicha rasmiylashtirilishi kerak bo'lgan operatsiyalarni aniqlash bo'yicha o'qitish va malakasini oshirishni tashkil qilish;

— foydalanuvchilarning tekshirilishi va identifikatsiya qilinishi kerak bo'lgan natijalarining tahlilini amalga oshirish;

— pochta aloqasining hududiy tashkiloti rahbariga va yuqori turuvchi tashkilotning boshqaruv apparatiga Qoidalar va ichki nazoratni amalga oshirish bo'yicha dasturlarni amalga oshirish natijalari to'g'risidagi hisobotni belgilangan muddatlarda taqdim etish;

— shubhali operatsiyalarni amalga oshirish yoki amalga oshirishga urinishlar to'g'risida, shubhali operatsiyalarni, shuningdek, davlat organlari, boshqa tashkilotlar bilan shunday axborot bilan o'zaro almashinishlarni amalga oshirgan foydalanuvchilar bilan bog'liq shaxslar (rahbarlar, ta'sischi) to'g'risida qonun hujjatlariga muvofiq MBni shakllantirish;

— pul o'tkazmalari bilan amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi axborot, shuningdek, identifikatsion ma'lumotlar va foydalanuvchilarni tekshirish to'g'risidagi materiallar

qonun hujjatlarida belgilangan muddatlar davomida saqlanishini ta'minlash;

— ichki nazoratni amalga oshirish vaqtida hujjatlarning saqlanishini va qaytarilishini ta'minlash;

— ichki nazorat protseduralarini amalga oshirish jarayonining konfidensialligini ta'minlash;

— benefitsiar mulk egalari, shuningdek, pulli operatsiyalarni amalga oshirishda foydalaniladigan pul mablag'larining kelib chiqish manbalarini aniqlash va o'rganish.

8.3. Majburiy nazorat qilinishi kerak bo'lgan operatsiyalarni aniqlash tartibi

Aloqa xodimlari quyidagi hollarda foydalanuvchilarni kerakli tarzda tekshirish choralari ko'radilar:

— foydalanuvchilar bilan xizmatga oid munosabatlarni o'rnatishda;

— pul o'tkazmalarini qabul qilish va yetkazib berish (topshirish) bo'yicha xizmat ko'rsatishda;

— amalga oshirilayotgan operatsiyalarning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va TMga qarshi kurashish maqsadlariga aloqadorligiga har qanday shubha uyg'onganida;

— identifikatsiya qilish uchun avval olingan ma'lumotlarning haqiqiyliги va ishonchliligiga gumon qilinganda.

Foydalanuvchilarni kerakli tarzda tekshirish xizmat ko'rsatishning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi.

Foydalanuvchini va benefitsiar mulk egasini identifikatsiya qilish bilan bir qatorda qonun hujjatlariga muvofiq ular tomonidan taqdim etiladigan hujjatlardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish uchun ularning vakolatlari tekshiriladi.

Foydalanuvchi operatsiyani bir marta yoki ko‘p marta amalga oshirish uchun murojaat qilganida mas’ul shaxslar quyidagilarga majbur:

- foydalanuvchini yoki operatsiya bo‘yicha foyda oluvchini Qoidalar yoki boshqa qonun hujjatlariga muvofiq identifikatsiya qilish;

- ushbu foydalanuvchining avval o‘tgan hisobot davrida (oy, chorak, yarim yillik, yilda, agar ko‘rsatmada bunday operatsiyalar to‘g‘risida ma’lumotlar bo‘lsa) amalga oshirgan operatsiyalarini o‘rganish;

- operatsiyaning turini va operatsiyaning foydalanuvchi — yuridik shaxs ta’ sis hujjatlarida ko‘rsatilgan faoliyat turlariga muvofiqlik darajasini aniqlash;

- operatsiyaning turini va foydalanuvchi — tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxsning davlat ro‘yxatiga olish to‘g‘risidagi guvohnomasida ko‘rsatilgan faoliyatiga muvofiqlik darajasini aniqlash;

- foydalanuvchi tomonidan taqdim etilayotgan axborotni foydalanuvchi to‘g‘risida davlat organlari va boshqa tashkilotlardan olingan ma’lumotlardan foydalanish, shuningdek, foydalanuvchining pochta aloqasi obyektlarining boshqa mas’ul shaxslari bilan o‘zaro munosabatlarini o‘rganish orqali tekshirish.

Yuridik va jismoniy shaxslarni identifikatsiya qilish jarayonida mas’ul shaxslar foydalanuvchining benefitsiar mulk egasini identifikatsiya qilish, jumladan, foydalanuvchining mulkka egalik strukturasi o‘rganish yo‘li bilan asosli va oddiy choralarni ko‘rishlari kerak. Yuridik shaxs tomonidan identifikatsiya qilish uchun zarur hujjatlar taqdim etilmaganda pul o‘tkazmalarini qabul qilish va to‘lash bo‘yicha aloqa xodimlari foydalanuvchilarga pul o‘tkazmalarini qabul qilish va/yoki to‘lash bo‘yicha operatsiyalarning amalga oshirilishini rad etishlari kerak.

Pul mablagʻlarini qabul qilish va toʻlash boʻyicha operatsiyalar quyidagi holatlarda shubhali deb tan olinishi mumkin:

- foydalanuvchi tomonidan zarurat tufayli talab qilinayotgan maʼlumotlarni, jumladan, vakolatnoma bergan shaxs toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni (agar foydalanuvchi ishonchli vakil boʻlsa) taqdim etishdan sababsiz bosh tortish (qonun hujjatlarida belgilangan holatlardan tashqari);

- foydalanuvchining amalga oshirilayotgan bitimga tegishli konfidensiallik masalalariga haddan tashqari qiziqishi;

- foydalanuvchi amalga oshirilishini talab qilayotgan operatsiyaning oʻtkazilishidagi asossiz shoshma-shosharlik;

- operatsiyalarni bir necha marta amalga oshirilishini aniqlash ularni amalga oshirishdan maqsad qonun hujjatlarida belgilangan nazorat protseduralaridan bosh tortish deb taxmin qilinishiga asos boʻladi;

- agar foydalanuvchi bir yoki 30 taqvim kuni mobaynida ichki nazorat Qoidalari tomonidan belgilangan summadan koʻp boʻladigan umumiy summaga ega boʻlgan pul oʻtkazmalarini joʻnatsa yoki olsa;

- agar foydalanuvchi pul mablagʻlarining chalkash yoki gʻayrioddiy xarakterga ega pul oʻtkazmalarini joʻnatsa yoki olsa (umumiy summadan qatʼi nazar bir yoki 30 taqvim kuni mobaynida turli manzillar boʻyicha 10 ta yoki undan koʻp pul oʻtkazmalarini joʻnatish);

- agar pul mablagʻlarining pochta oʻtkazmasini qandaydir sababga koʻra oluvchiga topshirish imkoniyati boʻlmasa (oluvchining pul oʻtkazmasini olishdan bosh tortishi, joʻnatuvchining qaytarilgan pul oʻtkazmasini qaytarib olishdan bosh tortishi, pul oʻtkazmasini mavjud boʻlmagan manzilga yoki mavjud boʻlmagan oluvchi nomiga joʻnatilishida, oluvchi daraksiz yoʻqolgan kabi hisoblanadi);

— agar foydalanuvchi — yuridik shaxs naqd pul bilan o‘zaro hisob-kitob qilinishini talab qilsa;

— agar foydalanuvchi yoki operatsiya ishtirokchilaridan biri doimiy yashovchi shaxs yoki jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va TMga qarshi kurashish sohasidagi o‘zaro hamkorlikda qatnashmaydigan davlatda doimiy yashaydigan, turadigan yoki ro‘yxatga olingan bo‘lsa;

— identifikatsiya qilishni yakunlash imkoniyatining yo‘qligi yoki kerakli tekshiruvlar natijalari bo‘yicha foydalanuvchi bilan xizmatga oid munosabatlarni o‘rnatish maqsadga muvofiq emasligini ko‘rsatadigan ma‘lumotlarni olish;

— operatsiyani amalga oshirishda foydalaniladigan pul mablag‘lari jinoiy kelib chiqishga egaligiga har qanday shubhalarning mavjudligi.

Operatsiyani shubhali deb bilish Qoidalarda, belgilangan shubhalilik mezonlaridan foydalangan holda o‘tkaziladigan kompleks tahlil asosida har bir muayyan holatda, shuningdek, foydalanuvchining turiga ko‘ra aniqlanadigan xavf-xatarga bog‘liq holda, pul mablag‘lari pochta o‘tkazmalarining maqsadlari va o‘lchamlari hamda shubhali operatsiyalarni to‘g‘ri aniqlash uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa holatlar asosida amalga oshiriladi.

Foydalanuvchining operatsiyasi shubhali deb tan olinganidan so‘ng pochta aloqasi hududiy tashkilotining mas‘ul shaxsi foydalanuvchiga nisbatan keyingi qilinadigan ishlar, jumladan, quyidagilar to‘g‘risida qaror qabul qiladi:

— maxsus vakolatga ega davlat organiga shubhali operatsiya to‘g‘risida xabar berish;

— foydalanuvchi bilan operatsiyalarni o‘tkazishga alohida e‘tibor qaratish zarurati;

— foydalanuvchi bilan munosabatlarni to‘xtatish;

Belgilangan tartibda o‘tkaziladigan operatsiyaning tomonlaridan biri quyidagilar ekanligi to‘g‘risidagi axborot

mavjudligida pul mablag'larining pochta o'tkazmalari bilan amalga oshirilgan har qanday operatsiya haqidagi ma'lumot to'g'risida maxsus vakolatga ega davlat organiga xabar berilishi kerak:

- terroristik faoliyatda qatnashayotgan yoki qatnashishda gumon qilinayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs ekanligi;

- bevosita yoki bilvosita mulk egasi hisoblanadigan yoki terroristik faoliyatni amalga oshiradigan yoki amalga oshirishda gumon qilinayotgan tashkilotni nazorat qiladigan yuridik yoki jismoniy shaxs ekanligi;

- terroristik faoliyatni amalga oshiradigan yoki amalga oshirishda gumon qilinayotgan jismoniy shaxs yoki tashkilotlarga tegishli yoki uning nazorati ostida bo'lgan yuridik shaxs ekanligi.

Ushbu hollarda pul mablag'larining pochta o'tkazmalarini qabul qilishni amalga oshirayotgan hududiy tashkilotlar, pochta aloqasi obyektlari pul o'tkazmalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni to'xtatishlari va maxsus vakolatga ega davlat organiga xabar berishlari shart.

Kerakli tekshiruv jarayonida olingan axborot asosida, faoliyat turini va pul o'tkazmalari bilan amalga oshiriladigan operatsiya turini hisobga olgan holda foydalanuvchiga jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va TMga qarshi kurashish maqsadida operatsiyani amalga oshirish xavfining tegishli darajasi (yuqori yoki past) beriladi.

Yuqori darajali xavf toifasiga dastlab quyidagi mezonlarga javob beradigan foydalanuvchilar kiradi:

- 1) terroristik faoliyatda ishtirok etishi yoxud terroristik faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar nazorati ostida bo'lganligi yoxud bevosita yoki bilvosita terroristik faoliyatni amalga oshiruvchi yoki amalga oshirishda gumon qilinayotgan tashkilotning egasi yoki nazorat qiladigan shaxs hisoblanishi to'g'risida ma'lumotlar bo'lgan shaxslar;

2) jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va TMga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlikda qatnashmaydigan davlatda (hududida) yoxud offshor zonada doimo yashaydigan, turadigan yoki ro'yxatga olingan shaxslar;

3) offshor zonalarda hisob raqamlariga ega rezidentlar va norezidentlar;

4) haqiqiy turar joyi ta'sis hujjatlari va ro'yxatga olingan hujjatlardagi ma'lumotlarga to'g'ri kelmaydigan tashkilotlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;

5) faoliyat davri moliyaviy yilning bir choragidan oshmaydigan tashkilotlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;

6) haqiqiy egasi 1-sanoqda ko'rsatilgan shaxs bo'lgan tashkilotlar;

7) muntazam asosda (uch oy mobaynida ketma-ket ikki martadan ortiq) shubhali operatsiyalarni amalga oshiruvchi foydalanuvchilar.

Xavfning yuqori darajasi belgilanganda ichki nazoratni amalga oshirish uchun javobgar bo'lgan shaxslar foydalanuvchini kerakli tarzda tekshirish uchun qat'iy choralar ko'rishlari va ular tomonidan bajariladigan operatsiyalarning doimiy monitoringini amalga oshirishlari kerak.

Agar foydalanuvchi xavfning yuqori darajasiga kiritilmagan bo'lsa, unda bu foydalanuvchilar xavfning past darajasiga ega foydalanuvchilar toifasiga kiradilar.

Pul mablag'lari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar to'g'risidagi axborot, shuningdek, mijozlarni kerakli tarzda tekshirish bo'yicha identifikatsion ma'lumotlar va materiallar qonun hujjatlarida belgilangan muddatlar davomida, lekin bunday operatsiyalar amalga oshirilganidan yoki foydalanuvchi bilan xizmatga oid munosabatlar to'xtatilganidan so'ng besh yildan kam bo'lmagan muddat davomida saqlanadi.

Nazorat savollari

1. «Jinoiy faoliyatdan olingan foydalarni legallashtirish» tushunchasini ochib bering.

2. Jinoiy faoliyatdan olingan foydalarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qilishga ko'ra maxsus vakolatli davlat organining vazifalari qanday?

3. Pochta aloqasi korxonalarida jinoiy faoliyatdan olingan foydalarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazoratni tashkil etish tartibi qanday?

4. Qanday operatsiyalar nazorat qilinishi shart?

5. Foydalanuvchilarni yuqori ehtimoliy xavf darajasi toifalariga kiritish mezonlari qanday?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бутенко Б., Черненко Э. Н., Жаворонков А. Д., Лазарев В. В. Почтовая безопасность. Справочное пособие для почтовых работников и специалистов почтовой безопасности. — М., 1998.

2. Бутенко Б., Чебульский Б., Коршунов В., Савина В., Федотов С. и др. Почтовая безопасность. Учебное пособие для специалистов почтовой безопасности. — М.: РУССЛИТ, 1997.

3. Караманянц Б., Поляков В., Черненко В., Савина В., Федотов С. и др. Почтовая безопасность. Учебное пособие для почтовых работников служб почтовой безопасности. — М.: РУССЛИТ, 1995.

4. RH 45-166:2004 «O‘zbekiston poch-tasi» ochiq aksiyadorlik jamiyati tizimidagi hududiy (viloyat) tashkilotlari, Xalqaro poch-tamt, pochta aloqasi obyektlarining texnikaviy mustahkamligi va yong‘indan muhofazalash signalizatsiyasi vositalari bilan jihozlanishi bo‘yicha qoidalar. O‘zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligining 2004-yil 30-iyuldagi 238-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

5. O‘zbekiston Pochta va telekommunikatsiyalar agentligining pochta aloqasi bo‘yicha ekspluatatsiya korxonalarida kassa operatsiyalarini yuritish qoidalari. O‘zbekiston Respublikasi Pochta va telekommunikatsiyalar agentligining 2000-yil 20-martdagi 108-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000-yil 1-martda 904-son bilan ro‘yxatga olingan.

6. Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini yuritish qoidalari. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 1998-yil 24-yanvardagi buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998-yil 17-dekabrda 565-son bilan ro‘yxatga olingan.

7. Temir yo‘llarda pochtani tashish va pochta vagonlarini ekspluatatsiya qilish qoidalari. «O‘zdavtemiryo‘lnazorat» inspeksiyasining 2006-yil 17-iyuldagi GI 1/6-7-16-son va O‘zAAAning 2006-yil 17-iyuldagi 01-8/2319-son qarori bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006-yil 16-avgustda 1613-son bilan ro‘yxatga olingan.

8. «O‘zbekiston pochtasi» Davlat aksiyadorlik kompaniyasi va «O‘zbekiston havo yo‘llari» Milliy aviakompaniyasining havo kemalari bilan pochtani tashish qoidalari. «O‘zbekiston pochtasi» ochiq aksiyadorlik jamiyati va «O‘zbekiston havo yo‘llari» Milliy aviakompaniyasining 2003-yil 4-dekabrdagi 193-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

9. KSt 01-07:2006 Magistral pochta yo‘nalishlari bo‘yicha pochta jo‘natmalarini plomba ostida tashish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma. «O‘zbekiston pochtasi» ochiq aksiyadorlik jamiyatining 2006-yil 2-maydagi 137-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

10. Q 044:2002 Pochta qoidalari. O‘zbekiston Aloqa va axborot-lashtirish agentligining 2002-yil 21-oktabrdagi 127-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

11. RH 45-135:2004 Pochta jo‘natmalari va buyumlarining pochta xavfsizligi buyumi uchun nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma. O‘zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligining 2004-yil 20-dekabrdagi 422-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

12. *Слуцкий И.И., Михайлов С.Д., Базыкин В.В.* Техника почтовой связи. — М.: «Радио и связь», 1981.

13. *Щербаков А. Ю.* Современная компьютерная безопасность. Теоретические основы. Практические аспекты. — М.: «Книжный мир», 2009.

14. *Азаров Э.Н.* Добро пожаловат или посторонним вход воспрещен // Скрытая камера, 2003.

15. *Стасенко Л.Г.* СКУД — с чего начать? // Все о вашей безопасности. 2003.

16. *Трошев А.В.* СКУД. Защита информации // Конфидент. 2002.

17. Pochta aloqasi operatorlari, provayderlari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari. O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligining va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining 2009-yil 13-oktabrdagi 10-8/4270, 33-09-son qarori bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 3-noyabrda 2032-son bilan ro'yxatga olingan.

MUNDARIJA

KIRISH	3
---------------------	---

1-BOB. KORXONA XAVFSIZLIGI

1.1.Xavfni baholash metodlari va prinsiplari.....	12
1.2. Binolar va inshootlar xavfsizligi.....	17
1.3. Korxonalar tashqi perimetrining xavfsizligi bo'yicha talablar.....	24
1.4. Pochta aloqasi obyektlari hududlarining to'siqlarini jihozlash.....	25
1.5. Pochta aloqasi obyektlariga olib boruvchi yo'llar.....	26
1.6. Himoyaviy yoritish.....	26
1.7. Eshiklar va qulflar.....	27
1.8. Derazalar.....	28
1.9. Tom tomonidan xavfsizlik.....	29
1.10. Tashrif buyuruvchilar bilan ishlash uchun mo'ljallangan ish tuynuklari.....	30
1.11. Pochta aloqasi xonalariga qo'yiladigan talablar.....	30
1.12. Signalizatsiya.....	37
1.13. Pochta aloqasi obyektlarining texnik mustahkamlanganligini pasportlashtirish va istiqbolli rejalashtirish.....	40
1.14. Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda pochta aloqasi obyektlarida tezkor navbatchilikni tashkil qilish va xabardor qilish tartibi.....	40

**2-BOB. POCHTA JO‘NATMALARINI POCHTA
XAVFSIZLIGI PREDMETIGA NAZORAT QILISH
SHAKLLARI VA METODLARI**

2.1. Skrining ta’riflanishi. Pochta jo‘natmalarida xavfli buyumlar va moddalarni jo‘natishning tipik holatlari.....	44
2.2. Ko‘zdan kechirish nazoratini amalga oshirish.....	55
2.3. Rentgen texnikasini qo‘llagan holda nazoratni amalga oshirish.....	57
2.4. Dozimetrni qo‘llagan holda nazoratni amalga oshirish.....	60
2.5. Gaz analizatorini qo‘llagan holda nazoratni amalga oshirish.....	62
2.6. Metall detektorini qo‘llagan holda nazoratni amalga oshirish.....	66
2.7. Nazoratdan o‘tgan pochta jo‘natmalarini rasmiylashtirish va ularni keyingi pochta ishloviga uzatish.....	69
2.8. Tarkibida jo‘natilishi taqiqlangan moddalar, buyumlar mavjudligining aniqlangan belgilariga ega pochta jo‘natmalarini ajratish.....	70
2.9. Nazoratni amalga oshirishdagi xavfsizlik texnikasi.....	73

**3-BOB. POCHTA JO‘NATMALARI VA PUL MABLAG‘LARINING
SAQLANISHINI TA’MINLASH**

3.1. Tashishlarda pochtni kuzatish va qo‘riqlash.....	79
3.1.1. Umumiy qoidalar.....	79
3.1.2. Pochtni kuzatish va qo‘riqlashni tashkil etish.....	81
3.1.3. Pochtni jo‘natish va almashish uchun javobgar bo‘lgan shaxslarning majburiyatlari.....	83
3.1.4. Kuzatuvchining majburiyatlari, huquqlari va javobgarligi.....	85

3.1.5. FV yuzaga kelish xavfi bo'lganda kuzatuvchining xatti-harakatlari.....	92
3.2. Tashishda pochta jo'natmalarining saqlanishini ta'minlash.....	93
3.2.1. Tashishda pochta jo'natmalarining saqlanishini ta'minlashga qo'yiladigan umumiy talablar.....	93
3.2.2. Pochta avtomashinalarini plombalash va plombalar butunligini tekshirish.....	98
3.2.3. Muhr (plomba)ning butunligi buzilganda aloqa xodimlarining xatti-harakatlari.....	98
3.3. Pochta jo'natmalari saqlanishining nazoratini o'tkazish shakllari va metodlari.....	101
3.3.1. Belgi qo'yuvchi vositadan foydalangan holda tekshiruv tadbirlarini o'tkazish.....	101
3.3.2. Tadbirni tayyorlash va o'tkazish.....	104
3.3.3. Nazorat pochta jo'natmasidagi belgilarni o'rganish.....	106
3.3.4. Nazorat jo'natmalari.....	107
3.3.5. Ko'zdan kechirish nazorati pochta jo'natmalari, pul mablag'lari va moddiy boyliklarining yo'qolishi va o'g'irlanishi bilan bog'liq vazifalarni hal etishda pochta xavfsizligi bo'linmalari faoliyatining metodi sifati.....	111
3.4. Pul mablag'larining saqlanishi.....	114
3.4.1. Qalbakilashtirilgan pochta to'lovi belgilarini aniqlash.....	118
3.4.2. Pul mablag'larini tashishda xavfsizlik prinsiplari.....	123
3.4.3. Naqd pul mablag'larini pochta aloqasi obyektlarida saqlash tartibi.....	127
3.4.4. Yetkazib berish uchastkalarini pochta xavfsizligi nuqtayi nazaridan baholash.....	131
3.4.4.1. Umumiy qoidalar.....	131
3.4.4.2. Yetkazib berish uchastkalarini baholash.....	132
3.4.4.3. «Xavfli» yetkazib berish uchastkasida xavfsizlik choralari ta'minlash bo'yicha tashkiliy tadbirlar.....	133

4-BOB. POCHTA TRANSPORTINING JIHOZLANISHIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

4.1. Transport vositalariga qo'yiladigan talablar.....	137
4.2. Transport vositalarining jihozlanishiga qo'yiladigan talablar.....	138

5-BOB. NAZORAT-O'TKAZISH REJIMINI TASHKIL QILISH

5.1. Nazorat-o'tkazish rejimining maqsadlari va vazifalari.....	141
5.2. Nazorat-o'tkazish rejimini ishlab chiqish uchun dastlabki ma'lumotlarni ishlab chiqish.....	144
5.3. O'tkazish rejimi to'g'risidagi yo'riqnomani ishlab chiqish.....	147
5.4. Ruxsatnomalar turlari.....	149
5.5. Nazorat-o'tkazish punktining jihozlanishi.....	152
5.6. Korxonaga kirishni nazorat qilish va boshqarish tizimini tashkil qilish.....	159
5.7. Xodimlar, tashrif buyuruvchilarni obyektga va alohida (toifalashtirilgan) xonalarga o'tkazish.....	166
5.8. Korxona hududiga transport vositalarini qo'yish, moddiy boyliklarni olib chiqish.....	168
5.9. Nazorat-o'tkazish rejimi sohasidagi qoidabuzarliklarni hujjatlashtirish tartibi.....	171

6-BOB. POCHTA XAVFSIZLIGI BO'LINMALARI FAOLIYATINING SHAKLI SIFATIDA XIZMATGA OID TEKSHIRUV

6.1. Xizmatga oid tekshiruvlarni o'tkazishning umumiy qoidalari.....	173
6.2. Ashyoviy dalillarni tahlil qilish.....	178

6.3. Pochta jo‘natmalarini ruxsatsiz ochish belgilari.....	179
6.3.1. O‘rganilayotgan obyektlar yoki ular alohida qismlarining tashqi holatini tavsiflovchi belgilar guruhi.....	179
6.3.2. Tekshirilayotgan obyekt yopiq qismlarining (tashqi ko‘rinmaydigan) holatini tavsiflovchi belgilar guruhi.....	198
6.4. Pochta to‘lovining qalbaki belgilarini aniqlash.....	225
6.5. Tekshiruv chora-tadbirlari.....	230
6.6. Pochta jo‘natmalarini yo‘qolish va o‘g‘irlash faktlari bo‘yicha xizmatga oid tekshiruvlarni o‘tkazish.....	234
6.7. Posilkalar, shuningdek, ulardagi joylanmalar qismini o‘g‘irlash, yo‘qolish, kamomadi holatlarini tekshirish xususiyatlari.....	242
6.8. Sug‘urtali qoplarning yo‘qolishi va/yoki ular qismining kamomadi holatlarini tekshirish xususiyatlari.....	246
6.9. Pul mablag‘larining kamomadi va o‘g‘irlanishining tekshiruv xususiyatlari.....	248
6.10 Tekshiruv materiallarini rasmiylashtirish.....	256

7-BOB. XAVFLI POCHTA JO‘NATMALARINI JO‘NATISH BILAN BOG‘LIQ TERRORIZM AKTLARINING OLDINI OLISH CHORALARI

7.1. Pochta jo‘natmalaridagi portlatish qurilmalarini aniqlash usullari.....	259
7.2. Terroristlar tomonidan biologik (bakteriologik) vositalar, kimyoviy va radioaktiv moddalarning qo‘llanishi va ularni tasniflash.....	262
7.3. Pochta xavfsizligi bo‘yicha o‘qitish va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish.....	264
7.4. Fuqarolik muhofazasi bo‘yicha mashg‘ulotlar va mashqlar o‘tkazish.....	269

**8-BOB. JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI
LEGALLASHTIRISHGA VA TERRORIZMNI
MOLIYALASHTIRISHGA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA
ICHKI NAZORATNI AMALGA OSHIRISH**

8.1. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar.....	277
8.2. Pochta aloqasi korxonalarida ichki nazoratni tashkil etish.....	284
8.3. Majburiy nazorat qilinishi kerak bo'lgan operatsiyalarni aniqlash tartibi.....	287
Foydalanilgan adabiyotlar.....	294

**GUZALIYA SALIXZYANOVNA ABDULAZIZOVA
A'ZAM ABDUSAIDOVICH ABDULAZIZOV**

POCHTA XIZMATI XAVFSIZLIGI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

Muharrir *I. Usmonov*
Badiiy muharrir *M. Burxonov*
Texnik muharrir *F. Samadov*
Musahhih *T. Mirzayev*

Nashriyot litsenziyasi №AI 275, 15.07.2015-y.
2015-yil 30-dekabrda chop etishga ruxsat berildi.
Bichimi 60×90¹/₁₆. «Times» harfida terilib, ofset usulida chop etildi.
Bosma tabog'i 19,0. Nashr tabog'i 18,0. 384 nusxa.
Buyurtma № 30

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

«PAPER MAX» xususiy korxonasida chop etildi.
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

A15 Abdulazizova G. S., Abdulazizov A. A.

Pochta xizmati xavfsizligi: Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma / G.S. Abdulazizova: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. — Toshkent: «ILM ZIYO», 2015. — 304 b.

UO'K: 656.801(075)

KBK: 65.38

ISBN 978-9943-16-220-4